JOURNALS & BOOKS
ACADEMIC SCIENCE PUBLISHING

ARP
Academic research publisher

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE

MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: INTERDISCIPLINARY SOLUTIONS TO GLOBAL CHALLENGES

CONFERENCE PROCEEDINGS

October 9, 2026



Google Scholar | zenodo | OpenAIRE

academscience.com

Academic Research Publisher (United Kingdom)

UniScience journal (Republic of Uzbekistan)

Hamroh books (Uzbekistan)

****

MATERIALS

The international scientific-practical conference

«MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: INTERDISCIPLINARY SOLUTIONS TO GLOBAL CHALLENGES»

Tashkent, London

October 9, 2026

****

Modern scientific research: interdisciplinary solutions to global challenges // Materials International Scientific-Practical Conference. Tashkent-London. October 9, 2026.

Editorial board of the conference

Temnova L.V. - DSc, Professor (Moscow, Russia); **Sagatbayev Y.N.** - PhD, professor (Astana, Kazakhstan); **Duyshenaliev CH.D.** - DSc, Professor (Bishkek, Kyrgyzstan); **Pashkov S.V.** - PhD, professor (Petropavlovsk, Kazakhstan); **Khakimov K.A.** - PhD, docent (Tashkent, Uzbekistan); **Melekoglu M.** - DSc, professor (Eskisehir, Turkey); Jurayev J. - PhD, docent (Samarkand, Uzbekistan); Azimov S. -PhD, docent (Tashkent, Uzbekistan); Shonazarov J. -PhD, docent (Qarshi, Uzbekistan); Gapparov B. - Docent, (Jizzakh, Uzbekistan); Qo‘shayev T. - Teacher, (Termiz, Uzbekistan); Arifxodjayeva L. - Teacher, (Tashkent, Uzbekstan)

The event aims to discuss contemporary research across various scientific fields, exchange new scientific ideas, and support scientific activities aligned with global innovative processes.

Within the conference framework, scientists, researchers, young scholars, and practicing specialists will have the opportunity to present their research findings, exchange scientific ideas, and expand international collaboration.

The main objective of this International Scientific-Practical Conference is to consolidate the results of contemporary research across various scientific fields and strengthen the integration of science and practice through advanced scientific approaches.

**The authors are responsible for the content of the articles, the information, facts, and figures presented therein.*

The proceedings of the International Scientific-Practical Conference have been discussed by the Scientific-Technical Council of the international publisher „**ACADEMIC SCIENCE PUBLISHING“** and recommended for publication (**October 07**, 2026, Protocol No. **41**).

CONTENTS

1. FUNDAMENTAL AND NATURAL SCIENCES 13

TARKIBIDA KREMNIY SAQLAGAN BIOMODIFIKATORLAR OLISH VA ULARNI TADQIQ ETISH 14

TURLI TUPROQ NAMUNALARDAN BAKTERIYALARNI AJRATIB OLISH USULLARI VA TUPROQ BAKTERIYALARINI EKISH METODIKASI..... 18

Fe(II)–TRIAZOL KOMPLEKSLARI ASOSIDA XITOZAN–KOLLAGEN PLYONKALARGA TERMOXROM XUSUSIYAT BERISH ISTIQBOLLARI . 24

ДИНАМИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА КВАДРАТИЧНЫХ ГОМЕОМОРФИЗМОВ СИМПЛЕКСА..... 28

ИНТЕГРИРОВАНИЕ УРАВНЕНИЯ ТИПА КОРТЕВЕГА ДЕ ФРИЗА В КЛАССЕ ПЕРИОДИЧЕСКИХ ФУНКЦИЙ 37

ОБ ИНТЕГРИРОВАНИИ ОДНОГО НАГРУЖЕННОГО УРАВНЕНИЯ КОРТЕВЕГА-ДЕ ФРИЗА В КЛАССЕ ПЕРИОДИЧЕСКИХ ФУНКЦИЙ..... 45

2. ENGINEERING AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES 47

CHAQIQTOSH MASTIKALI ASFALTBETON KOMPONENTLARINI TANLASH VA ULARNING QORISHMA XOSSALARIGA TA’SIRI 48

ASFALTBETON QOPLAMALI AVTOMOBIL YO‘LLARIDAGI MUAMMOLAR VA QOPLAMA CHIDAMLILIGINI OSHIRISH YO‘LLARI . 57

ENERGY-EFFICIENT DRINKING WATER PURIFICATION BY FORWARD OSMOSIS USING NATURAL POLYMER-BASED BIO-MEMBRANES..... 64

NUMERICAL SIMULATION OF SEDIMENT TRANSPORT AND DEPOSITION IN IRRIGATION CANALS UNDER UNSTEADY FLOW CONDITIONS 67

NUMERICAL MODELING OF FLOW HYDRAULICS AND EROSION PROCESSES IN COHESIVE-SOIL IRRIGATION CANALS 74

POLIFUNKSIONAL BINAR MIKROTO‘LDIRGICHLARNI QO‘LLAB BETONLARNI MODIFIKATSIYALASH 80

BINAR MIKROTO‘LDIRGICHLI BETONLARDA SUV-BOG‘LOVCHI NISBATINING RUXSAT ETILGAN CHEGARASI VA KLINKER SARFINI GIDRAVLIK MEZON ASOSIDA ASOSLASH 90

QUYOSH ENERGIYASIDAN FOYDALANIB NAMLATIB-BUG‘LATISH USULIDA SHO‘R SUVNI CHUCHUCHITISH TEXNOLOGIYASI..... 94

QUYOSH QURITGICHLARINING ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ISSIQLIK ENERGIYASINI SAQLASH TIZIMLARIDAN FOYDALANISH 98

RESULTS OF NUMERICAL STUDIES ON MODELING SOLAR WATER HEATING SYSTEMS 102

ASINXRON ELEKTROPRIVODLARNING TEXNIK HOLATINI VIBRATSIYA SIGNALLARI ASOSIDA INTELLEKTUAL DIAGNOSTIKALASH USULI 107

NANOMETALL MATRITSALI KOMPOZITSION MATERIALLARDAGI TERMIK VA BUKILISH MUSTAHKAMLIGI XOSSALARINI TADQIQ QILISH 113

YUK VA YO‘LOVCHI VAGONLARINI MODERNIZATSIYA QILISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA ENERGIYA SAMARADORLIGI 116

YUK VA YO‘LOVCHI VAGONLARI KONSTRUKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI 119

YUK VA YO‘LOVCHI VAGONLARI KONSTRUKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING ISTIQBOLLI YO‘NALISHLARI VA METODOLOGIK ASOSLARI 122

AYLANMA SHAROSHKALI BURG’ILASHDA SHTANGA UZUNLIGINI QUDUQ CHUQURLIGIGA MOSLASH: YORDAMCHI VAQT VA SMENALIK UNUMDORLIKKA TA’SIRI 125

EKSKAVATOR STRELASI UCHUN PO’LAT TANLASH: KAM LEGIRLANGAN PO’LATNING STATIK USTUNLIGI VA UNING CHARCHASH MEZONIDA KAMAYISHI (St.3 VA 10XSND MISOLIDA) .. 130

EKG TURIDAGI KARYER EKSKAVATORLARI ASOSIY PARAMETRLARINING CHO’MICH SIG’IMIGA BOG’LIQLIGI: DARSLIK FORMULALARINI ZAVOD MA’LUMOTLARI BILAN TEKSHIRISH 141

ГИДРОДИНАМИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ НА ОСНОВЕ УРАВНЕНИЙ НАВЬЕ–СТОКСА: ОТ КОСМИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ К ПУЛЬПОПРОВОДУ И НАСОСУ ГОРНО-ОБОГАТИТЕЛЬНОГО ПРОИЗВОДСТВА 145

GIDROTEXNIKA INSHOOTLARI UCHUN BETON TARKIBINI TANLASH: MUSTAHKAMLIK, CHIDAMLILIK VA QURILISH TEXNOLOGIYASI MEZONLARI 156

GRUNT TO‘G‘ONLARDA FILTRATSIYA OQIMINI VA ICHKI EROZIYA XAVFINI BIRGALIKDA BAHOLASH 167

ROBOTOTEXNIK TIZIMLARDAGI AXBOROT QURILMALARINI KOMPYUTER YORDAMIDA LOYIHALASHNING ZAMONAVIY USULLARI 178

3. ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND DIGITAL TECHNOLOGIES 189

SUN'IY INTELLEKTNING TURIZM RIVOJLANISHIGA TA'SIRI: IMKONYATLAR VA MUAMMOLAR 190

ASIMMETRIK KRIPTOTIZIMLARDA AXBOROTNI SHIFRLASH USULI VA ALGORITMLARNI TAHLIL QILISH 194

BADIIY MATNDA MUALLIF IDIOSTILINI ANIQLASHNING SUN'IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN MODELI: ROALD DAHLNING "THE WITCHES" ASARI MISOLIDA 197

KO'ZI OJIZ INSONLAR UCHUN SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA AQLLI NAVIGATSIYA TIZIMINI ISHLAB CHIQISH 204

REAL-TIME ACCIDENT DETECTION AND RECOGNITION USING ROADSIDE UNITS IN INTELLIGENT TRANSPORTATION SYSTEMS 211

SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TALABALARNING O'QUV FAOLIYATINI MODELLASHTIRISH 221

AXBOROT XAVFSIZLIGI MUAMMOLARI VA ULARNI OLDINI OLISH USULLARI 227

MUHIM AXBOROT INFRATUZILMASINI TASNIFLASHDA KO'P MEZONLI BAHOLASH YONDASHUVINING AFZALLIKLARI 233

4. GEOGRAPHY AND GEOSPATIAL RESEARCH 235

O'ZBEKISTONNING SEYSMIK XAVFI VA KECHGAN ZILZILALARNI (TOSHKENT VA GAZLI) QISQACHA TAVSIFI 236

O'ZBEKISTON TOG' YONBAG'IRLARIDAGI XAVFLI JARAYONLAR (SEL VA SURILMA) QISQACHA TAHLILI 242

5. ECOLOGY AND CLIMATE CHANGE 248

SHO'RLANISH VA CHO'LLANISH: OROLBO'YI MISOLIDA ANTROPOGEN JARAYONLAR 249

6. AGRICULTURE AND FOOD SECURITY 255

YASMIQNING HOSILDORLIGIGA EKISH MUDDATLARINING TA'SIRI 256

QISHLOQ XO'JALIGIDA YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARINI JORIY ETISH ORQALI BARQAROR RIVOJLANISHGA ERISHISH 260

THE HONEYBEES VERSUS WILD BEES IN CROP POLLINATION: A LITERATURE REVIEW 268

7. MEDICINE, PHARMACY AND PUBLIC HEALTH 271

18β-GLITSIRRETAT KISLOTASINING C-3 VA C-30 REAKSION MARKAZLARI BO'YICHA ZAMONAVIY MODIFIKATSIYALARI HAMDA ULARNING SAR-TAHLILI 272

NANOMATERIALLARNING TOKSIKOLOGIK XUSUSIYATLARI VA BIOLOGIK XAVFSIZLIGI 278

FUNCTIONAL ENDOSCOPIC SINUS SURGERY IN CHILDREN WITH CHRONIC RHINOSINUSITIS: A REVIEW OF CLINICAL EFFICACY AND SAFETY 281

FEATURES OF THE MORPHOLOGICAL FORMATION OF BLOOD VESSELS UNDER THE INFLUENCE OF GLUCOCORTICOSTEROIDS IN THE VESSELS OF THE FEMORAL HEAD IN AN EXPERIMENTAL STUDY 283

SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMINI BOSHQARISHNING JAMIYAT SALOMATLIGINI TA’MINLASHDAGI O‘RNI 289

ПРИВЫЧНОЕ НЕВЫНАШИВАНИЕ БЕРЕМЕННОСТИ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ДИАГНОСТИКЕ И ЛЕЧЕНИЮ 294

MATHEMATICAL MODEL FOR BLEEDING RISK STRATIFICATION IN HP-ASSOCIATED NSAID GASTROPATHY IN PATIENTS WITH ISCHEMIC HEART DISEASE 302

PLASMODIUM (HAEMOSPORIDA; PLASMODIIDAE) AVLODIGA MANSUB BEZGAK QO‘ZG‘ATUVCHILARINING BIOLOGIK XUSUSIYATLARI VA HAYOT SIKLI 309

ОПТИМИЗАЦИЯ ОБЩЕЙ АНЕСТЕЗИИ И ВОЛЕМИЧЕСКОЙ НАГРУЗКИ ПРИ КРАНИОТОМИЯХ ПО ПОВОДУ ОПУХОЛЕЙ ГОЛОВНОГО МОЗГА У ДЕТЕЙ 315

ПОСЛЕОПЕРАЦИОННЫЙ ДЕЛИРИЙ У ДЕТЕЙ С ВРОЖДЁННЫМИ ПОРОКАМИ СЕРДЦА, ПЕРЕНЁСШИХ УРОЛОГИЧЕСКИЕ ОПЕРАЦИИ 319

8. ECONOMICS, MANAGEMENT AND TOURISM 321

XORAZM VILOYATINING TURIZM RESURSLARI VA ULARNING XALQARO BOZORDAGI O‘RNI 322

TURIZM SOHASIDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI 332

CREDIT POLICY IN COMMERCIAL BANKS AND FACTORS OF ITS FORMATION 340

HUDUDIY IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLINI OSHIRISH YO‘LLARI 344

YASHIL INVESTITSIYALARNING TARMOQ-FUNKTSIONAL GURUHLANISHI: BARQARORLIK CHEKLOVLARIGA ASOSLANGAN YONDASHUV 350

INCOME INEQUALITY AND SOCIAL STABILITY 356

IQTISODIYOT, MENEJMENT VA TURIZMNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI 360

OPEN BANKING UNDER UZBEKISTAN'S FINTECH STRATEGY 2026-2030: A FIVE-STAGE FRAMEWORK FOR SECURE API DATA EXCHANGE 365

HUDUDLARDA INVESTITSIYA MUHITINI YAXSHILASHNING ASOSIY OMILLARI 372

ECONOMETRIC ASSESSMENT OF DIGITAL COMPETITIVENESS AND OPERATIONAL EFFICIENCY OF COMMERCIAL BANKS 378

EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH ORQALI O‘ZBEKISTONDAGI TABIIY HUDUDLARNING TURISTIK JOZIBADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 384

XORAZM VILOYATIDA ICHKI TURIZMNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK YO‘NALISHLARI 388

INSTITUTIONAL AND ECONOMIC MECHANISMS FOR DEVELOPING GREEN PUBLIC PROCUREMENT IN UZBEKISTAN 392

O‘ZBEKISTONDA INVESTITSION XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH ASOSLARI 399

INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA MA’LUMOTLARGA ASOSLANGAN QARORLAR QABUL QILISHNING AHAMIYATI 404

УПРАВЛЕНИЕ ВЫГОДАМИ ПРОЕКТА КАК МЕХАНИЗМ ПЕРЕХОДА ОТ ОСВОЕНИЯ БЮДЖЕТА К СОЗДАНИЮ ЦЕННОСТИ 409

ГИБРИДНАЯ МОДЕЛЬ УПРАВЛЕНИЯ ПРОЕКТАМИ КАК ИНСТРУМЕНТ СНИЖЕНИЯ СТОИМОСТИ ИЗМЕНЕНИЙ В ПРОЕКТАХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ 414

PLASTIK KARTALAR - ZAMONAVIY TO’LOV TIZIMINING MUHIM ELEMENTI 419

O‘ZBEKISTONDA XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBINI DIVERSIFIKATSIYALASHNING IQTISODIY IMKONIYATLARI 424

9. EDUCATION, PEDAGOGY, PSYCHOLOGY AND PHILOLOGY 435

TA’LIM JARAYONIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH VA ULARNI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR BILAN INTEGRATSIYALASH..... 436

XORIJIY IJTIMOIY-EMOTSIONAL TA’LIM DASTURLARI TAJRIBASIDAN BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI..... 440

P. FREIRENING TANQIDIY PEDAGOGIKA KONSEPSIYASI VA UNING INGLIZ TILI TA’LIMIDAGI METODIK IMKONIYATLARI 446

YOSHLARNING IJTIMOIY MOSLASHUVIDA IJTIMOIY PEDAGOGNING O‘RNI..... 452

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI KASBIY TAYYORLASHDA METAKOGNITIV STRATEGIYALARNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI..... 456

O‘QUVCHILARNING O‘QUV MATERIALINI O‘ZLASHTIRISHIDAGI QIYINCHILIKLARNI BARTARAF ETISHDA VITAGEN TA’LIM TEXNOLOGIYASINING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI 461

HARBIY AVIATSIYA MUTAXASSISLARINI TAYYORLASH UCHUN HARBIY KADRLARNI O‘QITUVCHI SIFATIDA QAYTA TAYYORLASHNING DOLZARBLIGI..... 466

A COMPARATIVE ANALYSIS OF GENDER IN GERMAN AND RUSSIAN LANGUAGES 478

XALQARO VA MADANIYATLARARO TA’LIM MUHITINI SHAKLLANTIRISH: PEDAGOGIK YONDASHUVLAR VA AMALIY YO‘LLAR 481

THE MOTIF OF POSSESSION IN A. S. BYATT’S *POSSESSION*..... 485

CULTURAL MEMORY IN A.S.BYATT’S *POSSESSION*: RECONSTRUCTING THE VICTORIAN PAST THROUGH LETTERS AND MANUSCRIPTS 489

JADID MA’RIFATARVARLARINING TA’LIMGA OID QARASHLARI VA ULARNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK JARAYONDAGI AHAMIYATI.. 497

TANQIDIY TINGLASH VA GAPIRISH MASHQLARI ORQALI O‘QUVCHILARNING TANQIDIY FIKRLASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI 501

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI TABIAT HODISASI ASOSIDA SHAKLLANGAN TOPISHMOQLARNING CHOG‘ISHTIRMA TADQIQI ... 507

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI GAZETA SARLAVHALARIDA GIPONIMIK IYERARXIYA: QIYOSIY-LINGVISTIK TAHLIL 514

TALABALARNING ILMIY TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI 520

ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH ORQALI IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASH 525

VALDORF PEDAGOGIKASI ASOSIDA INGLIZ TILINI O‘QITISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 528

GLOBAL MUAMMOLARDA TILNI SOF SAQLASH, O‘ZLASHMA SO‘ZLAR TADQIQI A.AVLONIYNING “TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ” ASARI MISOLIDA 536

BALANCING THE ROLES OF TEACHERS AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN HIGHER EDUCATION: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES OF AI INTEGRATION 540

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA UY RO‘ZG‘OR BUYUMLARI NOMLARINING CHOG‘ISHTIRMA TADQIQI 545

COMPARATIVE-TYPOLOGICAL STUDY OF SYNTAGMATIC STRUCTURES OF PALINDROMES IN UZBEK AND ENGLISH 550

TALABALARNING AKADEMIK FAOLIYATIDA MOTIVATSION DETERMINANTLARNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI 555

OILADA MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI 560

TRANSLATING UZBEK IDIOMS INTO ENGLISH: A CORPUS-BASED COMPARATIVE ANALYSIS OF AI-GENERATED AND HUMAN TRANSLATION 566

SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA MILLIY KOLORITNING ETNOMADANIY IFODASI 577

KASB-HUNAR LEKSIKASINING SINXRON TADQIQI 583

МОДЕЛЬ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО МАРКЕТИНГОВОГО УПРАВЛЕНИЯ ДОШКОЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИЕЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ 592

ПОВЫШЕНИЕ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ В СИСТЕМЕ ОБЩЕГО СРЕДНЕГО ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА 596

ВЛИЯНИЕ МЕЖЪЯЗЫКОВОЙ ИНТЕРФЕРЕНЦИИ НА РЕЧЕВОЕ РАЗВИТИЕ ДОШКОЛЬНИКОВ-БИЛИНГВОВ 602

COMPARATIVE-SEMANTIC ANALYSIS OF PHRASEOLOGICAL UNITS EXPRESSING GOODNESS AND HONESTY 606

ISAJON SULTONNING “ROBIYA BALXIY” QISSASIDA PORTRETNING BADIIY-ESTETIK FUNKSIYASI 611

10. SOCIAL SCIENCES, HUMANITIES AND LAW 615

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA XORAZM VILOYATIDA YOSHLARNING QISHLOQ XO‘JALIGINISHLARIGA JALB ETILISHI 616

THE RATIO OF RIGHTS AND OBLIGATIONS OF THE STUDENT AND THE FACULTY MEMBER IN SELF-DIRECTED LEARNING RELATIONS 621

CONSTITUTIONAL GUARANTEES OF THE RIGHT TO EDUCATION AT THE HIGHER EDUCATION LEVEL 626

MUNZIMNING BUXORO IJTIMOIY-SIYOSIY HAYOTIDAGI O‘RNI 630

SUDYALARNI TAYINLASH VA SAYLASH MODELLARI 632

BOSHQARUV ORGANLARI FAOLIYATIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASHNING RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI 638

ADOLAT VA ADOLATPARVARLIK TUSHUNCHALARINING IJTIMOIY-FALSAFIY MOHIYATI 643

THE ROLE OF PUBLIC ORGANIZATIONS IN THE PREVENTION OF DELINQUENCY AND ENHANCING LEGAL CULTURE AMONG YOUTH 650

INTERACTION BETWEEN STATE INSTITUTIONS AND CIVIL SOCIETY INSTITUTIONS IN PREVENTING JUVENILE DELINQUENCY AND ENSURING CYBERSECURITY IN THE DIGITAL SOCIETY 656

TA’LIM TIZIMIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHDA FANLARARO YONDASHUV: IJTIMOIY-FALSAFIY, HUQUQIY VA RAQAMLI YECHIMLAR INTEGRATSIYASI 663

O‘ZBEKISTON MUSIQASHUNOSLIGIDA SIMFONIYA JANRINING TADQIQ ETILISH EVOLYUTSIYASI VA ILMIY YONDASHUVLAR 669

JADID ABDULHAMID CHO‘LPON OBRAZI MURAKKAB MUSIQIY-SAHNAVIY ASARDA: (MUHAMMADJON OTAJONOVNING “KUNDUZSIZ KECHALAR” OPERASI MISOLIDA) 674

MARKAZIY OSIYODA TRANSCHEGARAVIY SUV RESURSLARINI BOSHQARISHNING XALQARO-HUQUQIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 678

INTERNET FIRIBGARLIGI JINOYATLARINI TERGOV QILISHDA JABRLANUVCHINI SO‘ROQ QILISHNING KRIMINALISTIK JIHATLARI 682

BALANCING TRADE RESTRICTIONS AND HUMAN RIGHTS PROTECTION UNDER WTO LAW: A COMPARATIVE LEGAL ANALYSIS OF THE EXPERIENCE OF DEVELOPING COUNTRIES 689

“ТИНИҚ ОНГ ВА ХУШЁРЛИК СТРАТЕГИЯСИ”: НАРКОТИКЛАРГА ҚАРШИ КУРАШИШДА ВЕНГРИЯ МОДЕЛИ 694

DADAXO‘JA SOTTIXO‘JAYEV DOIRA IJROCHILIK MAKTABINING O‘ZBEK MUSIQA MADANIYATIGA TA’SIRI 701

1. FUNDAMENTAL AND NATURAL SCIENCES

TARKIBIDA KREMNIY SAQLAGAN BIOMODIFIKATORLAR OLISH VA ULARNI TADQIQ ETISH

Qarshiyev Ma’rufjon Tolipovich
Qarshi davlat universiteti
mqarshiyev033086@gmail.com
Sharifova Nodira Nuraliyevna
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Annotatsiya. *Kraxmal tarkibiga qo‘shilgan moddalar tabiiy manba bo'lib, undan foydalanish kompozitning ekologik xavfsizligini oshiradi. Shuning uchun, bu kompozitlarni an’anaviy plastik materiallarga barqaror alternativa deb hisoblash mumkin. Tadqiqot davomida polietilen, kremniynatriymetasilikat va kraxmalga asoslangan kompozitsiya infraqizil spektroskopiya yordamida o‘rganildi va tahlil qilindi.*

Kalit so‘zlar*: kraxmal, kremniynatriymetasilikat, polietilen, IQ-spektr, bilopogik parshalanish.*

Аннотация. *Вещества, добавляемые в крахмальную композицию, являются природным ресурсом, и их использование повышает экологическую безопасность композита. Поэтому эти композиты можно рассматривать как устойчивую альтернативу традиционным пластиковым материалам. В ходе исследования был изучен и проанализирован с помощью инфракрасной спектроскопии композит на основе полиэтилена, метасиликата натрия-кремния и крахмала.*

Ключевые слова*: крахмал, метасиликат натрия-кремния, полиэтилен, ИК-спектр, бимодальное разложение.*

Abstract. *The additives incorporated into the starch are of natural origin, and their use enhances the environmental safety of the composite. Therefore, these composites can be considered a sustainable alternative to conventional plastic materials. In this study, a composition based on polyethylene, sodium metasilicate, and starch was investigated and analyzed using infrared spectroscopy.*

Keywords: *starch, sodium metasilicate, polyethylene, IR spectrum, biodegradation.*

Kirish. So‘nggi bir necha yil ichida biologik parchalanadigan polimerlar haqida ko‘rsatma olish uchun milliy va xalqaro standartlar va shuning uchun

ularning atrof-muhit uchun toksikligini aniqlash uchun zarur bo‘lgan testlar nashr etilgan. Ushbu keltirilgan ko‘rsatkichlar, to‘rt bosqichni hisobga olish kerak(1-rasm).



1-rasm. Biologik parchalanadigan polimerning parchalanish usullari.

Biologik parchalanadigan materiallar atrof-muhitda mavjud bo‘lgan mikroorganizmlar tomonidan mineralizatsiya qilish uchun mo‘ljallanganligi sababli, ekotizim bilan o‘zaro ta’siri juda muhim bo‘ladi[1].

Shu nuqtai nazardan, har xil turdagi ekotizimlar ishtirok etishini va hisobga olgan holda, qo‘shimcha mahsulotlar chiqindilari birikmalarini ularning atrof-muhit va inson salomatligi uchun toksikologiyasi nuqtai nazaridan qanday aniqlash va tavsiflash mumkinligini yaxshi tushunish juda muhimdir.

Asosiy qismi. So‘nggi o‘n yil ichida biologik parchalanadigan polimerlarga bo‘lgan talab yillik 20-30% ga o‘sdi. Biroq, past ko‘rsatkichlar, yuqori narx va standart materiallarga nisbatan cheklangan qonunchilik e’tibori tufayli bozor ulushi umumiy plastmassa ishlab chiqarishning taxminan 0,1% dan kamrog‘ini tashkil qiladi. Funktsional qo‘shimcha xususiyat sifatida biologik parchalanish ko‘pincha yakuniy iste’molchilar tomonidan to‘liq sezilmaydi. Biroq, qayta tiklanadigan resurslardan foydalanish va neft resurslariga qaramlikni kamaytirish imkoniyati ularning kelajakdagi o‘sishini tezlashtirish uchun turtki bo‘lishi mumkin. Yog‘ o‘simliklari, don va kartoshkadan olingan kraxmal, somon va yog‘ochdan olingan sellyuloza va boshqalar kabi sanoat chiqindilaridan olinadigan qayta tiklanadigan xom-ashyo qazib olinadigan yoqilg‘i xom ashyosini almashtirish uchun kimyoviy vositachilar va polimerlarga aylantirilishi mumkin. Ushbu yangi mahsulotlarni joriy etish barqaror rivojlanishga muhim hissa qo‘shishi mumkin. Biroq, qayta tiklanadigan resurslardan foydalanish va bioplastika ishlab chiqarish atrof-muhitga minimal ta’sir etadi. Ishlab chiqarish jarayoni, shuningdek, ularning texnik ko‘rsatkichlari va yakuniy yo‘q qilinishini diqqat bilan ko‘rib chiqish kerak. Bioplastiklar odatda biologik parchalanadi, ammo kompostlash texnologiyasining tarqalishi ularning rivojlanishi uchun zaruriy shartdir[2]. Atrof-muhitga minimal ta’sir ko‘rsatadigan texnologiyalar bilan arzonroq va yuqori samarali mahsulotlarni

ishlab chiqish uchun sanoat darajasida harakat talab etiladi.

Ushbu tadqiqotda natriy gidroksidi karboksimetil kraxmal (NaKMK), suvda eruvchan natriy metasilikat bilan reaksiya olib borildi va yangi o‘zgartirilgan kremniy natriykarboksimetilkraxmal (Si-NaKMK) sintez qilindi. Hosil qilingan Si-NaKMK haroratga chidamli, toksiklik darajasi va fizik-kimyoviy xususiyatlari o’rganildi. Reaksiya jarayonida ko‘rsatilgandek, kremniyning birikishi ikkita glyukoza birligi o‘rtasida C-Si-C bog‘lanish zanjirini hosil qiladi va yuqori haroratga barqarorligi oshirgan. Sintez uchun olingan reaktivlar: kraxmali va suvda eruvchan natriy metasilikat qo‘shimcha tozalashsiz olingan holda ishlatilgan. Suvli etanol, natriy gidroksid va xlorsirka kislota sintez uchun kerakli reagentlar hisoblanadi.

Si-NaKMK ning xarakteristikasi: Si-NaKMK uch marta etanol eritmasi bilan tozalandi va keyin SHIMADZU, (4000-400 sm^{-1} oralig‘ida) infraqizil spektrometrida Si-NaKMK tuzilishi tahlil qilindi (3-rasm). Modifikatsiyalanmagan kraxmalning infraqizil spektroskopiyasi 2-rasmda keltirilgan. Keltirilgan infraqizil spektroskopiya tahlili natijalarida kraxmal va Si-karboksimetil kraxmalning bir-biridan farq qiladigan yutilish sohalarini ko‘rishimiz mumkin.



2-rasm. Kraxmalning IQ-spektoskopiyasi.

Olingan kremniyning biomodifikatorning IQ-spektri tahlilidan shuni ko‘rish mumkinki (3-rasm).



3-rasm. Si-natriy karboksimetil kraxmalning IQ-spektri.

Xulosa. Si-NaKMK xarakterli diapazonlarining IQ-spektrlari asosan rasmdagi bir xil lekin sezilarli keskin cho‘qqi H-Si-H guruhiga tegishli 2358,94 sm^{-1} da assimetrik valent tebranish mavjud, 3294,42 sm^{-1} yutilish cho‘qqida -OH guruhiga mansub deformatsion tebranish, 1076,28-1002,93sm^{-1} mintaqasida cho‘zilgan tebranishlarning chastotasi CH_2-O-CH_2 murakkab efirlarga tegishli bog‘ mavjud, keyingi soha 2358,94 $см^{-1}$ tebranish cho‘qqisi Si-H bog‘lanishlariga mos keladigan cho‘zilgan valent tebranish yutilish cho‘qqisi hamda 920,05sm^{-1} sohada Si-H ga mansub deformatsion tebranish mavjud.

Karbon kislotasining natriyli tuzlariga mos bo‘lgan -COONa bog‘ini 873,75 sm^{-1} sohasidagi deformatsion tebranish mavjud. Keyingi 765,7 sm^{-1} chastotasida Si-C- ga tegishli cho‘qqi kremniyning reaksiyada ishtirok etishini va organik kremniy birikmasini hosil qilishini ko‘rsatdi. Si-NaKMK va KMK xarakterli diapazonlarining IQ-spektrlari asosan 2-rasmdagi bilan bir xil, ammo bir-biridan farq qiluvchi cho‘qqisi mavjud. 3-rasmda o‘tkir cho‘qqi (2358,94 sm^{-1}) mavjud bo‘lib, bu Si-H aloqalariga mos keladigan cho‘zilgan tebranish yutilish cho‘qqisi, ammo bu xarakterli cho‘qqi (2-rasm)da ko‘rinmaydi, u kremniy ishtirok etganligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Каршиев М.Т., Нуркулов Ф.Н., Джалилов А.Т. Исследование физико-химических характеристик крахмальной модификации полиэтилена // Universum: химия и биология : электрон. научн. журн. 2022. 10(100). URL: https://7universum.com/ru/nature/archive/item/14349

2. Kumbhar V., Masali P. Biodegradable Cutlery Using MoringaPod Husk: An Alternative to Conventional Plastic Cutlery. Int. J. Innov. Sci. Res. Technol. 2020;5:900–903. [Google Scholar]

TURLI TUPROQ NAMUNALARDAN BAKTERIYALARNI AJRATIB OLISH USULLARI VA TUPROQ BAKTERIYALARINI EKISH METODIKASI

Rayimberdiyeva Sanobar Ilhom qizi
QarDU
sanobarrayimberdiyeva958@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur tatqiqotda Qashqadaryo viloyati Koson tumani hududidan olingan tuproq namunasida uchraydigan ajratib olish hamda ularning mikroorganizmlarga ta'sir etish jarayoni yoritilgan.Tatqiqot davomida 20 ta bakteriyal izolyat tanlab olinib, ularni Staphulococcus aureus, Candida albicans, Pseudomonas aeruginosa, Bacillus subtilis ga nisbatan antagonistik xususiyatlari tekshirildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, izolyatlarning 11 tasida S.aereus ning o'sishini to'xtatish xususiyati kuzatildi. Bu izolyatlarda o'sishni cheklash zonasi 15 mm dan 30 mm gacha bo'ldi.Qolgan 9 ta izolyatlarda esa mazkur mikroorganizmga nisbatan ko'rinarli ta'sir aniqlanmadi. Boshqa sinov mikroorganizmlariga qarshi ham tekshirilgan sharoitda antagonistik faollik natija bermadi.Tatqiqot natijalari tuproqdan ajratilgan ba'zi bakteriyalarning mikroorganizamlarni o'sishini cheklash xususiyati mavjud bo'lib, ularni kelgusida identifikatsiya qilish hamda biologik xususiyatlarini kengroq o'rganish uchun dastlabki ilmiy asos yaratildi.*

Kalit so'zlar: *tuproq bakteriyalari, bakterial izolyat, antagonistik faollik, inhibisiya zonasi, test mikroorganizmlari, chuqurchali usuli, biotexnologik potensial.*

Abstract. *This study describes the isolation of bacteria from a soil sample collected in Koson district, Kashkadarya region, and the investigation of their effects on test microorganisms. During the study, 20 bacterial isolates were selected and their antagonistic properties against Staphylococcus aureus, Candida albicans, Pseudomonas aeruginosa, and Basillus subtilis were examined. The results showed that 11 of the isolates exhibited the ability to inhibit the growth of S. aureus. The growth inhibition zones produced by these isolates ranged from 15 to 30 mm. No visible effect against this microorganism was observed in the remaining 9 isolates. No antagonistic activity against the other test experimental conditions. The findings indicate that some bacteria isolated from the soil possess the ability to inhibit microbial growth, providing a preliminary scientific basis for their further identification and more detailed investigation of their bioligical properties.*

Keywords:*soil bacteria, bacterial isolates, antagonistic activity, inhibition zone, test microorganisms, well diffusion method, biotechnological potential.*

Аннотация. *В данном исследовании представлены результаты выделения бактерий из образца почвы, отобранного на территории Косонского района Кашкадарьинской области, и изучения их воздействия на тестовые микроорганизмы. В ходе исследования было отобрано 20 бактериальных изолятов, у которых изучали антагонистические свойства по отношению к Staphylococcus aureus, Candida albicans, Pseudomonas aeruginosa и Bacillus subtilis. Полученные результаты показали, что 11 изолятов обладали способностью подавлять рост S. aureus. Зона подавления роста у данных изолятов составляла от 15 до 30 мм. У остальных 9 изолятов заметного воздействия на данный микроорганизм не выявлено. В отношении других тестовых микроорганизмов антагонистическая активность в условиях проведённого исследования не обнаружена. Полученные результаты свидетельствуют о наличии у некоторых бактерий, выделенных из почвы, способности ограничивать рост микроорганизмов и создают первоначальную научную основу для их дальнейшей идентификации и более детального изучения их биологических свойств.*

Ключевые слова*: почвенные бактерии, бактериальные изоляты, антагонистическая активность, зона подавления роста, тестовые микроорганизмы, метод лунок, биотехнологический потенциал.*

ADABIYOTLAR SHARHI:

Tuproq mikroorganizmlarning, xususan, turli xil bakteriyalarning tabiiy yashash muhitlaridan biri hisoblanadi. Tuproq tarkibidagi bakteriyalar organik moddalarni parchalash, oziqa elementlarining aylanishida ishtirok etish hamda o‘simliklar bilan o‘zaro foydali munosabatlar hosil qilish kabi muhim biologik jarayonlarda qatnashadi. Ayniqsa, o‘simlik ildizlari atrofidagi rizosfera bakteriyalar uchun nisbatan qulay muhit bo‘lib, bu hududda mikroorganizmlar soni va xilma-xilligi yuqori bo‘lishi mumkin [1, 2]. O‘zbekistonda ham tuproq va o‘simlik rizosferasidan foydali bakteriyalarni ajratib olish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan. D. Egamberdieva tomonidan yarim qurg‘oqchil hudud tuproqlarida yetishtirilgan g‘o‘za, bug‘doy, beda va pomidor rizosferasidan bakteriyalar ajratib olinib, ularning ayrim biologik xususiyatlari o‘rganilgan. Tadqiqotda ajratilgan bakteriyalarning ayrimlari fermentlar va auksin hosil qilishi hamda ayrim fitopatogen zamburug‘larga nisbatan antagonistik xususiyat namoyon qilishi aniqlangan [2]. Bu ma’lumotlar mahalliy tuproq sharoitlaridan bakterial izolyatlarni ajratib olish va ularning foydali biologik xususiyatlarini dastlabki baholash muhimligini ko‘rsatadi. Egamberdieva

va hammualliflarining O‘zbekistonning sho‘rlangan tuproqlarida yetishtirilgan bug‘doy rizosferasiga oid tadqiqotlarida ham o‘simlik bilan bog‘liq bakteriyalar ajratib olinib, ularning o‘simlik o‘sishini rag‘batlantiruvchi xususiyatlari o‘rganilgan. Mualliflar rizosfera bakteriyalarining noqulay tuproq sharoitlariga moslashgan shakllarini aniqlash va ularning foydali xususiyatlarini baholash imkoniyatini ko‘rsatganlar [3]. Tuproqdan bakteriyalarni ajratib olishda mikrobiologik ekish usullari muhim ahamiyatga ega. Bunda tuproq namunasi ma’lum miqdorda steril suvda suspenziya holiga keltirilib, ketma-ket suyultirish va qattiq ozuqa muhitiga ekish orqali alohida koloniyalar hosil qilinadi. Hosil bo‘lgan koloniyalar morfologik belgilariga ko‘ra tanlanib, qayta ekish orqali sof bakterial kulturaga ega bo‘lishga erishiladi. Shu sababli tuproq bakteriyalarini o‘rganishda namunani to‘g‘ri olish, suyultirish, ozuqa muhitiga ekish va sof koloniyalarni ajratish bosqichlari muhim hisoblanadi [1, 4]. Tuproqdan ajratilgan bakteriyalarning biologik ahamiyatini aniqlashda ularning antagonistik faolligini o‘rganish alohida o‘rin tutadi. Antagonistik bakteriyalar boshqa mikroorganizmlarning o‘sishini turli mexanizmlar, jumladan, antimikrob moddalar hosil qilish, oziqa va yashash joyi uchun raqobat qilish orqali cheklashi mumkin [5, 6]. Rizosfera bakteriyalarining biologik nazoratdagi ahamiyati ham aynan shu xususiyatlar bilan bog‘liq. Lugtenberg va Kamilovaning ma’lumotlariga ko‘ra, o‘simlik bilan bog‘liq foydali bakteriyalar o‘simlik o‘sishini bevosita yoki bilvosita rag‘batlantirishi mumkin. Bilvosita ta’sir mexanizmlaridan biri mikroorganizmlarga qarshi antagonistik ta’sir ko‘rsatish bo‘lib, bunda antibioz, oziqa va ekologik makon uchun raqobat kabi mexanizmlar muhim hisoblanadi [5]. Compant va hammualliflar ham tuproqdan kelib chiqqan foydali bakteriyalar o‘simlik rizosferasini kolonizatsiya qilishi va o‘simlik salomatligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini ta’kidlaganlar [6]. Tuproq bakteriyalarining antimikrob xususiyatlarini baholashda agar-diffuziya usuli keng qo‘llaniladigan dastlabki skrining usullaridan biridir. Yilmaz, Soran va Beyatli tomonidan tuproqdan ajratilgan Bacillus shtammlarining antimikrob faolligi agar-diffuziya usuli yordamida o‘rganilgan. Tadqiqotda ayrim Bacillus izolyatlari Gram-musbat va Gram-manfiy test bakteriyalarining o‘sishini cheklashi aniqlangan, bunda Gram-musbat bakteriyalarga nisbatan ta’sir kuchliroq bo‘lgan [7]. Mazkur natijalar tuproqdan ajratilgan bakteriyalarni test mikroorganizmlariga nisbatan antagonistik faollik bo‘yicha dastlabki saralashning ilmiy asosini ko‘rsatadi. Wellerning tadqiqotlarida ham rizosfera bakteriyalaridan biologik nazorat vositasi sifatida foydalanish imkoniyatlari yoritilgan. Bunda ayrim bakteriyalar fitopatogen mikroorganizmlarning rivojlanishini cheklashda muhim rol o‘ynashi qayd etilgan [8]. Shuningdek, tuproq bakteriyalarining antagonistik xususiyatlarini aniqlash keyinchalik istiqbolli izolyatlarni identifikatsiya qilish va ularning biologik faol

moddalarini o‘rganish uchun dastlabki bosqich sifatida qaralishi mumkin. Shunday qilib, mavjud ilmiy ma’lumotlar tuproq va ayniqsa o‘simlik ildizlari atrofidagi rizosfera bakteriyalari orasida biologik faol va antagonistik xususiyatga ega mikroorganizmlar mavjudligini ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, Qashqadaryo viloyati Koson tumani tuproqlaridan bakteriyalarni ajratib olish, ularni sof izolyatlar holida olish va test mikroorganizmlariga nisbatan antagonistik faolligini baholash dolzarb yo‘nalishlardan biridir. Mazkur tadqiqotda 20 ta sof bakterial izolyat tanlab olinib, ularning Staphylococcus aureus, Candida albicans, Pseudomonas aeruginosa va Bacillus subtilis ga nisbatan antagonistik xususiyatlari tekshirilgan. Natijada izolyatlarning 11 tasida S. aureus o‘sishini cheklovchi faollik aniqlangan bo‘lib, ingibitsiya zonasi 15–30 mm oralig‘ida bo‘lgan.

MATERIAL VA METODLAR:

Tatqiqot uchun Qashqadaryo viloyati Koson tumanidan tuproq namunalari olindi .Asosan o‘simlik ildiz zonasi atrofidan konvert usulida maydonning 5 ta qismidan 10 smli chuqurlikdan tuproq namunalari olindi. Namunalarni taxminan 100 gr dan polietilen paketga solindi va barcha namunalar aralshtirildi. Paket ustiga olingan hudud nomi, sanasi va olingan chuqurligi yozildi.

Namunalar muzlatgichda +4 C haroratda saqlandi.Tuproq namunasidan 10 gramm miqdorda o‘lchab olindi va hajmi 250 ml bo‘lgan steril Erlenmeyer kolbasiga solindi. Kolbaga tuproq ustidan 90 ml **distillangan suv** qo‘shildi.Aralashmani **vortex** yordamida 5 daqiqa davomida aralshtirildi.Aralashtirishdan maqsad, tuproqdan mikroorganizmlarni ajralib chiqishi uchundir.Yirik zarrachalar cho‘kishi uchun aralashma 10 daqiqa tindiriladi. Tindirilgan suspenziyamizning ustki qismidan 1 ml miqdorda olinib, 9 ml distillangan suv yordamida suyultiriladi.Bu suyultirish 10^1 dan 10^5 gacha davom etadi. Har bir suyultirilgan suspenziya namunadan 1 ml dan olib steril ozuqa LB-Luria-Bertani Agar:10g/L pepton, 5g/L xamirturush ekstrakti, 5g/L NaCl, 15 g/L agar qo‘yilgan petri idishiga sirtiga yoyib ekish usuli yordamida ekildi va +28 C haroratda 24-48 soat davomida inkubatsiya qilindi.Tuproqdagi mikroorganizmlarni koloniyalarni ajratib olish orqali izolyatsiya qilindi. LB ozuqa muhitga ekish orqali ajratilgan koloniyalar tanlab olindi. Ekishdan so‘ng hosil bo‘lgan bakterial koloniyalar belgilariga ko‘ra kuzatildi. Shakli, rangi, kattaligi, chetlarining tuzilishi va boshqa tashqi belgilari bo‘yicha koloniyalar tanlab olindi. Ular LB ozuqa muhitli boshqa petrilarga ko‘chirildi.Bu bilan mustaqil koloniyalar ajratib olinadi va har biri alohida bakteriyalar hisoblanadi.

Tatqiqotning keyingi bosqichi uchun 20 xil sof bakterial izolyat tanlab olindi.Izolyatlar shartli ravishda 104, 105, 106 va boshqa kodlar bilan belgilandi. Bu kodlar tatqiqot davomida namunalarni chalkashtirib yubormaslik uchun hamda olingan natijalarni tizimli ravishda qayd etish imkonini berdi. Ajratib olingan 20 ta

sof bakterial izolyatning biotexnologik potensialini dastlabki baholash maqsadida ularning test mikroorganizmlariga nisbatan antagonistik faolligi o‘rganildi. Tajriba mobaynida bakterial izolyatlarning quyidagi test mikroorganizmlarga nisbatan ta’siri baholandi: *Staphycoccus aureus, Candida albicans, Pseudomonas aeruginosa, Bacillus subtilis*.

Antagonistik faollikni aniqlashda **chuqurcha(agar well diffusion) usulidan** foydalanildi. Tekshirilayotgan bakteriya izolyatlari va test mikroorganizamlari kerakli ozuqa muhitlarida hamda laboratoriya protokoliga muvofiq, bir xil sharoitlarda tekshirildi.Inkubatsiya davri 48 soatni tashkil qilib, bu davrdan so‘ng test mikroorganizamlarining o‘sishi kuzatildi. Bakterial izolyat atrofida test mikroorganizmlarining o‘sishi kuzatilmagan bo‘lsa yoki susaygan zona paydo bo‘lishi antagonistik faollik mavjudligini ko‘rsatadi. Har bir bakterial izolyat bo‘yicha natijalar qayd etib qo‘yildi. Natijada 20 ta tekshirilgan izolyatdan ichidan **11 tasi kamida bitta test mikroorganizmasiga javoban antagonistik faollik namoyon qilgani** aniqlandi. Tajriba natijasi asosida bakterial izolyatlarni ikki guruhga ya’ni:

1. Faollik namoyon qilgan(11 ta).
2. Aniq antagonistik faollik kuzatilmagan izolyatlarga ajratildi(9 ta).

Faollik namoyon qilgan izolyatlarni keyingi tatqiqotlar uchun istiqbolli izolyatlar sifatida tanlab olindi. Antagonistik faollikni baholashda test mikroorganizmlari atrofida hosil bo‘lgan o‘sishni ingibitsiya qilish zonasining mavjudligi va zarur hollarda esa zonaning diametri hisobga olinadi. Olingan natijalar bakterial izolyatlarda mikroorganizmlarga qarshi biologik faol modda ishlab chiqarish yoki boshqa antagonistik mexanizmlar mavjud bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fayziyev V.B. Tuproq mikrobiologiyasi. — Toshkent, 2019.

2. Egamberdieva D. Plant-growth-promoting rhizobacteria isolated from a Calcisol in a semi-arid region of Uzbekistan: biochemical characterization and effectiveness. — Journal of Plant Nutrition and Soil Science, 2005. — 168-jild, 1-son. — 94–99-betlar. DOI: 10.1002/jpln.200321283.

3. Egamberdieva D., Kamilova F., Validov S., Gafurova L., Kucharova Z., Lugtenberg B. High incidence of plant growth-stimulating bacteria associated with the rhizosphere of wheat grown on salinated soil in Uzbekistan. — Environmental Microbiology, 2008. — 10-jild, 1-son. — 1–9-betlar. DOI: 10.1111/j.1462-2920.2007.01424.x.

4. Fuhrmann J.J. Isolation of microorganisms producing antibiotics. In: Methods of Soil Analysis. — Soil Science Society of America, 1994.

5. Lugtenberg B., Kamilova F. Plant-growth-promoting rhizobacteria. — Annual Review of Microbiology, 2009. — 63-jild. — 541–556-betlar. DOI: 10.1146/annurev.micro.62.081307.162918.

6. Compant S., Clément C., Sessitsch A. Plant growth-promoting bacteria in the rhizo- and endosphere of plants: Their role, colonization, mechanisms involved and prospects for utilization. — Soil Biology and Biochemistry, 2010. — 42-jild, 5-son. — 669–678-betlar. DOI: 10.1016/j.soilbio.2009.11.024.

7. Yilmaz M., Soran H., Beyatli Y. Antimicrobial activities of some Bacillus spp. strains isolated from the soil. — Microbiological Research, 2006. — 161-jild, 2-son. — 127–131-betlar. DOI: 10.1016/j.micres.2005.07.001.

8. Weller D.M. Biological control of soilborne plant pathogens in the rhizosphere with bacteria. — Annual Review of Phytopathology, 1988. — 26-jild. — 379–407-betlar. DOI: 10.1146/annurev.py.26.090188.002115.

Fe(II)–TRIAZOL KOMPLEKSLARI ASOSIDA XITOZAN–KOLLAGEN PLYONKALARGA TERMOXROM XUSUSIYAT BERISH ISTIQBOLLARI

Sharopov J.M.
Ixtiyarova G.A.
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
jahongir.user@gmail.com

Annotatsiya. *Ishda Fe(II)–1,2,4-triazol koordinatsion polimerlarining spin-o‘tish (spin-crossover, SCO) hodisasiga asoslangan termoxrom xususiyatini xitozan–kollagen biopolimer plyonkalariga o‘tkazish imkoniyati tahlil qilingan. 3-Amino-1,2,4-triazolning N1/N2 ko‘prik koordinatsiyasi orqali hosil bo‘ladigan $[Fe(NH_2trz)_3]_n^{2n+}$ zanjirlari past spinli (pushti-binafsha) va yuqori spinli (rangsiz) holatlar orasida xona harorati yaqinida gisterezisli o‘tishni namoyon qiladi. Biopolimer matritsa zanjirlarni barqarorlashtiruvchi va qarshi ion vazifasini bajaruvchi muhit sifatida qaraladi. Fe(II) ning oksidlanishga sezgirligi va uni bartaraf etish yo‘llari muhokama qilingan.*

Kalit so‘zlar: *spin-o‘tish, termoxromlik, Fe(II), 1,2,4-triazol, koordinatsion polimer, xitozan, kollagen, aqlli qadoqlash.*

Haroratga javoban rangini qaytar o‘zgartiruvchi (termoxrom) materiallar harorat indikatorlari, aqlli qadoqlash va axborot yozish qurilmalarida qo‘llaniladi. Molekulyar termoxrom tizimlar orasida Fe(II) ning 1,2,4-triazol hosilalari bilan koordinatsion polimerlari alohida o‘rin tutadi: ularda d^6 Fe(II) ioni past spinli (LS, S = 0) va yuqori spinli (HS, S = 2) holatlar orasida harorat ta’sirida o‘tadi, bu esa rangning keskin o‘zgarishi bilan kuzatiladi [2, 4]. Kröber va hammualliflar $[Fe(Htrz)_2(trz)](BF_4)$ birikmasida 385 K (isitish) va 345 K (sovitish) haroratlarda o‘tish va ≈ 40 K kenglikdagi gisterezisni aniqlagan [3]; Kahn va Martinez esa ligand va qarshi ion tanlash orqali o‘tish haroratini xona harorati atrofiga keltirish mumkinligini ko‘rsatgan [2]. Roubeau sharhida bunday 1D zanjirlarning strukturaviy va magnit xossalari umumlashtirilgan [5].Bizning avvalgi ishlarimizda 3-amino-1,2,4-triazol hosilalarining 3d-metall tuzlari, jumladan Fe(II) bilan koordinatsion birikmalari sintez qilingan [1]. Ushbu ishning maqsadi – Fe(II)–aminotriazol zanjirlarini xitozan–kollagen biopolimer matritsasiga integratsiya qilish orqali termoxrom plyonkalar yaratish istiqbollarini baholashdan iborat.Matritsa sifatida *Apis mellifera* xitozani [6] va kollagen aralashmasi (3 : 1)

tanlanadi. Termoxrom komponent plyonka tarkibida *in situ* hosil qilinadi: 3-amino-1,2,4-triazol (Fe : L = 1 : 3 mol nisbatda) va Fe(II) tuzi ($FeSO_4 \cdot 7H_2O$ yoki $Fe(BF_4)_2 \cdot 6H_2O$) ketma-ket kiritiladi; Fe(II) ning oksidlanishini kamaytirish uchun eritmaga askorbin kislota (0,5–1,0 %) qo‘shiladi va plyonka quyish 40 °C dan oshmagan haroratda, iloji boricha qisqa vaqtda amalga oshiriladi. Rang o‘zgarishi 20–90 °C oralig‘ida vizual va UB-ko‘rinuvchi spektroskopiya ($\lambda max \approx 520–540$ nm, LS holatdagi $^1A_1 \rightarrow {}^1T_1$ o‘tish) yordamida qayd etiladi.

3-Amino-1,2,4-triazol N1 va N2 atomlari orqali ikki Fe(II) markazini bog‘lab, har bir juft metall orasida uchta ligand ko‘prigi bo‘lgan chiziqli zanjir hosil qiladi (1-rasm). Bunday tuzilmada Fe(II) ioni FeN_6 oktaedr muhitida joylashadi, zanjir ichidagi Fe···Fe masofa ≈ 3,6–3,7 Å ni tashkil etadi va spin-o‘tish kooperativ, ya’ni keskin va gisterezisli xarakterga ega bo‘ladi [3, 5]. Biopolimer matritsada xitozan va kollagenning $–COO^-$ va $–SO_4^{2-}$/$–BF_4^-$ qarshi ionlari zanjirlarni elektrostatik barqarorlashtiradi, $–NH_2$ va –OH guruhlari esa ligandning ekzotsiklik aminoguruhi bilan H-bog‘lar hosil qilib, zanjirlarning matritsada bir tekis taqsimlanishini ta’minlaydi.



1-rasm. 3-AT ligandining μ-N1,N2 ko‘prik koordinatsiyasi orqali hosil bo‘ladigan Fe(II) zanjirining sxematik tuzilishi

1-jadval. Fe(II)–1,2,4-triazol koordinatsion polimerlarining spin-o‘tish parametrlari (adabiyot ma’lumotlari) [2, 3, 5]

Birikma	T½↑, K	T½↓, K	Gisterezis, K	Rang (LS → HS)
$[Fe(Htrz)_2(trz)](BF_4)$	385	345	≈ 40	pushti-binafsha → oq
$[Fe(Htrz)_3](BF_4)_2 \cdot H_2O$	≈ 345	≈ 325	≈ 20	pushti → oq
$[Fe(NH_2trz)_3](NO_3)_2$	xona harorati atrofi	xona harorati atrofi	≈ 10–35	binafsha → oq
$[Fe(NH_2trz)_3]X_2$ (X = Br, Cl; ligand/anion aralashmalari)	280–340 (sozlanadi)	270–330	5–30	pushti → rangsiz

1-jadvaldagi ma’lumotlar 3-amino-1,2,4-triazol ligandining Fe(II) zanjirlarida spin-o‘tish haroratini aynan xona harorati yaqiniga «sozlash» imkonini berishini ko‘rsatadi [2]. Bu holat aqlli qadoqlash uchun eng muhim talab – sovitish zanjirining

buzilishini (masalan, 4 °C dan 25–30 °C gacha isishni) qaytar yoki qisman qaytmas rang o‘zgarishi orqali ko‘rsatish – bilan mos keladi. Kutilayotgan termoxrom javob 2-rasmda sxematik tarzda keltirilgan: LS holatda plyonka pushti-binafsha, T½↑ dan yuqorida esa deyarli rangsiz bo‘ladi; gisterezis mavjudligi tizimga «xotira» xususiyatini beradi, ya’ni qisqa muddatli isish sovitilgandan keyin ham qayd etilib qoladi.



2-rasm. Fe(II)–aminotriazol tizimida yuqori spinli ulushning haroratga bog‘liqligi va termik gisterezis

Biopolimer matritsaga o‘tkazishda uchta asosiy muammo ajratiladi. Birinchisi – Fe(II) ning Fe(III) ga oksidlanishi: inert atmosfera bo‘lmagan sharoitda askorbin kislota, kam kislorodli eritma va tez quritish qo‘llaniladi; Fe(III) mavjudligi sariq-qo‘ng‘ir rang va spin-o‘tishning yo‘qolishi orqali aniqlanadi. Ikkinchisi – zanjir uzunligining chegaralanishi: matritsadagi $–NH_2$ va $–COO^-$ guruhlari Fe(II) bilan raqobatlashib, qisqa oligomerlar hosil qilishi va kooperativlikni pasaytirishi mumkin; shu sababli ligand : Fe nisbati 3 : 1 dan yuqori (3,5–4 : 1) tutiladi. Uchinchisi – suv miqdori: gidratlangan va suvsiz shakllarning o‘tish haroratlari farq qiladi [3], demak plyonkaning namlik holati standartlashtirilishi lozim. Sionkowska ta’kidlaganidek, tabiiy polimer aralashmalarida kichik molekulyar qo‘shimchalar mexanik xossalarni sezilarli o‘zgartiradi [7], shuning uchun Fe(II)–triazol zanjirlari miqdori 2–5 % dan oshmasligi maqsadga muvofiq.

Fe(II)–3-amino-1,2,4-triazol koordinatsion zanjirlari xitozan–kollagen plyonkalariga xona harorati yaqinida gisterezisli, qaytar rang o‘zgarishi ko‘rinishidagi termoxrom xususiyat berish uchun istiqbolli komponent hisoblanadi. Biopolimer matritsa zanjirlarni barqarorlashtiruvchi va bir tekis taqsimlovchi muhit sifatida xizmat qiladi. Amaliy natijaga erishish uchun Fe(II) ni oksidlanishdan himoyalash, ligand ortiqchaligini ta’minlash va namlikni standartlashtirish hal

qiluvchi omillar bo‘lib, bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar sovitish zanjiri nazorati uchun biologik parchalanuvchi termoindikator plyonkalar yaratishga olib kelishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Ixtiyarova G.A., Sharopov J.M. 3D-metall tuzlarining 3-amino-5-merkapto-1,2,4-triazol bilan koordinatsion birikmalari // Development of Science. – 2026. – Vol. 7, №3. – B. 34–48.

2. Kahn O., Martinez C.J. Spin-transition polymers: From molecular materials toward memory devices // Science. – 1998. – Vol. 279, №5347. – P. 44–48.

3. Kröber J., Audière J.-P., Claude R., Codjovi E., Kahn O., Haasnoot J.G., Grolière F., Jay C., Bousseksou A., Linarès J., Varret F., Gonthier-Vassal A. Spin transitions and thermal hystereses in the molecular-based materials $[Fe(Htrz)_2(trz)](BF_4)$ and $[Fe(Htrz)_3](BF_4)_2 \cdot H_2O$ // Chemistry of Materials. – 1994. – Vol. 6, №8. – P. 1404–1412.

4. Gütlich P., Hauser A., Spiering H. Thermal and optical switching of iron(II) complexes // Angewandte Chemie International Edition in English. – 1994. – Vol. 33, №20. – P. 2024–2054.

5. Roubeau O. Triazole-based one-dimensional spin-crossover coordination polymers // Chemistry – A European Journal. – 2012. – Vol. 18, №48. – P. 15230–15244.

6. Isomitdinova D.S., Ikhtiyarova G.A., Sharopov J.M. Study of the physical-chemical properties of chitosan synthesized by the cryogenic method from Apis mellifera bees // Technical Science and Innovation. – 2024. – №3. – P. 11–15. DOI: 10.59048/2181-1180.1627.

7. Sionkowska A. Current research on the blends of natural and synthetic polymers as new biomaterials: Review // Progress in Polymer Science. – 2011. – Vol. 36, №9. – P. 1254–1276.

ДИНАМИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА КВАДРАТИЧНЫХ ГОМЕОМОРФИЗМОВ СИМПЛЕКСА

Шаробиддинова Гулшода Рустамжон кизи
Андижанский Государственный Университет
uktamjonovagulshoda@gmail.com

Аннотация. *Исследуются вольтеровские квадратичные стохастические операторы на двумерном симплексе, являющиеся гомеоморфизмами симплекса. В терминах кососимметрической матрицы оператора получен критерий существования внутренней неподвижной точки, совпадающий с цикличностью соответствующего турнира. Доказано, что в ацикличном случае все внутренние траектории сходятся к вершине-источнику со скоростью, определяемой элементами матрицы. В цикличном случае построена строго убывающая функция Ляпунова и доказано, что ω-предельное множество каждой нетривиальной внутренней траектории бесконечно и лежит на границе симплекса. Результаты подтверждены численным экспериментом в логарифмических координатах.*

Ключевые слова: *квадратичный стохастический оператор, оператор Вольтерра, гомеоморфизм симплекса, функция Ляпунова, ω-предельное множество, турнир, гетероклинический цикл.*

Annotatsiya. *Ikki o'lchovli simpleksda gomeomorfizm bo'lgan Volterra kvadratik stoxastik operatorlari o'rganiladi. Ichki qo'zg'almas nuqta mavjudligi mos turnirning sikliklik sharti bilan ustma-ust tushishi isbotlangan. Atsiklik holda barcha ichki traektoriyalar manba-uchga matritsa elementlari bilan aniqlanuvchi tezlikda yaqinlashadi. Siklik holda qat'iy kamayuvchi Lyapunov funksiyasi qurilgan va har bir notrivial ichki traektoriyaning ω-limit to'plami cheksiz hamda simpleks chegarasida yotishi isbotlangan. Natijalar logarifmik koordinatalardagi hisoblash tajribasi bilan tasdiqlangan.*

Kalit so'zlar: *kvadratik stoxastik operator, Volterra operatori, simpleks gomeomorfizmi, Lyapunov funksiyasi, ω-limit to'plam, turnir, geteroklinik sikl.*

Abstract. *We study Volterra quadratic stochastic operators on the two-dimensional simplex, which are homeomorphisms of the simplex. We show that an interior fixed point exists if and only if the associated tournament is cyclic. In the acyclic case every interior trajectory converges to the source vertex at a rate determined by the entries of the skew-symmetric matrix. In the cyclic case we*

construct a strictly decreasing Lyapunov function and prove that the ω-limit set of every non-trivial interior trajectory is infinite and lies on the boundary of the simplex. The results are illustrated by a numerical experiment in logarithmic coordinates.

Keywords: *quadratic stochastic operator, Volterra operator, homeomorphism of the simplex, Lyapunov function, ω-limit set, tournament, heteroclinic cycle.*

1. Введение

Квадратичные стохастические операторы (КСО) возникли в работе С.Н. Бернштейна [1] как математическая модель эволюции популяции с панмиксией. С.М. Улам [2] поставил вопрос об асимптотике итераций КСО и высказал гипотезу об их эргодичности (сходимости средних Чезаро). М.И. Захаревич [4] опроверг эту гипотезу на примере вольтерровского оператора на двумерном симплексе. Тем самым именно двумерный случай оказался минимальной размерностью, в которой появляется нетривиальная динамика.

В литературе сложились два подхода, которые следует различать. Классический популяционно-генетический подход (Ю.И. Любич [3]) исследует КСО как алгебраические отображения с акцентом на стационарность и свойства наследования. Динамический подход, развитый ташкентской школой (Р.Н. Ганиходжаев [5, 6], далее [7, 8, 11]), строит для вольтерровских КСО функции Ляпунова и связывает динамику с комбинаторикой турниров. Параллельно в эволюционной теории игр [9] вольтерровские операторы интерпретируются как дискретные аналоги репликаторной динамики для игр с нулевой суммой; здесь главный инструмент — гетероклинические циклы и перманентность.

Между этими направлениями есть существенное расхождение. Для непрерывной репликаторной динамики игры типа «камень–ножницы–бумага» с нулевой суммой внутренняя точка окружена семейством замкнутых орбит (консервативный случай) [9]. Дискретный вольтерровский оператор с той же кососимметричной матрицей ведёт себя качественно иначе: дискретизация разрушает первый интеграл, и траектории уходят на границу. Этот контраст показывает, что переносить выводы из непрерывной теории на отображения симплекса некорректно.

Известно [5, 7], что вольтерровский КСО является гомеоморфизмом симплекса, а любой КСО-гомеоморфизм представим как композиция вольтерровского оператора и перестановки вершин. Поэтому изучение вольтерровских операторов — необходимый первый шаг к описанию динамики всех квадратичных гомеоморфизмов.

1. U.S. Army Corps of Engineers, Hydrologic Engineering Center. HEC-RAS 1D Sediment Transport Technical Reference Manual: Cohesive Transport and Krone–Partheniades Methods. Davis, CA: USACE HEC. Available at: https://www.hec.usace.army.mil/confluence/rasdocs/rassed1d/1d-sediment-transport-technical-reference-manual/cohesive-transport (accessed 2 October 2026).

2. U.S. Army Corps of Engineers, Hydrologic Engineering Center. HEC-RAS Sediment Transport User's Manual: Cohesive Options. Davis, CA: USACE HEC. Available at: https://www.hec.usace.army.mil/confluence/rasdocs/rassed1d/1d-sediment-transport-user-s-manual/entering-and-editing-sediment-data/sediment-properties-options/cohesive-options (accessed 2 October 2026).

3. Chow V.T. Open-Channel Hydraulics. New York: McGraw-Hill, 1959.

4. Julien P.Y. Erosion and Sedimentation. 2nd ed. Cambridge: Cambridge University Press, 2010.

5. Partheniades E. Erosion and deposition of cohesive soils. Journal of the Hydraulics Division, ASCE. 1965;91(1):105–139.

6. Osman I.S., Schultz B., Osman A., Suryadi F.X. Simulation of Fine Sediment Transport in Irrigation Canals of the Gezira Scheme with the Numerical Model FSEDT. Journal of Irrigation and Drainage Engineering. 2016;142(11). DOI: 10.1061/(ASCE)IR.1943-4774.0001031.

POLIFUNKSIONAL BINAR MIKROTO‘LDIRGICHLARNI QO‘LLAB BETONLARNI MODIFIKATSIYALASH

Choriyev Alibek

Annotatsiya. *Maqolada suv bilan doimiy aloqada ishlaydigan beton konstruksiyalar uchun mikrokremnezyom va ohaktosh kukunidan iborat binar mikroto‘ldirgichning polifunksional ta’siri gidravlik nuqtai nazardan baholandi. Pauers modeli, Kats–Tompson bog‘lanishi, Darsi qonuni va Uoshbern tenglamasiga tayangan hisoblash-tahliliy usul orqali olti xil tarkib (nazorat, ikkita yakka qo‘shimchali va uchta binar) kapillyar g‘ovaklik, kritik g‘ovak diametri, filtratsiya koeffitsiyenti, bosim ostida suv kirish chuqurligi hamda kapillyar so‘rilish bo‘yicha taqqoslandi. Mikrokremnezyom va ohaktosh kukuni 1:2 nisbatda (jami 24 %) qo‘llanganda klinker miqdori 24 % kamayib, siqilishdagi mustahkamlik nazorat darajasida qolishi, filtratsiya koeffitsiyenti esa taxminan 3,5 baravar pasayishi hisoblandi. Ohaktosh kukunining yakka o‘zi esa suv o‘tkazuvchanlikni yomonlashtirdi. Natijalar modelga asoslangani sababli GOST 12730.5 va EN 12390-8 bo‘yicha tajribada tasdiqlanishi lozim.*

Kalit so‘zlar: *beton, binar mikroto‘ldirgich, mikrokremnezyom, ohaktosh kukuni, filtratsiya koeffitsiyenti, suv o‘tkazuvchanlik, kapillyar so‘rilish, gidrotexnik beton.*

Abstract. *The multifunctional action of a binary microfiller (silica fume + limestone powder) in concrete exposed to water was assessed from a hydraulic standpoint. A computational–analytical framework combining Powers’ volume balance, the Katz–Thompson relation, Darcy’s law and Washburn capillary flow was applied to six mixes at a constant water–binder ratio of 0.45. The 1:2 binary blend with 24 % total replacement reduced clinker content by 24 % and, according to the model, kept compressive strength at the control level while lowering hydraulic conductivity by a factor of about 3.5. Limestone powder alone raised permeability. The predictions require experimental verification.*

Аннотация. *С гидравлических позиций оценено полифункциональное действие бинарного микронаполнителя (микрокремнезём + известняковая мука) в бетоне, эксплуатируемом в контакте с водой. Расчётно-аналитическая схема на основе модели Пауэрса, соотношения Катца–Томпсона, закона Дарси и уравнения Уошберна применена к шести составам при В/В = 0,45. Бинарная смесь с суммарной заменой 24 % (соотношение 1:2)*

снижает расход клинкера на 24 % и, по расчёту, сохраняет прочность на уровне контрольного состава при снижении коэффициента фильтрации примерно в 3,5 раза. Известняковая мука в чистом виде проницаемость повышает. Результаты требуют экспериментальной проверки.

1. Kirish

Suv omborlari, sug‘orish kanallari, damba va suv o‘tkazgich inshootlarining beton qoplamasi umrining ko‘p qismini bosim ostida yoki namlangan holatda o‘tkazadi. Bunday sharoitda betonning chidamliligini mustahkamlik emas, birinchi navbatda suvning g‘ovaklar tizimi orqali ko‘chish tezligi belgilaydi. Filtratsiyalanayotgan suv sement toshidan portlandit va boshqa eruvchan fazalarni yuvib chiqaradi, sulfat va xlorid ionlarini chuqurlikka olib boradi, muzlash-erish sikllarida esa g‘ovaklarni to‘yintirib, ichki kuchlanishlar hosil qiladi [3, 4]. Shu bois zamonaviy yondashuvda beton tarkibi suv o‘tkazuvchanlik ko‘rsatkichlari — filtratsiya koeffitsiyenti, suvning bosim ostida kirish chuqurligi va kapillyar so‘rilish tezligi — orqali loyihalanadi.

Betonning g‘ovaklar tuzilmasini yaxshilashning eng keng tarqalgan yo‘li — sementning bir qismini yoki bog‘lovchiga qo‘shimcha ravishda mayda dispers materiallar kiritishdir. Mikrokremnezyom pozzolan faolligi va juda yuqori solishtirma yuzasi tufayli sement toshining kapillyar g‘ovaklarini ikkilamchi C–S–H bilan to‘ldiradi va o‘tish zonasini zichlaydi [6, 11]. Ohaktosh kukuni esa asosan fizik vazifa bajaradi: u zarralar o‘rtasidagi bo‘shliqni to‘ldiradi, gidratatsiya mahsulotlari uchun qo‘shimcha nuqtalar yaratadi va karboalyuminatlar hosil bo‘lishiga yordam beradi [5, 7]. Har bir komponent yakka holda qo‘llanganda uning kamchiligi ham yaqqol ko‘rinadi: mikrokremnezyom suv talabini va qisqarish xavfini oshiradi, ohaktosh kukuni esa o‘zgarmas suv-bog‘lovchi nisbatida bog‘lovchi hajmini “suyultirib”, mustahkamlikni pasaytiradi.

Ikki komponentni birgalikda qo‘llash ularning vazifalarini bir-birini to‘ldiradigan qilib taqsimlash imkonini beradi, shu sababli bunday qo‘shimchani polifunksional binar mikroto‘ldirgich deb atash o‘rinli. Biroq mavjud tadqiqotlarning ko‘pchiligi samarani siqilishdagi mustahkamlik orqali baholaydi; gidravlik ko‘rsatkichlar esa odatda alohida, tarqoq holda keltiriladi va binar tizim uchun ularni mustahkamlik hamda klinker sarfi bilan bir butun sifatida ko‘rib chiqqan ishlar kam. **Ushbu ishning maqsadi** — mikrokremnezyom va ohaktosh kukunidan iborat binar mikroto‘ldirgich bilan modifikatsiyalangan betonning suv o‘tkazuvchanlik xususiyatlarini miqdoriy baholash hamda mustahkamlikni saqlagan holda klinker sarfini kamaytiradigan tarkib sohasini aniqlashdan iborat.

2. Materiallar va usullar

2.1. Xomashyo va tarkiblar

Hisoblashda quyidagi xomashyo xossalari qabul qilindi: CEM I 42,5 turidagi portlandsement (zichligi 3,15 g/sm³), mikrokremnezyom ($SiO_2 \geq 85$ %, zichligi 2,20 g/sm³, BET yuzasi taxminan 20 m²/g) va ohaktosh kukuni ($CaCO_3 \geq 95$ %, zichligi 2,70 g/sm³, medianali o‘lchami 8–12 mkm). Barcha tarkiblarda umumiy bog‘lovchi miqdori 400 kg/m³, suv-bog‘lovchi nisbati (S/B) esa 0,45 deb olindi, ya’ni suv sarfi 180 kg/m³ ni tashkil etadi. Olti tarkib 1-jadvalda keltirilgan; binar tarkiblarda mikrokremnezyom va ohaktosh kukuni nisbati 1:2 qilib tanlandi.

1-jadval. Tadqiq etilgan tarkiblar (bog‘lovchi massasiga nisbatan, %)

Tarkib	Sement (klinker), %	Mikrokremnezyom, %	Ohaktosh kukuni, %	Izoh
C0	100	0	0	Nazorat
S8	92	8	0	Yakka pozzolan
L15	85	0	15	Yakka filler
B1	88	4	8	Binar
B2	82	6	12	Binar
B3	76	8	16	Binar

2.2. Hisoblash modeli

Tadqiqot hisoblash-tahliliy xarakterga ega: tajriba o‘lchovlari o‘tkazilmagan, har bir ko‘rsatkich g‘ovaklar tuzilmasini tavsiflovchi klassik bog‘lanishlar orqali topildi. Sement toshining kapillyar g‘ovakligi Pauers hajmiy balansi [1, 2] asosida, 1000 g bog‘lovchiga nisbatan hisoblandi:

$$\varepsilon_{kap} = V_{kap} / V_0, \quad V_{kap} = W - 0{,}36 \cdot \alpha_s \cdot m_s - \beta_p \cdot \alpha_p \cdot m_{MK} \qquad (1)$$

bunda W — suv hajmi, sm³; m_s va m_{MK} — sement va mikrokremnezyom massasi, g; α_s va α_p — sementning gidratatsiya darajasi hamda mikrokremnezyomning pozzolan reaksiyasi darajasi (28 sutkada); $\beta_p = 0{,}90$ sm³/g — reaksiyaga kirishgan 1 g mikrokremnezyomning kapillyar hajmni kamaytirishi; V_0 — pastaning boshlang‘ich hajmi. Gel-fazoviy nisbat X orqali siqilishdagi mustahkamlik esa Pauers bog‘lanishi bilan baholandi [2]:

$$X = V_g / (V_g + V_{kap}), \quad f_c = A \cdot X^3, \quad A = 130 \text{ MPa} \qquad (2)$$

Filtratsiya xossalari uchun avval pastaning o‘tkazuvchanligi Kats–Tompson bog‘lanishi [8] bilan, so‘ng beton uchun o‘tish zonasi tuzatmasi kiritilgan holda topildi:

$$k_p = d_c^2 \cdot \varepsilon_{kap}^{2,5} / 226, \quad k = f_{OZ} \cdot k_p \qquad (3)$$

Bu yerda d_c — kritik g‘ovak diametri, $f_{OZ} = 0{,}50 \cdot [1 - 0{,}012 \cdot (MK + 0{,}5 \cdot OK)]$ — o‘tish zonasi va tortuoz yo‘l tuzatmasi (MK va OK — mikrokremnezyom va

ohaktosh kukuni miqdori, %). Filtratsiya koeffitsiyenti K_w Darsi qonuni, suvning bosim ostida kirish chuqurligi h esa porshenli oqim sxemasi bo‘yicha aniqlandi:

$$K_w = k \cdot \rho \cdot g / \mu, \quad h = \sqrt{(2 \cdot k \cdot P \cdot t / (\mu \cdot \varphi_e))} \qquad (4)$$

P = 0,5 MPa va t = 72 soat qabul qilindi — bu EN 12390-8 [15] sinov rejimiga mos keladi; $\mu = 1{,}0 \cdot 10^{-3}$ Pa·s, φ_e = 0,10 (suv bilan to‘ladigan samarali g‘ovaklik). Kapillyar so‘rilish Uoshbern tenglamasi [9] va sorbtivlik tushunchasi [10] orqali ifodalandi:

$$i = S \cdot \sqrt{t}, \quad S = \varphi_e \cdot \xi \cdot \sqrt{(r_{eff} \cdot \gamma \cdot \cos\theta / (2\mu))} \qquad (5)$$

bunda $r_{eff} = d_c/2$, γ = 0,0728 N/m, $\cos\theta = 1$, ξ = 0,18 — g‘ovak kanallarining egri-bugriligi va torayishini hisobga oluvchi koeffitsiyent.

Modelning kirish parametrlari adabiyotlarda keltirilgan tendensiyalarga mos holda tanlangan, shu sababli ular aniq bir laboratoriya ma’lumotlari emas, balki tayanch taxminlar sifatida qaralishi kerak. Sementning gidratatsiya darajasi mayda filler ta’sirida (zarralar sirtida kristallanish markazlari paydo bo‘lishi va sement donalari uchun suv ulushining ortishi) oshadi [7]: $\alpha_s = 0{,}78 + 0{,}0025 \cdot MK + 0{,}0040 \cdot OK$. Pozzolan reaksiyasi darajasi mikrokremnezyom miqdori ortishi bilan pasayadi, ohaktosh kukuni bo‘lganda esa biroz ortadi: $\alpha_p = 0{,}62 - 0{,}012 \cdot MK + 0{,}004 \cdot OK$. Kritik g‘ovak diametri $d_c = 100 \cdot (\varepsilon_{kap}/0{,}347) \cdot (1 - 6\Pi) \cdot (1 - 0{,}9 \cdot OK/100)$ ifodasi bilan berildi, bunda $\Pi = \alpha_p \cdot MK/100$ — reaksiyaga kirishgan pozzolan ulushi. Bu bog‘lanishlar nazorat tarkib uchun odatdagi tartibdagi qiymatlarni ($K_w \approx 10^{-12}$ m/s, $h \approx$ 20–25 mm) beradigan qilib moslangan; shundan so‘ng boshqa tarkiblar uchun hech qanday qo‘shimcha sozlash kiritilmadi.

3. Natijalar

3.1. G‘ovaklar tuzilmasi va mustahkamlik

Nazorat tarkibda kapillyar g‘ovaklik 22,0 % ni, kritik g‘ovak diametri 64 nm ni tashkil etdi (1-rasm). Mikrokremnezyomning yakka o‘zi (S8) g‘ovaklikni 18,9 % gacha, d_c ni esa 41 nm gacha kamaytirdi. Ohaktosh kukuni (L15) teskari natija berdi: g‘ovaklik 24,9 % gacha ortdi, d_c deyarli o‘zgarmadi (62 nm). Binar tarkiblarda umumiy g‘ovaklik nazoratga yaqin (21,6–21,8 %) qolgan bo‘lsa-da, g‘ovaklar ancha mayda bo‘lib chiqdi: B1, B2 va B3 uchun d_c mos ravishda 49, 44 va 39 nm.



1-rasm. Tarkiblar bo‘yicha kapillyar g‘ovaklik (a) va kritik g‘ovak diametri (b), 28 sutka (hisoblash natijasi)

Hisoblangan siqilishdagi mustahkamlik nazoratda 56,7 MPa, S8 da 65,9 MPa, L15 da esa atigi 47,6 MPa bo‘ldi (2-jadval). Binar tarkiblarda bu ko‘rsatkich 56,6–57,5 MPa oralig‘ida, ya’ni nazorat darajasida qoldi, vaholanki klinker ulushi 12 dan 24 % gacha kamaytirilgan.

3.2. Bosim ostida filtratsiya

Filtratsiya koeffitsiyenti nazorat tarkibda $2{,}00\cdot10^{-12}$ m/s ga teng bo‘ldi. S8 tarkibda u $0{,}51\cdot10^{-12}$ m/s gacha (−75 %) tushdi, L15 da esa $2{,}35\cdot10^{-12}$ m/s gacha (+17 %) oshdi. Binar tarkiblarda pasayish ketma-ket kuchaydi: B1 da −48 %, B2 da −62 %, B3 da −71 % (2-rasm, b). EN 12390-8 rejimida suvning kirish chuqurligi nazoratda 23,0 mm, B3 da 12,3 mm, S8 da 11,6 mm bo‘ldi; chuqurlik vaqtning kvadrat ildiziga proporsional o‘sgani uchun egri chiziqlar 2-rasm, a da parabolik ko‘rinishga ega.



2-rasm. Suv kirish chuqurligining vaqt bo‘yicha o‘zgarishi (a) va filtratsiya koeffitsiyenti (b), P = 0,5 MPa

2-jadval. Hisoblangan ko‘rsatkichlar (28 sutka, S/B = 0,45)

Tarkib	ε_{kap}, %	d_c, nm	f_c, MPa	K_w, 10^{-12} m/s	$K_w/K_{w,0}$	h, mm	S, mm/min$^{1/2}$	Klinker sarfi, kg/(m³·MPa)
C0	22,0	63,5	56,7	2,00	1,00	23,0	0,150	7,06
S8	18,9	40,8	65,9	0,51	0,25	11,6	0,120	5,58
L15	24,9	62,0	47,6	2,35	1,17	24,9	0,148	7,14
B1	21,6	49,4	57,5	1,04	0,52	16,6	0,132	6,12
B2	21,6	43,6	57,3	0,77	0,38	14,2	0,124	5,72
B3	21,8	38,5	56,6	0,58	0,29	12,3	0,117	5,37

3.3. Kapillyar so‘rilish

Sorbtivlik nazoratda 0,150 mm/min$^{1/2}$, S8 da 0,120, B3 da 0,117 mm/min$^{1/2}$ ni tashkil etdi (3-rasm). Farq filtratsiyadagiga qaraganda ancha kichik: sorbtivlik g‘ovak radiusining kvadrat ildiziga bog‘liq bo‘lgani uchun g‘ovaklar o‘lchamining 1,6 baravar kichrayishi uni atigi 22 % ga kamaytiradi. Boshqacha aytganda, mikrokremnezyomli tizimlar bosim ostidagi oqimni kapillyar tortilishga nisbatan ancha kuchliroq cheklaydi.

3.4. Binar tizimning samarali sohasi

4-rasmda mikrokremnezyom (0–10 %) va ohaktosh kukuni (0–20 %) miqdorlari bo‘yicha nisbiy filtratsiya koeffitsiyenti va mustahkamlik chiziqlari birga tasvirlangan. $f_c = f_{c,0}$ egri chizig‘idan yuqorida va chapda joylashgan tarkiblar nazoratdan kuchsizroq bo‘ladi; shu chiziqdan pastda va o‘ngda esa mustahkamlik saqlanadi yoki ortadi. Binar nuqtalar (B1–B3) ushbu chiziq yaqinida yotadi va o‘ngga siljigan sari K_w kamayadi. Klinker sarfini bir birlik mustahkamlikka nisbatan olsak (2-jadval, oxirgi ustun), nazoratda 7,06 kg/(m³·MPa) talab qilingan bo‘lsa, B3 da 5,37, S8 da 5,58 kg/(m³·MPa) yetarli bo‘lgan; L15 da bu ko‘rsatkich nazoratdan ham yomon (7,14).



3-rasm. Kumulyativ kapillyar so‘rilish



4-rasm. Nisbiy K_w (rang) va nisbiy mustahkamlik (chiziqlar)

4. Muhokama

Hisob natijalarining asosiy mazmuni shundan iboratki, mikroto‘ldirgichning suv o‘tkazuvchanlikka ta’siri uning umumiy g‘ovaklikka ta’siridan ko‘ra ko‘proq g‘ovaklar o‘lchamiga bog‘liq. B2 va B3 tarkiblarda kapillyar g‘ovaklik nazoratdan deyarli farq qilmaydi, filtratsiya koeffitsiyenti esa taxminan 2,6–3,5 baravar kam. Buning sababi (3)-ifodadan ko‘rinadi: k kritik diametrning kvadratiga proporsional, shu bois d_c ning 10 % o‘zgarishi K_w ni taxminan 20 % ga o‘zgartiradi. Demak, binar tizimning vazifasi g‘ovaklarni “kamaytirish” emas, balki ularni mayda va bir-biri bilan kam bog‘langan holga keltirishdir. Bu xulosa pozzolanli pastalarda g‘ovak tarmog‘ining uzilishi haqidagi klassik tasavvurlarga [1, 17] mos keladi.

Ohaktosh kukunining yakka holdagi natijasi ham e’tiborga loyiq. O‘zgarmas S/B da sementni 15 % ga almashtirish faol bog‘lovchi hajmini kamaytiradi, filler esa gidratatsiya darajasini faqat qisman oshiradi, natijada g‘ovaklik ortadi va mustahkamlik 16 % ga pasayadi. Bu holat dispers qo‘shimchalarning “suyultirish” va “kimyoviy” ta’sirlarini ajratib ko‘rsatgan ishlardagi kuzatuvlarga mos [7]. Ohaktosh kukuni binar tizimda boshqacha vazifa bajaradi: mikrokremnezyom bilan birga qo‘llanganda uning mustahkamlikka salbiy hissasi mikrokremnezyomning pozzolan hissasi bilan qoplanadi, bunda ohaktosh kukuni klinker sarfini kamaytirish va zarralar o‘lchamlari taqsimotini kengaytirish (Andreasen tipidagi zichlanish [13]) vositasi bo‘lib qoladi.

Shu bilan birga, S8 tarkibi hamma gidravlik ko‘rsatkichlar bo‘yicha binar tarkiblardan ustun chiqqanini yashirib bo‘lmaydi: uning filtratsiya koeffitsiyenti eng past, mustahkamligi eng yuqori. Binar tizimning afzalligi boshqa joyda. Birinchidan, S8 da klinker 8 % ga, B3 da esa 24 % ga kamaygan; sement ishlab chiqarishdagi CO_2 chiqindilarining asosiy qismi aynan klinkerga to‘g‘ri kelishini hisobga olsak [12], bu farq sezilarli. Ikkinchidan, ohaktosh kukuni hisobiga mikrokremnezyom

miqdorini 10 % dan oshirmasdan, S8 ga yaqin filtratsiya darajasiga erishish mumkin (4-rasmda B3 dan o‘ngdagi sohada). Mikrokremnezyom miqdori ko‘paygani sari suv talabi va avtogen qisqarish xavfi ortishi ma’lum [11, 14]; bunday qisqarishdan paydo bo‘ladigan mikroyoriqlar esa filtratsiya uchun eng qisqa yo‘l bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu model yoriqlarni hisobga olmaydi, shu sababli yuqori mikrokremnezyom dozalarida hisoblangan K_w qiymatlari ancha optimistik bo‘lishi mumkin.

Natijalarni talqin qilishda quyidagi cheklovlarni nazarda tutish zarur. Birinchi, kirish bog‘lanishlari (gidratatsiya va pozzolan reaksiyasi darajalari, d_c ifodasi, f_{OZ}) adabiyotlardagi tendensiyalar asosida moslangan va aniq materiallar uchun laboratoriya o‘lchovlari (simob porozimetriyasi, termogravimetriya, shuningdek, GOST 12730.5 [16] va EN 12390-8 [15] bo‘yicha sinovlar) bilan kalibrlanishi kerak. Ikkinchi, reologiya, yoriqbardoshlik, xlorid va sulfat diffuziyasi, sovuqbardoshlik tahlilga kiritilmagan. Uchinchi, nisbiy tavsiyalar (masalan, 1:2 nisbat) mahalliy mikrokremnezyom va ohaktosh xomashyosining haqiqiy zarra o‘lchamlari va kimyoviy tarkibiga qarab o‘zgarishi mumkin. Shunga qaramay, taqdim etilgan sxema tajribalar sonini kamaytirish va tarkiblarni dastlabki saralash uchun ishlatilishi mumkin.

5. Xulosa

1) Mikrokremnezyom va ohaktosh kukuni asosidagi binar mikroto‘ldirgich (1:2, jami 24 %) kapillyar g‘ovaklikni nazorat darajasida (21,8 % ga qarshi 22,0 %) saqlagan holda kritik g‘ovak diametrini 64 nm dan 39 nm gacha kamaytiradi; filtratsiya koeffitsiyenti $2{,}00\cdot10^{-12}$ dan $0{,}58\cdot10^{-12}$ m/s gacha (taxminan 3,5 baravar) pasayadi.

2) Hisoblangan siqilishdagi mustahkamlik binar tarkiblarda 56,6–57,5 MPa bo‘lib, nazorat (56,7 MPa) bilan teng; klinker sarfi 12–24 % ga kamayadi, bir MPa mustahkamlikka klinker sarfi esa 7,06 dan 5,37 kg/(m³·MPa) gacha tushadi.

3) Ohaktosh kukuni yakka holda qo‘llanganda suv o‘tkazuvchanlik 17 % ga oshadi va mustahkamlik pasayadi, ya’ni uning samarasi faqat mikrokremnezyom bilan birgalikda namoyon bo‘ladi.

4) Sorbtivlik bosim ostidagi filtratsiyaga qaraganda mikroto‘ldirgichga kamroq sezgir (nazoratga nisbatan −22 % gacha), shuning uchun gidrotexnik beton uchun tarkibni filtratsiya koeffitsiyenti va kirish chuqurligi bo‘yicha baholash ma’qul.

5) Olingan natijalar hisoblash modeliga asoslangan; ularni tasdiqlash uchun tanlangan tarkiblar (C0, S8, B2, B3) bo‘yicha GOST 12730.5 va EN 12390-8 sinovlari, shuningdek, simob porozimetriyasi o‘tkazilishi lozim.

Adabiyotlar

1. Powers T.C., Brownyard T.L. Studies of the physical properties of hardened Portland cement paste // Journal of the American Concrete Institute. 1946–1947. Vol. 43.

2. Powers T.C. Structure and physical properties of hardened Portland cement paste // Journal of the American Ceramic Society. 1958. Vol. 41, No. 1. P. 1–6.

3. Neville A.M. Properties of Concrete. 5th ed. Harlow: Pearson Education, 2011. 846 p.

4. Mehta P.K., Monteiro P.J.M. Concrete: Microstructure, Properties, and Materials. 4th ed. New York: McGraw-Hill Education, 2014. 675 p.

5. Scrivener K.L., Juilland P., Monteiro P.J.M. Advances in understanding hydration of Portland cement // Cement and Concrete Research. 2015. Vol. 78. P. 38–56.

6. Lothenbach B., Scrivener K., Hooton R.D. Supplementary cementitious materials // Cement and Concrete Research. 2011. Vol. 41, No. 12. P. 1244–1256.

7. Cyr M., Lawrence P., Ringot E. Efficiency of mineral admixtures in mortars: quantification of the physical and chemical effects of fine admixtures in relation with compressive strength // Cement and Concrete Research. 2006. Vol. 36, No. 2. P. 264–277.

8. Katz A.J., Thompson A.H. Quantitative prediction of permeability in porous rock // Physical Review B. 1986. Vol. 34, No. 11. P. 8179–8181.

9. Washburn E.W. The dynamics of capillary flow // Physical Review. 1921. Vol. 17, No. 3. P. 273–283.

10. Hall C. Water sorptivity of mortars and concretes: a review // Magazine of Concrete Research. 1989. Vol. 41, No. 147. P. 51–61.

11. Siddique R. Utilization of silica fume in concrete: review of hardened properties // Resources, Conservation and Recycling. 2011. Vol. 55, No. 11. P. 923–932.

12. Scrivener K.L., John V.M., Gartner E.M. Eco-efficient cements: potential economically viable solutions for a low-CO_2 cement-based materials industry // Cement and Concrete Research. 2018. Vol. 114. P. 2–26.

13. Andreasen A.H.M., Andersen J. Über die Beziehung zwischen Kornabstufung und Zwischenraum in Produkten aus losen Körnern // Kolloid-Zeitschrift. 1930. Bd. 50. S. 217–228.

14. Aïtcin P.-C. Binders for Durable and Sustainable Concrete. London: Taylor & Francis, 2008. 528 p.

15. EN 12390-8:2019. Testing hardened concrete. Part 8: Depth of penetration of water under pressure. Brussels: CEN, 2019.

16. ГОСТ 12730.5-2018. Бетоны. Методы определения водонепроницаемости. М.: Стандартинформ, 2018.

17. Bentz D.P., Garboczi E.J. Percolation of phases in a three-dimensional cement paste microstructural model // Cement and Concrete Research. 1991. Vol. 21, No. 2–3. P. 325–344.

BINAR MIKROTO‘LDIRGICHLI BETONLARDA SUV-BOG‘LOVCHI NISBATINING RUXSAT ETILGAN CHEGARASI VA KLINKER SARFINI GIDRAVLIK MEZON ASOSIDA ASOSLASH

Choriyev Alibek

Annotatsiya. *Mikrokremnezyom va ohaktosh kukunidan iborat binar mikroto‘ldirgichli beton uchun suv-bog‘lovchi nisbatining (S/B) gidravlik va mustahkamlik mezonlari bo‘yicha yuqori chegarasi hisoblandi. Suv sarfi o‘zgarmas (180 kg/m³) holda 6 % + 12 % va 8 % + 16 % tarkiblarda klinker sarfi nazorat tarkibga nisbatan mos ravishda 29 % va 34 % kam bo‘lishi aniqlandi. Natijalar hisoblash modeliga asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *suv-bog‘lovchi nisbati, binar mikroto‘ldirgich, suv kirish chuqurligi, klinker sarfi, gidrotexnik beton.*

Kirish

Gidrotexnik betonda suv-bog‘lovchi nisbati tarkibni loyihalashdagi asosiy o‘zgaruvchi hisoblanadi: S/B ortishi bilan kapillyar g‘ovaklik va g‘ovaklar tarmog‘ining o‘tkazuvchanligi keskin ko‘tariladi, mustahkamlik esa pasayadi [2, 5]. Amaliyotda S/B yuqori chegarasi odatda ikki mezon orqali belgilanadi — suv o‘tkazuvchanlik (masalan, bosim ostida suvning kirish chuqurligi) va siqilishdagi mustahkamlik. Nazorat tarkiblarda bu chegarani asosan suv o‘tkazuvchanlik cheklaydi, sababi filtratsiya g‘ovak o‘lchamiga kvadratik bog‘liq, mustahkamlik esa gel-fazoviy nisbatning kubiga proporsional.

Muallifning avvalgi tadqiqotida [1] mikrokremnezyom va ohaktosh kukunidan iborat binar mikroto‘ldirgich S/B = 0,45 da baholangan va g‘ovaklar mayinlashishi hisobiga filtratsiya koeffitsiyenti sezilarli kamayishi ko‘rsatilgan. Ammo bu natijaning amaliy ma’nosi — bog‘lovchi hajmi va klinker sarfini qanchalik qisqartirish mumkinligi — ochiq qolgan edi. Ushbu tezisda S/B o‘zgaruvchan parametr sifatida qaraldi va gidravlik hamda mustahkamlik mezonlari birgalikda bajariladigan eng yuqori S/B aniqlandi. Maqsad — shu chegaraga mos keladigan klinker sarfini turli tarkiblar uchun taqqoslashdan iborat.

Materiallar va usullar

Hisoblash [1] da keltirilgan model asosida bajarildi: kapillyar g‘ovaklik Pauers hajmiy balansidan, kritik g‘ovak diametri empirik bog‘lanishdan, o‘tkazuvchanlik Kats–Tompson ifodasidan [3], suv kirish chuqurligi esa Darsi qonuni asosidagi

porshenli oqim sxemasidan olindi (P = 0,5 MPa, t = 72 soat, EN 12390-8 [4] rejimiga mos). Modelning kirish parametrlari o‘zgartirilmadi; faqat S/B ga bog‘liq tuzatma kiritildi: sementning 28 sutkalik gidratatsiya darajasi $\alpha_s = \alpha_s(0{,}45) + 0{,}35\cdot(S/B - 0{,}45)$ deb olindi. Bu tuzatma ham adabiyotlardagi tendensiyaga mos qabul qilingan taxmin bo‘lib, laboratoriya o‘lchovlari bilan kalibrlanmagan.

Suv sarfi 180 kg/m³ da qat’iy ushlab turildi, shu sababli bog‘lovchi miqdori S/B ga qarab o‘zgardi, klinker sarfi esa quyidagicha hisoblandi:

$$C_k = (W / SB)\cdot(1 - (MK + OK)/100) \quad (1)$$

bunda W — suv sarfi, kg/m³; MK va OK — mikrokremnezyom va ohaktosh kukuni ulushi, %. Tanlangan mezonlar: $h \le 30$ mm va $f_c \ge 40$ MPa. Birinchisi shartli chegara sifatida qabul qilindi; real loyihada u me’yoriy hujjat va inshoot sinfiga qarab belgilanadi. Ruxsat etilgan S/B deb ikkala shart bir vaqtda bajariladigan eng katta qiymat olindi. Nazorat tarkib (C0) bilan birga mikrokremnezyomli (S8: 8 %) va binar (B2: 6 % + 12 %; B3: 8 % + 16 %) tarkiblar tahlil qilindi, S/B oralig‘i 0,40–0,60.

Natijalar va muhokama

Suv kirish chuqurligi S/B bilan deyarli chiziqli o‘sdi (1-rasm, a): nazorat tarkibda h = 14 mm (S/B = 0,40) dan 59 mm (S/B = 0,60) gacha ko‘tarildi. Mikroto‘ldirgichli tarkiblarda egri chiziqlar pastroqda joylashdi, ya’ni bir xil S/B da suv kamroq kirdi. Mustahkamlik egri chiziqlari (1-rasm, b) esa C0, B2 va B3 uchun amalda ustma-ust tushdi. Demak, S/B o‘zgarmaganda binar almashtirish modelda mustahkamlikni deyarli o‘zgartirmaydi, gidravlik ko‘rsatkichni esa yaxshilaydi.



1-rasm. Suv kirish chuqurligi (a) va siqilishdagi mustahkamlik (b) ning S/B ga bog‘liqligi. Nuqtalar — ikkala mezon bajariladigan chegaraviy S/B; punktir — mezon qiymati (h = 30 mm; f_c = 40 MPa)

Nazorat tarkib uchun chegaraviy S/B ni suv o‘tkazuvchanlik cheklaydi: S/B = 0,483 da h = 29,8 mm, mustahkamlik esa 50,8 MPa, ya’ni zaxira bor. S8 tarkibda ham chegara gidravlik (0,580), ammo B3 tarkibda holat o‘zgardi: gidravlik mezon

S/B = 0,592 gacha ruxsat etar edi, mustahkamlik talabi esa chegarani 0,556 da to‘xtatdi, bunda h = 25,2 mm, ya’ni gidravlik zaxira saqlanib qoldi. B2 da ikkala mezon deyarli bir S/B da (0,561) bajarildi. Boshqacha aytganda, mikroto‘ldirgich ulushi oshgani sari cheklovchi omil suv o‘tkazuvchanlikdan mustahkamlikka o‘tdi.

1-jadval. Chegaraviy S/B va unga mos klinker sarfi (W = 180 kg/m³)

Tarkib	S/B	Bog‘lovchi, kg/m³	Klinker, kg/m³	Tejam, %	h, mm	f_c, MPa	Cheklovchi mezon
C0	0,483	373	373	—	29,8	50,8	Suv kirishi
S8	0,580	310	286	23	30,0	44,4	Suv kirishi
B2	0,561	321	263	29	29,9	40,1	Suv kirishi
B3	0,556	324	246	34	25,2	40,0	Mustahkamlik

Klinker sarfi nazoratda 373 kg/m³ ni tashkil etgan bo‘lsa, S8 da 286, B2 da 263, B3 da 246 kg/m³ bo‘ldi (1-jadval), ya’ni tejam mos ravishda 23, 29 va 34 % ga yetdi. Qiziqarli jihati shundaki, S8 tarkibda ruxsat etilgan S/B eng yuqori bo‘lsa-da, klinker sarfi B3 dagidan ko‘p chiqdi: B3 da klinker ulushi 76 %, S8 da esa 92 %. Binar tizimning ustunligi shu yerda namoyon bo‘ldi — tejam S/B ning oshishidan ham, klinker ulushining pasayishidan ham hosil bo‘ladi.

S/B tuzatmasidagi 0,35 koeffitsiyenti taxminiy qabul qilingani sababli, natijaning unga sezgirligi alohida tekshirildi. Koeffitsiyent 0,20 dan 0,50 gacha o‘zgartirilganda chegaraviy S/B nazorat tarkibda 0,481–0,487, B3 tarkibda esa 0,546–0,567 oralig‘ida qoldi; B3 uchun klinker sarfi 250 dan 241 kg/m³ gacha, nazorat uchun 374 dan 370 kg/m³ gacha o‘zgardi. Demak, B3 tarkibning tejami shu parametrning tanlangan qiymatiga deyarli bog‘liq bo‘lmadi (33–35 %), garchi uning absolyut qiymati kalibrlanmagan modelning aniqligi bilan chegaralangan.

Natijalarni qo‘llashda bir nechta cheklov hisobga olinishi kerak. Suv sarfining o‘zgarmasligi taxmini bog‘lovchi miqdori 320–330 kg/m³ gacha kamayganda pasta hajmi qisqarishini va qorishmaning yuruvchanligi hamda bir jinsliligiga ta’sir etishini bildiradi; shuningdek, me’yoriy hujjatlarda S/B ning yuqori chegarasi va bog‘lovchining eng kam sarfi alohida belgilanadi, ular chidamlilik sinfiga qarab hisoblangan qiymatlardan qat’iyroq bo‘lishi mumkin. Shu bois topilgan S/B qiymatlari gidravlik va mustahkamlik nuqtai nazaridan nazariy yuqori chegara sifatida talqin qilindi. Model yoriqlar, sovuqbardoshlik va ion diffuziyasini o‘z ichiga olmaydi [6, 7].

Xulosa

1) Binar mikroto‘ldirgichli betonlarda S/B ning ruxsat etilgan chegarasi nazorat tarkibdagi 0,48 dan 0,56 gacha ko‘tarilishi hisoblandi; chegara B3 tarkibida suv o‘tkazuvchanlik bilan emas, mustahkamlik bilan belgilandi.

2) Suv sarfi 180 kg/m³ bo‘lganda klinker sarfi nazoratdagi 373 kg/m³ dan B2 da 263, B3 da 246 kg/m³ gacha kamayadi (29 va 34 %); mikrokremnezyomning yakka o‘zi 23 % tejam beradi.

3) Taqdim etilgan chegaralar hisoblash modelining natijasi bo‘lib, tanlangan tarkiblar uchun EN 12390-8 va GOST 12730.5 bo‘yicha tajribada tasdiqlanishi talab etiladi.

Adabiyotlar

1. Choriyev A. Polifunksional binar mikroto‘ldirgichlarni qo‘llab betonlarni modifikatsiyalash: nashrga tayyorlangan maqola. 2026.

2. Powers T.C. Structure and physical properties of hardened Portland cement paste // Journal of the American Ceramic Society. 1958. Vol. 41, No. 1. P. 1–6.

3. Katz A.J., Thompson A.H. Quantitative prediction of permeability in porous rock // Physical Review B. 1986. Vol. 34, No. 11. P. 8179–8181.

4. EN 12390-8:2019. Testing hardened concrete. Part 8: Depth of penetration of water under pressure. Brussels: CEN, 2019.

5. Neville A.M. Properties of Concrete. 5th ed. Harlow: Pearson Education, 2011. 846 p.

6. Lothenbach B., Scrivener K., Hooton R.D. Supplementary cementitious materials // Cement and Concrete Research. 2011. Vol. 41, No. 12. P. 1244–1256.

7. Scrivener K.L., John V.M., Gartner E.M. Eco-efficient cements: potential economically viable solutions for a low-CO_2 cement-based materials industry // Cement and Concrete Research. 2018. Vol. 114. P. 2–26.

8. ГОСТ 12730.5-2018. Бетоны. Методы определения водонепроницаемости. М.: Стандартинформ, 2018.

QUYOSH ENERGIYASIDAN FOYDALANIB NAMLATIB-BUG‘LATISH USULIDA SHO‘R SUVNI CHUCHUCHITISH TEXNOLOGIYASI

G‘afurova Marjona Tolib qizi
Buxoro viloyati, Buxoro shahar 41- maktab
marjonagafurova901@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada quyosh energiyasidan foydalanib, namlatib-bug‘latish–kondensatsiya (HDH) usulida sho‘r suvni chuchuklantirish tizimining ishlash prinsipi yoritilgan. Quyosh kollektorlarida qizdirilgan havo va suv namlagichda o‘zaro ta’sirlashib, nam havo hosil qiladi. Keyingi bosqichda nam havo kondensatsiya qismida sovitilib, chuchuk suv olinadi. Tizimning asosiy qismlari va ular orasidagi issiqlik hamda massa almashinuvi jarayonlari ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar: *quyosh energiyasi, sho‘r suv, chuchuklantirish, HDH, namlagich, kondensatsiya, quyosh kollektori, chuchuk suv.*

Аннотация: *В статье рассмотрен принцип работы системы опреснения солёной воды методом увлажнения-осушения (HDH) с использованием солнечной энергии. Нагретые в солнечных коллекторах воздух и вода взаимодействуют в увлажнителе с образованием влажного воздуха. На следующем этапе влажный воздух охлаждается в конденсационной части, в результате чего образуется пресная вода. Представлены основные элементы системы и процессы тепло- и массообмена между ними.*

Ключевые слова: *солнечная энергия, солёная вода, опреснение, HDH, увлажнитель, конденсация, солнечный коллектор, пресная вода.*

Abstract: *This article presents the operating principle of a solar-powered humidification-dehumidification (HDH) desalination system for producing fresh water from saline water. Air and water heated by solar collectors interact in the humidifier, resulting in the formation of humid air. In the next stage, the humid air is cooled in the condensation section, producing fresh water. The main components of the system and the associated heat and mass transfer processes are presented.*

Keywords: *solar energy, saline water, desalination, HDH, humidifier, condensation, solar collector, fresh water.*

Kirish.

HDH texnologiyasi quyosh energiyasidan foydalanib sho‘r suvni chuchuklantirishning istiqbolli usullaridan biri hisoblanadi. Santosh va boshqalar (2019) quyosh HDH tizimlarida havo va suvni oldindan qizdirish hamda issiqlik almashinuvini yaxshilash samaradorlikni oshirishini ko‘rsatgan [1]. Kasaeian va boshqalar (2019) quyosh HDH tizimlarini tahlil qilib, tizimni boshqa qurilmalar bilan gibridlashtirish samaradorlikni oshirishini ta’kidlagan [2].

Lawal va Qasem (2020) quyosh kollektorlaridan, PV/T va boshqa past potensialli issiqlik manbalaridan HDH tizimlarini ishlatishda foydalanish mumkinligini ko‘rsatgan. Ayniqsa, quyosh kollektorlarining avtonom va chekka hududlar uchun istiqbolliligi qayd etilgan [3].

Tiwari va Kumar (2025) quyosh havo va suv isitgichlari asosidagi HDH tizimini tadqiq qilib, 3,78-5,34 L/soat chuchuk suv ishlab chiqarish va 33,2-46,8 % issiqlik samaradorligiga erishgan [4].

Umuman, adabiyotlar tahlili quyosh kollektor, namlagich, nam havo, kondensatsiya, chuchuk suv sxemasi HDH tizimlarining asosiy ishlash prinsipini tashkil etishini va samaradorlikni oshirishda havo-suvni qizdirish hamda kondensatsiya jarayonlarini takomillashtirish muhimligini ko‘rsatadi.

Asosiy qism.



1-rasm. Namlatib-bug‘latish (HDH) tizimi sxemasi

` 1-rasmda ko‘rsatilgan namlatib-bug‘latish (HDH) tizimining ishlash prinsipi suvni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qaynatmasdan, suv bug‘ining havoga o‘tishi va keyinchalik undan ajratib olinishi asosida amalga oshiriladi. Dastlab quyosh energiyasi quyosh havo isitgichi va quyosh suv isitgichi orqali yig‘iladi. Quyosh nurlanishi ta’sirida sho‘r suv va havo qiziydi. Qizdirilgan sho‘r suv namlagichga yuboriladi, qizdirilgan havo esa shu qurilmaga kiradi. Namlagich ichida issiq havo va suv o‘zaro kontaktga kirishadi: suvning bir qismi bug‘lanib, havoga qo‘shiladi va natijada harorati yuqori, namlik miqdori katta bo‘lgan nam havo hosil bo‘ladi. Bu jarayonda suvning faqat bir qismi bug‘langanligi sababli tuzlarning asosiy qismi sho‘r suvda qoladi. Hosil bo‘lgan nam havo keyin kondensatsiya qismiga yo‘naltiriladi. Kondensatorda nam havo sovituvchi suv bilan issiqlik almashadi. Havo harorati pasayishi natijasida uning tarkibidagi suv bug‘ini ushlab turish qobiliyati kamayadi va suv bug‘i kondensatsiyalanib, suyuq suv tomchilariga aylanadi. Hosil bo‘lgan kondensat alohida yig‘ilib, chuchuk suv sifatida olinadi. Kondensatsiyadan keyin nisbatan quruq havo tizimdan chiqarilishi yoki qayta aylantirilib, jarayonning keyingi siklida yana ishlatilishi mumkin. Shu bilan birga, kondensatorda qizigan sovituvchi suvni qayta tizimga yuborish yoki boshqa issiqlik almashinuvi jarayonlarida foydalanish orqali energiya samaradorligini oshirish mumkin.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, quyosh energiyasiga asoslangan HDH tizimi sho‘r suvni chuchuklantirishning sodda va istiqbolli usullaridan biridir. Tizimda quyosh energiyasi yordamida suv va havo qizdirilib, namlagichda suvning bir qismi havoga bug‘lanadi. Hosil bo‘lgan nam havo kondensatsiya qismida sovitilishi natijasida suv bug‘i kondensatsiyalanib, chuchuk suv olinadi. Mazkur texnologiyada qayta tiklanuvchi quyosh energiyasidan foydalanilishi tashqi energiya sarfini kamaytirish imkonini beradi. Shu sababli HDH tizimlari quyosh radiatsiyasi yuqori bo‘lgan hududlarda, ayniqsa, ichimlik suvi ta’minoti cheklangan va markazlashgan energiya tarmog‘idan uzoq joylarda qo‘llash uchun istiqbolli hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Santosh R., Arunkumar T., Velraj R., Kumaresan G. Technological advancements in solar energy driven humidification-dehumidification desalination systems – A review // Journal of Cleaner Production. – 2019. – Vol. 207. – P. 826–845. – DOI: 10.1016/j.jclepro.2018.09.247.

2. Kasaeian A., et al. Solar humidification-dehumidification desalination systems: A critical review // Energy Conversion and Management. – 2019. – Vol. 201. – P. 112129. – DOI: 10.1016/j.enconman.2019.112129.

3. Lawal D. U., Qasem N. A. A. Humidification-dehumidification desalination systems driven by thermal-based renewable and low-grade energy sources: A critical review // Renewable and Sustainable Energy Reviews. – 2020. – Vol. 125. – P. 109817. – DOI: 10.1016/j.rser.2020.109817.

4. Tiwari A., Kumar A. Humidification-dehumidification desalination system based on solar air and water heaters // Solar Energy. – 2025. – Vol. 297. – P. 113637. – DOI: 10.1016/j.solener.2025.113637.

QUYOSH QURITGICHLARINING ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ISSIQLIK ENERGIYASINI SAQLASH TIZIMLARIDAN FOYDALANISH

Hikmatov Behzod Amonovich
Buxoro davlat universiteti
behzodhikmatov1996@gmail.com
Mirzaev Mirfayz Salimovich
Buxoro davlat universiteti
mirzayevmirfayz@gmail.com

Annotatsiya: *Quyosh quritgichlaridan foydalanish bugungi kunda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini energiya tejamkor, ekologik xavfsiz va barqaror usulda qayta ishlashning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Dunyo miqyosida oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish hajmining ortishi bilan bir qatorda, ularni yig‘ib olingandan keyingi bosqichda saqlash va qayta ishlash jarayonlarida yuzaga keladigan yo‘qotishlarni kamaytirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.*

Kalit so‘zlar: *Quritgich, energiya, fazaviy o’zgaruvchi material, issiqlikni saqlash.*

Аннотация: *Использование солнечных сушилок в настоящее время рассматривается как перспективный подход к переработке сельскохозяйственной продукции, обеспечивающий энергоэффективность, экологическую безопасность и устойчивость процесса. На фоне глобального роста объемов производства продовольствия все более острой становится проблема минимизации потерь при послеуборочном хранении и переработке.*

Ключевые слова: *Сушилка, энергия, материал с фазовым переходом, аккумулирование тепла.*

Abstract: *The use of solar dryers is currently considered a promising approach to processing agricultural products in an energy-efficient, environmentally safe, and sustainable manner. Alongside the global increase in food production volumes, the issue of minimizing losses during post-harvest storage and processing has become increasingly critical.*

Keywords: *Dryer, energy, phase-change material, heat storage.*

Kirish

An’anaviy quritish texnologiyalarida elektr energiyasi yoki qazilma yoqilg‘ilaridan foydalanilishi ekspluatatsion xarajatlarning ortishi va issiqxona gazlari emissiyasining ko‘payishiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan, quyosh energiyasidan bevosita foydalanadigan quritish qurilmalari mahalliy qayta tiklanuvchi energiya resurslarini samarali o‘zlashtirish, energiya sarfini kamaytirish hamda mahsulotni nazorat qilinadigan sharoitda quritish imkonini beruvchi texnologik yechim sifatida ilmiy va amaliy jihatdan katta qiziqish uyg‘otmoqda.

O‘zbekiston sharoitida quyosh quritgichlarini tadqiq etish va amaliyotga joriy qilish uchun tabiiy-iqlimiy sharoitlar ayniqsa qulay hisoblanadi. Mamlakat hududlarida quyosh radiatsiyasining yuqori bo‘lishi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini quritishda mavjud quyosh energiyasidan samarali foydalanish imkonini beradi. Meva-sabzavot, poliz, dorivor va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmining yuqoriligi esa ularni yig‘im-terimdan keyingi qayta ishlashning energiya samarador usullarini ishlab chiqishni talab etadi. Shu sababli O‘zbekiston sharoitiga mos, mahsulot sifatini saqlagan holda quritish jarayonini jadallashtiruvchi, issiqlik yo‘qotishlarini kamaytiruvchi va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan maksimal foydalanishga imkon beruvchi quyosh quritgichlarini yaratish hamda ularning issiqlik-massa almashinuvi jarayonlarini takomillashtirish dolzarb ilmiy-texnik vazifalardan biridir.

Asosiy qism

Quyosh quritgichlarida strukturaviy modifikatsiyalar, havo oqimini boshqarish va issiqlik energiyasini saqlash umumiy tizim ish faoliyatini boshqaruvchi bir-birini to'ldiruvchi va o'zaro bog‘liq elementlar sifatida ishlaydi. Kollektor va kamera modifikatsiyalari issiqlik energiyasini yutish va ulardan foydalanishga bevosita ta’sir qilsa-da, ular quyosh energiyasi cheklangan davrlarda quritishni tabiiy ravishda qo‘llab-quvvatlamaydi. Shuning uchun issiqlik energiyasini saqlash energiya ta'minotidagi vaqtinchalik “tebranishlarni” boshqarish va quritish ishlarini quyoshli soatlardan tashqarida qo’llab-quvvatlash orqali muhim rol o'ynaydi.

Ekka va Kumarning [1] fikriga ko‘ra, quyosh energiyasida qo‘llaniladigan issiqlik energiyasini saqlash tizimlari odatda energiya saqlash usuliga qarab uch toifaga bo‘linadi: Haroratning ko‘tarilishi ko‘rinishida saqlanadigan issiqlik saqlash (Sensible Heat Storage), yashirin issiqlik saqlash (Latent Heat Storage) va termokimyoviy issiqlik saqlash (Thermochemical Heat Storage). Har bir toifa alohida fizik tamoyillar asosida ishlaydi va turli xil issiqlikni saqlash xususiyatlarini namoyish etadi.

\ **1-jadval.** Issiqlik energiyasini saqlash tizimlarining tasnifi va tavsifi [2-4].

Issiqlik energiyasini saqlash turi va ishlash prinsipi	**Ko‘p qo‘llaniladigan materiallar**	**Asosiy afzalliklar/ kamchiliklar**	**Samaradorlikning oshishi**

Haroratning ko‘tarilishi ko‘rinishida saqlanadigan issiqlik saqlash (Sensible Heat Storage) - Haroratning ko‘tarilishi ko‘rinishida saqlanadigan issiqlik	Qum, toshlar, shag‘al, suv, g‘ishtlar, chiqindi kompozitlar, mayda toshlar (asosan tabiiy va chiqindilardan olingan).	Arzon, oddiy, chidamli/Past energiya zichligi, katta hajm	Quritish vaqtining 9–47% ga qisqarishi, issiqlik samaradorligining 66% gacha yetishi
Yashirin issiqlik saqlash (Latent Heat Storage) - Faza o‘zgarishi jarayonida to‘planadigan yoki ajralib chiqadigan issiqlik	Parafin mumi, stearin kislotasi, natriy atsetat trigidrati, gidratlangan tuzlar.	Yuqori energiya zichligi, barqaror harorat/ Narx, sizib chiqish, past o‘tkazuvchanlik	Quritish vaqtini 46% gacha qisqartirish, samaradorlik 87% gacha
Termokimyoviy issiqlik saqlash (Thermochemical Heat Storage) - Qaytariladigan kimyoviy reaksiyalar orqali saqlanadigan issiqlik	Tuz gidratlari (masalan, $CaCl_2 \cdot 6H_2O$, $SrBr_2 \cdot 6H_2O$, kompozitlar	Juda yuqori energiya zichligi, uzoq muddatli saqlash/ Murakkablik, xarajat, barqarorlik, cheklangan ko‘lam	Potensial jihatdan 1 m^3 uchun 500 kVt·soatdan ortiq energiya olish imkoniyati mavjud, biroq texnologiya hali yetarli darajada rivojlanmagan.

Quyosh quritgichlaridagi issiqlik energiyasini saqlash quyosh energiyasi mavjudligiga qarab tsiklik zaryadlash va razryadlash rejimlarida ishlaydi. Quyosh nurlanishining eng yuqori cho‘qqisida fazaviy o‘zgaruvchi material ortiqcha issiqlik energiyasini yutadi, quyosh nuri tushmaydigan davrda esa saqlangan issiqlik quritishni davom ettirish uchun chiqariladi [5]. Energiya ta’minoti va talabining bu vaqtinchalik uzilishi quyosh energiyasi mavjud bo‘lmaganining ta’sirini kamaytirish va barqaror quritish sharoitlarini saqlab qolish uchun juda muhimdir. Quritgichda havo haroratining juda ko‘tarilishi o‘rniga issiqlik energiyasini saqlash samaradorligi asosan quritish kinetikasiga bevosita ta’sir qiluvchi quyosh nuri tushmaydigan davrlarda quritish davomiyligi va harorat barqarorligi bilan belgilanadi. Bu haroratning ko‘tarilishi ko‘rinishida saqlanadigan issiqlik saqlash (Sensible Heat Storage) va yashirin issiqlik saqlash (Latent Heat Storage) muhitlarini o‘z ichiga olgan quyosh quritish tizimlarida doimiy ravishda qayd etilgan.

Xulosa

Issiqlik energiyasini saqlash tizimlarining o‘lchamlari barqaror ishlash va umumiy tizim samaradorligini boshqaruvchi muhim dizayn parametridir. Energiyani saqlash hajmi quyosh nurlanishi kam yoki umuman bo‘lmagan davrlarda issiqlik talabiga mos kelishi kerak va odatda iqlim sharoitlari, havo oqimi tezligi va

mahsulot namligi bilan belgilanadi. Avvalgi tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, kichik o‘lchamli issiqlik energiyasini saqlash tizimlaridan foydalanish quritgichda haroratning tez pasayishiga va mahsulotning to‘liq qurimasligiga olib keladi, katta o‘lchamli tizimlar esa ishlash samaradorligini oshirmasdan kapital xarajatlarni oshiradi. Shuning uchun optimal o‘lchamlar issiqlik saqlash hajmini boshqarish va tizim cheklovlari bilan muvozanatlashni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ekka J. P., Kumar D. A review of industrial food processing using solar dryers with heat storage systems // Journal of Stored Products Research. – 2023. – Vol. 101. – Art. 102090.

2. Simo-Tagne M., Ndukwu M. C., Zoulalian A., Bennamoun L., Kifani-Sahban F., Rogaume Y. Numerical analysis and validation of a natural convection mix-mode solar dryer for drying red chilli under variable conditions // Renewable Energy. – 2020. – Vol. 151. – P. 659–673.

3. Dutta P., Dutta P. P., Kalita P. Energy and exergy study of a novel multi-mode solar dryer without and with sensible heat storage for Garcinia pedunculata // Energy Sources, Part A: Recovery, Utilization, and Environmental Effects. – 2023. – Vol. 45, No. 3. – P. 9266–9282.

4. Kalita P., Singh P., Kakoty M., Das M., Das B., Saikia R. Turmeric (Curcuma longa L.) drying in a phase change material based solar drying unit with variable tilt angle solar air heater // Environmental Progress & Sustainable Energy. – 2025. – Vol. 44, No. 3. – Art. e14588.

5. Andharia J. K., Markam B., Dzhonova D., Maiti S. A comparative performance analysis of sensible and latent heat based storage in a small-scale solar thermal dryer // Journal of Energy Storage. – 2022. – Vol. 45. – Art. 103764.

RESULTS OF NUMERICAL STUDIES ON MODELING SOLAR WATER HEATING SYSTEMS

Hikmatov Behzod Amonovich
Bukhara State University
behzodhikmatov1996@gmail.com
Mirzaev Mirfayz Salimovich
Bukhara State University
mirzayevmirfayz@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu ishda quyosh suv isitish tizimining matematik modeli ishlab chiqilgan bo'lib, D.S.Salcines tadiqotida asosida modelning ishonchliligi baholangan. Ishlab chiqilgan matematik model asosida Buxoro shahrida joylashgan quyosh suv isitish tizimi uchun sonli tadqiqot natijalari olingan.*

Kalit so'zlar: *Quyosh suv isitish tizimlari, energiya, modellashtirish, kollektor, issiqlik almashtirgich, suv tanki.*

Аннотация. *В данном исследовании была разработана математическая модель гелиосистемы для нагрева воды, а ее надежность оценена на основе работы Д.С. Сальсинеса. С помощью разработанной математической модели были получены численные результаты для гелиосистемы, расположенной в городе Бухаре.*

Ключевые слова: *Гелиосистемы для нагрева воды, энергия, моделирование, коллектор, теплообменник, резервуар для воды.*

Abstract. *In this study, a mathematical model of a solar water heating system was developed, and the model's reliability was evaluated based on research by D.S. Salcines. Using the developed mathematical model, numerical results were obtained for a solar water heating system located in the city of Bukhara.*

Keywords: *Solar water heating systems, energy, modeling, collector, heat exchanger, water tank.*

Intorduction. A schematic diagram of the modeled solar water heating system is shown in Figure 1. The solar water heating system consists of a flat-plate solar collector, a water storage tank, a heat exchanger, an auxiliary energy source, and a water mixing device. Water circulating within the solar collector is heated by incident solar energy and flows into the heat exchanger installed inside the storage tank; after transferring its heat, the water returns to the solar collector to be reheated by solar energy. The storage tank contains water that accumulates the heat

transferred from the heat exchanger. Cold water returning from the consumer enters the lower part of the storage tank. Hot water supplied to the consumer may be cooled (to 45°C) before being distributed for domestic use. This cooling is achieved using a mixing device that adds cold water from the mains supply, as illustrated in Figure 1. An electric heater is used for supplementary heating when the water temperature in the storage tank falls below 60°C [1].



Figure 1. Schematic diagram of the hot water supply system: 1-solar collector; 2-heat exchanger; 3-water storage tank; 4-electric heater; 5-mixing device; 6-water pump.

Main part. At any given moment, the temperature of the circulating water at the solar collector outlet is calculated using the following equation:

$$T_{Cout} = T_{Cin} + \frac{I\eta_C S_C}{(\dot{m}C_p)} \quad (1)$$

T_{Cout} – temperature of the water exiting the collector, °C; T_{Cin} – temperature of water entering the collector, °C; I – solar radiation, W/m^2; η_C – collector efficiency; S_C – the surface of the collector, m^2; $\dot{m}$ – circulating water flow rate, kg/s; C_p – specific heat capacity, J/kg·K

Collector efficiency can be approximated primarily by a linear function of $\frac{T_{Cin}-T_{amb}}{I}$:

$$\eta_C = F_R(\tau,\alpha) - (F_R U_C)\frac{T_{Cin}-T_{amb}}{I} = a - b\frac{\Delta T}{I} \quad (2)$$

$F_R(\tau,\alpha)$ – the efficiency of the solar collector, depending on the light absorption of the collector and the light transmittance of the transparent cover.; U_C – total heat losses of the solar collector; T_{amb} – ambient temperature, °C, Notations for simplification $F_R(\tau,\alpha) = a$ va $F_R U_C = b$. The rate of energy extraction from the collector is determined as follows:

$$\dot{Q}_C = I\eta_C S_C \quad (3)$$

Thermal energy is transferred from the water entering the collector to the water storage tank via a heat exchanger, and the heat exchanger efficiency (P) is calculated as follows:

$$P = \frac{T_{Cout} - T_{Cin}}{T_{Cout} - T_T} \quad (4)$$

here T_T – the temperature of the water in the water storage tank, °C. Heat loss from the tank is expressed as follows::

$$\dot{Q}_{loss} = (U_T S_T)(T_T - T_{amb}) \quad (5)$$

U_T – heat losses from the water storage tank; S_T – surface of the water storage tank, m^2.

The extraction of energy from the tank and its delivery to the consumer can be expressed as follows:

$$\dot{Q}_{removal} = \dot{m}_{tank} C_{p,W} (T_T - T_{M,water}) \quad (6)$$

$$\dot{Q}_{load} = \dot{m}_{load} C_{p,W} (T_{load} - T_{M,water}) \quad (7)$$

The electric heater is used when the water temperature in the storage tank is below 60°C; in this case, the additional energy is calculated as follows:

$$Q_{aux} = M_{tank} C_{p,W} (60 - T_T) \quad (8)$$

The energy balance in the water storage tank is determined as follows:

$$M_{tank} C_{p,W} \frac{dT_t}{dt} = \dot{Q}_C - \dot{Q_{loss}} - \dot{Q}_{load} \quad (9)$$

Simulation parameters: The solar collector area is 8 m², the water storage tank volume is 150 L, the hot water supply temperature to the consumer is 45°C, and the water storage tank temperature does not drop below 60°C. The coefficients a and b for the solar collector are taken as follows: a = 0.81; b = 3.5 W/(m²·K). Daily hot water consumption is assumed to be 240 L, and the variable consumption profile is shown in Figure 2.



Figure 2. Daily water consumption.

Ekskavator metall konstruksiyalari ekskavator massasining 50 % igacha qismini tashkil etadi [1, 251-b.], strelada joylashgan massa (masalan, itarish mexanizmi) aylanish inersiyasi va ag'darish momentini oshiradi va qo'shimcha qarshi yuk talab qiladi [1, 170-b.], shu sababli strela massasini kamaytirish maqsadga muvofiq. Strela uchun odatda ikki guruh po'latdan foydalaniladi: uglerodli St.3 va kam legirlangan 09G2, 17GS, 10XSND, 15XSND kabilar. Kam legirlangan po'latlarning oquvchanlik chegarasi 1,5-2 marta yuqori, ammo ular kuchlanish konsentratsiyasiga 1,1-1,4 marta sezgirroq va qimmatroq [1, 253-b.]. Darslikning o'zida «o'zgaruvchan va ishorasi o'zgaruvchi yuklar ostida ishlaydigan konstruksiyalar uchun kam legirlangan po'latlar nisbatan past chidamlilik chegarasi tufayli kamroq maqbul» deyilgan, ammo bu fikr son jihatdan baholanmagan.

Adabiyotlar sharhi. Payvandlangan po'lat konstruksiyalarning charchashga hisobi bo'yicha me'yoriy va monografik baza keng: Yevrokodning EN 1993-1-9 qismi [3], IIW tavsiyalari [4] va Yevrokod charchash bo'limining so'nggi rivojlanishi [5], shuningdek klassik monografiyalar [6-12]. EN 1993-1-9 barcha konstruksion po'lat markalariga qo'llanadi [3]: payvand birikmaning chidamliligi po'lat markasi bilan emas, birikma turi (detal kategoriyasi) bilan beriladi. Payvandlangan birikmalarning yuqori siklli charchash chegarasi asosan geometriyaga bog'liq ekanligi yuqori mustahkam to'ldiruvchi metallar bilan sinovlarda ham ko'rsatilgan [13]; yuqori mustahkam po'lat birikmalarining charchash sinovlari [14] va chidamlilik chegarasining kertiklarga sezgirligi [15, 16] alohida o'rganiladi.

Karyer ekskavatorlari strelalarining charchash shikastlanishi amaliyotda uchraydi. Gidravlik ekskavator strelasi taxminan 40 000 soat ishlagach dala payvandidagi yoriqdan buzilgan; tahlilda sabab sifatida past sifatli material, nuqsonli payvand va geometrik kuchlanish konsentratorlari ko'rsatilgan [17]. Bucyrus-Erie 395B strelasida payvand chekkalarida yoriqlar taxminan 3 oy ichida paydo bo'lib, 450 mm gacha o'sgan [18]. Elektr kurak ishchi uskunasining boshqa tuguni cho'mich tishlari tuguni uchun charchash resursi modellashtirilgan [19],

kurakning ish mexanikasi va ishonchliligi esa [20] da ko'rib chiqilgan. Ko'rib chiqilgan manbalarda po'lat markasini tanlash statik va charchash mezonlari bo'yicha bir xil ma'lumotlarda son jihatdan solishtirilgan ish uchramadi; shu bo'shliqni to'ldirish uchun ishda darslik metodikasi [1] shunday solishtirishga qo'llandi.

Maqsad kam legirlangan 10XSND po'latining uglerodli St.3 ga nisbatan ustunligini statik va charchash mezonlari bo'yicha bir xil boshlang'ich ma'lumotlarda son jihatdan solishtirish va ustunlik qaysi sharoitda saqlanishini aniqlash. **Vazifalar:** (1) manbalardagi xossa va ruxsat etilgan kuchlanishlarni jamlash; (2) kamaytirish koeffitsienti γ orqali charchash bo'yicha ruxsat etilgan kuchlanishlar nisbatini hisoblash; (3) charchash egri chizig'i bo'yicha turli sikllar sonida solishtirish; (4) siqilgan sterjenlarda barqarorlik cheklovini ko'rish; (5) EKG-10 strelasi misolida massa tejalishini baholash.

1. BOSHLANG'ICH MA'LUMOTLAR VA METODIKA

1.1. Po'latlar va ruxsat etilgan kuchlanishlar

Po'lat xossalari [2, 235–236-b.] dagi 6.4-jadvaldan olindi: VSt3sp (qalinligi 20-40 mm) uchun σ_y = 240 MPa, σ_u = 380-490 MPa (hisobda eng kichigi, 380 MPa); 10XSND (4-32 mm) uchun σ_y = 400, σ_u = 540 MPa. Ruxsat etilgan kuchlanishlar [1, 267-b.] dagi 14.1-jadvaldan olindi; strela uchun, ya'ni buzilishi avariyaga yoki uzoq to'xtashga olib keladigan A sinfi qabul qilindi: St.3 uchun n = 1,7, $[\sigma]$ = 140 MPa; 10XSND uchun n = 1,8, $[\sigma]$ = 220 MPa (1-jadval). Statik tekshiruv sharti [1, 270-b.]:

$$\sigma \le [\sigma] = \frac{\sigma_y}{n} \tag{1}$$

bu yerda σ - hisobiy kuchlanish, MPa; $[\sigma]$ - ruxsat etilgan kuchlanish, MPa; σ_y - oquvchanlik chegarasi, MPa; n - zaxira koeffitsienti. Darslikda oquvchanlik chegarasi σ_y ning o'zi 14.1-jadvalda berilmagan; $[\sigma]\cdot n$ ko'paytmasi St.3 uchun 238, 10XSND uchun 396 MPa bo'ladi - bu [2] dagi 240 va 400 MPa ga mos keladi (muallif tomonidan tekshirildi).

1-jadval. Taqqoslanadigan po'latlar ([1, 267-b.; 2, 235–236-b.]; $\sigma_{-1} = 0{,}35\sigma_u$)

Po'lat	σ_y, MPa	σ_u, MPa	σ_{-1}, MPa	n	$[\sigma]$, MPa
St.3 (VSt3sp)	240	380	133	1,7	140
10XSND	400	540	189	1,8	220
Nisbat (10XSND / St.3)	1,67	1,42	1,42	-	1,57

Jadvaldan ko'rinadiki, ruxsat etilgan kuchlanishlar nisbati (1,57) oquvchanlik chegaralari nisbatidan (1,67) kichik, chunki 10XSND uchun zaxira koeffitsienti

(1,8) St.3 nikidan (1,7) yuqori olingan. Chidamlilik chegarasi esa σ_u bilan bog'liq: uglerodli va ko'p kam legirlangan po'latlar uchun [1, 279-b.]

$$\sigma_{-1} = 0{,}35\,\sigma_u \tag{2}$$

bu yerda σ_{-1} - simmetrik siklda chidamlilik chegarasi, MPa; σ_u - mustahkamlik chegarasi, MPa. Demak, 10XSND ning σ_{-1} bo'yicha ustunligi (540/380 = 1,42) uning statik oquvchanlik bo'yicha ustunligidan (1,67) sezilarli past.

1.2. Charchash bo'yicha ruxsat etilgan kuchlanish

O'zgaruvchan kuchlanishlarda ruxsat etilgan kuchlanish statik qiymatni kamaytirish koeffitsienti γ ga ko'paytirib topiladi: $\sigma_{max}/\gamma \le [\sigma]$ [1, 274-275-b.]. Assimetrik siklda (o'rtacha kuchlanish cho'zuvchi) γ ni quyidagicha hisoblash tavsiya etilgan [1, 275-b.]:

$$\gamma = [(K\psi_1 + \psi_2) - (K\psi_1 - \psi_2)\,r]^{-1} \tag{3}$$

bu yerda γ - koeffitsienti ($\gamma \le 1$); K - kuchlanish konsentratsiyasining effektiv koeffitsienti (simmetrik siklda silliq namuna va birikma chidamlilik chegaralari nisbati); $r = \sigma_{min}/\sigma_{max}$ - sikl assimetriya koeffitsienti; ψ_1, ψ_2 - quyidagi nisbatlar:

$$\psi_1 = \frac{\sigma_y}{2\sigma_{-1}}, \qquad \psi_2 = \frac{\sigma_y}{2\sigma_u} \tag{4}$$

Kitobda ψ_1, ψ_2 ifodalarida oquvchanlik chegarasi o'rniga bosma «σ_m» belgisi berilgan (u o'rtacha kuchlanish belgisi bilan bir xil yoziladi); $r = -1$ da (3)-formula $\gamma = \sigma_{-1}/(K\sigma_y)$ ga, ya'ni simmetrik sikl uchun chidamlilik chegarasining oquvchanlik chegarasiga nisbatiga o'tishi uchun bu belgi oquvchanlik chegarasi deb o'qildi. Hisobda $K' = K$ (ish rejimi koeffitsienti $a = 1$) qabul qilindi. Ruxsat etilgan eng katta kuchlanish:

$$\sigma_{max} \le \gamma[\sigma] \tag{5}$$

Taqqoslash uchun 10XSND ning St.3 ga nisbatan ruxsat etilgan σ_{max} bo'yicha ustunlik koeffitsienti kiritildi:

$$R = \frac{\gamma_{kl}[\sigma]_{kl}}{\gamma_{ug}[\sigma]_{ug}} \tag{6}$$

bu yerda R - ustunlik koeffitsienti; indekslar: «kl» - kam legirlangan, «ug» - uglerodli po'lat. Konsentratsiya koeffitsienti: St.3 uchun $K_{ug} = 2{,}0$ (payvand birikmalar uchun tavsiya $K \le 2$–$2{,}5$, payvand panjarasimon konstruksiyalar uchun 2-4 [1, 277-b.]); 10XSND uchun $K_{kl} = \xi \cdot K_{ug}$, bu yerda ξ - sezgirlik nisbati, kitobga ko'ra 1,1-1,4 [1, 253-b.].

1.3. Charchash egri chizig'i

Strukturaviy elementlar uchun egri chiziq logarifmik koordinatalarda to'g'ri chiziq: $\sigma^m N$ = const [1, 276-b.]. Og'ish ko'rsatkichi K ga bog'liq:

$$m = [C_1 + C_2 \lg K]^{-1} \tag{7}$$

bu yerda m - charchash egri chizig'ining qiyaligi; C_1, C_2 - koeffitsientlar: uglerodli po'lat uchun 0,143 va 0,233, kam legirlangan uchun 0,163 va 0,289 [1, 276-b.]. Bazaviy sikl soni $K < 2$ da $2 \cdot 10^6$, $K \geq 2$ da $5 \cdot 10^6$ [1, 277-b.]; bu ishda barcha variantlarda $K \geq 2$ bo'lgani uchun $N_b = 5 \cdot 10^6$. Berilgan N da ruxsat etilgan amplituda:

$$\sigma_N = \sigma_{rk} \left(\frac{N_b}{N} \right)^{1/m}, \qquad \sigma_{rk} = \frac{\sigma_{-1}}{K} \tag{8}$$

bu yerda σ_N - N siklga mos amplituda, MPa; σ_{rk} - konsentratsiyali birikmaning chidamlilik chegarasi, MPa; N_b - bazaviy sikl soni. (8)-formula muallif tomonidan [1, 276-b.] dagi $\sigma_1^m N_1 = \sigma_{rk}^m N_b$ tenglamasidan keltirib chiqarildi.

2. NATIJALAR

2.1. Maksimal kuchlanish bo'yicha ustunlik

(3)-(6) formulalar bo'yicha hisoblangan natijalar 2-jadvalda va 1-rasmda keltirilgan. Statik mezon bo'yicha ustunlik 220/140 = 1,57 marta. Charchash mezonida bu ustunlik ikki sababga ko'ra kamayadi. Birinchidan, 10XSND ning σ_{-1}/σ_y nisbati past (0,47 va St.3 uchun 0,55), shu sababli hatto bir xil K da (ξ = 1,0) R = 1,34 ga tushadi. Ikkinchidan, kam legirlangan po'latning K koeffitsienti yuqori bo'lib, ξ = 1,1 da R = 1,22-1,26, ξ = 1,25 da 1,07-1,15, ξ = 1,4 da 0,96-1,06 (sikl turiga qarab). Pulsatsiyalanuvchi siklda (r = 0) ustunlik ξ = 1,40 da tugaydi; simmetrik siklda ξ = 1,34 da, r = 0,5 da ξ = 1,52 da.

2-jadval. A sinfi ([σ] = 140 va 220 MPa) uchun charchash bo'yicha ruxsat etilgan σ_{max} va ustunlik koeffitsienti R

Variant	K	σ_{rk}, MPa	γ (r = 0)	σ_{max}, MPa	R (r = 1)	R (r = 0)	R (r = 0,5)
St.3	2,00	66,5	0,472	66,0	1,00	1,00	1,00
10XSND, ξ = 1,0	2,00	94,5	0,402	88,5	1,34	1,34	1,34
10XSND, ξ = 1,1	2,20	85,9	0,371	81,5	1,22	1,24	1,26
10XSND, ξ = 1,25	2,50	75,6	0,332	72,9	1,07	1,11	1,15
10XSND, ξ = 1,4	2,80	67,5	0,300	66,0	0,96	1,00	1,06



1-rasm. 10XSND ning St.3 ga nisbatan ruxsat etilgan σ_{max} bo'yicha ustunligi (R) ning konsentratsiyaga sezgirlik nisbati ξ ga bog'liqligi

Bundan tashqari, chidamlilik chegaralari (σ_{rk}) tenglashadigan sezgirlik nisbatini to'g'ridan-to'g'ri (2) va $K = \sigma_{-1}/\sigma_{rk}$ dan olish mumkin:

$$\xi^* = \frac{\sigma_{-1,kl}}{\sigma_{-1,ug}} = \frac{\sigma_{u,kl}}{\sigma_{u,ug}} \quad (9)$$

bu yerda ξ^* - chidamlilik chegaralari tenglashadigan sezgirlik nisbati. 1-jadval ma'lumotlarida $\xi^* = 540/380 = 1{,}42$; agar St.3 ning $\sigma_u = 430$ MPa (400–490 oralig'ining o'rtasi) bo'lsa, $\xi^* = 540/430 = 1{,}26$ - ya'ni kitobdagi 1,1-1,4 oralig'ining o'rtasida. Demak, ustunlik yo'qolishi chekka holat emas: u kitob bergan oraliqning yuqori yarmida yuz beradi.

2.2. Sikllar soniga bog'liqlik

(7)-(8) formulalar bo'yicha charchash egri chiziqlari 2-rasmda berilgan. 10XSND ning egri chizig'i qiyaroq (m = 3,4-3,8, St.3 uchun 4,7), shu sababli kam sikllarda ruxsat etilgan amplituda ustunligi kattaroq, N_b ga yaqinlashgan sari kamayadi (3-jadval).

3-jadval. 10XSND ning St.3 ga nisbatan ruxsat etilgan amplituda nisbati $\sigma_{N,kl}/\sigma_{N,ug}$

N	St.3, σ_N, MPa	ξ = 1,1	ξ = 1,25	ξ = 1,4
$1\cdot10^5$	153	1,56	1,47	1,38
$5\cdot10^5$	109	1,45	1,32	1,22
$2\cdot10^6$	81	1,35	1,21	1,09
$5\cdot10^6$	66,5	1,29	1,14	1,02



2-rasm. Charchash egri chiziqlari ((7), (8)-formulalar): St.3 (K = 2,0) va 10XSND (ξ = 1,1 va 1,4)

Strelaning sikllar soni quyidagicha baholandi. EKG-10 ning sikl davomiyligi 26 s [1, 385-b.], ya'ni soatiga 3600/26 = 138 ish sikli. Yiliga 4000-6000 soat ishlash (taxmin; manbada berilmagan) bo'lganda 10 yilda 5,5-8,3·10^6 sikl hosil bo'ladi (taxminiy: har bir qazish sikli bitta kuchlanish sikliga teng deb olindi, yuqori chastotali tebranishlar hisobga olinmadi). Bu qiymat $N_b = 5 \cdot 10^6$ dan yuqori, ya'ni strela chidamlilik chegarasi (cheksiz muddat) rejimida bo'ladi, ustunlik esa 3-jadvalning oxirgi qatoriga mos keladi: ξ = 1,25 da 14 %, ξ = 1,4 da atigi 2 %. Ma'lumotnomada ham yuqori mustahkam po'latlarning kam uglerodli po'latlarga nisbatan ustunligi birikmalarning intensiv dinamik yuklanishida yo'qolishi ta'kidlangan [2, 270-b.].

2.3. Siqilgan elementlar

Arqonli yoki richagli itarish mexanizmli mexanik kuraklarning strelasi asosan bo'ylama siqilishga ishlaydi [1, 164-b.]; sharnirli strelaning yuqori qismi faqat siqilish kuchini uzatadigan ikki sterjendan iborat [1, 165-b.]. Bunday sterjenlarda cheklovchi omil po'lat markasi emas, balki barqarorlikdir. Eyler formulasi (materiallar qarshiligining umumiy kursidan) bo'yicha kritik kuchlanish $\sigma_{cr} = \pi^2 E/\lambda^2$ po'lat markasiga bog'liq emas, E = 2,1·10^5 MPa [1, 252-253-b.]. Oquvchanlik chegarasiga yetishi mumkin bo'lgan chegaraviy egiluvchanlik:

$$\lambda_0 = \pi\sqrt{\frac{E}{\sigma_y}} \tag{10}$$

bu yerda λ_0 - chegaraviy egiluvchanlik; E - elastiklik moduli, MPa. St.3 (240 MPa) uchun λ_0 = 92,9; 10XSND (400 MPa) uchun 72,0. Egiluvchanlik $\lambda \geq 93$ bo'lsa, ikkala po'lat uchun ham σ_{cr} bir xil (4-jadval): λ = 100 da 207, λ = 120 da 144 MPa. Ma'lumotnomada uzluksiz ta'sirli mashinalar fermalarining siqilgan belbog'lari

uchun ruxsat etilgan egiluvchanlik 120 [2, 246-b.] - bu qiymat 10XSND ning oquvchanlikdagi ustunligini to'liq yo'qotadi.

4-jadval. Siqilgan sterjen uchun ideal (nuqsonsiz) kritik kuchlanish: min(σ_y, π^2E/λ^2)

λ	σ_{cr} (Eyler), MPa	St.3 uchun cheklov, MPa	10XSND uchun cheklov, MPa	Nisbat
40	1 295	240	400	1,67
60	576	240	400	1,67
80	324	240	324	1,35
100	207	207	207	1,00
120	144	144	144	1,00

Jadvaldagi qiymatlar ideallashtirilgan (noelastik egilish va boshlang'ich nuqsonlar hisobga olinmagan); ular faqat po'lat markasining ta'sir chegarasini ko'rsatadi.

2.4. EKG-10 strelasi misolida massa tejalishi

EKG-10 ning ish massasi M_s = 395 t [1, 385-b.]; strela massasi bloklar bilan ish massasining (0,06–0,07)M_s qismi [1, 184-b.; 598-b.], ya'ni 23,7-27,7 t. Po'lat almashtirilganda kesim maydoni (massa) R marta kamayadi deb olinsa, tejalish:

$$\Delta M = \left(1 - \frac{1}{R}\right)\kappa M_s \tag{11}$$

bu yerda ΔM - massa tejalishi, t; κ - strela massasining ish massasiga nisbati; M_s - ekskavator ish massasi, t. Statik mezon bo'yicha (R = 1,57) 36 % yoki 8,6-10,0 t. Charchash bo'yicha R = 1,00-1,24 (pulsatsiyalanuvchi sikl, ξ = 1,1-1,4) bo'lsa, tejalish 0-19 %, ya'ni 0-5,3 t; siqilgan egiluvchan sterjenlarda esa nolga teng. Hisob yuqori baho: strela massasiga bloklar va qo'shimcha detallar ham kiradi va butun massa po'lat konstruksiya deb olingan. Shunday qilib, statik mezonga asoslangan baho tejalishni kamida 1,9 marta oshirib yuboradi.

3. MUHOKAMA VA TAVSIYALAR

Hisob 10XSND po'latini rad etmaydi, u qayerda foydali ekanini ko'rsatadi: (a) cho'zilgan va statik hisob bilan aniqlanadigan elementlarda [1, 253-b.]; (b) kam sikllar sonida ($N \le 5\cdot10^5$), masalan favqulodda yuklarda; (c) kichik egiluvchanlikdagi siqilgan sterjenlarda ($\lambda < 72$); (d) past haroratda: -25 °C dan past haroratlarda uglerodli po'latdan VMSt3sp, -40 °C gacha M16S qo'llanadi [1, 253-b.], 09G2S, 15XSND, 10XSND esa -65 °C gacha tavsiya etiladi [1, 254-b.]; shuning uchun sovuq iqlimli bo'lmagan joyda bu dalilning og'irligi kamayadi. Aksincha, uzoq muddatli chidamlilik rejimida ishlaydigan payvand tugunlarda, ayniqsa K yuqori bo'lganda (panjarasimon konstruksiyalar K = 2-4 [1, 277-b.]), po'lat

markasini almashtirish deyarli foyda bermaydi. Bu o'rinda foydali choralar K ni kamaytirishga qaratilgan: pastki ildiz payvandi bilan ulangan va kuchaytirilgan qismi tekis silliqlangan tutashuv birikmalari eng yuqori chidamlilikni beradi [2, 270-b.]; strela va cho'mich dastasini payvanddan keyin yuqori haroratli bo'shatish sovuqqa chidamlilikni oshiradi [1, 264-b.]; boshlang'ich 70-100 soatlik yengil rejimdagi moslashtirish (obkatka) davri kuchlanish cho'qqilarini tekislaydi [1, 264-b.].

Zamonaviy me'yorlarda payvand birikmalar chidamliligi po'lat markasidan qat'i nazar detal kategoriyasi bilan beriladi [3]; bu ishdagi $\xi \approx \xi^*$ holatiga (chidamlilik chegaralari teng) sifat jihatidan yaqin, ya'ni hisob natijasi me'yoriy yondashuvga zid emas, balki uni to'ldiradi. Strelalarning real buzilishlari ham po'lat markasi bilan emas, payvand sifati va geometrik konsentratorlar bilan bog'langan [17, 18].

Cheklovlar. (1) ξ ning aniq qiymati ma'lum payvand birikma uchun tajribada aniqlanishi kerak; manbada faqat 1,1-1,4 oralig'i berilgan. (2) 10XSND uchun $\sigma_{-1} = 0{,}35\sigma_u$ tenglik taxminiy (darslikda «ko'p kam legirlangan po'latlar uchun» deyilgan). (3) (3)-(4)-formulalarning belgilari kitobda aniq farqlanmagan (yuqoriga qarang). (4) 15XSND uchun [1, 253-b.] da 500/700 MPa, [2, 235-236-b.] da 350/500 MPa berilgan farq tahlilga kiritilmadi. (5) Hisob darslik metodikasi [1] bo'yicha bajarilgan; u EN 1993-1-9 [3] va IIW [4] dagi detal kategoriyalari va mahalliy kuchlanish yondashuvlari [9] bilan solishtirilmagan. (6) Natijalar EKG-10 uchun ish massasi va sikl davomiyligi ma'lumotlari asosida, haqiqiy strela konstruksiyasining kuchlanish holati bilan solishtirilmagan.

XULOSA

Kam legirlangan 10XSND po'latining St.3 ga nisbatan statik ustunligi (1,57 marta) charchash mezonida 1,00-1,24 martagacha kamayadi va konsentratsiyaga sezgirlik nisbati $\xi \approx 1{,}34$-$1{,}52$ dan oshganda butunlay yo'qoladi. Ustunlik qisqa sikllarda saqlanadi, uzoq muddatli rejimda va siqilgan egiluvchan sterjenlarda esa kamayadi yoki yo'qoladi. EKG-10 strelasi uchun massa tejalishi 8,6-10,0 t o'rniga 0-5,3 t bo'lishi mumkin. Strela uchun po'lat markasini tanlash statik ruxsat etilgan kuchlanish bo'yicha emas, balki har bir tugun uchun K, r va sikllar soni bo'yicha alohida qaror qilinishi kerak.

ADABIYOTLAR

1. Подэрни Р.Ю. Механическое оборудование карьеров: учебник для вузов. 6-е изд. М.: Изд-во МГГУ, 2007. - 680 с. - ISBN 978-5-7418-0467-4.

2. Справочник механика открытых работ. Экскавационно-транспортные машины непрерывного действия / М.И. Щадов, В.М. Владимиров, В.В. Гужовский и др. - М.: Недра, 1989. - 487 с.

3. EN 1993-1-9:2005. Eurocode 3: Design of steel structures - Part 1-9: Fatigue. - Brussels: CEN, 2005. - 40 p.

4. Hobbacher A.F. Recommendations for Fatigue Design of Welded Joints and Components. - 2nd ed. - Cham: Springer, 2016. - ISBN 978-3-319-23757-2. - DOI: 10.1007/978-3-319-23757-2.

5. Lukić M. et al. New developments on fatigue in Eurocode on steel structures // Procedia Structural Integrity. - 2024. Vol. 57. DOI: 10.1016/j.prostr.2024.03.061.

6. Maddox S.J. Fatigue Strength of Welded Structures. - 2nd ed. - Cambridge: Abington Publishing, 1991. - ISBN 978-1-85573-013-7.

7. Gurney T.R. Fatigue of Welded Structures. - 2nd ed. - Cambridge: Cambridge University Press, 1979. ISBN 0-521-22558-2.

8. Barsom J.M., Rolfe S.T. Fracture and Fatigue Control in Structures. - 3rd ed. West Conshohocken: ASTM, 1999. ISBN 978-0-8031-2082-2.

9. Radaj D., Sonsino C.M., Fricke W. Fatigue Assessment of Welded Joints by Local Approaches. 2nd ed. Cambridge: Woodhead, 2006. ISBN 978-1-85573-948-2.

10. Schijve J. Fatigue of Structures and Materials. 2nd ed. Dordrecht: Springer, 2009. ISBN 978-1-4020-6807-2. DOI: 10.1007/978-1-4020-6808-9.

11. Dowling N.E. Mechanical Behavior of Materials. 4th ed. Boston: Pearson, 2013. ISBN 978-0-13-139506-0.

12. Stephens R.I., Fatemi A., Stephens R.R., Fuchs H.O. Metal Fatigue in Engineering. 2nd ed. New York: Wiley, 2001.

13. Stoschka M. et al. Effect of high-strength filler metals on fatigue behaviour of butt joints // Welding in the World. 2013. Vol. 57. - P. 85-96. DOI: 10.1007/s40194-012-0010-6.

15. Hamano Y. et al. Notch sensitivity of the fatigue limit in high-strength steel // ISIJ International. 2016. - Vol. 56, No. 8. - P. 1480-1486. - DOI: 10.2355/isijinternational.ISIJINT-2015-744.

16. Parareda S. et al. Understanding the fatigue notch sensitivity of high-strength steels through fracture toughness // Metals. 2023. Vol. 13, No. 6. - Art. 1117. - DOI: 10.3390/met13061117.

17. Maury H. et al. Failure assessment of a weld-cracked mining excavator boom // Engineering Failure Analysis. - 2018. - Vol. 90. P. 47-63. DOI: 10.1016/j.engfailanal.2018.03.022.

18. Yin Y., Grondin G.Y., Elwi A.E. Fatigue crack behaviour in mine excavator: Structural Engineering Report 265. Edmonton: University of Alberta, 2006. DOI: 10.7939/R3P55DG8S.

EKG TURIDAGI KARYER EKSKAVATORLARI ASOSIY PARAMETRLARINING CHO'MICH SIG'IMIGA BOG'LIQLIGI: DARSLIK FORMULALARINI ZAVOD MA'LUMOTLARI BILAN TEKSHIRISH

Yo'ldoshev Samandar Sarvar o'g'li
«Multinational Mining Group» kompaniyasi
Yuldashevsamandar66@gmail.com

Annotatsiya. *Ekskavator massasi, strela uzunligi va unumdorligi cho'mich sig'imi bo'yicha empirik formulalardan baholanadi. Poderni darsligi [1] formulalari zavod ma'lumotlari [3-5] bilan solishtirildi. Nazariy unumdorlik sig'imga deyarli proporsional (daraja 0,93, R^2 = 0,997). Massa formulasi zavod ma'lumotlariga mos kelmaydi: k_m = 31-55 t/m³, 7 variantning 4 tasida 38-55 oralig'idan past; massa $E^{0,76}$ kabi o'sadi (R^2 = 0,82), darslikdagi 1,34 daraja tasdiqlanmadi. Strela formulasi EKG-10 va EKG-8 uchun mos.*

Kalit so'zlar: *EKG ekskavatori, cho'mich sig'imi, ekskavator massasi, strela uzunligi, nazariy unumdorlik, masshtab bog'liqligi.*

Аннотация. *Масса, длина стрелы и производительность экскаватора оцениваются по эмпирическим формулам от вместимости ковша. Формулы учебника Подэрни [1] сопоставлены с данными изготовителя (Уралмаш) [3-5]. Теоретическая производительность почти пропорциональна вместимости (показатель 0,93, R^2 = 0,997). Формула массы не согласуется с данными завода: k_m = 31-55 т/м³, у 4 из 7 вариантов ниже интервала 38-55; масса растёт как $E^{0,76}$ (R^2 = 0,82), показатель 1,34 из учебника не подтвердился. Формула длины стрелы согласуется для ЭКГ-10 и ЭКГ-8.*

Ключевые слова: *экскаватор ЭКГ, вместимость ковша, масса экскаватора, длина стрелы, теоретическая производительность, масштабная зависимость.*

Abstract. *Excavator mass, boom length and productivity are estimated from empirical formulas in bucket capacity. The formulas of the Poderni textbook [1] were compared with manufacturer (Uralmash) data [3-5]. Theoretical productivity is almost proportional to capacity (exponent 0.93, R^2 = 0.997). The mass formula disagrees with manufacturer data: k_m = 31-55 t/m³, 4 of 7 variants fall below the range 38-55; mass grows as $E^{0.76}$ (R^2 = 0.82), and the textbook exponent 1.34 is not confirmed. The boom length formula agrees for EKG-10 and EKG-8.*

Keywords: *EKG excavator, bucket capacity, excavator mass, boom length, theoretical productivity, scale dependence.*

Kirish

Yangi mexanik kurak loyihalanayotganda dastlabki bosqichda faqat cho'mich sig'imi E ma'lum bo'ladi; massa, strela uzunligi va unumdorlik empirik bog'liqliklardan baholanadi [1, 183-185-b.]. Sig'im avtosamosval kuzovi 3-6 o'tishda to'ladigan qilib tanlanadi [9]; kurak bilan yuklash xorijiy qo'llanmalarda ham ko'riladi [2]. Elektr kuraklar bo'yicha so'nggi ishlar asosan yuklash sikli [6-8] masalalariga bag'ishlangan; empirik formulalarni ishlab chiqaruvchilar ma'lumoti bilan solishtirish bizga ma'lum ishlarda uchramadi. Maqsad darslik formulalarini seriyali EKG modellari ma'lumotlari bilan solishtirish.

Asosiy qism

Ekskavator massasi sig'imga to'g'ri proporsional [1, 184-185-b., (10.7)], strela uzunligi massaning kub ildiziga proporsional [1, 184–185-b, (10.8); P8-jadval, 599-b.], nazariy (soatlik) unumdorlik esa sikl davomiyligiga teskari [1, 423-b, (20.1)]:

$$M_s = k_m E \tag{1}$$

$$L_b = k_L \sqrt[3]{M_s} \tag{2}$$

$$Q_t = \frac{3600 E}{t_c} \tag{3}$$

bu yerda M_s - ekskavator massasi, t; k_m - koeffitsient, 38-55 t/m³; E - cho'mich sig'imi, m³; L_b - strela uzunligi, m; k_L - koeffitsient, 1,8-1,95 m/t$^{1/3}$; Q_t - nazariy unumdorlik, m³/soat; t_c - sikl davomiyligi, s ((3) formula (20.1) dagi $Q = 60En_c$ da $n_c = 60/t_c$ deb yozilgan). Sig'imga bog'liqlik darajasi $Y = aE^b$ ko'rinishida (Y - M_s, Q_t yoki t_c) ln-ln koordinatalarda eng kichik kvadratlar usuli bilan topildi (a, b - koeffitsientlar).

Ma'lumotlar va natijalar

Darslik ma'lumotlari [1, 385, 387-b.] 18.1 va 18.2-jadvallardan, zavod ma'lumotlari Uralmash jadvalidan [3] olindi. EKG-15 massasi darslikda «69 t» deb bosilgan (bosma xatosi bo'lishi mumkin) hisobga kiritilmadi. EKG-20 uchun boshqa zavod sahifasida [4] massa 750 t, sikl 27 s berilgan; massa ta'rifi (qarshi yuk, strela) manbalarda ko'rsatilmagan.

Unumdorlik va sikl. Zavod ma'lumotlari bo'yicha $Q_t \propto E^{0,93}$ (R^2 = 0,997), darslik bo'yicha $E^{0,97}$ (R^2 = 0,99); sikl 26–28 s ichida qoladi (tor diapazon). Real siklga operator [7] va yuklash sharoiti [8] ta'sir qiladi, shuning uchun (3) yuqori baho beradi.

Massa. Zavod ma'lumotlari [3] (E, m³ / M_s, t): EKG-10 - 10/410; 12K - 12/430; 12A - 12/655; 15M - 15/725; 20K - 20/740; 20KM - 25/780; 35 - 35/1250. Bundan k_m = 31,2–54,6 t/m³, 12K, 20K, 20KM va 35 modellarida 38 dan past. 7 nuqta bo'yicha $M_s \propto E^{0,76}$ ($R^2 = 0,82$): katta mashinalar nisbatan yengil. Darslikdan chiqqan 1,34 daraja tasdiqlanmadi: asosiy farq - EKG-20 (1050 t darslikda, 740-780 t zavodda; 1,42 marta) va EKG-12 (600 t va 430-655 t). Sababi manbalardan aniqlanmadi (modifikatsiya yoki massa ta'rifi farqi bo'lishi mumkin).

Strela. EKG-10 uchun L_b = 13,8 m [5] (darslikda 13,9 m); M_s = 410 t da k_L = 1,86 - tavsiya etilgan oraliqda. EKG-8 da strela 13,35 m, massa 373 t [5]: (2) bo'yicha 12,96-14,04 m mos.

Xulosa va kutilayotgan natijalar

1. Unumdorlik formulasi (3) ishonchli: $Q_t \propto E^{0,93–0,97}$.

2. Massa formulasi (1) zavod ma'lumotlariga yomon mos: 7 modeldan 4 tasida $k_m < 38$, massa $E^{0,76}$ kabi o'sadi; darslikdagi EKG-12/20 massalari zavod ma'lumotidan 1,4 marta yuqori pasportlar bilan aniqlanishi kerak.

3. Strela formulasi (2) EKG-10 va EKG-8 uchun mos. Natijalar 7 variant va zavod saytlari ma'lumotiga asoslangan; ekspluatatsion unumdorlik hisobga olinmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Подэрни Р.Ю. Механическое оборудование карьеров: учебник для вузов. 6-е изд. М.: Изд-во МГГУ, 2007. - 680 с.

2. Hustrulid W.A., Kuchta M., Martin R.K. Open Pit Mine Planning and Design. - 3rd ed. CRC Press, 2013. ISBN 978-1-4822-2117-6.

3. Карьерные экскаваторы [jadval] / Уралмаш-Картекс. URL: uralmash-kartex.ru/karernyie-ekskavatoryi.

4. Карьерный экскаватор ЭКГ-20 / Made in Ural. - URL: made-in-ural.ru/produkt/karernyy-ekskavator-ekg-20/.

5. ЭКГ-10, ЭКГ-8: технические характеристики. - URL: ekg-5.com/performance_attributes/ekg-10.

6. Özdoğan M., Özdoğan H. Cycle time segments of electric rope shovels - a case study // Bilimsel Madencilik Dergisi. 2019. 58(1). P. 73-79. DOI: 10.30797/madencilik.537648.

7. Babaei Khorzoughi M., Hall R. A study of digging productivity of an electric rope shovel for different operators // Minerals. 2016. 6(2). Art. 48. DOI: 10.3390/min6020048.

8. Manyele S.V. Investigation of excavator performance factors in an open-pit mine using loading cycle time // Engineering. 2017. 9(7). P. 599-624. DOI: 10.4236/eng.2017.97038.

9. Loading Tool Selection Guide [LTSGBR01-0522]. Komatsu, 2022.

ГИДРОДИНАМИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ НА ОСНОВЕ УРАВНЕНИЙ НАВЬЕ–СТОКСА: ОТ КОСМИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ К ПУЛЬПОПРОВОДУ И НАСОСУ ГОРНО-ОБОГАТИТЕЛЬНОГО ПРОИЗВОДСТВА

Марасулов Муроджон Сойибжон угли
Алмалыкский филиал НИТУ «МИСИС»
marasulov292@gmail.com

Annotatsiya. *Navye-Stoks tenglamalari aerokosmik sohada ham, tog‘-boyitish sanoatida ham hisoblash gidrodinamikasining (CFD) umumiy asosi sifatida ko‘rilgan. NASA ning ochiq materiallariga tayanib, u yerda qo‘llaniladigan RANS formulasi, k-ω SST modeli va ochiq OpenFOAM dasturi sanoatda ham qo‘llanishi mumkinligi ko‘rsatilgan. Ø530 mm pulpa quvuri va markazdan qochma pulpa nasosi uchun «effektiv suyuqlik» yaqinlashuvida hisoblar bajarilgan: to‘g‘ri quvur uchastkasidagi bosim yo‘qotilishi Kolbruk bo‘yicha hisobdan 9 % past, nasos napori 44,3 m (pasportda 47,0 m, -5,7 %). Nasos natijalari dastlabki.*

Kalit so‘zlar: *Navye–Stoks tenglamalari; CFD; OpenFOAM; k-ω SST; pulpa; markazdan qochma nasos; NASA.*

Аннотация. *Уравнения Навье-Стокса рассмотрены как общая основа вычислительной гидродинамики (CFD) в аэрокосмической отрасли и в горно-обогатительной промышленности. По открытым материалам NASA показано, что формулировка RANS, модель турбулентности k-ω SST и открытый код OpenFOAM применимы и к промышленным задачам. Для пульпопровода Ø530 мм и центробежного пульпового насоса выполнены расчёты в приближении однородной «эффективной жидкости»: потери давления на прямом участке трубы на 9 % ниже расчёта по Колбруку, напор насоса составил 44,3 м против паспортных 47,0 м (-5,7 %). Результаты по насосу предварительные (сходимость неполная).*

Ключевые слова: *уравнения Навье–Стокса; CFD; OpenFOAM; k-ω SST; пульпа; центробежный насос; NASA.*

Abstract. *The Navier-Stokes equations are considered as the common mathematical basis of computational fluid dynamics (CFD) in the aerospace industry and in mineral processing. Based on open NASA materials, it is shown that the RANS formulation, the k-ω SST turbulence model and the open-source OpenFOAM code used there can also be applied to industrial problems.*

Calculations for a Ø530 mm slurry pipeline and a centrifugal slurry pump were performed in the homogeneous "effective fluid" approximation: the pressure loss in the straight pipe section is 9 % lower than the Colebrook estimate, and the pump head is 44.3 m against the rated 47.0 m (-5.7 %). The pump results are preliminary (convergence incomplete).

Keywords: *Navier-Stokes equations; CFD; OpenFOAM; k-ω SST; slurry; centrifugal pump; NASA.*

ВВЕДЕНИЕ

Пульпопроводы и пульповые насосы наиболее нагруженные узлы обогатительной фабрики: они определяют расход электроэнергии на транспорт пульпы и первыми выходят из строя из-за абразивного износа. Их расчёт обычно опирается на справочные коэффициенты и паспортные характеристики [1], которые не показывают, что происходит внутри потока: где возникают зоны повышенной скорости, срыва потока и низкого давления.

Ответ на этот вопрос даёт вычислительная гидродинамика (CFD, Computational Fluid Dynamics). Её основа уравнения Навье-Стокса, описывающие законы сохранения массы и количества движения жидкости. В общем виде для сжимаемого течения они образуют систему из пяти связанных уравнений в частных производных (непрерывность, три компоненты импульса и энергия); для задач аэродинамики и гидравлики они решаются численно методами конечных разностей, объёмов, элементов или спектральными методами [2]. Те же уравнения описывают и поток пульпы в трубе и насосе.

Цель работы - показать, что подход и программные средства, которые NASA использует и оценивает для аэрокосмических задач, могут быть без изменения математической основы перенесены в горно-обогатительное производство, и проверить это на двух объектах: прямом участке пульпопровода Ø530 мм и центробежном пульповом насосе. Результаты сопоставляются с инженерной формулой и паспортными данными; отдельно обсуждаются ограничения подхода.

1. УРАВНЕНИЯ НАВЬЕ–СТОКСА И ПОДХОД NASA

Для несжимаемой жидкости с постоянной вязкостью уравнения Навье-Стокса записываются в виде [3]:

$$\nabla \cdot \mathbf{u} = 0 \tag{1}$$

$$\frac{\partial \mathbf{u}}{\partial t} + (\mathbf{u} \cdot \nabla)\mathbf{u} = -\frac{1}{\rho}\nabla p + \nu \nabla^2 \mathbf{u} + \mathbf{g} \tag{2}$$

где u - вектор скорости, м/с; t - время, с; p - давление, Па; ρ - плотность, кг/м^3; ν - кинематическая вязкость, м^2/с; g - вектор ускорения свободного падения, м/с^2.

Уравнение (1) выражает сохранение массы, уравнение (2) - сохранение количества движения. Приближение несжимаемости оправдано для пульпы: скорость потока (единицы метров в секунду) много меньше скорости звука.

Прямое решение (1)–(2) для турбулентных течений в трубах и насосах (числа Рейнольдса порядка 10^5–10^6) недоступно в инженерной практике из-за огромного числа ячеек сетки, поэтому применяют осреднённые по Рейнольдсу уравнения (RANS) с моделью турбулентности. NASA ведёт специальный ресурс Turbulence Modeling Resource, где собраны эталонные формулировки моделей и тестовые задачи для проверки программных кодов [4]. Среди таких моделей - k-ω SST Ментера [5], рассчитанная на течения с отрывом.

Показательно и отношение NASA к открытым программным средствам. Специалисты NASA Ames исследовали пригодность открытого кода OpenFOAM для расчёта обтекания спускаемых капсул: применили несколько RANS-моделей и сравнили результаты с эталонным кодом NASA OVERFLOW и с данными эксперимента, признав код перспективной альтернативой, но отметив вопросы вычислительной стоимости и устойчивости расчёта [6]. Таким образом, *методика* (RANS, k-ω SST), *проверка* (сравнение с эталоном и экспериментом) и *инструмент* (OpenFOAM) полностью совпадают с тем, что доступно горному предприятию без покупки лицензий (табл. 1).

Таблица 1 – Соответствие подхода NASA и его промышленного применения

Элемент	В материалах NASA	В данной работе
Уравнения	Навье–Стокса, RANS [2, 4]	Те же уравнения, пульпа как эффективная жидкость
Модель турбулентности	Модели из Turbulence Modeling Resource, в том числе SST [4]	k-ω SST [5]
Программный код	OpenFOAM проверен на задачах капсул [6]	OpenFOAM v1912 [7]
Проверка	Сравнение с OVERFLOW и экспериментом [6]	Сравнение с формулой Колбрука и паспортом насоса

2. МАТЕМАТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ

2.1. Пульпа как эффективная жидкость

На данном этапе твёрдая фаза не моделируется отдельно: пульпа рассматривается как однородная ньютоновская жидкость с эффективной плотностью

$$\rho_{\text{п}} = \rho_{\text{ж}}\,(1 - \varphi_{\text{тв}}) + \rho_{\text{тв}}\,\varphi_{\text{тв}} \tag{3}$$

где $\rho_{\text{п}}$ - плотность пульпы, кг/м^3; $\rho_{\text{ж}}$ - плотность жидкой фазы, кг/м^3; $\rho_{\text{тв}}$ - плотность твёрдой фазы, кг/м^3; $\varphi_{\text{тв}}$ - объёмная доля твёрдого.

По паспортной плотности пульпы $\rho_{\text{п}}$ = 1530 кг/м^3, при $\rho_{\text{ж}}$ = 1000 кг/м^3 и принятой $\rho_{\text{тв}}$ = 2700 кг/м^3 из (3) получается $\varphi_{\text{тв}} \approx 0{,}31$. Значение $\rho_{\text{тв}}$ в паспорте отсутствует и принято по типичной плотности руды (допущение). Вязкость пульпы оценена по формуле Томаса [8] и составила около 3,25 мПа·с (также допущение). Далее в уравнениях $\rho \equiv \rho_{\text{п}}$, $\nu = \mu_{\text{п}}/\rho_{\text{п}}$, где $\mu_{\text{п}}$ - динамическая вязкость пульпы.

2.2. Осреднённые уравнения и модель k–ω SST

После осреднения по Рейнольдсу и применения гипотезы Буссинеска для установившегося течения уравнение импульса принимает вид

$$(\bar{\mathbf{u}} \cdot \nabla)\bar{\mathbf{u}} = -\frac{1}{\rho}\nabla\bar{p} + \nabla \cdot \left[(\nu + \nu_{\text{т}})\left(\nabla\bar{\mathbf{u}} + (\nabla\bar{\mathbf{u}})^{\text{T}}\right)\right] \tag{4}$$

$$\nu_{\text{т}} = \frac{a_1\, k}{\max\,(a_1\,\omega,\; S\,F_2)} \tag{5}$$

где черта сверху обозначает осреднённую величину; $\nu_{\text{т}}$ - турбулентная вязкость, м^2/с; k - кинетическая энергия турбулентности, м^2/с^2; ω - удельная скорость диссипации, 1/с; S - модуль тензора скоростей деформации, 1/с; F_2 - блендинг-функция; a_1 = 0,31 - константа модели [5]; индекс «T» - транспонирование.

Для вычисления k и ω решаются два дополнительных уравнения переноса [5]:

$$(\bar{\mathbf{u}} \cdot \nabla)k = P_k - \beta^{*}\,k\,\omega + \nabla \cdot [(\nu + \sigma_k \nu_{\text{т}})\nabla k] \tag{6}$$

$$(\bar{\mathbf{u}} \cdot \nabla)\omega = \gamma S^2 - \beta\,\omega^2 + \nabla \cdot [(\nu + \sigma_\omega \nu_{\text{т}})\nabla\omega] + 2\,(1 - F_1)\,\frac{\sigma_{\omega 2}}{\omega}\,\nabla k \cdot \nabla\omega \tag{7}$$

где P_{k} - генерация турбулентной энергии, м^2/с^3; β^*, β, γ, σ_{k}, σ_ω, $\sigma_{\omega 2}$ - коэффициенты модели, плавно переключаемые между значениями k–ω и k–ε функцией F_1 [5]. Модель k–ω SST выбрана потому, что она одинаково применима у стенки и в ядре потока и сохраняет работоспособность при отрыве, характерном для рабочего колеса насоса.

2.3. Вращающееся рабочее колесо

Для насоса уравнения решаются во вращающейся системе координат, связанной с рабочим колесом (метод MRF – Multiple Reference Frame). В ней появляются кориолисова и центробежная силы:

$$(\mathbf{u}_r \cdot \nabla)\mathbf{u}_r + 2\,\boldsymbol{\Omega}_{\text{вр}} \times \mathbf{u}_r + \boldsymbol{\Omega}_{\text{вр}} \times (\boldsymbol{\Omega}_{\text{вр}} \times \mathbf{r}) = -\frac{1}{\rho}\nabla p + \nabla \cdot \boldsymbol{\tau} \quad (8)$$

где u_r - скорость относительно вращающейся системы, м/с; $\Omega_{\text{вр}}$ - вектор угловой скорости колеса, рад/с; r - радиус-вектор точки, м; $\tau = (\nu + \nu_т)(\nabla u_r + (\nabla u_r)^T)$ - эффективный тензор напряжений, м^2/с^2. Для колеса частотой вращения 367 об/мин $\Omega_{\text{вр}}$ = 38,43 рад/с. Метод MRF даёт осреднённое поле, достаточное для оценки напора, но не описывает пульсации при прохождении лопатки мимо языка улитки.

3. ЧИСЛЕННЫЙ МЕТОД И ОБЪЕКТЫ РАСЧЁТА

Уравнения решались методом конечных объёмов с алгоритмом связи скорости и давления SIMPLE [9] в стационарном решателе simpleFoam пакета OpenFOAM v1912 [7]. Открытый код выбран не только из-за отсутствия лицензии: его можно дорабатывать для следующего этапа - связи с расчётом частиц. Последовательность работ показана на рис. 1.



Рисунок 1 - Последовательность расчёта: от исходных данных до проверки результата

Объект 1 - прямой участок пульпопровода длиной 40 диаметров. Использована осесимметричная расчётная область в виде клина 5° (13 600 ячеек), первая ячейка у стенки подобрана так, чтобы безразмерное расстояние $y^+ \approx 57$, что соответствует применению пристенных функций. *Объект 2* – центробежный пульповый насос Warman: геометрия проточной части построена по чертежу из паспорта [10]; форма лопаток и сечение улитки паспортом не заданы и восстановлены приближённо (допущение). Сетка - 416 461 ячейка. Исходные данные и допущения приведены в табл. 2.

Таблица 2 - Исходные данные расчётов

Параметр	Труба	Насос	Источник
Подача, м^3/ч	3017	3017	паспорт [10]

Плотность пульпы, кг/м^3	1530	1530	паспорт [10]
Вязкость пульпы, мПа·с	5,0	≈ 3,25	допущение; формула Томаса [8]
Диаметр / частота вращения	0,53 м	367 об/мин	паспорт [10]
Число ячеек	13 600	416 461	построение сетки

4. РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

4.1. Проверка на прямом участке трубы

Для проверки решателя выбрана задача с известным инженерным решением. Потери давления по длине трубы оцениваются по формуле Дарси–Вейсбаха [1]

$$\frac{\Delta p}{L} = \lambda \frac{\rho_{\text{п}}\, u_{\text{ср}}^2}{2\, D} \tag{9}$$

$$\mathrm{Re} = \frac{\rho_{\text{п}}\, u_{\text{ср}}\, D}{\mu_{\text{п}}} \tag{10}$$

$$\frac{1}{\sqrt{\lambda}} = -2 \lg\left(\frac{2{,}51}{\mathrm{Re}\sqrt{\lambda}}\right) \tag{11}$$

где Δp - потери давления на участке, Па; L - длина участка, м; D - внутренний диаметр трубы, м; $u_{\text{ср}}$ - средняя скорость, м/с; λ - коэффициент гидравлического трения; Re - число Рейнольдса. Уравнение (11) - формула Колбрука для гладкой трубы [11]. При $u_{\text{ср}}$ = 3,80 м/с получено Re = $6{,}16 \cdot 10^5$, λ = 0,0127 и $\Delta p/L$ = 264 Па/м.

В расчёте на участке полностью развитого течения получено $\Delta p/L$ = 240 Па/м (λ = 0,0115), то есть на 9 % ниже расчёта по Колбруку. Расчёт и формула (11) выполнены при одной и той же принятой вязкости 5 мПа·с, поэтому сравнение отражает качество решателя, а не точность знания вязкости пульпы; занижение потерь на 5-10 % для RANS с пристенными функциями – типичное явление.

4.2. Центробежный насос

Напор насоса определяется по полному давлению на входе и выходе:

$$H = \frac{p_{\text{полн, вых}} - p_{\text{полн, вх}}}{\rho_{\text{п}}\, g} \tag{12}$$

где H - напор, м; $p_{\text{полн,вых}}$, $p_{\text{полн,вх}}$ - полное давление на выходе и входе, Па; g - ускорение свободного падения, м/с^2.

Невязка по массе между входом и выходом составила менее 0,01 %, расход через стенки корпуса отсутствует. Расчётный напор H = 44,3 м при паспортных 47,0 м для пульпы, то есть отклонение составило -5,7 %. Гидравлическая мощность $\rho_п gQH$ при подаче Q = 0,838 м^3/с составляет около 0,56 МВт. Поля скорости и давления показаны на рис. 2: перед входом в колесо возникает область низкого давления, давление нарастает в каналах и улитке, а повышенные скорости наблюдаются у выхода колеса вблизи языка улитки. Объёмная картина линий тока (рис. 3) и вид со стороны всасывания (рис. 4) получены на более мелкой сетке (487 282 ячейки) и служат качественной иллюстрацией: скорость возрастает от нескольких метров в секунду на всасывании до 28 м/с на периферии колеса, а в нагнетательном патрубке Ø457 мм составляет около 5 м/с (по подаче 3017 м^3/ч и площади сечения). Количественные сравнения в этой работе относятся к варианту с 416 461 ячейкой.

Отклонения 6-9 % приемлемы для предварительной оценки, но не для окончательных выводов: у насоса невязки по давлению оставались на уровне 10^{-3}-10^{-2}, а напор ещё возрастал (43,6 м на 1500-й и 44,3 м на 3000-й итерации), поэтому значение следует считать нижней оценкой.



Рисунок 2 - Результат расчёта насоса: модуль скорости (а) и статическое давление (б); сечение через рабочее колесо, вид со стороны всасывания, нагнетательный патрубок вверху



Рисунок 3 - Насос Warman 450 TUY-MCR: линии тока пульпы (объёмный вид; форма лопастей принята, расчёт оценочный)



Рисунок 4 – Насос Warman 450 TUY-MCR: линии тока, вид со стороны всасывания (форма лопастей принята, расчёт оценочный)

5. ОГРАНИЧЕНИЯ И СЛЕДУЮЩИЙ ЭТАП

Главное ограничение подхода «эффективной жидкости» - отсутствие твёрдых частиц: он не показывает, куда и под каким углом частицы ударяют в

стенку, а значит, не даёт износа. Кроме того, вязкость и плотность твёрдого приняты, форма проточной части насоса восстановлена приближённо, а расчёт гидроциклона тем же методом из-за обратных токов на выходах (13-14 %) пока недостоверен и в работе не используется; рис. 5 показывает лишь качественную картину закрутки потока.



Рисунок 5 - Гидроциклон 500CVX10: линии тока пульпы (качественная картина; количественные показатели не используются)

Следующий этап - связать поля скоростей, полученные из уравнений Навье-Стокса, с методом дискретных элементов (DEM), где каждая частица описывается как отдельное тело. Это направление также развивается в NASA: для моделирования заряженной лунной пыли в Космическом центре Кеннеди расширен открытый код LIGGGHTS [12]. Связка CFD–DEM рассматривается во второй части исследования.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

1. Уравнения Навье-Стокса, формулировка RANS, модель k-ω SST и открытый код OpenFOAM, которые рассматриваются в материалах NASA для аэрокосмических задач, применимы к потоку пульпы в трубе и насосе без изменения математической основы.

2. Для прямого участка пульпопровода Ø530 мм потери давления на 9 % ниже расчёта по формуле Колбрука; для насоса расчётный напор 44,3 м против паспортных 47,0 м (-5,7 %).

3. Результаты по насосу предварительны (сходимость не завершена, ряд параметров принят); для расчёта износа необходим переход к CFD-DEM.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Идельчик И.Е. Справочник по гидравлическим сопротивлениям / под ред. М.О. Штейнберга. – 3-е изд., перераб. и доп. - М.: Машиностроение, 1992. – 672 с.

2. Navier–Stokes Equations [Электронный ресурс] / NASA Glenn Research Center. - URL: https://www.grc.nasa.gov/www/k-12/airplane/nseqs.html (дата обращения: 06.10.2026).

3. Лойцянский Л.Г. Механика жидкости и газа: учебник для вузов. – 7-е изд., испр. – М.: Дрофа, 2003. - 840 с.

4. Turbulence Modeling Resource [Электронный ресурс] / NASA Langley Research Center, Turbulence Model Benchmarking Working Group. - URL: https://tmbwg.github.io/turbmodels/ (дата обращения: 06.10.2026).

5. Menter F.R. Two-equation eddy-viscosity turbulence models for engineering applications // AIAA Journal. - 1994. - Vol. 32, No. 8. - P. 1598-1605.

6. Nikaido B.E., Murman S.M., Garcia J.A. OpenFOAM Simulations of Atmospheric-Entry Capsules in the Subsonic Regime // 53rd AIAA Aerospace Sciences Meeting. - Kissimmee, FL, 2015. - Paper AIAA 2015-0313. - DOI: 10.2514/6.2015-0313.

7. Weller H.G., Tabor G., Jasak H., Fureby C. A tensorial approach to computational continuum mechanics using object-oriented techniques // Computers in Physics. - 1998. - Vol. 12, No. 6. - P. 620-631.

8. Thomas D.G. Transport characteristics of suspension: VIII. A note on the viscosity of Newtonian suspensions of uniform spherical particles // Journal of Colloid Science. - 1965. -Vol. 20, No. 3. - P. 267-277.

9. Patankar S.V., Spalding D.B. A calculation procedure for heat, mass and momentum transfer in three-dimensional parabolic flows // International Journal of Heat and Mass Transfer. – 1972. - Vol. 15, No. 10. - P. 1787-1806.

10. Технический паспорт центробежного пульпового насоса Warman, чертёж A820273, rev. 3 [Текст]. - Документ предприятия, не опубликован.

11. Colebrook C.F. Turbulent flow in pipes, with particular reference to the transition region between the smooth and rough pipe laws // Journal of the Institution of Civil Engineers. - 1939. -Vol. 11, No. 4. - P. 133-156.

12. Phillips J.R. III, Wang H., Hillegass A., Esparza A., Dove A.R., Elgohary T.A. Implementation of Charged Particle Behavior in Discrete Element Method

(DEM) Simulations. - NASA Kennedy Space Center, 2021. - NTRS 20210012780. - URL: https://ntrs.nasa.gov/citations/20210012780 (дата обращения: 06.10.2026).

GIDROTEXNIKA INSHOOTLARI UCHUN BETON TARKIBINI TANLASH: MUSTAHKAMLIK, CHIDAMLILIK VA QURILISH TEXNOLOGIYASI MEZONLARI

Choriyev Alibek Rasul o‘g‘li
"Veolia energy tashkent"MCHJ,Xorijiy korxonasi

Annotatsiya

Gidrotexnika inshootlaridagi beton suv bosimi, namlanish va qurish almashinuvi, harorat gradienti, muzlash va erish, abraziv oqim hamda muhitning kimyoviy ta’siri ostida xizmat qiladi. Shu sabab barcha elementlar uchun yagona retsept mavjud emas. O‘zbekistonda beton to‘g‘onlar uchun amal qilayotgan SHNQ talablari, muhandislik qo‘llanmalari, sinov standartlari va Pskem sharoitiga oid sonli tadqiqot maqsadli hujjatli sharh usulida qiyoslandi. Ommaviy to‘g‘on betoni, suv bilan tutash yuzalar va zich armaturalangan qismlar uchun xizmat muhiti, material manbai, issiqlik, ishlovchanlik va chidamlilik dalillari ajratildi. Mualliflik sintezi sifatida dastlab majburiy mezonlardan o‘tmagan nomzodlarni chiqarib tashlash, so‘ng qolganlarini bir xil sinov va qurilish sharoitida qiyoslash tartibi hamda tekshirish varag‘i taklif qilindi. Maqolada yangi laboratoriya tajribasi o‘tkazilmagan, mahalliy obyekt uchun tayyor dozalar yoki universal optimum e’lon qilinmaydi.

Kalit so‘zlar: *gidrotexnika betoni, beton tarkibi, suv-bog‘lovchi nisbati, ommaviy beton, chidamlilik, sinov aralashmasi.*

Аннотация

Бетон гидротехнических сооружений работает при воздействии гидростатического давления, переменного увлажнения, температурных градиентов, замораживания и оттаивания, абразивного потока и химического состава воды. Поэтому универсальная рецептура для всех элементов сооружения невозможна. Нормативную основу применения в Узбекистане составляют действующие национальные правила проектирования бетонных плотин. В статье на основе инженерных руководств и стандартов испытаний рассмотрен выбор состава для массивных бетонных элементов, поверхностей в зоне течения и участков с плотным армированием. Сопоставлены требования к заполнителям, водовяжущему отношению, тепловыделению, удобоукладываемости, воздухововлечению, уходу и оценке долговечности. Предложена

последовательность отбора альтернативных смесей: описание условий эксплуатации, предварительные ограничения, лабораторные пробные замесы и проверка показателей, относящихся к конкретному элементу. Собственные экспериментальные данные и универсальные значения дозировок в работе не приводятся; итоговые рекомендации требуют проверки на местных материалах и в проектных условиях.

Ключевые слова: *гидротехнический бетон, состав смеси, водовяжущее отношение, массивный бетон, долговечность, пробный замес.*

Abstract

Concrete in hydraulic structures is exposed to hydrostatic pressure, cyclic wetting, thermal gradients, freezing and thawing, abrasive flows, and chemically aggressive water. A single mixture cannot meet every element's requirements equally well. The applicable Uzbek design code for concrete dams provides the national framework. This article examines mixture selection for mass concrete, flow-facing surfaces, and heavily reinforced sections through an analytical reading of engineering guidance and test standards. Aggregate properties, water to binder ratio, hydration heat, workability, air entrainment, curing, and exposure-specific testing are considered together. A decision sequence is proposed in which exposure and constructability constraints first screen candidate mixtures, followed by trial batches and relevant performance tests. No new laboratory specimens or site-specific mix proportions were generated. The resulting framework is intended for adaptation to locally available materials and the design requirements of a particular structure.

Keywords: *hydraulic concrete, mixture proportioning, water to binder ratio, mass concrete, durability, trial batch.*

Kirish

O‘zbekiston sharoitida savol faqat umumiy beton texnologiyasi bilan cheklanmaydi. SHNQ 2.06.06-23 beton to‘g‘onning ish sharoitiga ko‘ra zonalarini ajratadi va siqilish, suv o‘tkazmaslik, sovuqqa bardoshlik, suvning zararli ta’siri, oqimdagi muallaq zarralar hamda qotish issiqligi bo‘yicha tegishli talablarni zonaga bog‘laydi. Umumiy gidrotexnika me’yori esa joyning iqlimiy, geologik, gidrologik va seysmik sharoitini loyihada hisobga olishni belgilaydi. Shuning uchun maqoladagi maqbul tarkib O‘zbekistondagi muayyan elementning zonasi va mahalliy material sinovlariga nisbatan talqin qilinadi [1,2].

Gidrotexnika betonining vazifasi oddiy siqilish yukini qabul qilish bilan tugamaydi. Inshootning suv bilan tutash yuzasi oqimning zarbasi va abraziv zarrachalar ta’sirida bo‘lishi, massiv tanasi esa gidratatsiya vaqtida ichki haroratni

tashqi yuzaga nisbatan uzoq saqlashi mumkin. Past bosimli qirg‘oq devori, yuqori bosimli suv o‘tkazgich va katta hajmli to‘g‘on bloki uchun bir xil tarkibni tavsiya etish shu farqlarni yashiradi. Material xossalari, kesim geometriyasi, qurilish usuli va ekspluatatsiya ssenariysi bir qaror tizimida ko‘rilishi kerak [5,6].

Maqolaning maqsadi gidrotexnika elementlarining xizmat muhiti bo‘yicha beton tarkibini asoslashda qo‘llanadigan muhandislik mantiqini tizimlashtirishdir. Asosiy savol quyidagicha qo‘yildi: mahalliy materiallar hali sinovdan o‘tmagan paytda ham qaysi talablar retseptlarni dastlabki saralashga yordam beradi va qaysi natijani faqat laboratoriya hamda ishlab chiqarish sinovi tasdiqlay oladi? Bunda aniq to‘g‘onning markasi, iqlimi yoki tannarxi to‘g‘risida ma’lumot taxmin qilinmaydi.

Materiallar va usullar

Robototexnik tizim o‘z holati va faoliyat yuritayotgan muhiti haqida ishonchli axborotga muhtoj. Sensorlar, signallarni moslashtirish sxemalari, ma’lumotlarni yig‘ish modullari va ishlov berish bloklari ushbu axborotni boshqaruv qurilmasiga yetkazib beradi. Mazkur maqolada axborot qurilmalari atamasi ushbu komponentlar va ular bilan bog‘liq interfeyslarni anglatadi. Ularning vazifasi faqat o‘lchov

ma’lumotlarini yig‘ish bilan cheklanmaydi: ular vazifa talab qiladigan vaqt va aniqlik chegaralarida talqin qilish mumkin bo‘lgan ma’lumotlarni yetkazib berishi kerak.

Bunday qurilmalarni loyihalash bir-biri bilan bog‘liq bir nechta muhandislik qarorlarini qabul qilishni talab etadi. Sensor aniqlik talabiga javob berishi, biroq unga ajratilgan joy yoki quvvat chegarasidan oshib ketishi mumkin. Aloqa interfeysi barcha zarur o‘zgaruvchilarni uzatishi, ammo boshqaruvga ta’sir qiladigan kechikishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Mexanik joylashtirish ham o‘lchash sifatini o‘zgartirishi mumkin. Ushbu bog‘liqliklar sensorlar quyi tizimini robotning mexanik va boshqaruv arxitekturasidan mustaqil ravishda ishlab chiqishni qiyinlashtiradi.

Texnik adabiyotlarda mexatronik modullar, robototexnik ilovalar va sanoat avtomatikasidagi axborot qurilmalari yoritilgan [1–3]. Ushbu doiraga tayangan holda, maqolada kompyuter yordamida loyihalash muvofiqlashtirilgan muhandislik jarayoni sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqsad — loyihalash tizimi talablar, modellar, dasturiy ta’minot va hujjatlarni qanday tashkil etishi kerakligini, shuningdek, zamonaviy simulyatsiya usullarining natijalarini real ishlashning isboti deb qabul qilmagan holda ulardan qanday foydalanish mumkinligini tushuntirishdir.

Tadqiqot doirasi va tahliliy yondashuv

Muhokama muhandislik faoliyatining konseptual tahlili va texnik hujjatlarni maqsadli o‘rganishga asoslanadi. Asosiy ish jarayoni talablarni belgilash, modellarni ishlab chiqish, loyiha sintezi, tahlil, amaliy amalga oshirish va sinov bosqichlari atrofida tashkil etilgan. Dasturiy ta’minot hujjatlarida modellar almashinuvi va simulyatsiya imkoniyatlariga misollar keltiriladi [4, 5]. Raqamli egizaklar bo‘yicha tadqiqotlar va sanoat robotlari xavfsizligi standartlarining e’lon qilingan qo‘llanish doirasi qo‘shimcha kontekst beradi [6–8]. Ushbu ish adabiyotlarning tizimli sharhi yoki loyihalash platformalarining tajribaviy taqqoslanishi hisoblanmaydi.

Taklif etilgan ish jarayoni uning kirish va chiqish ma’lumotlari o‘rtasidagi muvofiqlik asosida baholanadi. Har bir bosqichda muhandislik qarori muayyan talab va tegishli dalil turi bilan bog‘langan bo‘lishi kerak. Geometriyani tekshirish komponentning yig‘ma konstruksiyaga sig‘ishini aniqlashi mumkin, biroq komponent o‘lchash aniqligi talabiga javob berishini tasdiqlay olmaydi. Xuddi shuningdek, dasturiy ta’minotning muvaffaqiyatli bajarilishi sensor interfeysi mo‘ljallangan apparat vositasida to‘g‘ri ishlashini o‘z-o‘zidan tasdiqlamaydi.

Loyihalash usullari va muhandisning roli

Loyihalash mo‘ljallangan vazifa, foydalanish sharoitlari va qabul qilish mezonlarini belgilaydigan texnik topshiriqdan boshlanadi. Robototexnik axborot

qurilmasi uchun ushbu topshiriqda o‘lchanadigan kattaliklar, zarur o‘lchash diapazonlari, yo‘l qo‘yiladigan noaniqlik, diskretlash talablari, interfeys xususiyatlari va tegishli muhit cheklovlari ko‘rsatilishi kerak. Noaniq talablar modeldagi farazlarga aylanishidan oldin aniqlashtirilishi lozim.

Hisoblash vositalari va inson mulohazasining roliga ko‘ra loyihalashning uch turini ajratish mumkin. Qo‘lda loyihalashda muhandislar integratsiyalashgan hisoblashga asoslangan loyihalash muhitidan foydalanmasdan yechimlarni ishlab chiqadi va tekshiradi. Kompyuter yordamida loyihalashda dasturiy ta’minot modellashtirish, hisoblash, chizmalar tayyorlash va hujjatlashtirishni qo‘llab-quvvatlaydi, muhandislar esa farazlarni tanlaydi va natijalarni baholaydi. To‘liq avtomatik loyihalashda belgilangan o‘zgartirishlar yoki qidiruvlar ketma-ketligi shu ketma-ketlik davomida inson aralashuvisiz bajariladi. Ushbu farqlashning chegaralari 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval. Loyihalash usullari va mas’uliyat

Loyihalash usuli	Hisoblash vositalarining roli	Muhandisning mas’uliyati
Qo‘lda loyihalash	Integratsiyalashgan hisoblashga asoslangan loyihalash jarayoni mavjud emas	Yechimni ishlab chiqish va tekshiruvlarni bevosita bajarish
Kompyuter yordamida loyihalash	Dasturiy ta’minot modellashtirish, tahlil va hujjatlashtirishga yordam beradi	Farazlarni belgilash, yechimlarni tanlash va natijalarni baholash
To‘liq avtomatik loyihalash	Oldindan belgilangan jarayon yechimlarni yaratadi yoki o‘zgartiradi	Muammoni belgilash va yaratilgan yechimni baholash

Avtomatlashtirish muhandislik muammosini belgilash zaruratini yo‘qotmaydi. Yaratilgan joylashuv yoki optimallashtirilgan parametrlar to‘plami uni hosil qilishda qo‘llanilgan cheklovlar, ma’lumotlar va modellarga bog‘liq bo‘lib qoladi. Muhandislar ushbu shartlar mo‘ljallangan qo‘llanish holatini aks ettirishini va hisobga olinmagan ta’sirlar taklif etilgan yechimni yaroqsiz qilishi mumkinligini aniqlashi kerak.

Kompyuter yordamida loyihalash tizimining arxitekturasi

Kompyuter yordamida loyihalash tizimi muhandislik usullarini hisoblash resurslari bilan birlashtiradigan tashkiliy va texnik muhitdir. Uning funksiyalari komponentlarni tanlash, geometrik modellashtirish, matematik tahlil, sxemalarni ishlab chiqish, konfiguratsiyani boshqarish va ishlab chiqarish hujjatlarini tayyorlashni o‘z ichiga olishi mumkin. Loyihaning bir qismidagi o‘zgarishlar

boshqa qismlarda ham aks etishi uchun ushbu funksiyalar o‘zaro muvofiq ma’lumotlar almashishi kerak.

Tizimni muhandislik quyi tizimlari va yordamchi xizmatlarga ajratish mumkin. Muhandislik quyi tizimlari sensorlar joylashuvini ishlab chiqish yoki signallarga ishlov berish zanjirini tahlil qilish kabi muayyan vazifalarni bajaradi. Yordamchi xizmatlar umumiy kutubxonalar, loyiha ma’lumotlari, kirish huquqlari va hujjat versiyalarini yuritadi. Ushbu farqlash chizma tayyorlash dasturi yoki simulyatsiya paketini to‘liq loyihalash tizimi deb noto‘g‘ri qabul qilishning oldini olishga yordam beradi.

Arxitekturani tavsiflash uchun ta’minotning yetti turini ajratish foydalidir. Tashkiliy ta’minot mas’uliyatlar, ko‘rib chiqish tartiblari va tasdiqlash vakolatlarini belgilaydi. Uslubiy ta’minot muhandislik vazifalari qanday bajarilishi va tekshirilishini aniqlaydi. Matematik ta’minot modellar, sonli usullar va optimallashtirish algoritmlarini taqdim etadi. Axborot ta’minoti komponentlar haqidagi ma’lumotlar, kalibrlash qaydlari va loyihalash tarixini ta’minlaydi. Dasturiy ta’minot zarur funksiyalarni amalga oshiradi. Texnik ta’minot hisoblash resurslari, interfeyslar va sinov uskunalaridan iborat. Lingvistik ta’minot loyihani tavsiflashda qo‘llanadigan tillar, belgilashlar va ma’lumotlar ta’riflarini belgilaydi.

Ushbu ta’minot turlari o‘zaro bog‘liq. Komponentlar kutubxonasidagi qaydlarda o‘lchov birliklari yoki foydalanish sharoitlari ko‘rsatilmagan bo‘lsa, uning qiymati cheklangan bo‘ladi. Turli jamoalar o‘zaro mos kelmaydigan koordinata tizimlaridan foydalansa, tahlil algoritmi mazmunli taqqoslashni ta’minlay olmaydi. Shuning uchun loyihalash tizimi o‘lchov birliklari, parametr ta’riflari va model versiyalarini har kimning individual talqiniga qoldirmasdan, aniq ko‘rsatishi kerak.



Axborot qurilmasini loyihalashning bosqichli ish jarayoni

Ishlab chiqish jarayonini o‘zaro qayta aloqa mavjud bo‘lgan uch bosqichda tashkil etish mumkin. Birinchi bosqichda qurilmaning konseptual tavsifi va robotdagi o‘rni belgilanadi. Unda o‘lchash vazifasi, ko‘zda tutilgan ma’lumotlar

yo‘li, ishlash muhiti va boshqa quyi tizimlar bilan o‘zaro ta’sirlar aniqlanadi. Bu darajada funksional sxemalar va interfeys tavsiflari tegishli natijalar hisoblanadi.

Ikkinchi bosqichda konsepsiya parametrlashtirilgan modellarga aylantiriladi. Muhandislar nomzod sensorlar va ishlov berish tuzilmalarini tanlaydi, signal va aloqa xususiyatlarini belgilaydi hamda tahlilda foydalanish mumkin bo‘lgan modellarni tuzadi. Zarur model o‘rganilayotgan savolga bog‘liq. Geometrik model joylashtirish va qismlarning o‘zaro to‘qnashuvini tekshirishga yordam beradi, dinamik model esa vaqtga bog‘liq xatti-harakatni o‘rganishga xizmat qiladi. Sxema xususiyatlari signal sifatini belgilaydigan hollarda elektr modeli talab etiladi.

Uchinchi bosqichda qurilmaning amaliy yechimi va uni qabul qilish uchun zarur dalillar ishlab chiqiladi. Uning natijalari ishlab chiqarish chizmalari, elektr va ulanish sxemalari, dasturiy konfiguratsiyalar, kalibrlash yo‘riqnomalari va sinov tartiblarini o‘z ichiga oladi. Prototip sinovlarining natijalari hisobga olinmagan farazlar yoki o‘zaro mos kelmaydigan talablarni aniqlab, oldingi bosqichlarga qaytishni talab qilishi mumkin. 2-jadvalda har bir bosqichning asosiy natijalari va tekshiruvlari ko‘rsatilgan.

2-jadval. Loyihalash bosqichlari va verifikatsiya dalillari

Bosqich	Asosiy natijalar	Zarur tekshiruvlar
Konsepsiyani belgilash	Funksional tavsif, o‘lchash talablari va interfeys chegaralari	Talablar tushunarli va robot vazifasiga muvofiq
Modelni ishlab chiqish	Parametrlashtirilgan geometriya, signal modellari va nomzod komponentlar	O‘lchov birliklari, farazlar, interfeyslar va modellashtirilgan xatti-harakat mos
Amaliy amalga oshirish va sinov	Chizmalar, dasturiy konfiguratsiya, kalibrlash yo‘riqnomalari va sinov qaydlari	Yaratilgan qurilma belgilangan sharoitlarda qabul qilish mezonlariga javob beradi

Sintez va tahlil butun ish jarayoni davomida amalga oshiriladi. Sintez nomzod arxitektura yoki parametrlar to‘plamini yaratadi; tahlil esa uning texnik topshiriqqa javob berishini tekshiradi. Qoniqarsiz tahlil natijasi talablarning izohsiz o‘zgartirilishiga emas, hujjatlashtirilgan qayta ko‘rib chiqishga olib kelishi kerak. Talabning o‘zini o‘zgartirish zarur bo‘lsa, buning sababi va oqibatlari alohida ko‘rib chiqilishi lozim.



Zamonaviy hisoblash usullari

Parametrik modellashtirish va komponentlardan qayta foydalanish

Parametrik modellashtirish o‘lchamlar va loyiha xususiyatlarini o‘zaro bog‘liq o‘zgaruvchilar shaklida ifodalaydi. U muhandislarga har bir loyihani alohida tuzmasdan sensorlarning muqobil joylashuvi, mahkamlash usullari va korpus o‘lchamlarini o‘rganish imkonini beradi. Qayta foydalaniladigan komponentlar ham, ularning interfeys ta’riflari va ishlash chegaralari yangi qo‘llanish uchun yaroqli bo‘lib qolgan taqdirda, chizma va hisoblash ishlarining takrorlanishini kamaytirishi mumkin.

Qayta foydalanish avvalgi modelni nusxalash bilangina cheklanmaydi. Loyihachi komponentning tahriri, o‘lchash diapazoni, quvvat talablari, aloqa protokoli va kalibrlashga oid farazlarini tekshirishi kerak. Bir robotda ishlagan komponent boshqa muhitga o‘rnatilganda yoki boshqa yuklanish sharoitida ishlatilganda boshqacha tahlilni talab qilishi mumkin.

Modellar almashinuvi va ko‘p sohalarni qamrab oluvchi simulyatsiya

Modellar almashinuvi geometrik loyihalashni muhandislik tahlili bilan bog‘laydi. MathWorks hujjatlarida CAD yig‘ma modellarini, Unified Robot Description Format formatidagi modellarni va Robotics System Toolbox modellarini Simscape Multibody muhitiga import qilish bayon etilgan. Import qilingan tavsif qo‘llab-quvvatlanadigan kirish formatiga muvofiq jismlar, bo‘g‘inlar va cheklovlar yordamida qayta tuziladi [4]. Bu mavjud yig‘ma konstruksiya tavsifidan simulyatsiya modeli uchun asos sifatida foydalanish mumkinligiga misoldir.

Importdan keyin muhandislar o‘lchov birliklari, koordinata tizimlari, bo‘g‘in ta’riflari va tahlil uchun zarur xususiyatlarni tekshirishi kerak. To‘g‘ri ko‘rinayotgan modelda ham nomaqbul massa xususiyatlari bo‘lishi yoki ayrim fizik ta’sirlar hisobga olinmagan bo‘lishi mumkin. Sensor shovqini, signal kechikishi, ishqalanish va ijro mexanizmining xatti-harakati o‘rganilayotgan masalaga sezilarli ta’sir qilsa, modelda aks ettirilishi kerak. Model murakkabligi qabul qilinadigan qarorga mos bo‘lishi lozim: qo‘shimcha tafsilot faqat tahlilning ishonchliligi yoki tegishliligini oshirgandagina foydalidir.

Modelga asoslangan ishlab chiqish va apparat sinovlari

Modelga asoslangan ishlab chiqish quyi tizimning mo‘ljallangan xatti-harakatini bajariladigan modellar va sinov holatlari bilan bog‘laydi. Masalan, loyihachi tanlangan diskretlash oralig‘i yoki filtrlash strategiyasi boshqaruv qurilmasiga yetib boradigan ma’lumotlarga qanday ta’sir qilishini o‘rganishi mumkin. MathWorks robototexnikani ishlab chiqish imkoniyatlarini bayon etadi; ular sensorlarni modellashtirish, boshqaruvni loyihalash va simulyatsiyadan apparat vositalari ishtirokidagi yopiq kontur sinovlariga o‘tuvchi verifikatsiyani o‘z ichiga oladi [5]. Ushbu imkoniyatlar har bir loyiha uchun kafolatlangan natijalarni emas, ishlab chiqishning mumkin bo‘lgan bosqichlarini ko‘rsatadi.

Dasturiy ta’minot ishtirokidagi yopiq kontur sinovi (software-in-the-loop) bajariladigan dasturiy ta’minotni simulyatsiya muhitida baholaydi. Apparat vositalari ishtirokidagi yopiq kontur sinovi (hardware-in-the-loop) tanlangan fizik apparat vositalarini tizimning boshqa elementlari simulyatsiyasiga ulaydi. Ikkinchi yondashuv ideallashtirilgan modelda kuzatilmaydigan interfeys va bajarilish vaqti muammolarini aniqlashi mumkin. Har ikki yondashuv mos sinov ssenariylarini va tizimning qaysi qismlari fizik tarzda mavjudligi, qaysilari esa simulyatsiya qilinishining aniq bayonini talab etadi.

Raqamli egizaklar va foydalanish jarayonidagi qayta aloqa

Raqamli egizak virtual tasvirni fizik tizim haqidagi axborot bilan bog‘lash orqali modellashtirishni ishga tushirish va foydalanish bosqichlariga kengaytirishi mumkin. Malik, Shao va Tarakhovsky ishlab chiqarishdagi robot tizimining raqamli egizagida qaysi komponentlar aks ettirilishi kerakligini o‘rganadi va undan qurilmaning butun hayot sikli davomida foydalanishni muhokama qiladi [6]. Ularning ishi robotni faqat alohida geometriya sifatida modellashtirishdan ko‘ra, integratsiyalashgan tizim sifatida ko‘rib chiqishni qo‘llab-quvvatlaydi.

Axborot qurilmasi uchun foydalanish jarayonidagi qayta aloqadan sensorning modellashtirilgan xatti-harakatini o‘lchangan xatti-harakat bilan taqqoslash yoki almashtirish va qayta kalibrlashdan keyingi o‘zgarishlarni o‘rganish uchun foydalanish mumkin. Bunday foydalanish parametrlarni yangilash va ma’lumotlar

sifatini tekshirishning aniq tartibini talab etadi. Statik uch o‘lchamli model ayni robotni tasvirlagani uchungina undan foydalanish jarayonidagi raqamli egizak sifatida qaralmasligi kerak.

Sensorlar integratsiyasi va funksional hujjatlashtirish

Sensorlar quyi tizimi to‘liq o‘lchash zanjiri sifatida loyihalanishi kerak. Uning elementlari o‘lchanadigan fizik kattalik, sezgir element, signalni moslashtirish, ma’lumotlarni yig‘ish, ishlov berish va boshqaruv qurilmasiga yetkazib berishni o‘z ichiga oladi. Har bir interfeys o‘lchov birliklari, diapazonlar, vaqt parametrlari va ma’lumotlarning yaroqliligi haqidagi farazlarni kiritadi. Ushbu farazlarni qayd etish quyi tizim boshqaruv uchun zarur axborotni ta’minlay olishini tekshirish imkonini beradi.

Avtomatlashtirishning funksional sxemasi har bir komponentning vazifasini va axborot komponentlar o‘rtasida qanday harakatlanishini ko‘rsatadi. Ulanish sxemasi amaliy amalga oshirish uchun zarur fizik yoki elektr ulanishlarni qayd etadi. Boshqaruv algoritmi o‘lchangan axborotdan harakatni tanlashda qanday foydalanilishini tavsiflaydi. Ushbu hujjatlar turli maqsadlarga xizmat qiladi va loyiha o‘zgargan sari o‘zaro muvofiq bo‘lib qolishi kerak.

Foydali hujjatlar o‘lchov ma’lumotlari mavjud bo‘lmay qolganda yoki yaroqsiz holga kelganda tizimning xatti-harakatini ham belgilaydi. Qo‘llanish holatiga qarab, muhandislar sensorning uzilishi, qiymatning diapazondan chiqishi, aloqa xabarining yo‘qolishi yoki kalibrlash tekshiruvining muvaffaqiyatsiz yakunlanishini hisobga olishi kerak bo‘lishi mumkin. Qabul sinovlari odatiy ishlash bilan bir qatorda ushbu holatlardagi xatti-harakatni ham tekshirishi lozim. Boshqaruv qurilmasi nosozlik ta’sir qilgan o‘lchovdan yaroqli kirish ma’lumoti sifatida foydalanishda davom etsa, nosozlikni aniqlashning o‘zi yetarli emas.

Verifikatsiya va xavfsizlik masalalari

Loyihani verifikatsiya qilish amaliy yechim belgilangan talablarga javob berishini tekshiradi. Validatsiya esa ushbu talablar va hosil bo‘lgan tizim mo‘ljallangan foydalanish uchun mosligini tekshiradi. O‘lchash qurilmasi belgilangan diskretlash chastotasiga javob berishi, biroq robotning haqiqiy vazifasi uchun yetarli axborot bermasligi mumkin. Ushbu farq simulyatsiya ssenariylari va fizik sinovlarni tanlashga yo‘nalish berishi kerak.



Robotlar mos sharoitlarda takrorlanuvchi vazifalarni barqaror xatti-harakat bilan bajarishi mumkin, biroq avtomatlashtirish ularning aniqligini kafolatlamaydi. Noto‘g‘ri dasturlash, kalibrlash xatolari, sensor nosozliklari, mexanik deformatsiyalanish xususiyati va nomaqbul ishlash sharoitlari natijaga ta’sir qilishi mumkin. Shuning uchun loyiha haqidagi da’voda u baholangan sharoitlar va uni qo‘llab-quvvatlovchi dalillar ko‘rsatilishi kerak.

Sanoat robotlari xavfsizligi robot darajasida ham, uning qo‘llanishi darajasida ham ko‘rib chiqilishi kerak. ISO 10218-1:2025 sanoat robotlariga, ISO 10218-2:2025 esa sanoat robotlari qo‘llanishlari va robotlashtirilgan yacheykalarga taalluqlidir [7, 8]. Ushbu manbalar sanoatda foydalanishga tegishli bo‘lib, ularni tibbiy, maishiy yoki boshqa robot toifalarini ham qamrab oladi deb hisoblash kerak emas. Tegishli talablar haqiqiy tizim va foydalanish holati uchun tanlanishi lozim.

Simulyatsiya ehtimoliy muammolarni aniqlashga yordam beradi, ammo talablarga muvofiqlik yoki xavfsiz ishlashni o‘z-o‘zidan tasdiqlamaydi. Qabul qilish real o‘lchovlar, interfeyslar yoki xatti-harakatga bog‘liq bo‘lgan hollarda fizik sinovlar zarur bo‘lib qoladi. Yakuniy loyiha hujjatlarida har bir talab uni baholashda foydalanilgan model, ko‘rik, hisoblash yoki sinov bilan bog‘langan bo‘lishi kerak.

Muhokama

Taklif etilgan ish jarayonida muvofiqlik loyihalashni avtomatlashtirishning markaziga qo‘yiladi. Parametrik modellar muqobil variantlarni o‘rganishga, umumiy komponent ma’lumotlari qayta foydalanishga, simulyatsiya esa amaliy amalga oshirishdan oldingi tahlilga yordam beradi. Ularning amaliy qiymati ular o‘rtasida uzatiladigan axborot ayni bir loyihani tavsiflashiga bog‘liq. Sensor haqidagi eskirgan qayd yoki qayd etilmagan parametr o‘zgarishi texnik jihatdan murakkab tahlilning ishonchliligini susaytirishi mumkin.

Avtomatlashtirish takrorlanadigan muhandislik ishlarini kamaytirishi mumkin, biroq ushbu maqolada ishlab chiqish vaqti, xarajatlar yoki fizik sinovlarning qisqarishi miqdoriy baholanmagan. Bunday natijalarni aniqlash uchun belgilangan boshlang‘ich taqqoslash holati va nazorat qilinadigan taqqoslash yoki

hujjatlashtirilgan loyiha dalillari talab etiladi. Shu sababli hech bir dasturiy platforma barcha holatlar uchun afzal deb taqdim etilmaydi. Platformani tanlash talab etiladigan modellashtirish funksiyalari, almashinuv formatlari, apparat interfeyslari va muhandislar jamoasining malakasiga asoslanishi kerak.

Ish jarayonini amaliy baholashda boshqa jihatlari bo‘yicha taqqoslanadigan loyihalar oldindan belgilangan ko‘rsatkichlar, jumladan, ko‘rib chiqishga sarflangan mehnat, integratsiya nuqsonlari hamda simulyatsiya qilingan va o‘lchangan xatti-harakat o‘rtasidagi moslik asosida taqqoslanadi. Bunday baholash taklif etilgan afzalliklarni oldindan qabul qilish o‘rniga sinovdan o‘tkazadi. Mazkur maqola ushbu ish uchun muhandislik tuzilmasini taqdim etadi va uning natijalarini talqin qilish imkonini beradigan zarur qaydlarni aniqlaydi.

Xulosa

Robototexnik axborot qurilmalarini kompyuter yordamida loyihalash talablar, sensor modellari, mexanik integratsiya, dasturiy ta’minot va amaliy amalga oshirish hujjatlarini muvofiqlashtirishi kerak. Qo‘lda, kompyuter yordamida va to‘liq avtomatik loyihalash o‘rtasidagi farq qaysi vazifalar hisoblash vositalari orqali bajarilishini va qaysi qarorlar muhandis mas’uliyatida qolishini aniqlashtiradi.

Aniq qayta aloqaga ega bosqichli jarayon tahlil yoki sinovda muammo aniqlanganda nomzod yechimlarni qayta ko‘rib chiqish imkonini beradi. Parametrik modellashtirish, modellar almashinuvi va simulyatsiya ularning farazlari va interfeyslari tekshirilgan holda ushbu jarayonga yordam berishi mumkin. Apparat sinovlari va foydalanish jarayonidagi qayta aloqa esa faqat virtual modelning o‘zi tasdiqlay olmaydigan xatti-harakat haqida dalillar beradi.

Asosiy tavsiya — texnik topshiriq, loyihaning joriy holati va qabul qilishda foydalaniladigan dalillar o‘rtasida kuzatib borish mumkin bo‘lgan bog‘liqlikni saqlashdir. Ushbu bog‘liqlik loyihalashni avtomatlashtirishni audit qilish imkonini beradi va muhandislarga axborot qurilmasi robototexnik tizimga integratsiya qilishga tayyorligini hal etish uchun asoslangan tayanch yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Alimova, N. B. (2023). Mexatron modullar va robotlarning informatsion qurilmalari. Ziyo nashr-matbaa. https://mechauz.uz/storage/files/aPJfdSpuqW0kZjEUhbUgRb4zXMjZTUpNEXd6P8W8.pdf

[2] Kalandarov, P. I. (2021). Avtomatika asoslari va ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish. Toshkent. https://staff.tiiame.uz/storage/users/702/books/hxdyWc64rxc4ylSk9H8CT0vh6AhFuTBsvP6yTtUW.pdf

[3] Abdurzoqov, J. T., va Orifqulova, M. F. (sana ko‘rsatilmagan). Tibbiyotni raqamlashtirish va robot texnikasi, 377–378-betlar. Taqdim etilgan manbada nashr yili va nashr qilingan joy ko‘rsatilmagan.

[4] MathWorks. (sana ko‘rsatilmagan). Modellarni import qilish. Simscape Multibody hujjatlari. https://www.mathworks.com/help/sm/cad-import.html

[5] MathWorks. (sana ko‘rsatilmagan). Robototexnika va avtonom tizimlar. https://www.mathworks.com/solutions/robotics.html

[6] Malik, A., Shao, G., va Tarakhovsky, J. (2024). Ishlab chiqarishdagi robot tizimlari uchun raqamli egizaklar. Raqamli egizaklar, simulyatsiya va metakoinot nashrida. Springer. Nashr haqidagi qayd va annotatsiya: https://www.nist.gov/publications/digital-twins-robot-systems-manufacturing

[7] Xalqaro standartlashtirish tashkiloti. (2025). ISO 10218-1:2025 Robototexnika — Xavfsizlik talablari — 1-qism: Sanoat robotlari. E’lon qilingan qo‘llanish doirasi: https://www.iso.org/standard/73933.html

[8] Xalqaro standartlashtirish tashkiloti. (2025). ISO 10218-2:2025 Robototexnika — Xavfsizlik talablari — 2-qism: Sanoat robotlari qo‘llanishlari va robotlashtirilgan yacheykalar. E’lon qilingan qo‘llanish doirasi: https://www.iso.org/standard/73934.html

3. ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND DIGITAL TECHNOLOGIES

SUN'IY INTELLEKTNING TURIZM RIVOJLANISHIGA TA'SIRI: IMKONYATLAR VA MUAMMOLAR

Abduhalilov Abdulbosid
Ipak yo'li turizm va madaniy meros xalqaro universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqola zamonaviy jahon turizmida sun'iy intellektning (SI) texnaogiyalarining tutgan o'rni, Ularning afzalliklari, turizm sohasini raqamlashtirish hamda rivojlantirishdagi ahamyati shuningdek O'zbekiston turizimida asosiy va katta o'rin tutgan shaharlar misolida mavjud imkoniyatlar tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Sun'iy intellekt, turizm industiriyasi raqamli texnalogiyalar , Aqlli turizm, O'zbekiston turizimi, Samarqand*

KIRISH

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida bo'lgani kabi, turizm industriyasida ham sun'iy intellekt (SI) texnologiyalaridan keng miqyosda foydalanilmoqda. So'nggi yillardagi tahliliy hisob-kitoblarga ko'ra, turizm sohasida SI yechimlaridan foydalanish hajmi keskin oshdi. Masalan,2025-yildagi sarlavhalarga (hisob-kitoblarga) ko'ra so'nggi 3 yil ichida SI dan foydalanish 6 baravarga, aniqroq aytganda 5,8 baravarga oshgan. SIning bu darajada rivojlanishi turizmga katta ta'sir etmoqda. SI jahon turizm industriyasini tubdan o'zgartirib yuborayotgani eng asosiy drayverlardan biri bo'lib kelmoqda. SIni turizmga yo'naltirish bo'yicha qaratilayotgan e'tibor kun sayin oshmoqda. Bu sa'y-harakatlar o'z samarasini ko'rsatmoqda. Misol uchun 2021-yildagi touristlar tomonidan mehmonxona bron qilish 2026-yilda 20-30% ga, bandligi esa 15-20% ga oshdi. 2020-2021 yillarda bozorda sun'iy intellekt aylanmasi 364 mln dollar bo'lsa, 4 yildan o'tgach so'ng bu ko'rsatkich 1,26 mlrd ga ko'tarildi. Bu o'z-o'zidan turistlar sonini 3,5 baravar oshganining yaqqol namoyondasidir. SIni turizmni rivojida qanday ta'siri bor?

Hozirgi kundagi turizmning rivojlanishi Ma'lumki, bugungi kunlarda butun jahon turizm rivojlanishiga e'tibor qaratishmoqda. Avvalo turizm devletlararo munosabatlarni mustahkamlash bilan birga mamlakat taraqqiyotiga ta'sir etadi. Mamlakatimizda ham turistlarni jalb etish maqsadida keng islohotlar olib borilmoqda. Misol tariqasida turli viloyatlarda barpo etilayotgan imoratlar, viloyatlararo aeroport(Ichki reyslar) va Afrosiyob poyezdlarini tashkil buyurayotgan turistlar uchun yengillik maqsadida yo'lga

qo‘yilmoqda. Davlatimiz rahbari 2026-yilning avgust oyidagi Qoraqalpog‘iston (Respublikasi) tashriflari davomida turizm salohiyatini oshirishga 12 ta katta islohotlarni boshlab berdi va bu albatta turistlarni jalb qilishga qaratilgan katta e’tibor. Shuni ta’kidlab o‘tishim joizki olib borilayotgan islohotlar o‘z samarasini ko‘rsatmoqda. 2025-yilning oxirida 5,9 mln, 2026-yilni yarim yilligida qilingan hisob-kitoblarga ko‘ra turistlar soni rekord darajada oshgan.

Turizmda sun’iy intellektdan foydalanish.

Bugungi kunda SI yordamida tarixiy meros obyektlari, tabiat manzaralari, masalan: turistik joylarni, dastlabki tarixiy meroslarni, go‘zal manzaralarni, kontent, reklama, mahsulot, animatsiyalarni SI yordamida yaratishmoqda. Bu esa o‘z navbatida turist mamlakatga bo‘lgan e’tiborini oshiradi. Yoki SI yordamida boriladigan joylarni virtual ko‘rish, virtual sayohat qilish imkoniyatlari mavjud. Booking.com, TripAdvisor kabi platformalar SI yordamida biror mamlakatga borib sayohat qilish to‘g‘risida kiradigan shaxsiy tavsiyalar tizimini yanada mukammallashtirmoqda.

AI ning turizm rivojiga imkoniyatlari

SI insonlarga keng imkoniyatlar yaratib turizmni ancha yengillashtirmoqda. Nima uchun? Mehmonxonalar va xizmat ko‘rsatish maskanlarida joriy etilayotgan SI ko‘p tilli chat-botlari va virtual qurulmalar xalqaro turistlar bilan muloqot qilishni sezilarli darajada yengillashtirmoqda. Turli mamlakatlardan kelgan mehmonlar o‘z ona tillarida tezkor ma’lumot olish imkoniga ega bo‘lib, bu sohadagi ehtiyojlarni va muammolarni bartaraf etmoqda.

AI bilan bog’liq muammolar va xavflar

SI turizm rivojiga keng imkoniyatlar bilan birga turli xil muammolar va xavflarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Aytaylik, AI tillarga bo‘lgan cheklovlarni olib, keng imkoniyatlar yaratib ehtiyoj va muammolarni bartaraf etish bilan birga kelajakda gidlargab bo‘lgan ehtiyojni ham yo’qolishiga olib kelishi mumkin. Qolaversa, mehmonxonalarga yo‘lga qo‘yilayotgan AI tizimi katta sarmoya talab etmoqda. Bu o‘z o‘rnida boshqa mehmonxona egalari uchun bir qancha qiyinchiliklar tug’dirishi mumkin.

AI va barqaror turizm

SI texnologiyalari turizm obyektlarida "aqlli boshqaruv" tizimlarini joriy etish orqali turizmning o’sishida katta o’rin tutmoqda, shuningdek resuslarni tejashdaham katta ahamiyatga ega. Masalan hozirda yo‘llarga qo‘yilayotgan AI lardan ob-havoni aniqlash - noqulay sharoitda tartibsizlikni oldini olish, hatto ko‘plab turistlarni jalb etgan joylardan tirbandlikni oldini olish maqsadida foydalanilmoqda. Yana bir oddiy bir misol! Hozirda global muammo bo‘layotgan energiya va suv sarfini tejash. Ya’ni AI o‘z-o‘zini boshqarish tizimi xona haroratini bir me’yorda ushlash, energiya va

suvni behuda sarf lanayotganligida avtomatik ravishda o'chirish orqali global ekologik muammolarni bartaraf etishga hissa qo'shmoqda.

O'zbekiston (Samarqand misolida)

O'zbekiston o'zining boy tarixiy va madaniy merosi bilan jahonda o'z o'ringa ega. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Qo'qon hamda Qoraqalpog'iston hududlaridagi tarixiy obidalar xalqaro turistlarni o'ziga jalb etib kelmoqda. Xususan, Samarqand shahri O'zbekistonning turizm sohasida eng jadal rivojlanayotgan va xorijiy sayyohlar eng ko'p tashrif buyuradigan asosiy markazlaridan biridir. shahar ko'rki hisoblangan muazzam Registon maydoni hamda Buyuk ipak yo'lining asosiy markazlaridan biri bo'lgan, va boshqa me'moriy obidalar alohida e'tiborga sazovor. Hozirgi kunda bunday madaniy meros obyektlarida turizmni salohiyatini takomillashtirish, sayyohlarga raqamli texnologiyalar orqali yengilliklar yaratish hamda xizmat ko'rsatish sifatini oshirish bo'yicha bir qancha samarali loyihalar amalga oshirilmoqda.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, turizmda AI dan foydalanish bu turizmni yanada rivojlantiradi. Turistlarga AI ni keng qulayliklar yaratishi va yangi imkoniyatlarni taqdim etishi AI ni jahon turizimda tutgan o'rni katta ekanligi ko'rsatadi. AI bilan turizmda katta yutuqlarga, misol uchun turistlar oqimini yanada oshirish turizmni yangi sohalarda cho'qqilarga olib chiqishi mumkin. Lekin shuni unutmaslik kerakki, turizmni rivojlanishi faqatgina AI ga bog'liq emas. Balki mamlakatni mehmondo'stligi, odamlarning samimiyligi, va turistlarga iliq munosabatda bo'lish turistlarni e'tiboriga jalb etishi va kelajakdagi turizm rivojiga hissa qo'shadi. AI esa qulaylik yaratishda samarali yordamchi hisoblanadi!

References

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Turizmni rivojlantirishga oid 2023–2026-yillarga tegishli farmon va qarorlar. – O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – https://lex.uz.

2. Buhalis D., Leung R. Smart hospitality: Enhancement of customer experiences through artificial intelligence and edge computing // Regional Statistics. – 2018. – Vol. 8, No. 1. – P. 3–21.

3. Davlat statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasida turizm sohasining asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha statistik axborotnomasi. – Toshkent, 2025–2026.

4. Ivanov S., Webster C. Robots, Artificial Intelligence, and Service Automation in Travel, Tourism and Hospitality. – Emerald Publishing Limited, 2019.

5. Booking.com; TripAdvisor. Annual Technology Reports: AI-driven Personalized Recommendations in Travel and Booking Platform. – 2023–2025.

6. Davlat statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasining asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha statistik axborotnomasi. – Toshkent, 2025–2026.

ASIMMETRIK KRIPTOTIZIMLARDA AXBOROTNI SHIFRLASH USULI VA ALGORITMLARNI TAHLIL QILISH

Rasulov Islom Jovli o‘g‘li
Jarqo‘rg‘on tumani MMTB ga qarashli 61-sonli maktab
islomrasulov1996@mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu tezis asimmetrik tizimlarda ma'lumotlarni shifrlashning zamonaviy usullari va algoritmlarini o'rganadi hamda tahlil qiladi. Ushbu tadqiqot assimetrik tizimlardagi mavjud algoritmlarning ishonchliligini baholash, berilgan algoritmni shifrlash va buzish texnologiyasiga qo'yiladigan zaif tomonlar va talablarni tahlil qilish, shuningdek, shifrlash tizimlarining ishlashini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda statistik ma'lumotlarni qayta ishlash usullari qo'llanilgan. Asosiy tadqiqot usullari: ilmiy tadqiqotlar, axborot materiallarini tahlil qilish va sintez qilish hamda simulyatsiya tajribalari natijalari.*

Kalit so'zlar: *RSA, shifrlash, kriptologiya, algoritm, assimetrik kriptotizim.*

Kirish. Bugungi ilg'or texnologiyalar dunyosida global internet orqali ulkan axborot oqimlari o'tadi. Ushbu ma'lumotlarning bir qismi maxfiy bo'lib, uni ushlashga urinayotgan buzg'unchilardan himoya qilishni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, uni himoya qilish juda muhim vazifadir.

Bu muammoning asosiy yechimi xavfsiz aloqa kanallarini yaratish va axborotni shifrlashdir. Shifrlash va shifrni ochish usullarini o'rganadigan fan kriptologiya deb ataladi.

Asosiy qism. Kriptotizimlarda axborotni shifrlashning ko'plab turli usullari mavjud.

Biroq, ularga bo'lgan talab har yili ortib bormoqda, chunki taraqqiyot hech qachon to'xtamaydi. Texnologiya doimiy ravishda takomillashib bormoqda va shu bilan birga, algoritmlarni buzish va shifrlangan matnni o'qish imkoniyatlari ham ortib bormoqda.

Hozirgi vaqtda kriptologiya uchta sohada rivojlanmoqda:

- RSA, ElGamal va boshqalar kabi tanish va taniqli algoritmlar;
- elliptik egri chiziqlar va ularning o'zgarishlariga asoslangan algoritmlar;
- kvant mexanikasi tamoyillariga asoslangan algoritmlar.

Hozirgi vaqtda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan, yangi shifrlash algoritmlari va usullarini ixtiro qilishdan tashqari, kriptografik kuchini

saqlab qolgan holda ularning ishlashiga katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu tadqiqotning shifrlash algoritmlari va usullarining kriptografik kuchini va ularning ishlashini o'rganishdagi ahamiyati:

- Birinchidan, axborotning jamoat hayotining ko'plab jabhalariga (ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy) ta'sirining kuchayishi;

- Ikkinchidan, axborot jarayonlarini keng va ommaviy kompyuterlashtirish, axborot va hisoblash tarmoqlarini Butunjahon o'rgimchak to'riga keng joriy etish va integratsiya qilish, ularning resurslariga keng foydalanuvchilar tomonidan kirish imkoniyatini yaratish tufayli.

Ushbu ishning amaliy qiymati shundaki, u oddiy foydalanuvchiga bugungi kunda katta amaliy ahamiyatga ega bo'lgan eng ishonchli va tezkor shifrlash algoritmini tanlash imkoniyatini beradi.

RSA shifrlash algoritmining ishlash tahlili.

Hozirda RSA, ElGamal yoki Polland p-usuliga asoslangan algoritmlar uchun zarur xavfsizlik darajasini ta'minlash uchun kamida 1024 bitli kalit, ya'ni 21024 raqami talab qilinadi. Biroq, odatiy kompyuterda bunday hisob-kitoblar uchun ishlov berish quvvati yetarli emas, shuning uchun bir necha baravar kichikroq qiymatlar qo'llaniladi.

Kirish ma'lumotlari:

- 690 belgili matn ("Narniya yilnomalari 1" hikoyasining birinchi bobi - "Sehrgarning jiyani")

- Ochiq kalit parametrlari: N = 76053403, e = 32621371

1-rasm - RSA algoritmi shifrlash funktsiyalarining vaqt jadvali - Encode va nitKeyData



1-rasm - RSA algoritmi shifrlash funktsiyalarining vaqt diagrammasi - Encode va InitKeyData.

Quyidagi funktsiyalar kalit yaratishga sarflangan vaqtning 15,72% ni bajaradi:

InitKeyData – asosiy sonlarni qidirish funktsiyasini (GetNotDivideable) o'z ichiga olgan kalit yaratish funktsiyasining o'zi;

GetAllPossibleE – shartni qondiradigan ochiq kalit juftligi parametrlaridan birining barcha mumkin bo'lgan qiymatlarini topadigan funksiya. ExtendedEuclide - bu oldingi funksiya bajarilganda chaqiriladigan Evklid nazariyasiga asoslangan funksiya.

Shifrni ochish jarayoni xabarlarni shifrlashga qaraganda biroz kamroq vaqt talab etadi, chunki kalit allaqachon yaratilganligi sababli uni yaratishga hojat yo'q - 4 daqiqa 38 soniya (278308.648084 ms).

2-rasm – RSA shifrni ochish funksiyasi vaqt jadvali – dekodlash

Name	Time spent	Time spent (self)	Time spent/call	Time spent (self)/ca	% of parent
RSA.decode	278308.648084ms	2.148625ms	278308.648084ms	2.148625ms	100.00%
RSA.ModuloPow	278286.363477ms	278286.363477ms	403.898931ms	403.898931ms	100.00%

Natijada, assimetrik kriptotizimlardagi algoritmlar va shifrlash usullarining ishlash tamoyillari (RSA, ElGamal, Rabin kriptotizimi, p-Polsha usuli, elliptik egri chiziq algoritmlari va kvant kriptografiyasidagi algoritmlarning ishlash tamoyillari) o'rganildi; algoritmlarning "zaif tomonlari" tahlil qilindi; algoritmlarga hujum qilishning mavjud usullari o'rganildi;

RSA shifrlash algoritmlarining dasturiy ta'minoti yaratildi; amalga oshirilgan algoritmlarning ishlashi tahlil qilindi.

Xulosa. Ushbu tesizda biz assimetrik tizimlarda axborotni shifrlashning zamonaviy usullari va algoritmlarini tahlil qilamiz. Maqsadlar assimetrik tizimlarda mavjud algoritmlarning ishonchliligini baholash, shifrlash texnologiyasining zaif tomonlari va talablarini, shuningdek, ushbu algoritmni buzish uchun tahlil qilish va shifrlash tizimlarining ishlashini tahlil qilishdir. Ishda statistik ma'lumotlarni qayta ishlash usullari qo'llanilgan. Asosiy tadqiqot usullari ilmiy tadqiqotlar, tahlil va axborot materiallari va simulyatsiya tajribalari natijalarini umumlashtirish edi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. C. H. Bennett, F. Bessette, G. Brassard, L. Salvail va J. Smolin, "Eksperimental kvant kriptografiyasi", Kriptologiya jurnali, 5-jild, №. 1, 1992, 3-28-betlar

2. C. Chevalley, Bir o'zgaruvchining algebraik funksiyalari nazariyasiga kirish – NY: Amerika matematik jamiyati, 1951

3. W. Diffie va Hellman. Ko'p foydalanuvchili kriptografik texnika. AFIPS 1976 materiallarida NCC, 109-112-betlar. AFIPS Press, Montvale, N.J., 1976

BADIIY MATNDA MUALLIF IDIOSTILINI ANIQLASHNING SUN'IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN MODELI: ROALD DAHLNING "THE WITCHES" ASARI MISOLIDA

Saidov Akmal Azimovich
Buxoro davlat universiteti
saidakmal9596@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada "The Witches" asaridagi nutq qatlamlarini ajratish orqali idiostilni o'rganish modeli sinovdan o'tkaziladi. 244 fragmentda belgili n-grammalar va logistik regressiya qo'llanib, macro-F1 0,762 ga erishildi. Grafonlarni saqlashning ahamiyati va modelning talqin chegaralari ko'rsatildi.*

Kalit so'zlar: *idiostil, korpus, grafon, narratsiya, tasniflash, modellashtirish.*

Аннотация. *Представлена модель изучения идиостиля через разграничение речевых слоёв произведения «Ведьмы». На 244 фрагментах символьные n-граммы и логистическая регрессия обеспечили macro-F1 0,762. Показаны значение сохранения графонов и ограничения интерпретации результатов классификации.*

Ключевые слова: *идиостиль, корпус, графон, нарратия, классификация, моделирование.*

Abstract. *This study models idiostyle through distinguishing narrative and character speech in The Witches. Character n-grams and logistic regression achieved a macro-F1 of 0.762 on 244 passages. The analysis demonstrates the importance of preserving graphons and specifies interpretive limitations.*

Keywords: *idiostyle, corpus, graphon, narration, classification, modelling.*

Kirish

Muallif idiostilini kompyuter yordamida o'rganishda ikki vazifani farqlash zarur: matnning kimga mansubligini aniqlash va ma'lum muallifning badiiy ifoda usullarini tushuntirish. Burrowsning stilistik masofaga oid tadqiqoti chastotalarning qiyosiy imkoniyatini ko'rsatsa [2], Stamatatos matnni ifodalash va tasniflash usullarini mualliflik atributsiyasining alohida tarkibiy qismlari sifatida yoritadi [8]. Biroq tasniflashdagi yuqori natija hali badiiy uslubning to'liq izohi emas.

"The Witches" asarida bolaning birinchi shaxs bayoni, buvining izohlovchi nutqi va Bosh jodugarning keskin individuallashgan replikalari yonma-yon keladi [3]. Ularni bitta chastotaviy ro'yxatda aralashtirish personajga xos belgini butun

muallif uslubiga tenglashtirish xavfini tug‘diradi. Korpus stilistikasida miqdoriy kuzatishni kontekst va xarakter yaratish vazifasi bilan bog‘lash ushbu muammoni yumshatadi [6].

Maqolaning maqsadi — asar ichidagi nutq qatlamlarini mashinaviy o‘rganish yordamida farqlashni idiostil tahlilining tekshiriladigan boshlang‘ich bosqichi sifatida modellashtirish. Tadqiqot savoli quyidagicha: grafonlarni saqlaydigan belgili model nutq qatlamlarini qay darajada ajratadi va grafik cho‘zilish olib tashlanganda natija qanday o‘zgaradi? Ish yangi tasniflagich algoritmini emas, mavjud algoritmni matnshunoslik nazorati va badiiy talqin bilan birlashtiruvchi amaliy modelni taklif etadi.

Material va metodlar

Asosiy manba — “The Witches” asarining taqdim etilgan 80 sahifali elektron nusxasi; uning titul qismida 1983-yilgi mualliflik huquqi qaydi bor, biroq nashriyot va aniq nashr rekvizitlari ko‘rsatilmagan. Asar 22 sarlavhali bobga ajratildi. Keyingi sahifa havolalari bosma nashrga emas, aynan shu PDF sahifalariga tegishli [3]. Tadqiqot materialiga Dahlning boshqa asarlari va ularning avvalgi statistik ko‘rsatkichlari qo‘shilmadi.

PyMuPDF 1.26.7 orqali matn bloklari olindi. Sarlavhalar va xizmat yozuvlari chiqarildi; bo‘shliqlar birxillashtirilib, yumshoq ko‘chirish belgisi olib tashlandi. Tahlil uchun 20–120 so‘z-tokenli fragmentlar tanlandi. Hisobda harflar ketma-ketligi, uning ichidagi apostrof yoki defis bilan birikkan qismlar bitta token deb olindi; raqamlar va tinish belgilari token sanog‘iga kiritilmadi. Bu so‘z-tokenlar neyron til modellaridagi subtokenlarga teng emas.

N sinfiga qo‘shtirnoqsiz, bosh harf bilan boshlanib, nuqta, so‘roq yoki undov belgisi bilan tugagan bayon bloklari, shu jumladan hikoyachining ichki mulohazalari kiritildi. G va W sinflari uchun qo‘shtirnoq bilan boshlanadigan, qo‘shtirnoqlari juft hamda tashqi izohida mos ravishda buvi yoki Bosh jodugar aniq ko‘rsatilgan bloklar olindi. Bir blokdagi ayni so‘zlovchining replikalari birlashtirildi, “my grandmother said” kabi atributsiya izohlari esa model kirishidan olib tashlandi. Kontekst tekshiruvida boshqa so‘zlovchiga tegishli ikki blok va ichma-ich ko‘chirma nutqli bir blok chiqarildi. Yakuniy tanlanma 244 fragmentdan iborat bo‘ldi.

1-jadval. Tajriba tanlanmasining tarkibi

Nutq qatlami	Fragmentlar	So‘z-tokenlar	Boblar
Hikoyachi bayoni (N)	153	7 921	21
Buvi nutqi (G)	58	2 565	12
Bosh jodugar nutqi (W)	33	1 311	5
Jami	**244**	**11 797**	**22**

Izoh: boblar soni qatlamlar bo‘yicha kesishadi; jami 22 ta alohida bob qamrab olingan.

Nusxadagi noaniq qo‘shilib qolgan so‘zlar va oddiy defisli shakllar taxmin asosida ommaviy tuzatilmadi. Ayniqsa, “rrree-moof”, “vigs”, “vill” kabi personaj nutqini ifodalovchi yozuvlar saqlandi. Grafon bu yerda talaffuz yoki nutq xususiyatini ko‘rsatish uchun ataylab o‘zgartirilgan grafik shaklni anglatadi. Texnik xato bilan uslubiy chekinishni ajratish zarurati korpusdagi shovqinning natijaga ta’siri haqidagi tadqiqotlar bilan hamohangdir [4].

Taklif etilayotgan model to‘rt bo‘g‘indan iborat: manba va nutq qatlamini tekshirish; fragmentni sonli belgilar bilan ifodalash; nutq qatlamini tasniflash; farqlovchi belgini kontekstga qaytarib, idiostilga oid talqin yaratish. Mashinaviy qism TF–IDF vektorlash va ko‘p sinfli logistik regressiyadan tuzildi. TF–IDF birlikning fragmentdagi takrorlanishini uning o‘quv tanlanmasi bo‘ylab tarqalishi bilan muvozanatlashtiradi. Bu tajribada tayyor katta til modeli yoki generativ neyron tarmoq ishlatilmadi; sun’iy intellekt komponenti nazoratli mashinaviy o‘rganishdir.

$$P(c \mid x) = \exp(w_c^T x + b_c) / \Sigma_j \exp(w_j^T x + b_j), \quad c \in \{N, G, W\}.$$

Bu yerda x — fragmentning TF–IDF vektori, c — nutq qatlami, w va b — o‘rgatiladigan parametrlar. Modelning chiqishi muallifning shaxsi emas, nutq qatlami haqidagi bashoratdir. Idiostilga oid xulosa esa ushbu natijadan keyingi kontekstual talqin bosqichida shakllantiriladi.

Tajriba

Hisoblash Python 3.13.5 va scikit-learn 1.8.0 muhitida bajarildi [7]. To‘rtta variant solishtirildi: doimo o‘quv tanlanmasidagi eng katta sinfni tanlaydigan bazaviy model; 1–2 so‘zli n-grammalar modeli; 3–5 belgili n-grammalar modeli; shu belgili modelning r harfi cho‘zilishi qisqartirilgan varianti. So‘z modeli leksik birikmalarni, belgili model esa harf, bo‘shliq va punktuatsiya ketma-ketliklarini o‘rganadi. Funksional so‘zlarning uslubiy axborot tashishi ularni faqat mazmuniy leksika bilan cheklamaslikni asoslaydi [5].

Sinov besh bo‘lakli GroupKFold yordamida boblar bo‘yicha tashkil etildi: bir bobning fragmentlari ayni siklda ham o‘qitishga, ham testga tushmadi. Test boblari ketma-ketligi: 2, 5, 12, 17, 20; 3, 6, 13, 18, 19; 7, 10, 14, 16; 4, 8, 11, 21; 1, 9, 15, 22. Dastlabki ikki test bo‘lagida W sinfi yo‘q, lekin barcha o‘quv bo‘laklarida uchala sinf mavjud. Yakuniy baho bo‘laklarning oddiy o‘rtachasi emas, har bir fragment uchun bir marta olingan test bashoratlarining umumiy natijasidir.

Har siklda TF–IDF lug‘ati faqat o‘quv bo‘lagida tuzildi: min_df = 2, max_features = 10 000, sublinear_tf = True, L2 normallashtirish va kichik harfga o‘tkazish qo‘llandi. Logistik regressiyada C = 1, class_weight = balanced, solver = lbfgs, max_iter = 2000 va random_state = 42 belgilandi. Giperparametrlar test natijasiga qarab tanlanmadi. Baholashda to‘g‘ri tasniflash ulushi va uch sinfga teng og‘irlik beruvchi macro-F1 ishlatildi.

$$Macro\text{-}F1 = (F1_N + F1_G + F1_W) / 3.$$

Ablatsiya — bitta belgi qatlamining ta’sirini tekshirish sinovi — faqat ketmaket uch va undan ortiq r harfini bitta r ga almashtirishdan iborat bo‘ldi. Ushbu o‘zgartirish o‘quv va test matnlariga bir xil qo‘llandi; v shakllari va boshqa xususiyatlar saqlandi. Bu asarni imloviy tahrirlash emas, grafonning tasniflashdagi hissasini tekshiruvchi sun’iy nazorat variantidir.

Natijalar

Belgili model 244 fragmentning 196 tasini to‘g‘ri tasnifladi: aniqlik 80,33 foiz, macro-F1 esa 0,762 bo‘ldi (1-rasm). So‘zli model 194 fragmentni to‘g‘ri ajratdi va macro-F1 0,754 natijani berdi. Demak, mazkur sinovda belgili modelning ustunligi kichik; uni statistik jihatdan isbotlangan umumiy ustunlik sifatida talqin qilib bo‘lmaydi. Bazaviy modelning aniqligi 62,70 foiz bo‘lsa-da, macro-F1 0,257 bo‘lishi sinflar hajmi noteng bo‘lganda bitta ko‘rsatkich bilan cheklanmaslik zarurligini ko‘rsatadi.

2-jadval. Boblar bo‘yicha ajratilgan test natijalari

Variant	Aniqlik, %	Macro-F1
Bazaviy model	62,70	0,257
So‘zli n-grammalar (1–2)	79,51	0,754
Belgili n-grammalar (3–5)	80,33	0,762
Belgili model: r cho‘zilishi qisqartirilgan	77,46	0,705

Manba: ushbu maqola uchun bajarilgan hisoblashlar; barcha variantlarda bir xil test bo‘laklari qo‘llangan.

Belgili model N sinfidagi 153 fragmentdan 140 tasini, G sinfidagi 58 fragmentdan 31 tasini va W sinfidagi 33 fragmentdan 25 tasini to‘g‘ri ajratdi. Buvining 25 fragmenti hikoyachi bayoni deb tasniflandi. Shu sababli eng muammoli chegara G–N o‘rtasida kuzatildi. G sinfi bo‘yicha so‘zli modelning F1 qiymati 0,607, belgili modelniki esa 0,579 bo‘ldi: umumiy natijadagi kichik yutuq barcha nutq qatlamlari uchun bir xil emas.



1-rasm. To‘rtta variantning macro-F1 ko‘rsatkichlari.

Faqat r cho‘zilishi qisqartirilganda belgili modelning macro-F1 qiymati 0,762 dan 0,705 ga tushdi; farq yaxlitlanmagan qiymatlar bo‘yicha 0,0565 ni tashkil etdi. W sinfining F1 ko‘rsatkichi 0,833 dan 0,714 ga pasaydi (2-rasm). Tanlangan W fragmentlarida r harfining uch yoki undan ortiq takroridan tuzilgan 80 ta ketma-ketlik bor, N va G fragmentlarida esa bunday ketma-ketlik topilmadi. Bu asarning to‘liq chastotasi emas, faqat tajriba tanlanmasidagi hisobdir.



2-rasm. r cho‘zilishini qisqartirishning sinflar F1 ko‘rsatkichiga ta’siri.

Test baholari olingach, belgilarni sharhlash uchun butun tanlanmada yakuniy model o‘rgatildi. Uning eng katta musbat koeffitsiyentli belgilarida W uchun “rrr”, “vill”; G uchun “you”, “it’s”; N uchun “was”, “were” ketma-ketliklari ko‘rindi. Bu koeffitsiyentlar model ichidagi bog‘lanishni bildiradi, badiiy ta’sirning sababini yoki belgining Dahlga mutlaq xosligini isbotlamaydi.

Muhokama

Natijalarni adabiy kontekstsiz umumlashtirish noto‘g‘ri bo‘ladi. “My Grandmother” bobida “I myself had two separate encounters with witches” jumlasi

bolaning o‘z boshidan kechirgan voqeani hikoya qilishini ko‘rsatadi [3, PDF 3-b.]. Demak, ushbu asarda birinchi shaxs bayoni mavjud; muallif idiostilini avtomatik ravishda tashqi, barcha voqeani biluvchi narratorga tenglashtirib bo‘lmaydi. Modeldagi N sinfi real muallifning bevosita ovozi emas, matnda yaratilgan hikoyachi bayonidir.

Bosh jodugarning “You may rrree-moof your vigs!” replikasidan so‘ng matnning o‘zi uning w va r talaffuzidagi xususiyatni izohlaydi [3, PDF 26-b.]. Shuning uchun bu grafik shakllarni oddiy texnik xato deb yo‘qotish personaj ovozini xiralashtiradi. Ablatsiyadagi pasayish aynan shu belgi tanlangan fragmentlarda foydali bo‘lganini ko‘rsatadi. Biroq rrr belgisi butun muallifning universal belgisi emas, avvalo bitta personaj nutqiga bog‘langan xususiyatdir.

Buvining tushuntirish va ogohlantirishlari hamda hikoyachining jodugarlar haqidagi izohlari bir xil mavzuviy leksikaga yaqinlashishi mumkin. G–N xatolari ushbu izohga mos keladi, ammo uning sababi faqat mavzu ekanini isbotlamaydi. “Witchophile”, “Mouse-Maker”, “crabcruncher”, “blabbersnitch” kabi nomlar esa fantastik dunyoni nomlashning turli usullarini ko‘rsatadi [3, PDF 15–16, 32, 38-b.]. Ularning kam uchrashi yoki modelga katta og‘irlik bilan kirmasligi badiiy ahamiyati pastligini anglatmaydi.

Tadqiqotning chegaralari aniq: material bitta asar va bitta elektron nusxa bilan cheklangan; tanlanma barcha replikalarni qamramaydi; qisqa javoblar, sahifa chegarasida bo‘lingan va so‘zlovchisi faqat olmosh orqali ko‘rsatilgan ayrim parchalar olinmagan. Mustaqil ikkinchi annotator qatnashmagani uchun annotatorlararo muvofiqlik hisoblanmadi; bunday tekshiruv keyingi bosqichda zarur [1]. Nashr artefaktlari, bob mavzusi, nutq vazifasi va sinflar nisbatining ta’siri ham to‘liq ajratilmagan [4; 8].

Shu bois olingan natija “Dahl muallifligini 80,33 foiz aniqlikda topish” emas. U tanlangan fragmentlarning nutq qatlamini tasniflash natijasidir. Idiostilning asarlararo barqarorligini tekshirish uchun Dahlning boshqa asarlari, boshqa yozuvchilarning qiyoslanadigan matnlari va kitoblar bo‘yicha ajratilgan mustaqil test kerak. Hozirgi modelning amaliy qiymati esa umumiy matn ichidagi turli ovozlarni ajratib, tadqiqotchiga aniq kontekstlarga qaytish imkonini berishidadir.

Xulosa

“The Witches” materiali asosida nutq qatlamini tekshirish, mashinaviy tasniflash va kontekstual sharhlashni birlashtiruvchi idiostil tahlili modeli taklif etildi. Uning tasniflash komponenti 244 fragmentda amalda sinovdan o‘tkazildi. Belgili n-grammalar modeli macro-F1 0,762 ga erishdi; r cho‘zilishi qisqartirilganda natijaning 0,705 ga tushishi grafonlarni ehtiyotkorlik bilan saqlash zarurligini ko‘rsatdi.

Badiiy xulosa shundan iboratki, bu asardagi individual uslubni personajlarning farqli nutqi, bolaning bayoni va fantastik nomlashning o‘zaro munosabatida o‘rganish lozim. Sun’iy intellekt ana shu farqlarni izlashni qo‘llab-quvvatlaydi, ammo statistik belgini mustaqil adabiy hukmga aylantirmaydi. Taklif etilgan yondashuv mualliflik korpuslarida nutq qatlamlarini ajratish va keyingi qiyosiy uslub tadqiqotlari uchun sinovdan o‘tgan boshlang‘ich komponent beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Bunday yondashuv ta’limni **reaktiv modeldan proaktiv modelga** o‘tkazish imkonini beradi. Ya’ni muammo yuzaga kelganidan keyin uni aniqlash o‘rniga, mavjud raqamli ma’lumotlar asosida muammoning dastlabki belgilarini aniqlash va tegishli pedagogik choralarni oldindan rejalashtirish mumkin.

Tahlil natijasida raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt asosida talabalarning o‘quv faoliyatini modellashtirish quyidagi imkoniyatlarni yaratishi aniqlandi:

- ta’lim jarayonida hosil bo‘ladigan ma’lumotlarni yagona axborot muhitida jamlash;

- talabalarning bilim va ko‘nikmalarini avtomatlashtirilgan diagnostika qilish;
- o‘zlashtirish dinamikasini ma’lumotlar asosida tahlil qilish;
- individual ta’lim trayektoriyalarini shakllantirish;
- o‘quv topshiriqlarini talabaning tayyorgarlik darajasiga moslashtirish;
- o‘qituvchi faoliyatini tahliliy ma’lumotlar bilan qo‘llab-quvvatlash;
- o‘quv jarayonining ayrim bosqichlarini avtomatlashtirish;
- ta’lim jarayonidagi muammoli holatlarni erta aniqlash;
- o‘quv jarayonini modellashtirish va vizualizatsiya qilish.

Bunda pedagogik dasturiy ta’minotning interaktivlik, moslashuvchanlik, diagnostika, o‘z-o‘zini nazorat qilish, vizualizatsiya va ma’lumotlarni qayta ishlash kabi imkoniyatlari sun’iy intellekt texnologiyalari bilan birlashtirilganda raqamli ta’lim muhitining funksional imkoniyatlari sezilarli darajada kengayadi. Manbada ham zamonaviy vizualizatsiya vositalari real va virtual obyekt hamda jarayonlarni dinamik ko‘rinishda tasvirlash, foydalanuvchi bilan interaktiv muloqotni tashkil etish imkonini berishi ta’kidlangan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar asosida talabalarning o‘quv faoliyatini modellashtirish zamonaviy ta’lim tizimini raqamli transformatsiya qilishning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Pedagogik dasturiy ta’minot, ma’lumotlar bazasi, avtomatlashtirilgan diagnostika, ma’lumotlar tahlili va intellektual tizimlarni o‘zaro integratsiyalash orqali talabaning o‘quv faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tizimli ravishda yig‘ish, tahlil qilish va ulardan ta’lim jarayonini takomillashtirishda foydalanish mumkin.

Taklif etilayotgan yondashuvda sun’iy intellekt o‘qituvchini almashtiruvchi vosita emas, balki o‘qituvchining pedagogik qarorlarini ma’lumotlar bilan qo‘llab-quvvatlovchi texnologiya sifatida qaraladi. Shu sababli kelgusida bunday tizimlarni ishlab chiqishda nafaqat texnik samaradorlik, balki pedagogik maqsadga muvofiqlik, individual yondashuv, foydalanish qulayligi va ta’lim mazmunining ilmiy asoslanganligi ham hisobga olinishi zarur. Pedagogik dasturiy ta’minotning mazmuni ilmiy asoslangan bo‘lishi, talabaning tayyorgarlik darajasiga moslashishi va ta’lim jarayonining izchilligini ta’minlashi kerakligi manbada ham alohida qayd etilgan.

Shunday qilib, sun’iy intellekt, ma’lumotlar tahlili va raqamli axborot tizimlarining integratsiyasi ta’lim jarayonini monitoring qilish, avtomatlashtirish, modellashtirish va individualizatsiya qilish uchun yaxlit texnologik asosni shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Чернилевский Д.В. Понятие учебного программного обеспечения и его роль в образовании // Педагогическая информатика. – Москва: Наука, 2005. – С. 47-52.

2. Роберт И.В. Использование информационных технологий в учебном процессе // Информатика и образовательные технологии. – Москва: Академия, 2003. – С. 112-118.

3. О.К.Филатов. “Проектирование образовательных технологий: теоретические и практические аспекты”. Журнал педагогических инноваций, 2018, №5, с. 10-18.

4. Holmes W., Bialik M., Fadel C. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. – Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019. – P. 45-78.

5. Shoyimov Sh.Sh. Kompyuter texnologiyalari orqali talabalarning o‘quv faoliyatini modellashtirish. Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi. № 2025-5. 1068-1071.

6. OECD. Digital Education Outlook 2021: Pushing the Frontiers with Artificial Intelligence, Blockchain and Robots. – Paris: OECD Publishing, 2021. – P. 56-92.

AXBOROT XAVFSIZLIGI MUAMMOLARI VA ULARNI OLDINI OLISH USULLARI

Ubaydullayev Oybek Ulug‘bekovich
Guliston shahar 1-sonli ixtisoslashtirilgan maktab internati
magistr2021yil@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada axborot xavfsizligi muammolari va ularni oldini olish usullari ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek axborot xavfsizligining mohiyati, asosiy tamoyillari va tahdid turlari, zamonaviy himoya texnologiyalari, kriptografik usullar, biometrik tizimlar, tarmoqlarni himoyalash vositalari hamda O‘zbekiston tajribasi asosida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *axborot xavfsizligi, raqamli texnologiyalar, himoya tizimi, O‘zbekiston, tahdid.*

Аннотация: *В статье научно-теоретически и практически проанализированы проблемы информационной безопасности и методы их предотвращения. Рассмотрены сущность информационной безопасности, основные принципы и виды угроз, современные технологии защиты, криптографические методы, биометрические системы, средства защиты сетей, а также меры, реализуемые в Узбекистане.*

Ключевые слова: *информационная безопасность, цифровые технологии, система защиты, Узбекистан, угроза.*

Abstract: *The article provides a scientific and practical analysis of information security issues and methods of their prevention. It examines the essence of information security, its main principles and types of threats, modern protection technologies, cryptographic methods, biometric systems, network security tools, as well as measures implemented based on Uzbekistan’s experience.*

Keywords: *information security, digital technologies, protection system, Uzbekistan, threat.*

Bugungi globallashuv davrida axborot texnologiyalari jamiyat hayotining barcha jabhalariga chuqur kirib bormoqda. Davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, sog‘liqni saqlash, ta’lim, moliya tizimlari kabi sohalarda axborot oqimi hajmi keskin ortib bormoqda. Shu bilan birga, axborotning himoyalanganligi, ishonchliligi va maxfiyligi masalalari ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Axborot xavfsizligi — bu axborot resurslarini ruxsatsiz kirish, o‘zgartirish, tarqatish, yo‘qotish yoki buzilishdan himoya qilishga qaratilgan tashkiliy, texnik, dasturiy va huquqiy choralar majmuasidir. U axborot tizimlarining barqaror ishlashi va foydalanuvchilarning ishonchini ta’minlaydi.

Axborot xavfsizligini ta’minlash uchun quyidagi asosiy yo‘nalishlar ajratiladi: eexnik himoya vositalari – kompyuter tarmoqlari, serverlar, dasturiy ta’minot va apparat tizimlarini himoya qilish; eashkiliy chora-tadbirlar – xavfsizlik siyosatini ishlab chiqish, xodimlarni tayyorlash, nazorat mexanizmlarini joriy etish; huquqiy asoslar – qonunlar, nizomlar va me’yoriy hujjatlar orqali axborot xavfsizligini tartibga solish; axborot madaniyati – foydalanuvchilarning ongida axborotdan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish. Quyidagi jadvalda axborot xavfsizligini ta’minlovchi omillar tahlil qilingan.

1-jadval. Axborot xavfsizligi tizimini ta’minlovchi asosiy omillar

№	Omil turi	Asosiy mazmuni	Natijasi
1.	Texnik vositalar	Dasturiy va apparat himoya tizimlari	Virus va tarmoq hujumlaridan himoya
2.	Tashkiliy choralar	Ichki xavfsizlik siyosati, vakolat nazorati	Ma’lumotlar oqimi nazorat qilinadi
3.	Huquqiy asoslar	Qonunlar, me’yoriy hujjatlar	Javobgarlik tizimi shakllanadi
4.	Inson omili	Kadrlar tayyorgarligi, axborot madaniyati	Xatoliklar kamayadi

Mazkur omillar o‘zaro uyg‘unlashgan holda ishlaganda, tashkilotning axborot xavfsizligi darajasi yuqori bo‘ladi. Axborot xavfsizligiga tahdidlar — bu axborot tizimlariga zarar yetkazuvchi, ularning barqaror faoliyatini buzuvchi harakatlar yoki hodisalardir. Tahdidlar tabiati bo‘yicha ichki va tashqi, tasodifiy va qasdli bo‘lishi mumkin.

2-jadval. Axborot xavfsizligiga tahdidlarning asosiy turlari

№	Tahdid turi	Tavsif	Misollar
	Texnik tahdidlar	Dasturiy yoki apparat nosozliklar	Server ishdan chiqishi, tarmoq uzilishi
	Kiberhujumlar	Internet orqali amalga oshiriladigan zararli ta’sirlar	Virus, trojan, DDoS hujumlar
	Inson omili	Xodimning xatosi yoki xiyonati	Parolni oshkor qilish, noto‘g‘ri sozlama
	Ijtimoiy tahdidlar	Jamiyatdagi axborot manipulyatsiyasi	Soxta yangiliklar, propaganda
	Tabiiy tahdidlar	Tabiiy ofatlar yoki avariyalar	Yong‘in, suv toshqini, zilzila

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda ro‘yxatga olingan kiberjinoyatlarning 60 foizi insonga bog‘liq xatolar natijasida sodir bo‘ladi. Bu esa kadrlar tayyorgarligi va axborot madaniyatining pastligi bilan bog‘liq. Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot xavfsizligi bilan bog‘liq muammolar quyidagi yo‘nalishlarda kuzatiladi:

1. Texnik muammolar – himoya tizimlarining eskirganligi, zaxira mexanizmlarining yetarli emasligi;
2. Tashkiliy muammolar – xavfsizlik siyosati yo‘qligi, mas’ul xodimlar tayinlanmaganligi;
3. Huquqiy muammolar – qonunlardagi bo‘shliqlar, nazorat mexanizmlarining sustligi;
4. Ijtimoiy muammolar – foydalanuvchilarning befarqligi va ongsiz harakatlari.

Bunday muammolar natijasida quyidagi salbiy oqibatlar yuzaga keladi: moliyaviy yo‘qotishlar; mijozlar ishonchini yo‘qotish; davlat sirlarining oshkor bo‘lishi; tarmoq tizimlarining ishdan chiqishi.

3-jadval. Axborot xavfsizligi muammolari va ularning oqibatlari

№	Muammo turi	Oqibat	Tavsiya etiladigan choralar
5.	Texnik nosozlik	Ma’lumot yo‘qolishi	Zaxira tizimlarini joriy etish
6.	Inson xatosi	Maxfiylik buzilishi	Xodimlarni o‘qitish
7.	Kiberhujum	Tizim falajligi	Antivirus va firewall
8.	Qonuniy bo‘shliqlar	Javobgarlik yo‘qligi	Huquqiy me’yorlarni kuchaytirish
9.	Axborot madaniyati pastligi	Foydalanuvchi xatolari	Axborot savodxonligini oshirish

O‘zbekiston Respublikasi so‘nggi yillarda axborot xavfsizligi sohasiga alohida e’tibor qaratmoqda. 2018-yil 3-iyuldagi PQ–3832-sonli Prezident qarori bilan kiberxavfsizlikni ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari belgilandi. Ushbu qarorga muvofiq: kiberxavfsizlik markazi (CERT.uz) faoliyati kengaytirildi; davlat idoralarida axborot xavfsizligi bo‘yicha mas’ul xodimlar tayinlandi; davlat axborot resurslarini himoya qilish bo‘yicha yagona tizim yaratildi.

Bundan tashqari, “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonun (2003-yil), “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi Qonun (2015-yil), “Shaxsiy ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonun (2019-yil) kabi hujjatlar ham axborot xavfsizligini tartibga soluvchi asosiy me’yoriy hujjatlar hisoblanadi. Dunyo miqyosida kiberxavfsizlikni ta’minlash uchun quyidagi xalqaro standartlar va yondashuvlar qo‘llaniladi: ISO/IEC 27001 – axborot xavfsizligini boshqarish tizimlari standarti; NIST Cybersecurity Framework (AQSh) – xavfsizlik risklarini baholash tizimi; GDPR

(Yevropa Ittifoqi) – shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish qonuni; CIS Controls – amaliy xavfsizlik choralarini aniqlovchi ko‘rsatmalar majmuasi. Mazkur tajribalarning o‘zbek tizimiga moslashtirilgan shaklini joriy etish milliy axborot xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Axborot xavfsizligi bugungi raqamli davrning eng muhim strategik masalalaridan biridir. U nafaqat texnik, balki ijtimoiy, huquqiy va tashkiliy muammolarni ham o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston Respublikasida bu yo‘nalishda muayyan qonuniy va institutsional asoslar yaratilgan bo‘lsa-da, hali ham kadrlar tayyorlash, axborot madaniyatini oshirish va texnik tizimlarni modernizatsiya qilish zarur.

Axborot xavfsizligini ta’minlashda texnik vositalar eng asosiy o‘rinni egallaydi. Zamonaviy kiberhujumlar ko‘plab davlatlar, banklar, ta’lim muassasalari va biznes subyektlariga katta zarar yetkazmoqda. Shu bois har bir tashkilot o‘z axborot tizimini texnik jihatdan himoya qilishning kompleks mexanizmlarini joriy etishi lozim. Asosiy texnik himoya vositalariga quyidagilar kiradi: antivirus dasturlari – zararli kodlarni aniqlaydi va yo‘q qiladi; firewall (tarmoq devorlari) – ruxsatsiz tarmoq kirishlarini to‘sadi; shifrlash tizimlari – ma’lumotlarni maxfiy ko‘rinishga o‘tkazadi; IDS/IPS tizimlari (Intrusion Detection/Prevention Systems) – hujumlarni aniqlaydi va oldini oladi; zaxira tizimlari (Backup systems) – axborot yo‘qolgan holatda tiklash imkonini beradi.

4-jadval. Axborot xavfsizligini ta’minlashda qo‘llaniladigan texnik vositalar

№	Vosita turi	Asosiy vazifasi	Amaliy qo‘llanishi
1	Antivirus dasturi	Viruslarni aniqlash va yo‘q qilish	Kaspersky, ESET, Avast
2.	Firewall	Kirish va chiqishni nazorat qilish	Cisco, Fortigate
3	IDS/IPS tizimlari	Kiberhujumlarni aniqlash va to‘sish	Snort, Suricata
4	Shifrlash algoritmlari	Ma’lumotni maxfiy shaklda saqlash	AES, RSA
5	Zaxira tizimi	Ma’lumotni tiklash	Cloud backup, RAID
6	Biometrik autentifikatsiya	Foydalanuvchini aniqlash	Yuz, barmoq izi skaneri

Bu vositalarning kompleks qo‘llanilishi tizim xavfsizligini sezilarli darajada oshiradi. Masalan, shifrlash texnologiyalari orqali yuborilayotgan ma’lumotlar uchinchi shaxslarga o‘qilmaydigan holatga keltiriladi. Biometrik autentifikatsiya esa foydalanuvchini aniq identifikatsiya qilish imkonini beradi. Texnik vositalar bilan bir qatorda, axborot xavfsizligini ta’minlashda tashkiliy boshqaruv choralari ham muhim o‘rin tutadi. Chunki texnik himoya tizimi mukammal bo‘lsa-da, inson omili sababli xavfsizlik buzilishi mumkin.

Tashkiliy choralarga quyidagilar kiradi: axborot xavfsizligi siyosatini ishlab chiqish – tashkilot ichki tartib-qoidalarini belgilaydi; xodimlarni o‘qitish va

malakasini oshirish – inson xatosi ehtimolini kamaytiradi; kirish huquqlarini nazorat qilish – har bir foydalanuvchining vakolatini cheklash; audit va monitoring – tizimdagi o‘zgarishlarni doimiy kuzatish; favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik rejasi – hujum yoki nosozlik holatida tezkor tiklanishni ta’minlaydi.

Dunyo miqyosida axborot xavfsizligini ta’minlash uchun bir nechta xalqaro standartlar ishlab chiqilgan. Ulardan eng mashhurlari:

- ISO/IEC 27001 – axborot xavfsizligini boshqarish tizimining xalqaro standarti;
- COBIT (Control Objectives for Information and Related Technology) – axborot texnologiyalarini boshqarish uchun metodologiya;
- NIST Cybersecurity Framework (AQSh) – risklarni boshqarish va ularni kamaytirish uchun yo‘riqnoma;
- GDPR (Yevropa Ittifoqi) – shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishga doir qonuniy tizim.

Ushbu standartlar asosida har bir tashkilot o‘z ichki siyosatini ishlab chiqadi, xavflarni tahlil qiladi va xavfsizlik choralari samaradorligini doimiy baholab boradi. O‘zbekiston ham bu xalqaro tajribalardan foydalanib, milliy axborot xavfsizligi menejment tizimini shakllantirmoqda. Jumladan, “Kiberxavfsizlik markazi” (CERT.uz) xalqaro tarmoqlar bilan integratsiya qilingan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-iyuldagi PQ–3832-son qarori va 2022-yil 15-fevraldagi PQ–112-son farmoni asosida quyidagi natijalarga erishildi:

- ✓ Kiberxavfsizlik markazi (CERT.uz) faoliyat doirasi kengaytirildi;
- ✓ Davlat idoralarida axborot xavfsizligi xizmati joriy etildi;
- ✓ Shaxsiy ma’lumotlar himoyasi agentligi tashkil etildi;
- ✓ Davlat axborot tizimlarini sertifikatlash tartibi yo‘lga qo‘yildi.

So‘nggi yillarda kiberxavfsizlikni ta’minlashda sun’iy intellekt (AI), blokcheyn texnologiyasi va bulutli xizmatlardan foydalanish kengaymoqda.

- Sun’iy intellekt hujumlarni real vaqt rejimida tahlil qiladi va avtomatik javob choralarini ishlab chiqadi.

- Blokcheyn texnologiyasi ma’lumotlarning o‘zgarmasligini va ishonchliligini kafolatlaydi.

- Bulutli xavfsizlik tizimlari (Cloud Security) ma’lumotlarni masofaviy zaxiralash va nazorat qilish imkonini beradi.

Mazkur texnologiyalarni milliy axborot tizimlariga joriy etish O‘zbekistonning raqamli suverenitetini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, axborot xavfsizligini ta’minlashda texnik vositalar, tashkiliy boshqaruv, huquqiy mexanizmlar va innovatsion texnologiyalar o‘zaro uyg‘un holda qo‘llanilishi zarur. O‘zbekiston misolida, so‘nggi yillarda axborot xavfsizligi tizimi

jadal rivojlanmoqda: CERT.uz faoliyati kuchaytirilmoqda, milliy kriptografiya standartlari joriy etilmoqda, va kiberxavfsizlik bo‘yicha mutaxassislar tayyorlanmoqda. Shu bilan birga, foydalanuvchilarning axborot madaniyatini oshirish, xalqaro standartlarni milliy tizimga integratsiya qilish va sun’iy intellekt asosida kiberhujumlarga qarshi mexanizmlarni kuchaytirish istiqbolli yo‘nalishlar hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, axborot xavfsizligi muammolarini bartaraf etish faqat texnik vositalar bilan emas, balki tashkiliy, huquqiy va ijtimoiy mexanizmlar bilan uyg‘un holda olib borilgandagina kutilgan natijani beradi. O‘zbekiston Respublikasida bu yo‘nalishda olib borilayotgan islohotlar, xususan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasidagi tashabbuslar milliy axborot makonini yanada xavfsiz qilishga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori — “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida.

2. O‘zbekiston Respublikasi “Axborot xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni, 2020-yil.

3. Axborot xavfsizligi bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. Toshkent: TATU nashriyoti, 2024.

4. CERT Uzbekistan – Kiberxavfsizlik bo‘yicha hisobotlar (https://cert.uz).

5. ISO/IEC 27001:2024 — Information Security Management Systems (ISMS) standard.

6. Kaspersky Lab. Cybersecurity Trends 2024 Report.

7. OECD Digital Security Policy Framework, 2024.

MUHIM AXBOROT INFRATUZILMASINI TASNIFLASHDA KO'P MEZONLI BAHOLASH YONDASHUVINING AFZALLIKLARI

Mahmudov Mirshod Bahodir o‘g‘li
Angren universiteti, yetakchi mutaxassis; tayanch doktoranturaga nomzod
E-mail: mirshodmakhmudov0515@gmail.com

Davlat axborot tizimlarini himoyalash borasidagi cheklangan resurslarni oqilona taqsimlash uchun muhim axborot infratuzilmasi (MAI) obyektlarini ahamiyat darajasiga ko'ra toifalarga ajratish zarur. Ushbu maqsadda bitta yoki ikkita mezonga (masalan, faqat foydalanuvchilar soniga) tayanish yetarli emas, chunki obyektning haqiqiy muhimligi bir nechta o'zaro bog'liq omillar — ijtimoiy-iqtisodiy ta'sir, milliy xavfsizlikka ta'sir, boshqa tizimlarga bog'liqlik, zaxiralash imkoniyati, tahdid darajasi va tiklanish vaqti — bilan belgilanadi. Shu sababli ko'p mezonli baholash (multi-criteria decision analysis) yondashuvi maqsadga muvofiqdir.

Ko'p mezonli modelda har bir MAI obyekti belgilangan olti mezon bo'yicha 1 dan 5 gacha baholanadi, so'ngra har bir baho tegishli og'irlik koeffitsiyentiga (wi) ko'paytiriladi va umumlashtirilgan ball hisoblanadi: $S = \Sigma(wi \times xi)$. Og'irlik koeffitsiyentlarini ekspert baholash usuli (masalan, Delfi metodi) asosida davlat xavfsizligi va raqamli texnologiyalar sohasi vakillaridan tashkil topgan ekspert guruhi belgilaydi. Hisoblangan umumiy ball asosida obyekt uchta toifadan biriga — I toifa (yuqori muhim), II toifa (o'rta muhim) yoki III toifa (past muhim) — kiritiladi.

Ushbu yondashuvning bir qator afzalliklari mavjud. Birinchidan, u sub'ektiv baholashdan shaffof va takrorlanuvchi jarayonga o'tishni ta'minlaydi — bir xil mezonlar barcha obyektlarga bir xilda qo'llaniladi. Ikkinchidan, u tizimlararo bog'liqlikni alohida mezon sifatida hisobga oladi, bu esa "zanjirli" uzilishlar (bir tizimdagi nosozlik boshqa tizimlarga ta'sir qilishi) xavfini oldindan aniqlash imkonini beradi. Uchinchidan, model natijalari asosida shakllantirilgan I toifadagi obyektlar ro'yxati davlat organlariga kuchaytirilgan nazorat choralarini (majburiy penetratsion testlar, doimiy monitoring, zaxira infratuzilma talabi) aynan eng muhim tizimlarga yo'naltirish imkonini beradi, bu esa cheklangan mutaxassis va moliyaviy resurslar sharoitida yuqori amaliy samara beradi.

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, ko'p mezonli baholash yondashuvini davlat axborot tizimlarini tasniflash amaliyotiga joriy etish O'zbekistonda muhim axborot infratuzilmasini himoyalash tizimini xalqaro standartlar (ISO/IEC 27001, NIST SP 800-53) darajasiga yaqinlashtirishga, shuningdek 2026–2030-yillarga mo'ljallangan

Kiberxavfsizlik strategiyasida belgilangan vazifalarning amalga oshirilishiga ko'maklashadi.

Adabiyotlar:

1. NIST Special Publication 800-53, Revision 5. Security and Privacy Controls for Information Systems and Organizations. — Gaithersburg: National Institute of Standards and Technology, 2020.

2. European Programme for Critical Infrastructure Protection (EPCIP). — European Commission, Directorate-General for Migration and Home Affairs.

3. Tahirov B.N. Axborot xavfsizligi asoslari: o'quv qo'llanma. — Buxoro: Fan va ta'lim, 2022. — 156 b.

4. GEOGRAPHY AND GEOSPATIAL RESEARCH

O‘ZBEKISTONNING SEYSMIK XAVFI VA KECHGAN ZILZILALARNI (TOSHKENT VA GAZLI) QISQACHA TAVSIFI

Sultonov Shuxrat Adxamovich
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
sultonovshuxrat87@gmail.com
Qiyomova Sabrina Nasimjon qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. *Maqolada zilzilaning tabiiy geografik jarayon sifatidagi mohiyati, tektonik asosi, turlari va o‘lchov shkalalari, 1966-yilgi Toshkent va 1976-yilgi Gazli zilzilalarining o‘ziga xos xususiyatlari, O‘zbekiston hududining seysmik rayonlashtirilishi hamda 2023-yilgi Turkiya zilzilasidan olinadigan saboqlar tahlil qilinadi. Misollar orqali magnitudasi nisbatan kichik zilzila ham o‘choq chuqurligi, grunt va qurilish sifatiga qarab katta talafot keltirishi ko‘rsatiladi. Tadqiqot ilmiy adabiyotlar va rasmiy ma’lumotlarni tahlil qilish hamda qiyosiy-geografik usulga asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *zilzila, epitsentr, giposentr, magnituda, seysmik intensivlik, MSK-64 shkalasi, seysmik rayonlashtirish, litosfera plitalari, Toshkent zilzilasi, Gazli zilzilasi.*

Аннотация. *В статье рассматриваются землетрясения как физико-географический процесс, их тектоническая основа, типы и шкалы измерения, особенности Ташкентского (1966) и Газлийского (1976) землетрясений, сейсмическое районирование Узбекистана и уроки землетрясения 2023 года в Турции. На примерах показано, что даже землетрясение умеренной магнитуды может привести к тяжёлым последствиям в зависимости от глубины очага, грунтов и качества строительства. Исследование основано на анализе научной литературы и официальных данных и сравнительно-географическом методе.*

Ключевые слова: *землетрясение, эпицентр, гипоцентр, магнитуда, сейсмическая интенсивность, шкала MSK-64, сейсмическое районирование, литосферные плиты, Ташкентское землетрясение, Газлийское землетрясение.*

Abstract. *The article examines earthquakes as a physical-geographical process, their tectonic basis, types and measurement scales, the features of the 1966 Tashkent and 1976 Gazli earthquakes, the seismic zoning of Uzbekistan and lessons*

from the 2023 Türkiye earthquake. Using examples, it shows that even a moderate-magnitude earthquake can cause heavy damage depending on focal depth, soils and construction quality. The study is based on the analysis of scientific literature and official data and on the comparative geographical method.

Keywords: *earthquake, epicenter, hypocenter, magnitude, seismic intensity, MSK-64 scale, seismic zoning, lithospheric plates, Tashkent earthquake, Gazli earthquake.*

Kirish. Zilzila — yer po‘sti va yuqori mantiyada qatlamlarning to‘satdan siljishi, yorilishi va sinishi natijasida yer yuzasining silkinishi. Sayyoramizda har yili yuz mingdan ortiq silkinish seysmik asboblar bilan qayd etiladi, ularning taxminan 100 tasi binolarni buzadigan va odamlar hayotiga zomin bo‘ladigan darajada kuchli bo‘ladi [1, 84-b.]. Zilzila yer ichidagi geodinamik jarayonlarning sirtdagi ko‘rinishi bo‘lib, litosfera plitalari harakatini hisoblash magmatizm, burmalanish va seysmik jarayonlarning joylashuvini oldindan aniqlash va asoslash imkonini beradi [2]. O‘zbekiston hududi G‘arbiy Tyan-Shanning tektonik faol tuzilmasiga mansub bo‘lib, uning rivojlanishi chuqur yoriqlar tarmog‘ining shakllanishi bilan bog‘liq [3]; shu bois seysmik xavf bu yerda real geografik omil hisoblanadi.

Zilzila jarayonini tabiiy geografik nuqtai nazardan tushuntirish va O‘zbekiston misolida seysmik xavfning qonuniyatlarini ko‘rsatish. Vazifalar: zilzilaning tektonik asosi va turlarini farqlash, magnituda bilan intensivlik o‘rtasidagi farqni izohlash, Toshkent va Gazli zilzilalarini tahlil qilish, seysmik rayonlashtirish mohiyatini ochish. Tadqiqot metodlari: ilmiy adabiyotlar va rasmiy ma’lumotlarni tahlil qilish, qiyosiy-geografik va statistik tahlil.

Asosiy qism. ***Zilzilaning tektonik asosi va turlari.*** Yer ostidagi yorilish joyi giposentr (o‘choq), uning yer yuzasidagi proyeksiyasi esa epitsentr deyiladi; silkinish epitsentrda eng kuchli bo‘lib, undan uzoqlashgan sari pasayadi. Barcha zilzilalarning 80 foizi Tinch okeani mintaqasiga, taxminan 12 foizi O‘rta yer dengizi–Indoneziya mintaqasiga to‘g‘ri keladi; Tinch okeani mintaqasida giposentr chuqurligi 700 km gacha yetadi [1, 84-b.]. Bu qonuniyat litosfera plitalari chegaralari bilan bog‘liq: okean litosfera plitalarining mantiyaga cho‘kishi (subduksiya) hududlarida kuchli magmatik va tektonik jarayonlar kechadi [4].

Kelib chiqishiga ko‘ra zilzilalar tektonik (taxminan 90 foiz), vulqonli, o‘pirilish-surilma va antropogen turlarga bo‘linadi [1, 85–87-b.]. Vulqonlar yer po‘stidagi yoriqlarda paydo bo‘ladigan geologik hosila bo‘lib, faol vulqonlar Tinch okeani va Yevrosiyo litosfera plitalari hududida keng tarqalgan; hozirda Yer sharida 1340 dan ortiq harakatdagi vulqon ro‘yxatga olingan, ularning taxminan 60 tasi har

yili faollashadi [5]. Vulqonli zilzilalar faqat vulqon atrofida sodir bo‘ladi va ko‘pincha oldindan aniq bashorat qilinadi [1, 86-b.]. 1911-yilgi Usoy zilzilasi o‘pirilish turiga misol: Murg‘ob vodiysida yonbag‘irlar qulab tabiiy to‘g‘on hosil bo‘lgan va Sarez ko‘li paydo bo‘lgan. Dengiz va okean tubidagi zilzilalar tsunami to‘lqinlarini keltirib chiqaradi: 1896-yilda Xonsyu orolining sharqiy sohilida vujudga kelgan tsunami Gavayi orollari orqali Amerika sohillarigacha yetib borgan, balandligi 20 metrga yetgan [1, 86-b.].

Magnituda va intensivlik. Magnituda (Rixter shkalasi) zilzila o‘chog‘ida ajralib chiqqan energiyani ifodalaydi, intensivlik esa yer yuzasidagi ta’sirni ballarda baholaydi va joyga qarab o‘zgaradi. Sobiq Ittifoq hududida va O‘zbekistonda intensivlik 12 ballik MSK shkalasi bilan o‘lchanadi [3; 6]. Masalan, 8 ballik silkinishda xom g‘ishtdan qurilgan binolar butunlay vayron bo‘ladi, tog‘li joylarda qulash va surilmalar yuz beradi; 9–10 ballda zilzilabardosh binolar ham qattiq shikastlanadi, yer yuzasida yoriqlar paydo bo‘ladi; 11–12 ballda to‘g‘onlar yoriladi, daryo o‘zanlari o‘zgaradi va tabiiy to‘g‘onlar vujudga keladi [1, 88–89-b.]. Intensivlik grunt turiga ham bog‘liq: yumshoq gruntlar silkinishni bir yoki undan ortiq ballga kuchaytirishi mumkin [3]. Shu sababli bir xil magnitudali zilzila o‘choq chuqurligi, grunt va binolar sifatiga qarab turlicha oqibat keltiradi.

Toshkent zilzilasi (1966). 1966-yil 26-aprel kuni sodir bo‘lgan Toshkent zilzilasining magnitudasi M≈5,3, o‘chog‘ining chuqurligi taxminan 8 km bo‘lgan, ya’ni u nisbatan kuchsiz, ammo sayoz zilzila edi; xom g‘ishtdan qurilgan binolar og‘ir shikastlandi [3]. Zilziladan keyin tuzilgan izoseysmik xaritaga ko‘ra maksimal shikastlanish zonasida intensivlik VIII ballga yetgan, shahar chekkalarida VI ballgacha pasaygan [7]. Natijada shaharning turar-joy maydoni 7,2 mln m² dan 2,8 mln m² gacha kamaygan, biroq zamonaviy binolarning qulashi kuzatilmagan [3]. Toshkentda 1868–2002-yillarda intensivligi VI balldan yuqori bo‘lgan zilzilalar 11 martadan ortiq sodir bo‘lgan [3].

Zilziladan keyin, 1966-yil 1-oktyabrda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi huzurida Seysmologiya instituti tashkil etildi; institutda 1955–2000-yillar uchun M>2,5 bo‘lgan 8630 ta hodisani o‘z ichiga olgan instrumental ma’lumotlar bazasi shakllangan [3]. Hozirgi baholarga ko‘ra Toshkentda kutilayotgan maksimal intensivlik VIII ball bo‘lib, VII ballik silkinish har 25 yilda, VIII ballik silkinish har 100 yilda takrorlanishi mumkin; shaharning katta qismi yumshoq gruntlarda joylashgani uchun mikrorayonlashtirishda VIII va IX ballik zonalar ajratilgan. 2004-yilgi baholarga ko‘ra Toshkent aholisining taxminan 43 foizi zamonaviy seysmik talablarga yetarli javob bermaydigan binolarda yashagan [3]. 2026-yilda e’lon qilingan tadqiqotda 1966-yilgi zilzila stsenariysi (Mw 5,5) asosida Toshkent turar-joy binolarining seysmik xavfi baholanib, uy-joy fondining taxminan 4,0 foizi,

asosan 1966-yilgacha qurilgan g‘isht va xom g‘isht binolar og‘ir shikastlanishi mumkinligi ko‘rsatilgan [7].

Gazli zilzilalari (1976, 1984). Buxoro viloyatining Qizilqum cho‘lidagi Gazli hududida 1976-yil 8-aprel va 17-may kunlari hamda 1984-yilda 8–10 balli zilzilalar yuz berdi [1, 87-b.]; Amerika Geologiya xizmati (USGS) ma’lumotlariga ko‘ra 1976-yil 17-mayda sodir bo‘lgan zilzilaning magnitudasi 7,0 ga teng [8]. 1976–1986-yillarda O‘zbekistonda M=5,5–7,3 bo‘lgan o‘ndan ortiq vayronkor zilzila yuz bergan; 1955–2000-yillarda respublika hududida M>5 bo‘lgan 81 ta zilzila qayd etilgan, ulardan 4 tasi M=6,5 va 3 tasi M=7 darajasida bo‘lgan [3].

Qo‘llanmada ayrim olimlar Gazli zilzilalarini hududdagi gaz konlaridan gaz surib olish tufayli yer osti bosimining muvozanati buzilishi bilan bog‘lashi aytiladi [1, 87-b.]. Bu masala xalqaro adabiyotda ham muhokama qilingan: Simpson va Leith 1976 va 1984-yillardagi Gazli zilzilalari induksiyalangan bo‘lishi mumkinmi, degan savolni tahlil qilgan [9]. Ushbu faraz yakuniy xulosa sifatida qabul qilinmagan, ammo u antropogen omillar seysmik jarayonga ta’sir qilishi mumkinligini ko‘rsatadi. Gazli (1976), Olay (1978) va Pop (1984) zilzilalari bo‘yicha prognozlar berilgani qayd etiladi [1, 85-b.].

Seysmik rayonlashtirish va seysmik me’yorlar. O‘zbekistonda instrumental seysmologiya 1892-yilda Toshkentda 14 ta seysmoskop o‘rnatilishi bilan boshlangan, 1901-yil iyulidan muntazam seysmik kuzatuvlar yuritilgan [3]. Hozirgi seysmik me’yor KMK 2.01.03-96 «Seysmik hududlarda qurilish me’yorlari va qoidalari» VII, VIII, IX va undan yuqori ballik hududlarda qurilish talablarini belgilaydi. Respublika hududining katta qismi VII ballik zonaga kiradi, sharqiy va janubi-sharqiy qismi, jumladan Toshkent kabi yirik shaharlar VIII va IX ballik zonada joylashgan [3]. Masalan, Farg‘ona uchun VII ballik silkinish har 50 yilda, VIII ballik silkinish har 100 yilda; Samarqand uchun VII ball — 150, VIII ball — 500, IX ball — 1000 yilda bir marta kutiladi [3].

Seysmik xavf hududning geologik tuzilishi bilan chambarchas bog‘liq. O‘zbekiston janubi-g‘arbidagi Chaqilkalon tog‘lari Janubiy Tyan-Shan tarkibiga kirib, Turkiston paleookeani va Qirg‘iz-Qozoq kontinenti kolliziyasi natijasida hosil bo‘lgan [10]; Chaqilkalon–Qoratepa tog‘-konchilik rayoni tuzilmalarining tektonik rivojlanishi esa ushbu hududdagi tektonik faolliklar izlarini ko‘rsatadi [11]. Hududiy geodinamik tadqiqotlar asosida tektonik rayonlashtirish bajariladi [2], bu esa geograflar uchun seysmik xavfni baholashda muhim ilmiy asos bo‘ladi.

Zilzila bilan bog‘liq boshqa jarayonlar va zilzila darakchilari. Kuchli zilzila yer yuzasida uzun va keng yoriqlar hosil qiladi: 1911-yilgi Verniy (Almati) zilzilasida chuqurligi 3 metrli, 1948-yilgi Ashxobod zilzilasida uzunligi 100 metrgacha, eni 1 metrgacha yoriqlar paydo bo‘lgan [1, 85-b.]. Tog‘li hududlarda

silkinish surilma va sellarni boshlaydi: Sarez (1911), Fayzobod (1943), Hait (1949) va boshqa yirik zilzilalar bilan bog‘liq katta surilmalar chuqur o‘rganilgan, 1989-yilgi M=5,5 bo‘lgan Hisor zilzilasi esa lyossli gruntlarning suyulishiga va 3,5 km uzunlikdagi loyqa-tosh oqimiga sabab bo‘lib, 274 kishining halok bo‘lishiga olib kelgan [12].

Zilzila oldidan tog‘ jinslarining zichligi, elektr o‘tkazuvchanligi, magnit xossalari, yer osti suvlarining kimyoviy tarkibi va undagi gazlar miqdori o‘zgarishi mumkin; bular zilzila darakchilari sifatida o‘rganiladi [1, 84–85-b.].

Zamonaviy saboq va aholining tayyorgarligi. 2023-yil 6-fevralda Turkiya janubi-sharqi va Suriya shimolida Mw 7,8 va Mw 7,7 magnitudali ikkita zilzila yuz berdi. Turkiyada 50 mingdan ortiq, Suriyada 5954 kishi halok bo‘ldi, Turkiyaning o‘zida 3,3 million kishi uysiz qoldi [13]. Bu voqea qurilish sifati va zilzilabardosh me’yorlarga rioya qilish zilzila oqibatini belgilashini yana bir bor ko‘rsatdi.

Seysmologiya instituti tavsiyalariga ko‘ra, aholi va mahalliy tashkilotlar o‘z hududidagi uy-joy, maktab, bolalar bog‘chasi va kasalxonalarning xususiyatlarini o‘rganib, seysmik xavfsizlik chora-tadbirlarini oldindan rejalashtirishi kerak; zilzila oldidan, paytida va keyin o‘zini boshqara olgan inson qo‘rquvni yengishi osonroq bo‘ladi [6].

Xulosa. Zilzilani to‘xtatib bo‘lmaydi, lekin uning oqibatlarini kamaytirish mumkin. Toshkent va Gazli tajribasi shuni ko‘rsatadiki, zilzila xavfi faqat magnituda bilan emas, o‘choq chuqurligi, grunt, binolarning sifati va aholi tayyorgarligi bilan belgilanadi. Litosfera plitalari geodinamikasiga asoslangan tektonik rayonlashtirish, seysmik me’yorlarga rioya qilish, monitoring va aholini o‘qitish eng samarali yo‘nalishlardir; geograflar esa ularda hududiy xavfni baholovchi mutaxassis sifatida ishtirok etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Meliboyeva F. S. Tabiiy geografik jarayonlar: o‘quv qo‘llanma. – 115 b.

2. Sultonov Sh. A. Foydali qazilmalar hosil bo‘lishida geodinamik jarayonlarning o‘rni // Journal of New Century Innovations. – 2024. – Vol. 47, № 1. – B. 13–21. – ISSN 2181-368X. – URL: https://newjournal.org/new/article/view/11592

3. Mavlyanova N., Inagamov R., Rakhmatullaev H., Tolipova N. Seismic code of Uzbekistan // 13th World Conference on Earthquake Engineering. – Vancouver, 2004. – Paper No. 1611. – URL: https://www.iitk.ac.in/nicee/wcee/article/13_1611.pdf

4. Sultonov Sh. A., Norbekov I. Sh. Litosfera qismlarining (plitalarining) mantiyaga yutilishiga oid mulohazalar // TADQIQOTLAR.UZ. – 2024. – Vol. 34, № 2. – B. 106–112. – URL: https://tadqiqotlar.uz/new/article/view/2400

5. Sultonov Sh. A. Vulqonlarni yer yuzida tarqalishi yoki Yer bag‘ridagi «ajdar»lar // Образование наука и инновационные идеи в мире. – 2023. – Vol. 34, № 2. – B. 98–101. – ISSN 2181-3817. – URL: https://newjournal.org/01/article/view/9689

6. Zilzilada aholining harakati to‘g‘risida eslatma [Elektron resurs] / O‘zbekiston FA G‘. O. Mavlonov nomidagi Seysmologiya instituti. – URL: https://seismos.uz/aholi.php.

7. Ismailov V., Scaini C., Yodgorov Sh. et al. Seismic risk assessment of Tashkent’s residential buildings based on the 1966 earthquake scenario // Scientific Reports. – 2026. – Vol. 16. – Art. 19753. – DOI: 10.1038/s41598-026-44585-3

8. M 7.0 – 27 km N of Gazli, Uzbekistan (1976-05-17) [Electronic resource] / U.S. Geological Survey. – URL: https://earthquake.usgs.gov/earthquakes/eventpage/usp0000gcj.

9. Simpson D. W., Leith W. The 1976 and 1984 Gazli, USSR, earthquakes — were they induced? // Bulletin of the Seismological Society of America. – 1985. – Vol. 75. – P. 1465–1468.

10. Sultonov Sh. A. Chaqilkalon tog‘lari sharqiy qismida tektonik faolliklar hisobiga hosil bo‘lgan ma’dan tanalari xususida // Sanoatda raqamli texnologiyalar. – 2024. – Vol. 2, № 1. – ISSN 3030-3214. – DOI: 10.5281/zenodo.10803450

11. Sultonov Sh. A. Chakilkalyan-Qoratepa tog‘-konchilik rayoni Yaxton tuzilmasining tektonik rivojlanishi va geologik hosilalari // Образование наука и инновационные идеи в мире. – 2023. – Vol. 31, № 3. – B. 174–184. – ISSN 2181-3817. – URL: https://newjournal.org/01/article/view/9114

12. Landslides triggered by distant earthquakes in Central Asia [Electronic resource] // 2014 AGU Chapman Conference on Catchment Spatial Organization and Complex Behavior. – URL: https://agu.confex.com/agu/14chapman1/webprogram/Paper1883.html.

13. Türkiye–Syria earthquakes 2023 [Electronic resource] / UNDRR PreventionWeb. – URL: https://www.preventionweb.net/collections/turkiye-syria-earthquakes-2023.

O‘ZBEKISTON TOG‘ YONBAG‘IRLARIDAGI XAVFLI JARAYONLAR (SEL VA SURILMA) QISQACHA TAHLILI

Sultonov Shuxrat Adxamovich
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
sultonovshuxrat87@gmail.com
Xolmurodova Sabrina Ilhom qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. *Maqolada sel va surilmaning hosil bo‘lish mexanizmi, ularning ko‘chki bilan farqi, O‘zbekiston hududida tarqalish qonuniyatlari, zilzila, iqlim va inson faoliyati bilan bog‘liqligi tahlil qilinadi. Tog‘ oldi aholisi uchun amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan himoya choralari (daraxtzorlar, muhandislik inshootlari, monitoring) Oqtosh daraxtzorlari va Medeo to‘g‘oni misollarida ko‘rsatiladi. Tadqiqot ilmiy adabiyotlar va rasmiy ma’lumotlarni tahlil qilish hamda qiyosiy-geografik usulga asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *sel, surilma, ko‘chki, prolyuviy yotqiziqlari, yonbag‘ir, gravitatsion jarayonlar, seysmogen surilma, sel monitoringi, Medeo to‘g‘oni.*

Аннотация. *В статье анализируются механизм образования селей и оползней, их отличие от снежных лавин, распространение в Узбекистане, связь с землетрясениями, климатом и деятельностью человека. Защитные меры (лесонасаждения, инженерные сооружения, мониторинг) показаны на примерах лесонасаждений Октош и плотины Медеу. Исследование основано на анализе научной литературы и официальных данных и сравнительно-географическом методе.*

Ключевые слова: *сель, оползень, снежная лавина, пролювиальные отложения, склон, гравитационные процессы, сейсмогенный оползень, мониторинг селей, плотина Медеу.*

Abstract. *The article analyzes the formation mechanism of mudflows and landslides, how they differ from snow avalanches, their distribution in Uzbekistan, and their links with earthquakes, climate and human activity. Protective measures (tree plantations, engineering structures, monitoring) are illustrated with the Oqtosh plantations and the Medeo dam. The study is based on the analysis of scientific literature and official data and on the comparative geographical method.*

Keywords: *mudflow, landslide, snow avalanche, proluvial deposits, slope, gravitational processes, seismogenic landslide, mudflow monitoring, Medeo dam.*

Kirish. Sel va surilma tog‘ hamda tog‘ oldi hududlarida eng tez-tez uchraydigan halokatli tabiiy geografik jarayonlardandir. Sel suv ta’sirida, surilma esa gravitatsion kuch ta’sirida shakllanadi, ammo ikkalasining sababi ko‘pincha yog‘ingarchilik, relyef va inson faoliyatining uyg‘unlashuvi bo‘ladi [1]. O‘zbekistonning zich aholi yashaydigan Toshkent, Farg‘ona vodiysi, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo tog‘ oldilari uchun bu mavzu amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi — sel va surilma jarayonlarini tabiiy geografik jihatdan tushuntirish va O‘zbekistondagi xavf darajasini ko‘rsatish. Vazifalar: tushunchalarni farqlash, sabablarni aniqlash, hududiy tarqalishni tahlil qilish, himoya choralarini baholash. Tadqiqot metodlari: ilmiy adabiyotlar va rasmiy ma’lumotlarni tahlil qilish, qiyosiy-geografik va statistik tahlil.

Asosiy qism. ***Tushunchalar: sel, surilma va ko‘chki.*** Sel — tog‘ vodiylari va soylaridan oqib keladigan, katta vayronagarchilik kuchiga ega qisqa muddatli loyqa yoki loyqa-tosh aralash kuchli suv oqimi. Surilma — tog‘ jinslarining gravitatsion kuch ta’sirida yonbag‘ir bo‘ylab pastga siljishi. Ko‘chki esa tog‘ yonbag‘irlarida yig‘ilgan qor qoplamining og‘irlik kuchi ta’sirida pastga shiddat bilan tushishidir; bu so‘z sof turkiy o‘zakdan iborat xalq tabiiy geografik termini hisoblanadi [1, 29, 46, 50-b.]. Uchala jarayonning farqi quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

Sel: hosil bo‘lishi va tarqalishi. Sel to‘satdan paydo bo‘ladi, tog‘, dara va soylardan 20–25 m/s tezlik bilan pastga intiladi, yo‘lidagi to‘siqlarni yemirib oqizib ketadi, o‘zandagi loyqa oqim 5–20 metrgacha ko‘tarilishi mumkin. Sel yotqiziqlari tashqi ko‘rinishidan lavaga o‘xshaydi; Yevropada bunday sel «mura» deb yuritiladi. Tog‘ etaklarida u prolyuviy yotqiziqlarini hosil qiladi [1, 29–30-b.]. Bu jarayon eroziya va cho‘kindi to‘planishining umumiy qonuniyatiga mos keladi: tog‘ jinslari emirilib, bo‘laklari yuvilib pastlikka yoki daryo va soylar bo‘ylab ko‘chiriladi, so‘ngra cho‘kindi jinslar sifatida to‘planadi [2]. Qo‘llanmada keltirilgan misollar selning kuchini ko‘rsatadi: 1966-yilda Isfayramsoyda, 1967-yilda Kichik Olmaotada va 1978-yilda Qarpat tog‘ida har biri bir-ikki soat ichida 3000–4000 m³ shag‘al va loyqani chiqarib tashlagan; 1969-yil may oyida Chirchiq daryosining Oqsoqota irmog‘ida 2 soat davom etgan sel ekin maydonlari va tegirmonlarni oqizib ketgan [1, 29–30-b.].

1-jadval

Sel, surilma va ko‘chkilar tavsifi

Jarayon	Asosiy omil	Harakat xususiyati	Materiali
Sel	kuchli jala, qorning jadal erishi	to‘satdan paydo bo‘ladi, tezligi 20–25 m/s gacha	loyqa, shag‘al, xarsang toshlar
Surilma	yonbag‘ir etagining yuvilishi, namlanish,	sirpanish, yuvilish, suyulish yoki sekin sudralib tushish	tog‘ jinslari massasi, hajmi bir necha o‘n m³ dan 1 mlrd m³ gacha

	seysmik silkinish, xo‘jalik faoliyati		
Ko‘chki	qor yig‘ilishi, qor qatlamining zichlashishi va sovuq	shiddat bilan otilib tushadi; shovqin yoki tebranish ham sabab bo‘lishi mumkin	qor massasi, kuchli ko‘chkida 1,5–2 mln m³ gacha

Dergacheva tadqiqotlariga ko‘ra O‘zbekiston va unga tutash hududlarda taxminan 1000 ta faol sel o‘zani sanalgan, ulardan 270 tadan ortig‘i Farg‘ona vodiysiga tushadi. Ro‘yxatga olingan barcha selning 19 foizi Namangan, 16 foizi Farg‘ona, 13 foizi Surxondaryo, 12 foizi Toshkent, 11 foizi Qashqadaryo va 9 foizi Samarqand viloyatlariga to‘g‘ri keladi; umuman olganda Farg‘ona vodiysi barcha selning 41 foizini beradi. Sel faolligi aprel va may oylarida keskin ortadi: shu ikki oyda sellarning mos ravishda 25 va 35 foizi tushgan [3]. Mart–aprel oylarida bir necha soat ichida 30–40 mm, ayrim hollarda 2–3 kunda 90–110 mm yog‘in tushishi gruntning namga to‘yinishiga va yonbag‘irlarning beqarorlashishiga olib kelishi qayd etilgan [4].

Surilma: sabablari va turlari. Surilmaning yuzaga kelishiga asosan yonbag‘irlar ostki qismida tayanchlarning yo‘qolishi yoki kamayishi sabab bo‘ladi. Bu esa yonbag‘irlarning suv bilan yuvilib qiyaligi ortishi, jinslarning nurash, yog‘in va yer osti suvlaridan ortiqcha namlanishi natijasida mustahkamligi kamayishi, seysmik harakatlar, shuningdek geologik sharoit hisobga olinmay olib borilgan qurilish va xo‘jalik faoliyati (yonbag‘irlarda yo‘l qurish, bog‘ va ekinzorlarni haddan ortiq sug‘orish) oqibatida kelib chiqadi [1, 46–47-b.].

Siljish asosan to‘rt tipga bo‘linadi: sirpanish, yuvilish (yer osti eroziyasi tufayli qatlamlar orasi erib oqishi), suyulish (seysmik tebranish natijasida suvga to‘yingan qum-gilli va lyossli jinslarda loysimon massaning oqib chiqishi) va sudralib tushish (doimiy bosim ostida sekin deformatsiyalanish). Seysmogen surilmalar hajmi katta, chuqur va shiddatli bo‘ladi: Usoy (1911), Fayzobod (1943, 1947), Burchmulla (1946), Hait (1949) va Hisor (1989) surilmalari shunday misollardir. Meteorologik, gidrogeologik va seysmik omillar bog‘liq bo‘lgani uchun surilmaning aniq vaqtini oldindan aytish qiyin [1, 47-b.].

O‘zbekistonda surilma xavfi. O‘zbekistonda taxminan 2 mingga yaqin surilma maydoni qayd etilgan, qo‘llanma yozilgunga qadar so‘nggi 40 yilda 8 mingga yaqin mayda va yirik surilma sodir bo‘lgan; yo‘llar, kanallar, konlar va suv omborlari yonbag‘irlaridagi texnogen surilmalar soni 1980-yildagiga nisbatan 3–4 barobar ortgan. Surilmalar asosan Chirchiq va Ohangaron vodiylari, G‘alvasoy, Xo‘jakent, Zag‘anasoy hududlarida kuzatiladi [1, 48-b.]. Niyozov va hammualliflar O‘zbekistonda surilma xavfi mavjud hududlarning fazoviy tarqalishini, so‘nggi 60

yildagi o‘zgarishlarini va monitoring tashkil etilishini tahlil qilgan [5]; bu mavzu R. A. Niyozovning alohida monografiyasida ham yoritilgan [6].

Mutaxassislar baholashicha, surilma xavfi mavjud zona 15–17 ming km² bo‘lib, unda taxminan 3 million aholi yashaydi; bu hududda 500 dan ortiq qishloq, 152 ta dam olish obyekti, 200 dan ortiq yo‘l va kanal uchastkasi, 22 dan ortiq kon va suv xo‘jaligi obyekti joylashgan; yiliga 100 dan 300 tagacha faol surilma (va ko‘chki) sodir bo‘ladi [4]. CAREC xavf profiliga ko‘ra surilmalar O‘zbekistonda tabiiy ofatlardan ko‘rilgan jami zararning 10–12 foizini tashkil qiladi [7].

Zilzila, surilma va sel o‘rtasidagi bog‘liqlik. Seysmik silkinish yonbag‘irlarning mustahkamligini kamaytiradi. Pomir–Hindukush chuqur zilzilalari Markaziy Osiyoda 3–5 ballgacha silkinish beradi, biroq ularning uzoq davom etuvchi past chastotali tebranishlari bahorda namga to‘yingan lyossli yonbag‘irlarda zichlashish va suyulish jarayonlarini boshlaydi; 1969–2011-yillarda bunday zilzilalar bilan bir vaqtda Qirg‘iziston janubi, O‘zbekiston va Tojikistonda yuzdan ortiq yirik surilma hosil bo‘lgan [4]. 1989-yilgi M=5,5 bo‘lgan Hisor zilzilasi lyossli gruntlarning suyulishiga, uzunligi 3,5 km bo‘lgan loyqa-tosh oqimiga va 274 kishining halok bo‘lishiga sabab bo‘lgan [4]. Achiyak surilmasi hududidagi seysmometrik o‘lchovlar Hindukush zilzilalarining tebranish chastotasi yonbag‘irlarni qoplagan lyossning xususiy chastotasiga mos kelib, rezonans ta’sirini keltirib chiqarishini ko‘rsatgan [5]. Shu sababli sel va surilma xavfini zilzila xavfidan ajratib o‘rganib bo‘lmaydi.

Tog‘larning tektonik tuzilishi va yoriqliligi ham yonbag‘ir jinslari barqarorligiga ta’sir qiluvchi omillardan biridir. Janubiy Tyan-Shan tarkibiga kiruvchi Chaqilkalon tog‘lari misolida bunday tektonik faolliklar va tuzilmalar batafsil o‘rganilgan [8; 9].

Inson faoliyati va iqlim o‘zgarishi. Aholi ko‘payishi va yerdan foydalanishning kengayishi atrof-muhitni sezilarli o‘zgartirgan: o‘rmonlarni kesish, qishloqlar sonining ko‘payishi va tuproqdan foydalanish dastlab mahalliy, hozirda esa global miqyosda ta’sir ko‘rsatmoqda [10]. Yonbag‘irlarda yo‘l va uy-joy qurilishi, ortiqcha sug‘orish, o‘rmon va o‘tlarni yo‘qotish yonbag‘irni beqaror qiladi [1, 47-b.]. CAREC xavf profilida isish tendensiyalari bahorgi toshqin va sel xavfini oshirishi mumkinligi ta’kidlanadi [7]; Markaziy Osiyoda nam va quruq yillar almashinuvi chastotasi ortishi surilmalar sonining ko‘payishi bilan bog‘langan [4].

Xavfni kamaytirish: biologik va muhandislik choralari. Selga qarshi eng foydali tadbirlardan biri tog‘ yonbag‘irlarida daraxtzorlar tashkil etish va sel tezligini kamaytiradigan sun’iy g‘ovlar qurishdir. Toshkent yaqinidagi Oqtosh daraxtzorlari va Samarqand janubidagi Omonqo‘ton atrofidagi ihota daraxtzorlari bunga misol: yonbag‘irlarga daraxt ekilishi bilan Oqtosh vodiysida yuz berishi

mumkin bo‘lgan xavfning oldi olingan. Surilmaga qarshi yonbag‘irlarda o‘simlik ekish va suvli qatlamga tushadigan suv miqdorini kamaytirish qo‘llaniladi; UNESKO huzurida 2002-yilda surilmalar bo‘yicha xalqaro konsern tashkil etilgan [1, 30, 48-b.].

Muhandislik inshootlariga misol sifatida Qozog‘istonning Almati shahrini sel xavfidan himoya qiluvchi Medeo to‘g‘onini ko‘rsatish mumkin: u maxsus sel to‘sgich to‘g‘on sifatida loyihalashtirilgan va qurilgan, uning tuzilishi va ishlash tajribasi gidrotexnika adabiyotida batafsil tahlil qilingan [11]. Bu tajriba O‘zbekistonning tog‘ oldi shaharlari uchun ham o‘rnak bo‘la oladi.

Ma’lumot va ogohlantirish tizimi. Sel xavfi mavjud viloyat va tumanlar ro‘yxati, shuningdek aholi uchun ogohlantirishlar O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining rasmiy saytida e’lon qilinadi [12]. Sel faolligi aprel–may oylarida eng yuqori bo‘lgani sababli [3] bu davrda tog‘ oldi aholisi, dam oluvchilar va haydovchilar rasmiy ogohlantirishlarga alohida e’tibor berishi lozim.

Xulosa. Sel va surilma tabiiy omillar bilan birga inson faoliyatidan ham kuchayadi, shuning uchun ularni boshqarish geografik bilim, monitoring va oqilona yerdan foydalanishni talab qiladi. Yonbag‘irlarni o‘simlik bilan mustahkamlash, suvni me’yorida berish, xavfli hududlarda qurilishni cheklash va rasmiy ogohlantirishlarga amal qilish xavfni sezilarli kamaytiradi. Sel, surilma, ko‘chki va zilzilani yagona tog‘ xavflari tizimi sifatida ko‘rish geograf uchun muhim yondashuvdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Meliboyeva F. S. Tabiiy geografik jarayonlar: o‘quv qo‘llanma. – 115 b.

2. Sultonov Sh. A. Foydali qazilmalar hosil bo‘lishida geodinamik jarayonlarning o‘rni // Journal of New Century Innovations. – 2024. – Vol. 47, № 1. – B. 13–21. – ISSN 2181-368X. – URL: https://newjournal.org/new/article/view/11592

3. Dergacheva I., Klimov S., Khamdamova G., Raximov Q., Apakhujayeva T. Mudflow hazard in the foothill and mountainous regions of Uzbekistan // E3S Web of Conferences. – 2021. – Vol. 263. – Art. 02019. – DOI: 10.1051/e3sconf/202126302019

4. Landslides triggered by distant earthquakes in Central Asia [Electronic resource] // 2014 AGU Chapman Conference on Catchment Spatial Organization and Complex Behavior. – URL: https://agu.confex.com/agu/14chapman1/webprogram/Paper1883.html.

5. Niyazov R., Nurtaev B., Bimurzaev G., Tashpulatov M. Flow slides in Uzbekistan: overview and case studies. – Cham: Springer, 2021. – DOI: 10.1007/978-3-030-60311-3_5

6. Ниязов Р. А. Ландслидес ин Узбекистан. – Ташкент: ФАН, 2009. – 207 п.

7. Country Risk Profile: Uzbekistan [Electronic resource] / CAREC. – URL: https://www.carecprogram.org/uploads/CAREC-Risk-Profiles_Uzbekistan.pdf.

8. Sultonov Sh. A. Chaqilkalon tog‘lari sharqiy qismida tektonik faolliklar hisobiga hosil bo‘lgan ma’dan tanalari xususida // Sanoatda raqamli texnologiyalar. – 2024. – Vol. 2, № 1. – ISSN 3030-3214. – DOI: 10.5281/zenodo.10803450

9. Sultonov Sh. A. Chakilkalyan-Qoratepa tog‘-konchilik rayoni Yaxton tuzilmasining tektonik rivojlanishi va geologik hosilalari // Образование наука и инновационные идеи в мире. – 2023. – Vol. 31, № 3. – B. 174–184. – ISSN 2181-3817. – URL: https://newjournal.org/01/article/view/9114

10. Sultonov Sh. A., Norbekov I. Sh. Yerdagi hayot tarziga ta’sir etuvchi salbiy omillar va unda insoniyatni o‘rni haqida ba’zi mulohazalar // Pedagogs. – 2023. – Vol. 46, № 2. – B. 69–74. – URL: https://pedagogs.uz/ped/article/view/271

11. Gerasimov G. B., Zinevich Yu. N., Shapovalov G. I. The Medeo mudflow-protection dam // Hydrotechnical Construction. – 1979. – Vol. 13. – P. 916–921. – DOI: 10.1007/BF02307469

12. O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi [Elektron resurs]. – URL: https://www.fvv.uz/

5. ECOLOGY AND CLIMATE CHANGE

SHO‘RLANISH VA CHO‘LLANISH: OROLBO‘YI MISOLIDA ANTROPOGEN JARAYONLAR

Sultonov Shuxrat Adxamovich
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
sultonovshuxrat87@gmail.com
Xudoyqulova Rayxon Safarali qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. *Maqolada ikkilamchi sho‘rlanish, botqoqlanish, agroeroziya va cho‘llanishning kelib chiqish sabablari, jahon va O‘zbekiston miqyosidagi ko‘lami tahlil qilinadi. Orol dengizining qurishi inson faoliyati tabiiy jarayonlar zanjirini qanday ishga tushirishi mumkinligini ko‘rsatuvchi eng yorqin misol sifatida ko‘rib chiqiladi, qurigan dengiz tubida o‘rmon barpo etish va «Yashil makon» dasturi kabi javob choralari baholanadi. Tadqiqot ilmiy adabiyotlar va rasmiy ma’lumotlarni tahlil qilish hamda qiyosiy-geografik usulga asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *sho‘rlanish, ikkilamchi sho‘rlanish, botqoqlanish, drenaj, sho‘r yuvish, cho‘llanish, agroeroziya, Orol dengizi, saksovul, yashil qoplam.*

Аннотация. *В статье анализируются причины вторичного засоления, заболачивания, агроэрозии и опустынивания и их маситабы в мире и в Узбекистане. Усыхание Аральского моря рассматривается как наиболее яркий пример того, как деятельность человека запускает цепь природных процессов; оцениваются меры реагирования: лесоразведение на осушенном дне и национальная программа «Яшил макон» («Зелёное пространство»). Исследование основано на анализе научной литературы и официальных данных и сравнительно-географическом методе.*

Ключевые слова: *засоление, вторичное засоление, заболачивание, дренаж, промывка, опустынивание, агроэрозия, Аральское море, саксаул, зелёный покров.*

Abstract. *The article analyzes the causes of secondary salinization, waterlogging, agro-erosion and desertification and their scale worldwide and in Uzbekistan. The drying of the Aral Sea is considered as the clearest example of how human activity can trigger a chain of natural processes, and responses such as afforestation of the dried seabed and the national «Yashil makon» (Green Space) programme are assessed. The study is based on the analysis of scientific literature and official data and on the comparative geographical method.*

Keywords: *salinization, secondary salinization, waterlogging, drainage, leaching, desertification, agro-erosion, Aral Sea, saxaul, green cover.*

Kirish. Qurg‘oqchil o‘lkalarda sug‘orma dehqonchilik hayot manbai, biroq suvdan noto‘g‘ri foydalanilsa, u tuproq degradatsiyasining sababiga aylanadi [1, 96-b.]. O‘zbekiston hududining taxminan 70 foizi arid zonaga kiradi, yerlarning 70 foizdan ortig‘i degradatsiyaga uchragan va bu iqtisodiyotga yiliga qariyb 830 million dollar zarar yetkazmoqda [2]. Shu bois sho‘rlanish va cho‘llanish mamlakat uchun asosiy tabiiy-antropogen muammolardan biri hisoblanadi.

Antropogen tabiiy geografik jarayonlarning sabab-oqibat bog‘liqligini ko‘rsatish. Vazifalar: sho‘rlanish va botqoqlanish turlarini farqlash, cho‘llanish va eroziya omillarini aniqlash, Orolbo‘yi misolida jarayonlar zanjirini tahlil qilish, kurash usullarini baholash. Tadqiqot metodlari: ilmiy adabiyotlar va rasmiy ma’lumotlarni tahlil qilish, qiyosiy-geografik va statistik tahlil.

Asosiy qism. ***Sho‘rlanish: birlamchi va ikkilamchi.*** Sho‘rlanish asosan cho‘l va yarim cho‘llardagi pasttekisliklar hamda yer osti suvlari oqib chiqmaydigan botiqlarga xos. Birlamchi sho‘rlanish tabiiy omillar bilan bog‘liq: sho‘r sizot suvlarining bug‘lanishi, tuproq hosil qiluvchi ona jinslardagi tuzlarning erishi, suv havzalari atrofidagi tuzli to‘zonlarning shamol ta’sirida yemirilishi va o‘simliklar vositasida tuzlarning biologik to‘planishi. Ikkilamchi sho‘rlanish esa tuproqda suv rejimi buzilganda, ya’ni noto‘g‘ri sug‘orish natijasida yuzaga keladi: sug‘orish suvining tuproqqa ko‘p sizib ketishi grunt suvlari zahirasini oshiradi, sathi ko‘tariladi va tuzlar yer yuzasiga chiqadi. Bu odatda grunt suvi oqimi yomon yoki umuman oqmaydigan joylarda sodir bo‘ladi [1, 96–97-b.]. Yer osti suvlari gidrogeologik sharoitiga ko‘ra O‘zbekistonda tog‘ va tekislik gidrogeologik hududlariga bo‘linadi [3]; sho‘rlanish va botqoqlanish asosan tekislik hududlarida grunt suvi sathi ko‘tarilganda yuzaga keladi [1, 96–98-b.].

O‘zbekistonda Quyi Amudaryo, Quyi Zarafshon, Mirzacho‘l, Markaziy Farg‘ona, Qarshi cho‘li va Surxondaryoning janubiy qismlari XX asrning o‘rtalaridan boshlab yerlarni o‘zlashtirish va noto‘g‘ri sug‘orish natijasida turli darajada sho‘rlangan [1, 97-b.]. Ikkilamchi sho‘rlanish quyidagi (1-jadval) shakllarda uchraydi:

1-jadval

Sho’rlanish jarayonlari tahlili

Shakl	Qanday hosil bo‘ladi	Kurash usuli
Mavsumiy	yozda sug‘orish natijasida sathi ko‘tarilgan grunt suvlarining kuchli bug‘lanishi tufayli tuz vegetatsiya davrida to‘planadi	kuzgi-qishki sho‘r yuvish
Dog‘li	yaxshi yuvilmay qolgan va grunt suvlari kuchli bug‘lanadigan maydonlarda	sho‘r yuvishni sifatli o‘tkazish

Yoppasiga	kuchli minerallashgan grunt suvi sathi yer yuzasiga yaqin bo‘lgan joyda sug‘oriladigan maydonning hamma qismini egallaydi	drenaj va kollektor tarmog‘ini qurish, grunt suvini pasaytirish

Jahon va O‘zbekiston miqyosida. FAO ma’lumotlariga ko‘ra dunyoda 833 million gektardan ortiq tuproq sho‘rlangan (quruqlikning 8,7 foizi), sug‘oriladigan tuproqlarning 20–50 foizi o‘ta sho‘r bo‘lib, bu 1,5 milliarddan ortiq kishining oziq-ovqat yetishtirishiga qiyinchilik tug‘diradi [4]. Sho‘rlangan tuproqlarning 424 million gektari ustki (0–30 sm), 833 million gektari ostki (30–100 sm) qatlamga to‘g‘ri keladi, ularning uchdan ikki qismidan ko‘prog‘i arid va yarim arid iqlim zonalarida joylashgan [5]. Sho‘rlanishga noto‘g‘ri suv boshqaruvi, jumladan suv yetishmasligi va drenajning sifatsizligi sabab bo‘lishi ta’kidlanadi; O‘zbekistonda tuproqlarning yarmidan ko‘pi sho‘rlangan [6].

O‘zbekistonda Amudaryoning quyi qismida (Xorazm viloyati va Qoraqalpog‘iston) sug‘oriladigan yerlarning qariyb 91 foizi turli darajada sho‘rlangan; 3 million 136 ming gektar sug‘oriladigan yerning sifati baholanib, sho‘rlanish xaritalari tuzilgan [7]. Sug‘oriladigan yerlar maydoni 4,3 million gektar bo‘lib, ularning qariyb 60 foizi nasos stansiyalari yordamida suv bilan ta’minlanadi, suvni tejovchi texnologiyalar esa maydonlarning atigi 23 foizida qo‘llaniladi [8].

Botqoqlanish. Botqoqlanish tabiiy va sun’iy sabablarga ko‘ra yuz beradi. Tabiiy sabablar — grunt suvining oqib ketishini qiyinlashtiruvchi relyef va gidrogeologik sharoit (Farg‘ona va Surxon–Sherobod vodiylaridagi quyi terrasalar, tekis hududlar va botiqlardagi daryo qayirlari), toshqinlar, daryo va ko‘llardan suvning sizishi. Sun’iy sabablar — drenajsiz sug‘orish, sug‘orish va sho‘r yuvishda me’yordan ortiq suv berish, kanal va suv omborlaridan siziladigan suvlar, kollektor-drenaj tarmog‘ining qoniqarsiz holati. Arid zonada botqoqlanish sof holda kam uchraydi, aksariyat tuproq sho‘rlanishi bilan birga yuz beradi; Markaziy Osiyoning sug‘oriladigan arid yerlarining 35–50 foizida u yoki bu darajada botqoqlanish xavfi mavjud. Kurash choralari: kollektor-drenaj tarmog‘i, daraxtzorlar, ko‘p yillik o‘tlar bilan almashlab ekish va sho‘r yuvish texnologiyasiga rioya qilish [1, 97–98-b.].

Cho‘llanish va agroeroziya. Cho‘llanish — qurg‘oqchil iqlimli o‘lkalarda ekologik tizimlarning buzilishi, o‘simlik turlari va miqdorining kamayishi, tuproq eroziyasi, sho‘rlanishi va unumdorligining pasayishi bilan boruvchi tabiiy hamda antropogen jarayon. Yer yuzidagi taxminan 48,5 mln km² cho‘l va yarim cho‘lning 10 mln km² ga yaqini antropogen omillar ta’sirida paydo bo‘lgan. Birinchi xalqaro ilmiy anjuman 1977-yilda Keniyaning Nayrobi shahrida o‘tkazilib, cho‘llanishga qarshi kurash rejasi ishlab chiqilgan; O‘zbekiston 1995-yil 31-oktyabrda qurg‘oqchilik va cho‘llanishga qarshi kurash Xalqaro konvensiyasiga qo‘shilgan [1, 98–99-b.]. O‘zbekistonda cho‘llanishning asosiy omillari: yaylovlarda chorva

mollarining haddan tashqari boqilishi, sug‘oriladigan tuproqlarning sho‘rlanishi, yerdan nooqilona foydalanish [8].

Antropogen jarayonlarning kengayishi aholi sonining o‘sishi bilan bog‘liq: dunyo aholisi 8 milliardga yetgan, inson o‘rmonlarni kesish, qishloqlar sonini ko‘paytirish va tuproqdan foydalanish orqali atrof-muhitni o‘zgartirgan [9]. Tabiiy resurslardan foydalanishda geografik, ekologik va ijtimoiy barqarorlik mezonlarini birgalikda hisobga olish zarurligi ilmiy adabiyotda ko‘rsatiladi [10]; bu yondashuvni yer va suv resurslaridan foydalanishga ham tatbiq etish mumkin.

Agroeroziya dehqonchilikda tuproqning eng unumdor yuqori qatlami atmosfera yog‘inlari, sug‘orish suvlari va shamol ta’sirida yemirilishidir. Sabablari: yerdan uqubsiz foydalanish, eroziyaga qarshi tadbirlarsiz o‘zlashtirish, ortiqcha chorva boqish, o‘rmonzorlarni yo‘qotish, qurilish ishlari. Suv eroziyasi odatda yer yuzasi nishabligi 1–1,5° dan oshganda boshlanadi; O‘zbekistonda u Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari lalmikor yerlari va tog‘ oldi qiyaliklarida tarqalgan (umumiy maydoni 969,4 ming ga). Shamol eroziyasi (deflyatsiya) Markaziy Farg‘ona, Buxoro vohasi, Qarshi cho‘li va Qoraqalpog‘istonning g‘arbiy qismida umumiy maydoni 1,8 mln ga bo‘lgan sug‘oriladigan yerlarga zarar yetkazadi [1, 99–100-b.].

Orol dengizi: jarayonlar zanjiri. Orol dengizi Markaziy Osiyo cho‘llari orasida joylashgan yirik berk ko‘l bo‘lib, so‘nggi qurish jarayoni 1960-yillar boshida boshlangan va asosan ikki irmog‘ini — Amudaryo va Sirdaryoni — sug‘orishga yo‘naltirgan irrigatsiya kengayishi bilan izohlanadi [11]. Ilmiy adabiyotda keltirilishicha, dengiz maydoni taxminan 74 foizga, hajmi esa 90 foizga kamaygan; qurigan tubdan ko‘tarilgan tuz va chang bo‘ronlari dengiz atrofidagi hududlarga ta’sir qiladi [11].

Orol dengizining qurishi oqibatida taxminan 3 million gektar yer yaroqsiz holga kelgan, Orolbo‘yi hududining 56 foizi shamol eroziyasidan zarar ko‘rmoqda [2]. Orolbo‘yida ekinlar hosildorligi me’yordan 2–3 barobar past, to‘qay o‘simliklari nobud bo‘lgan, ko‘llar qurigan va taxminan 100 ming ish o‘rni yo‘qolgan [8].

Bu jarayonlar zanjirini quyidagicha ifodalash mumkin: noto‘g‘ri suv taqsimoti → dengiz sathining pasayishi → tubning ochilishi va yangi cho‘lning paydo bo‘lishi → tuz-chang bo‘ronlari → atrofdagi sug‘oriladigan yerlarning sho‘rlanishi → hosildorlikning pasayishi va aholi sog‘lig‘iga zarar. Zanjirning har bir bo‘g‘ini geografik nuqtai nazardan o‘rganiladi: gidrologiya, tuproqshunoslik, iqlim va aholi geografiyasi o‘zaro bog‘langan.

Kurash choralari va natijalar. Orolning qurigan tubida chang va qum ko‘chishini to‘xtatish uchun sho‘rga va qurg‘oqchilikka chidamli o‘simliklar — saksovul, qandim, qoraburoq — ekilmoqda. 2019–2023-yillarda Orol dengizining

qurigan hududlarida 1,7 million gektardan ortiq maydonda o‘rmon melioratsiyasi ishlari olib borilgan, 2021-yildan «Yashil makon» umummilliy dasturi doirasida 2030-yilgacha har yili 200 million tup daraxt va buta ekish ko‘zda tutilgan; Buxoro, Nukus, Xiva va Urganch atrofida umumiy uzunligi 40 km yashil belbog‘lar barpo etilgan [12]. Olimlar ma’lumotiga ko‘ra, 2 yoshli saksovulzorda shamol ta’sirida qum ko‘chishi 20 foizga, 5 yoshlida 80 foizga kamayadi, 7 yoshli saksovulzorda esa to‘liq to‘xtaydi [13].

Sho‘rlanishga qarshi kurashda suv va tuproqni birgalikda boshqarish, sug‘orish va drenaj tizimini yaxshilash, sho‘rga chidamli o‘simliklar (jumladan galofitlar) tanlash kabi kompleks yondashuv tavsiya etiladi [14]. O‘zbekistonda bu yo‘nalishda sho‘rlanish monitoringi va xaritalari yuritilmoqda [7], suvni tejovchi texnologiyalar kengaytirilmoqda [8].

Xulosa. Sho‘rlanish va cho‘llanish tabiiy sharoit bilan inson faoliyati o‘zaro ta’sirining natijasidir, shuning uchun ularga qarshi kurash ham kompleks bo‘lishi kerak: drenaj va sho‘r yuvish, suvni tejovchi texnologiyalar, himoya o‘rmonlari va yaylovlardan me’yorida foydalanish. Orolbo‘yi tajribasi geograf uchun suv resurslarini boshqarish va landshaft barqarorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatuvchi muhim saboqdir; unda tabiiy jarayonni to‘xtatishdan ko‘ra uning oqibatlarini kamaytirish va yangi muvozanat yaratish vazifasi turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Meliboyeva F. S. Tabiiy geografik jarayonlar: o‘quv qo‘llanma. – 115 b.

2. Cho‘llanishga qarshi kurash: O‘zbekiston ekologik tahdidga ilm bilan javob bermoqda [Elektron resurs] // UzA. – URL: https://uza.uz/oz/posts/chollanishga-qarshi-kurash-ozbekiston-ekologik-tahdidga-ilm-bilan-javob-bermoqda_847042.

3. Sultonov Sh. A. Foydali qazilmalar hosil bo‘lishida geodinamik jarayonlarning o‘rni // Journal of New Century Innovations. – 2024. – Vol. 47, № 1. – B. 13–21. – ISSN 2181-368X. – URL: https://newjournal.org/new/article/view/11592

4. 1.5 billion people, living with soil too salty to be fertile [Electronic resource] // UN News. – 2021. – 20 October. – URL: https://news.un.org/en/story/2021/10/1103532.

5. Global Map of Salt-affected Soils (GSASmap) [Electronic resource] / FAO Global Soil Partnership. – URL: https://www.fao.org/global-soil-partnership/gsasmap/en/.

6. Excess salt in soils puts food security at risk: FAO [Electronic resource] // UN News. – 2021. – December. – URL: https://news.un.org/en/story/2021/12/1107172.

7. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vaziri Jamshid Xodjayevning Sho‘rlangan yerlar bo‘yicha Global Simpoziumdagi nutqi [Elektron resurs] / O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi. – URL: https://www.agro.uz/o-zbekiston-respublikasi-qishloq-xo-jaligi-vaziri-jamshid-xodjayevning-sho-rlangan-yerlar-bo-yicha-global-simpoziumdagi-nutqi/.

8. Atrof-muhit holati to‘g‘risida Milliy ma’ruza: O‘zbekiston Respublikasi [Elektron resurs]. – Toshkent, 2023. – URL: https://ecochem.uz/upload/iblock/226/go1xedi3p2lgyidcpc1kwoe92uh2i53l/UZB_eco_report_2023_UZ_web.pdf.

9. Sultonov Sh. A., Norbekov I. Sh. Yerdagi hayot tarziga ta’sir etuvchi salbiy omillar va unda insoniyatni o‘rni haqida ba’zi mulohazalar // Pedagogs. – 2023. – Vol. 46, № 2. – B. 69–74. – URL: https://pedagogs.uz/ped/article/view/271

10. Sultonov Sh. A., Nazarov M. G. Foydali qazilmalardan foydalanishning geografik, ekologik va ijtimoiy barqarorlik mezonlarining asosiy xususiyatlari // Geodeziya, kartografiya va geoinformatika. – 2025. – № 3. – B. 228–235.

11. Micklin P. The Aral Sea disaster // Annual Review of Earth and Planetary Sciences. – 2007. – Vol. 35. – P. 47–72. – DOI: 10.1146/annurev.earth.35.031306.140120

12. Environmental protection is a key priority of the New Uzbekistan [Electronic resource] / Consulate General of the Republic of Uzbekistan in Kazan. – URL: https://kazan.mfa.uz/news/24950?language=en.

13. Orol dengizi qurishi salbiy oqibatlarini tugatishning ikki yo‘li bor [Elektron resurs] // UzA. – URL: https://uza.uz/en/posts/orol-dengizi-qurishi-salbiy-oqibatlarini-tugatishning-ikki-yoli-bor_192572.

14. World Soil Day: FAO highlights the threat of soil salinization to global food security [Electronic resource] / FAO Global Soil Partnership. – URL: https://www.fao.org/global-soil-partnership/resources/highlights/detail/en/c/1458974/.

6. AGRICULTURE AND FOOD SECURITY

YASMIQNING HOSILDORLIGIGA EKISH MUDDATLARINING TA'SIRI

Abdullayeva Xayotxon Muxammadsodiq qizi
Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti
Bobokulov Zarif Rayimkulovich
Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti
https://orcid.org/0009-0001-2340-1830

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yasmiq (Lens culinaris Medik.) hosildorligiga ekish muddatlarining ta'siri o'rganilgan. Tadqiqotda yasmiq navlarini turli ekish muddatlarida yetishtirish sharoitida o'simliklarning unib chiqishi, o'sishi va rivojlanishi, dukkak hosil qilishi hamda don hosildorligining shakllanishi tahlil qilindi. Ekish muddatining tuproq va havo harorati, namlik ta'minoti hamda o'simlikning vegetatsiya davriga ta'siri hisobga olindi. Tadqiqot natijalari yasmiqni maqbul muddatda ekish o'simliklarning bir tekis rivojlanishi, dukkaklar soni va don hosildorligining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *Yasmiq, ekish muddati, hosildorlik, nav, unib chiqish, vegetatsiya davri, dukkak, don, agrotexnika, agroiqlim sharoiti.*

Abstract. *This article examines the effect of sowing dates on the yield of lentil (Lens culinaris Medik.). The study investigates the influence of different sowing dates on seed emergence, plant growth and development, pod formation, and grain yield of lentil varieties. The effects of sowing time on soil and air temperature, moisture availability, and the duration of the growing season were also taken into consideration. The results indicate that sowing lentils at the optimal time contributes to uniform plant development, increased pod formation, and higher grain yield.*

Keywords: *lentil, sowing date, yield, variety, seed emergence, growing season, pod formation, grain, agronomic practices, agro-climatic conditions*

Kirish. Yasmiq eng qadimiy oziq-ovqat dukkakli ekinlardan biri bo'lib, doni tarkibida oqsil, uglevod, mineral moddalar va inson organizmi uchun zarur bo'lgan boshqa oziqaviy komponentlarning mavjudligi bilan muhim ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda jahon yasmiq yetishtirishida Kanada, Hindiston, Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, AQSh, Nepal va Avstraliya kabi mamlakatlarning salmog'i yuqori hisoblanadi. Shuningdek, so'nggi yillarda Ukraina va Qozog'iston davlatlarida ham yasmiq ekin maydonlarining kengayib borayotganligi kuzatilmoqda.

Yasmiq yetishtirishda yuqori va sifatli don hosili olish ko‘p jihatdan ekinning biologik xususiyatlari, navning genetik imkoniyatlari, tuproq-iqlim sharoiti hamda agrotexnologik tadbirlarning maqbul muddatlarda amalga oshirilishiga bog‘liq. Ayniqsa, ekish muddatini to‘g‘ri belgilash o‘simliklarning dala unuvchanligi, tup sonining saqlanishi, vegetatsiya davrining davomiyligi, vegetativ va generativ organlarning shakllanishi, hosil elementlari hamda donning pishish muddatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois turli tuproq-iqlim sharoitlarida yasmiq navlari uchun maqbul ekish muddatlarini aniqlash muhim ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

Material va uslublar. Tajribalar Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutining Axborot maslahat markazi dalalarida o‘tkazildi. Tajribalar olib borilgan axborot maslahat markazi Samarqand viloyatining sharqiy qismida Oqdaryo tumanida joylashgan. Tajribalar o‘tkazilgan joyning iqlimi Respublikamizning tekislik qismida joylashgan sabzavotchilikka ixtisoslashgan mintaqalarining iqlim mos keladi. Tajribalarimizda Davlat reestriga kiritilgan yasmiqning Darmon navi Samarqand viloyatining sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida turli ekish muddatlari (10-mart, 20-mart va 30-mart)da ekilib, ularning hosildorlik ko‘rsatkichiga ta’siri o‘rganildi. Yasmiq ekinida tadqiqotlar olib borishda “Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari” uslubiy qo‘llanmasi asosida hamda hosildorlik natijalarni statistik tahlili B.A.Dospexov (1985) usubida aniqlandi

Tadqiqot natijalari. Tadqiqotimizda yasmiqning Darmon navini turli muddatlarda ekishning hosildorlikka ta’siri o‘rganildi (1-rasm). Tajriba natijalari ekish muddatlari hosildorlikning shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatganligini ko‘rsatdi. Eng yuqori hosildorlik 10-martda ekilgan variantda, eng past ko‘rsatkich esa 30-martda ekilgan variantda qayd etildi.

Tajribaning birinchi 2025-yilida 10-martda ekilgan variantda yasmiq hosildorligi 14,6 s/ga ni tashkil etdi. Ekish muddati 20-martga kechiktirilganda hosildorlik 11,2 s/ga gacha kamayib, 10-martdagi variantga nisbatan 3,4 s/ga yoki 23,3 % ga past bo‘ldi. 30-martda ekilgan variantda ham hosildorlik 11,2 s/ga ni tashkil etib, 10-martdagi ekishga nisbatan 3,4 s/ga kamaygan.



Tajribaning ikkinchi 2026-yilida ham shunga o‘xshash qonuniyat kuzatildi. 10-martda ekilgan variantda eng yuqori hosildorlik 18,3 s/ga bo‘ldi. 20-martda ekilganda hosildorlik 14,5 s/ga ni tashkil etib, 10-martdagi variantga nisbatan 3,8 s/ga yoki 20,8 % ga kamaydi. 30-martda ekilgan variantda esa hosildorlik 11,6 s/ga ni tashkil etdi. Demak, 10-martga nisbatan 30-martda ekish hosildorlikning 6,7 s/ga yoki 36,6 % ga kamayishiga olib keldi.

2025-2026 yildagi natijalarining o‘rtacha ko‘rsatkichlari ham ekish muddatining hosildorlikka ta’sirini yaqqol ifodalaydi. 10-martda ekilgan variantda o‘rtacha hosildorlik 16,5 s/ga ni tashkil etib, tajribadagi eng yuqori ko‘rsatkich bo‘ldi. Ekish muddati 20-martga kechiktirilganda o‘rtacha hosildorlik 12,9 s/ga gacha kamaydi. Bu 10-martdagi variantga nisbatan 3,6 s/ga yoki 21,8 % ga pastdir. 30-martda ekilgan variantda o‘rtacha hosildorlik 11,4 s/ga ni tashkil etib, 10-martdagi variantga nisbatan 5,1 s/ga yoki 30,9 % ga kamayganligi qayd etildi.

Shuningdek, 20 va 30-martda ekilgan variantlar o‘rtasida ham hosildorlik bo‘yicha farq mavjud bo‘ldi. O‘rtacha ikki yillik natijalarga ko‘ra, 20-martda ekilgan variantda hosildorlik 12,9 s/ga bo‘lib, 30-martdagi 11,4 s/ga ko‘rsatkichdan 1,5 s/ga yuqori bo‘lgan. Bu ekish muddatini 30-martgacha kechiktirish hosildorlikning yanada pasayishiga olib kelganligini ko‘rsatadi.

Tajriba yillarini o‘zaro taqqoslaganda, 2026-yilda hosildorlik barcha ekish muddatlarida 2025-yilga nisbatan yuqori bo‘lgan. 10-martda ekilgan variantda 2026-yil hosildorligi 18,3 s/ga bo‘lib, 2025-yildagi 14,6 s/ga dan 3,7 s/ga yuqori bo‘lgan. 20-martda ekilganda ushbu farq 3,3 s/ga, 30-martda esa atigi 0,4 s/ga ni tashkil etdi. Bu holat 2026-yil vegetatsiya davridagi agroiqlim sharoitlari, ayniqsa erta ekilgan yasmiqning o‘sishi va rivojlanishi uchun nisbatan qulay bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari yasmiqning Darmon navida ekish muddatlari hosildorlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Ikki yillik

o‘rtacha natijalarga ko‘ra, eng yuqori hosildorlik **10-martda ekilgan variantda – 16,5 s/ga**, eng past hosildorlik esa **30-martda ekilgan variantda – 11,4 s/ga** qayd etildi. 20-martda ekilgan variantda o‘rtacha hosildorlik 12,9 s/ga ni tashkil etdi.

Shunday qilib, tajriba sharoitida yasmiqning Darmon navini **10-martda ekish eng maqbul muddat** bo‘lib, ushbu muddatda o‘simliklarning vegetativ va generativ organlari yaxshi rivojlangan, hosil elementlari yuqori darajada shakllangan va natijada eng yuqori don hosili olindi. Ekish muddatining 20 va 30-martgacha kechiktirilishi esa vegetatsiya davrining qisqarishi, o‘simliklarning vegetativ biomassasi va hosil elementlarining kamayishi hisobiga hosildorlikning pasayishiga olib kelganligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Atabayeva H. N. O‘simlikshunoslik. – Toshkent : Mehnat, 2000. – b. 134-136.

2. Atabayeva X.N., Xudoyqulov J.B. O‘simlikshunoslik -Toshkent, NIF MSH, 2020 y. - 138-166 b.

3. Atabayeva H. N., Qurbonov A.A. Yasmiq yetishtirish texnologiyasi bo‘yicha tavsiyanoma. “O‘zR Fanlar Akademiyasi Asosiy kutubxonasi” Navro‘z nashriyoti, 2020 y. 36-b.

4. Qurbonov A. Yasmiq navlari hosildorligiga ekish muddati va me’yorining ta’sirini o‘rganish va ilmiy asoslash. Avtoreferat. Toshkent, 2022 yil. 46-b.

5. Nishonov M., Jo‘rayev B**.** Dukkakli don ekinlarini yetishtirish agrotexnologiyasi. Toshkent: "Fan va texnologiya", 2021.

6. Omonov B.S. Sug‘oriladigan yerlarda yasmiq navlarini joylashtirish va parvarishlash usullari. Toshkent, 2023. - №2. - B. 45-48.

QISHLOQ XO‘JALIGIDA YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARINI JORIY ETISH ORQALI BARQAROR RIVOJLANISHGA ERISHISH

Nurmatova Iroda Sanjar qizi
Ma’mun Universiteti magistranti
nurmatovairoda825@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligida yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish orqali ekologik barqarorlikka erishish jarayonlari va suv resurslaridan oqilona foydalanishning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari innovatsion texnologiyalarni joriy etish qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshirish va tabiiy resurslarga bosimni kamaytirishda muhim omil ekanini ko‘rsatadi.*

Kalit so’zlar*: yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, qishloq xo’jaligi, suv resurslari, innovatsion texnologiyalar, ekologik xavfsizlik .*

Аннотация. *В данной статье анализируются процессы достижения экологической устойчивости путем внедрения принципов зеленой экономики в сельском хозяйстве и современные подходы к рациональному использованию водных ресурсов. Результаты исследования показывают, что внедрение инновационных технологий является важным фактором повышения эффективности сельского хозяйства и снижения давления на природные ресурсы.*

Ключевые слова: *зеленая экономика, устойчивое развитие, сельское хозяйство, водные ресурсы,*

Abstract. *This article analyzes the processes of achieving environmental sustainability through the implementation of green economy principles in agriculture and modern approaches to the rational use of water resources. The research findings indicate that the implementation of innovative technologies is a crucial factor in increasing agricultural efficiency and reducing pressure on natural resources.*

Keywords: *green economy, sustainable development, agriculture, water resources.*

KIRISH.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sish sur’atlarini tezlashgan bo‘lsada, bu o‘sish ko‘pincha atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Suv tanqisligi, atmosferaning ifloslanishi, cho‘llanish, tabiiy resurslarning haddan

tashqari ekspluatatsiyasi kabi ekologik va global muammolar mamlakatimizga ham salbiy ta’sirlari juda jiddiy havotirlar bilan sodir bo’layotganligi sababli hukumat darajasida bu maummolarga yechim sifatida mamlakatimiz tomonidan tashkiliy ishlar olib borilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 31-may 2023 yildagi “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-81-sonli farmonida quyidagi fikrlar keltirilgan: “So‘nggi yillarda mamlakatimizda ekologik xavfsizlikni ta’minlash, ekologik vaziyatni yaxshilash, chiqindilarning insonlar sog‘lig‘iga zararli ta’sirini oldini olish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holat sifatini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Butun mamlakat miqyosida "Yashil makon" umummilliy loyihasi amalga oshirilmoqda, davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar qimmatbaho navlarining kesilishiga muddatsiz moratoriy amal qilmoqda. Shu bilan birga, respublikada hudud rahbarlari, ekologiya va atrof-muhitni hamda huquqni muhofaza qilish organlarining e’tiborsizligi natijasida sohada o‘tgan davrda jiddiy kamchiliklarga yo‘l qo‘yilgan, ayrim hollarda esa tabiatga va jamiyatga tiklab bo‘lmas darajada zarar yetkazilgan”[1].

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “2030 yilgacha O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”[2] qarorni imzoladi. Unga ko’ra:

- issiqxona gazlarining YaIM birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010 yildagi darajadan 35 foizga qisqartirish;
- qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga oshirish va ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining 30 foizidan ko‘prog‘iga yetkazish;
- sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish;
- YaIM birligiga to‘g‘ri keladigan energiya sarfi hajmini 30 foizga kamaytirish;
- suvdan foydalanish samaradorligini oshirish, 1 million gektargacha maydonda suv tejovchi sug‘orish texnologiyasini joriy etish;
- yiliga 200 million ko‘chat ekish va ko‘chatlarning umumiy sonini 1 milliarddan oshirish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni 30 foizdan ortiqroqqa kengaytirish;
- hosil bo‘ladigan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasini 65 foizdan oshirish. 2023 yil 1 iyundan mahsulotlarni ishlab chiqarishda ekologiya va atrof muhitga ta’sirni cheklash bo‘yicha qo‘yilayotgan talablar asosida “yashil sertifikatlar" tizimi joriy etiladi.

Yashil iqtisodiyot – bu odamlar farovonligini oshirishga olib keladigan iqtisodiyot va xavflarni sezilarli darajada kamaytirish bilan birga ijtimoiy tenglikni mustahkamlash, atrof-muhit va ekologik resurslarning tanqisligi oldini oluvchi siyosat hisoblanadi[6].

Yashil iqtisodiyot tamoyillari[3]:

1.Adolatlilik

2.Barqarorlik

3.Samaradorlik va yetarlilik

4.Avlodlar birdamligi

5.Moslashuvchanlik

6.Ishtirok etish

7.Sog'lom sayyora

8.Oqilona boshqarish va shaffoflikni ta'minlash

9.Barcha uchun foydalanish imkoniyatlari mavjudligi

Barqaror rivojlanish — bu hozirgi avlodning ehtiyojlarini qondirgan holda, kelajak avlodlarning ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini cheklamaslikdir. Ushbu kontseptsiya ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy muvozanatni ta'minlashni ko'zda tutadi. Barqaror rivojlanishni samarali boshqarish uchun turli ko'rsatkichlar joriy qilinadi, ular davlatlar va tashkilotlarning barqarorlik darajasini o'lchash va baholash imkonini beradi[3].

Barqaror qishloq xo'jaligi- bu resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muvozanatni saqlab qolish hamda iqtisodiy foydani ta'minlashga asoslangan ishlab chiqarish tizimidir. Uning asosiy unsurlari quyidagilar: organic dehqonchilik, agroforestriya, minimal ishlov berish, tomchilatib sug'orish, zararkunandalarga qarshi biokimyo vositalardan foydalanish va agrobiodiversitetni saqlash[7].

Barqaror qishloq xo'jaligi quyidagi mezonlarga asoslanadi[8]:

-Ekologik xavfsizlik;

-Ijtimoiy adolat;

-Iqtisodiy barqarorlik.

ADABIYOTLAR SHARHI.

Turobova H. R. va Kadirova M. M. tomonidan yaratilgan o'quv qo'llanmada yashil iqtisodiyot sharoitida atrof-muhit va iqtisodiy o'sishning o'zaro bog'liq muvozanatini yaratishga qaratilgan yondashuvlar, yashil iqtisodiyotning asosiy tamoyillari, prinsiplari, tizimlari va ularni amalda qo'llash usullarini tushuntirib beradi. Unda barqaror rivojlanish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, energiya samaradorligi, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish, ekologik xavf-xatarlar va yashil texnologiyalar, yashil iqtisodiyotga o'tishning iqtisodiy mexanizmlari va shartlari, yashil iqtisodiyotdagi tashqi ta'sirlar, yashil iqtisodiyotga o'tishda davlat va

bozorning hamkorligi, logistikada yashil texnologiyalardan foydalanish xususiyatlari, ekologik tadbirkorlik kabi mavzular keng qamrovda yoritilgan[3].

Hakimov N.H, Axmedov O.M.,Abdumalikov A.A. va Sharipova Z.B. tomonlaridan yaratilgam darslikda “ Yashil iqtisodiyot va ekologiya’ fanining nazariy asoslari, ijtimoiy, iqtisodiy jarayonlar natijasida tabiiy resurslarga antropogen ta’sir, raqamli iqtisodiyot rivojlanishi sharoitida atrof muhitni ifloslanturuvchi asosiy manbalar, atrof-muhit muhofazasiga qaratilgan tadbirlar va uning huquqiy asoslarining, ilmiy amaliy jahatlari ko;rsatilib o’tilgan[4].

Xashimova S.N. o’z darsliklarida “Yashil” iqtisodiyot fanining nazariy asoslari, “Yashil” iqtisodiyotga o’tish zaruriyati, omillari, tamoyillari va konsepsiyalari yoritilgan. “Yashil” iqtisodiyotga o’tish jarayonini moliyashtirish, “yashil energetika”ni barqaror rivojlantirish, ekologik siyosat va uni amalga oshirish mexanizmlari, O’zbekistonda “yashil” iqtisodiyotga o’tishning ustuvor yo’nalishlari va xorijiy tajribasi bayon etilgan[5].

METODOLOGIYA.

Mazkur maqolada qishloq xo’jaligini yashil iqtisodiyot sharoitida barqarorlikka erishishda suv resurslaridan oqilona foydalanishni tashkil etish ko’rib chiqilgan. Tahlil uchun 2017-2024-yillar bo’yicha Ozbekiston Respublikasi Milliy statistikasi qo’mitasi tomonidan aniq ma’lumotlar va milliy ko’rasatkichlardan foydalanilidi. Shuningdek, suv tasqisligida qishloq xo’jaligi rivojini qo’llab-quvvatlaydigan zamonaviy yondashuvlarning iqtisodiy va ekologik afzalliklari ko’rib chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Yashil iqtisodiyot sharoitida raqamli texnologiyalardan foydalanish asosida suv resusrlarini boshqarish tizimini joriy etish bo’yicha ham viloyatlarda ijobiy siljishlar mavjud. Jumladan, ayrim suv inshootlarida suv sarfini real vaqt rejimida nazorat qiluvchi sensorlar va monitoring stansiyalari o’rnatilgan. Bu tizimlar orqali suvni behuda sarflashning oldi olinmoqda. Shuningdek agroxizmatlar markazlarida o’quv-seminarlar tashkil qilinib, zamonaviy sug’orish usullari bo’yicha amaliy ko’nikmalar berish orqali har bir masalaga innovatsion yechimlar berilmoqda[10].

O‘zbekiston sharoitida ekologik toza texnologiyalar sifatida quyidagilar keng joriy etilmoqda:

- Tomchilatib sug‘orish: suv tanqisligi sharoitida hosildorlikni saqlab qolishning eng maqbul usuli. Bu usul orqali suv sarfi 40–60%gacha kamayadi, hosil esa 20–30% oshadi.

• Organik dehqonchilik: kimyoviy o‘g‘itlar va pestitsidlardan voz kechilgan holda, biologik o‘g‘itlar asosida yuritiladigan texnologiya. O‘zbekistonda bu yo‘nalishda Farg‘ona, Buxorova Qashqadaryo viloyatlarida tajriba loyihalari mavjud.

• Kompost va bioo‘g‘itlardan foydalanish: bu texnologiyalar orqali tuproq unumdorligi tiklanadi, atrof-muhitga zararli chiqindilar kamayadi.

• Quyosh energiyasiga asoslangan nasoslar va issiqxonalar: energiya tejovchi texnologiyalar orqali xarajatlar kamayib, ishlab chiqarish barqarorligi oshadi[7].



2- rasm.Kvartira(uy)larning hududlar kesimida suv bilan ta’minlanganligi 2023-yil holati[9]

2023-yil holariga ko’ra, mamlakatimizda kvartira(uy)uylarning hududlar kesimida suv bilan ta’minlanganlik darajasi yuqoridagi rasmda aks ettirilgan. Ushbu rasmda hududlar kesimida ichimlik suvi bilan ta’minlanganlik va kanalizatsiya bilan ta’minlanganlik darajasi ko’rsatilgan. Ichimlik suvi va kanalizatsiya bilan ta’minlanganlik darajasi eng yuqori bo’lgan hudud Toshkent shahriga to’g’ri keladi.Toshkent viloyatiga keladigan bo’lsak, ichimlik suv bilan ta’minlanganlik darajasi 81.9 foizni tashkil qilsa, kanalizatsiya bilan ta’minlanganlik esa 69 foiz. Namangan viloyatida ichimlik suvi va kanalizatsiya bilan ta’minlanganlik darajasi 90.6 va 50.2 foizni, Navoiy viloyatida 87.6 va 47.1 foizni, Sirdaryo viloyatida 85.7 va 56.6 foizni, Andijon viloyatida 84.7 va 31.5 foizni, Surxondaryo viloyatida 82.5 va 36.4 foizni, Samarqand viloyatida 75.6 va 42.3 foizani, Farg’ona viloyatida 71.8 va 53.6 foizni, Qoraqalpog’iston Respublikasida 66.4 va 36.3 foizni, Jizzax viloyatida 66.1 va 36.8 foizni, Xorazm viloyatida 62.1 va 32.3 foizni, Buxora viloyatida 58.3 va 34.8 foizni, shuningdek, eng past ko’rsatkichlar darajasi qashqadaryo hududiga to’g’ri kelgan. Bu indeks yil oxirining jami kvartira(uy)larga

nisbatan hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, yildan yilga suv bilan ta’minlanganlik darajasi suvdan oqilona foydalanganlik tufayli o’sib bormoqda.

Milliy ko’rsatkichlar	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Suvdan foydalanish samaradorligining o‘zgarishi dinamikasi.	1,338	1,431	1,431	1,431	1,574	1,732	1,91	2,10
Suv resurslariga bosim darajasi: mavjud chuchuk suv zaxirasiga nisbatan foizda chuchuk suv olish.	168,9	168,9	168,9	168,9	168,9	166,1	125,00	122,00
Suv resurslarini kompleks boshqarishni joriy etish darajasi (0 dan 100 gacha).	45	49	49	49	55	56	64,00	66,00
Xavfsiz tozalanadigan oqova suvlarning ulushi	92,2	93,3	92,1	92,4	92,2	92,7	92,50	93,40

1-jadval. Milliy ko’rsatkichlar[9]

Yuqoridagi jadvaldan ko’rinib turibdiki, Suvdan foydalanish samaradorligining o’zgarish dinamikasi yildan yilga ishib bormoqda. 2017-yilda bu ko’rsatkich 1.338 foizni tashkil etgan . 2018-2020- yillar oralig’ida bir natija ko’rsatgan. 2021-yildan esa o’sish davom etgan va 2024-yilda 2.10 foiz bo’lgan. Bu esa yillar davomida suvdan foydalanish samaradorligi muntazam ravishda yaxshilanib borayotganini ko‘rsatadi. Suv resurslariga bosim darajasi 2017-2021-yillar davomida bir xil ko’rasatkichni namoyon qilib, 2022-yilda 2,8 foizga kamaygan. 2023-yilda bu ko’rsatkich 125 foizni tashkil qilib, 2024-yilga kelib esa yana 3 foizga pasaydi. Bu kamayish - suv tanqisligi bosimi yengillashayotganini yoki suvdan foydalanish samaradorligi oshayotganini anglatadi.

Mamlakatimizda xavfsiz tozalanadigan oqova suvlarning ulushi 2017-2024 yillar oralig’ida deyarli barqaror: 92-93 foiz atrofida bo’lgan. Bu tozalash infratuzilmasi barqaror ishlayotganini anglatadi. Suv resurslarini kompleks boshqarishni joriy etish darajasi (0 dan 100 gacha) 2017-yilda 45 foiz bo’lgan va yillar davomida izchil o’sib, 2024-yilda 66 foizga yetgan. Bu mamlakatda integratsiyalashgan suv resurslari boshqaruvi bosqichma-bosqich takomillashib borayotganini ko‘rsatadi. Bu ko’rsatkichlar yashil iqtisodiyotda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik barqarorlikni ta’minlash va suv xo‘jaligi tizimining

samaradorligini oshirish jarayonlarini baholashda asosiy indikatori hisoblanadi. Ular nafaqat suv resurslari holatini aks ettiradi, balki mamlakatning ekologik transformatsiya yo‘lida qanchalik muvaffaqiyatli ketayotganini ham ko‘rsatadi.

Xulosa.

Yashil iqtisodiyot tamoyillarini qishloq xo‘jaligiga joriy etish O‘zbekistonning ekologik barqarorligini ta’minlashda, ayniqsa, suv resurslaridan oqilona foydalanish sohasida muhim natijalar bermoqda. Yashil iqtisodiyotga o‘tish qishloq xo‘jaligi sohasida barqaror rivojlanishni ta’minlashning eng maqbul yo‘li bo‘lib, bu yo‘nalishdagi tizimli islohotlar va innovatsion texnologiyalar mamlakatning ekologik xavfsizligini mustahkamlashga, resurslardan oqilona foydalanishga va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida 31.05.2023 yildagi PF-81 sonli farmoni. www.lex.uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi “2019-2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” Iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PQ-4477-sonli qarori. www.lex.uz

3. H.R.Turobova, M.M.Kadirova . Yashil iqtisodiyot. [Matn]: o‘quv qo‘llanma - Buxoro: “BUXORO DETERMINANTI”MCHJning Kamolot nashriyoti, 2025. - 96 b.

4. N.H. Hakimov, O.M. Ahmedov, A.A. Abdumalikov, Z.B. Sharipova. Yashil iqtisodiyot va ekologiya. Darslik. – T.: Toshkent shahridagi Yodju texnika instituti, 2021. – 232 b.

5. Xashimova S.N. Yashil iqtisodiyot. Darslik.-T.: “Ma’rifat”,2024. 224 b

6. UNEP (United Nations Environment Programme). “Yashil” iqtisodiyot sari: barqaror rivojlanish va qashshoqlikka barham berish yo‘llari. – 2011. – https://www.unep.org/greeneconomy

7. Eshmurodov X. Barqaror qishloq xo‘jaligi: ekologik toza texnologiyalar va ularning iqtisodiy ta’siri. International journal of scientific researchers (Vol.12,No. 2).2025.

8. Boltayev s. Qishloq xo‘jaligida innovatsion texnologiyalar orqali barqaror rivojlanishga erishish istiqbollari. International journal of scientific researchers (vol.12,no. 1).2025.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Barqaror rivojlanish maqsadi 9: Sanoatlashtirish, innovatsiyalar va infratuzilma. – https://nsdg.stat.uz/uz/goal/9

10. Ro‘ziyev S. Buxoro viloyatida qishloq xo‘jaligida suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlar. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2025

THE HONEYBEES VERSUS WILD BEES IN CROP POLLINATION: A LITERATURE REVIEW

F. Mahmudova[1], D. Bakhriev[1]
Samarkand State University
fotimam439@gmail.com

Abstract

Pollination services play a crucial role in both agroecosystems and natural ecosystems. In agriculture, pollination is provided by managed bees (Apis millifera), though wild bees also make important contribution to pollination. In this literature review, research analyzed relative contribution of managed bees and wild bees to pollination of flowering plants and found out that they are not competitors in pollination services.

Key words: *honeybee, wild bee, Apis millifera, flowering plants*

Introduction

The majority of flowering plant both crops and wild plant species rely on animal pollination to produce seeds and fruits (Ollerton et al. 2011). A significant part of world's food crops (around 75%) heavily depends on pollinators. Insect pollination significantly increases not only fruit yields but also fruit quality. Using wild bees' services in crop cultivation is considered a sustainable articulates approach that brings economic and ecological benefits. Therefore, pollination services are crucial in agroecosystems. In agriculture, this service is usually provided by managed bees (*Apis millifera*) whereas wild bees are beneficial twice than honeybees according to its ecological and economical values (Garibaldi et al. 2013). Studying the relative contributions of these two groups is important for both sustainable agriculture and natural ecosystem.

Managed bees

Honeybees are preferred in agriculture because of their economic value, and 15 % of agricultural crops are pollinated by them. However, flower visiting of wild bees increase fruit set regardless of honeybee abundance. Therefore, relying on managed bee reduce the stability of pollination services (Garibaldi et al. 2013; Gallai et al. 2009).

Wild bees

Wild insects increase fruit set and its quality in many crops besides honeybees. Bees, wasp, flies and butterflies also make a significant contribution to pollination on a global scale (Rader et al. 2016). Although honey bees are crucial floral visitor

in natural habitats, research showed wild insects have been shown collectively more significant (Hung et al. 2018).

Interaction between honeybees and wild bees

The activity of managed bees and wild bees can make positive impact on getting high yield from certain crops. Wild bees help maintain pollination in agricultural fields in early spring when honeybees are not active yet. At the same time, wild bees can act as an "insurance" under declining of managed bee (Winfree et al. 2007). But pollination service is not enough to preserve wild pollination diversity. The decline of wild pollinators is being observed in some temperate zones. Using pesticides, intensive tillage, loss of habitat are main threats for wild pollinators' decline (Potts et al. 2010).

Conclusion

Literature showed that honeybees and wild bees are not competitors, they are complementary groups. In Uzbekistan wild pollinators diversity has not been sufficiently studied for either crops or wild plants. Therefore, it is important to assess the contribution of each group in local conditions.

References

1. Gallai N, Salles J-M, Settele J, Vaissière BE (2009) Economic valuation of the vulnerability of world agriculture confronted with pollinator decline. Ecological Economics 68:810–821.

2. Garibaldi LA, Steffan-Dewenter I, Winfree R, Aizen MA, Bommarco R, Cunningham SA, Kremen C, Carvalheiro LG, Harder LD, Afik O, Bartomeus I, Benjamin F, Boreux V, Cariveau D, Chacoff NP, Dudenhöffer JH, Freitas BM, Ghazoul J, Greenleaf S, Hipólito J, Holzschuh A, Howlett B, Isaacs R, Javorek SK, Kennedy CM, Krewenka KM, Krishnan S, Mandelik Y, Mayfield MM, Motzke I, Munyuli T, Nault BA, Otieno M, Petersen J, Pisanty G, Potts SG, Rader R, Ricketts TH, Rundlöf M, Seymour CL, Schüepp C, Szentgyörgyi H, Taki H, Tscharntke T, Vergara CH, Viana BF, Wanger TC, Westphal C, Williams N, Klein AM (2013) Wild Pollinators Enhance Fruit Set of Crops Regardless of Honey Bee Abundance. Science 339:1608–1611.

3. Hung K-LJ, Kingston JM, Albrecht M, Holway DA, Kohn JR (2018) The worldwide importance of honey bees as pollinators in natural habitats. Proceedings of the Royal Society B: Biological Sciences 285:20172140.

4. Ollerton J, Winfree R, Tarrant S (2011) How many flowering plants are pollinated by animals? Oikos 120:321–326.

5. Potts SG, Biesmeijer JC, Kremen C, Neumann P, Schweiger O, Kunin WE (2010) Global pollinator declines: trends, impacts and drivers. Trends in Ecology & Evolution 25:345–353.

6. Rader R, Bartomeus I, Garibaldi LA, Garratt MPD, Howlett BG, Winfree R, Cunningham SA, Mayfield MM, Arthur AD, Andersson GKS, Bommarco R, Brittain C, Carvalheiro LG, Chacoff NP, Entling MH, Foully B, Freitas BM, Gemmill-Herren B, Ghazoul J, Griffin SR, Gross CL, Herbertsson L, Herzog F, Hipólito J, Jaggar S, Jauker F, Klein A-M, Kleijn D, Krishnan S, Lemos CQ, Lindström SAM, Mandelik Y, Monteiro VM, Nelson W, Nilsson L, Pattemore DE, De O. Pereira N, Pisanty G, Potts SG, Reemer M, Rundlöf M, Sheffield CS, Scheper J, Schüepp C, Smith HG, Stanley DA, Stout JC, Szentgyörgyi H, Taki H, Vergara CH, Viana BF, Woyciechowski M (2016) Non-bee insects are important contributors to global crop pollination. Proceedings of the National Academy of Sciences 113:146–151.

7. Winfree R, Williams NM, Dushoff J, Kremen C (2007) Native bees provide insurance against ongoing honey bee losses. Ecology Letters 10:1105–1113.

7. MEDICINE, PHARMACY AND PUBLIC HEALTH

18β-GLITSIRRETAT KISLOTASINING C-3 VA C-30 REAKSION MARKAZLARI BO‘YICHA ZAMONAVIY MODIFIKATSIYALARI HAMDA ULARNING SAR-TAHLILI

Haydarova Dildora Baxtiyor qizi

Annotatsiya. *Ushbu adabiyotlar sharhida pentatsiklik triterpenoid* 18β*-glitsirretat kislotasining (*18β*-GA) C-3 va C-30 reaksion markazlari bo‘yicha o‘tkazilgan zamonaviy kimyoviy modifikatsiyalar va ularning "tuzilish–biologik faollik" (SAR) bog‘liqliklari tizimli tahlil qilingan. So‘nggi yillarda chop etilgan ilmiy manbalar bazasida* 18β*-GA molekulasining lipofillik va past bio-amallilik muammosini hal etishga qaratilgan asosiy sintetik yondashuvlar — esterifikatsiya, amidlash, azotli geterotsikllar bilan gibridlash (CuAAC/Klik-kimyo) hamda kislotali tuzlar hosil qilish usullari qiyosiy sharhlangan. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, C-30 karboksil guruhida triazol saqlagan gibrid karkas shakllantirish va C-3 gidroksil guruhini aminoatsillab kislotali tuzga o‘tkazish molekulaning in vitro sitotoksikligini va suvda eruvchanligini bir vaqtning o‘zida oshirishning eng samarali strategiyasi hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: 18β*-glitsirretat kislotasi, triterpenoidlar, SAR-tahlil, Klik-kimyo, CuAAC, 1,2,3-triazol, gibridizatsiya, bio-amallilik.*

Аннотация. *В данном обзоре литературы систематически проанализированы современные химические модификации реакционных центров C-3 и C-30 пентациклического тритерпеноида* 18β*-глицирретовой кислоты (*18β*-GA) и их взаимосвязь «структура–биологическая активность» (SAR). На основе научных публикаций за последние годы сопоставлены основные синтетические подходы, направленные на решение проблемы высокой липофильности и низкой биодоступности молекулы* 18β*-GA: этерификация, амидирование, гибридизация с азотсодержащими гетероциклами (CuAAC/Клик-химия) и получение кислых солей. Анализ показывает, что формирование гибридного каркаса, содержащего триазол по C-30 карбоксильной группе, и аминоацилирование C-3 гидроксильной группы с последующим переводом в кислую соль являются наиболее эффективной стратегией одновременного повышения in vitro цитотоксичности и растворимости в воде.*

Ключевые слова: 18β*-глицирретовая кислота, тритерпеноиды, SAR-анализ, Клик-химия, CuAAC, 1,2,3-триазол, гибридизация, биодоступность.*

Abstract. *This literature review systematically analyzes modern chemical modifications at the C-3 and C-30 reactive centers of the pentacyclic triterpenoid 18β-glycyrrhetinic acid (18β-GA) and their structure-activity relationships (SAR). Based on recent scientific publications, the primary synthetic approaches aimed at overcoming the high lipophilicity and low bioavailability of 18β-GA are comparatively evaluated, including esterification, amidation, hybridization with nitrogen-containing heterocycles via CuAAC click chemistry, and salt formation. The analysis reveals that constructing a triazole-containing hybrid framework at the C-30 carboxyl group combined with aminoacylation of the C-3 hydroxyl group to form acid salts represents the most effective strategy to simultaneously enhance in vitro cytotoxicity and water solubility.*

Keywords: *18β-glycyrrhetinic acid, triterpenoids, SAR analysis, Click chemistry, CuAAC, 1,2,3-triazole, hybridization, bioavailability.*

KIRISH

Pentatsiklik triterpenoidlar turkumiga kiruvchi 18β-glitsirretat kislotasi (18β-GA) dori va bioorganik kimyoda eng istiqbolli tabiiy karkaslardan biri hisoblanadi [1]. Molekulaning o‘zi shirinmiya ($Glycyrrhiza\ glabra\ L.$) ildizidan ajratib olinadigan glitsirrizin kislotasining aglikoni bo‘lib, uning oleanan tuzilishi keng doiradagi biologik xossalarni — yallig‘lanishga qarshi, gepatoprotektor, o‘smaga qarshi va viruslarga qarshi ta'sirlarni ta'minlaydi [2, 3].

An'anaviy dori preparatlarida 18β-GA va uning tabiiy glikozidlari keng qo‘llanilishiga qaramay, molekula va uning oddiy hosilalarining amaliyotdagi eng katta cheklovi ularning o‘ta yuqori lipofilligi va suvda amalda erimasligi hisoblanadi [4, 5]. Suvda yomon eruvchanlik molekulaning oshqozon-ichak traktida so‘rilishini qiyinlashtiradi, qon plazmasidagi konsentratsiyasini pasaytiradi va to‘qimalarga maqsadli yetib borishini cheklaydi [10].

18β-GA molekulasi kimyoviy modifikatsiya uchun ikkita asosiy funksional guruhga va bitta tutashgan enon tizimiga ega:

C-3 markazi: Ikkilamchi spirt (gidroksil) guruhi bo‘lib, nukleofil o‘rinbosish hamda atsillash reaksiyalariga oson kirishadi [7].

C-30 markazi: Karboksil guruhi bo‘lib, esterifikatsiya hamda amidlash reaksiyalari uchun ochiq reaksion nuqta hisoblanadi [6].

C-11 markazi: α,β-to‘yinmagan keton tizimi bo‘lib, reaksion muhitda molekulaning umumiy barqarorligini belgilaydi [8].

Ushbu ilmiy sharhning maqsadi — 18β-GA molekulasining C-3 va C-30 reaksion markazlarini modifikatsiya qilish bo‘yicha zamonaviy kimyoviy

strategiyalarni sistemalashtirish, ularning reaksion sharoitlarini tahlil qilish hamda "tuzilish–biologik faollik" (SAR) qonuniyatlarini aniqlashdan iborat.

METODLAR

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Xorazm viloyatining madaniy-tarixiy, ziyorat, ekologik, gastronomik va hunarmandchilik resurslari tizimli tahlil qilinadi. Rasmiy ma’lumotlar asosida viloyatga tashrif buyurgan turistlar soni, joylashtirish vositalari, turizm xizmatlari eksporti dinamikasi hamda O‘zbekistonning umumiy turistik oqimidagi viloyat ulushi baholanadi. Xalqaro bozordagi raqobat ustunliklari va to‘siqlar aniqlanib, sayyohlarning o‘rtacha qolish muddatini uzaytirish, bozorlarni diversifikatsiya qilish va mahsulotni xalqaro talablarga moslashtirishga qaratilgan tavsiyalar beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Xorazm, Xiva, Ichan qal’a, turizm resurslari, xorijiy turistlar, turizm eksporti, “Arda Xiva”, xalqaro bozor, raqobatbardoshlik.*

Аннотация*. В данной статье систематически анализируются культурно-исторические, паломнические, экологические, гастрономические и ремесленные ресурсы Хорезмской области. На основе официальных данных оцениваются количество туристов, посещающих регион, объекты размещения, динамика экспорта туристических услуг и доля региона в общем туристическом потоке Узбекистана. Выявлены конкурентные преимущества и препятствия на международном рынке, а также даны рекомендации по увеличению среднего срока пребывания туристов, диверсификации рынков и адаптации туристической продукции к международным требованиям.*

Ключевые слова: *Хорезм, Хива, Ичан-Кала, туристические ресурсы, иностранные туристы, экспорт туристических услуг, «Арда Хива», международный рынок, конкурентоспособность.*

Abstract. *This article systematically analyzes the cultural-historical, pilgrimage, ecological, gastronomic and handicraft resources of the Khorezm region. Based on official data, the number of tourists visiting the region, accommodation facilities, the dynamics of tourism services exports, and the region's share in the total tourist flow of Uzbekistan are assessed. Competitive advantages and obstacles in the international market are identified, and recommendations are made to extend the*

average stay of tourists, diversify markets, and adapt products to international requirements.

Keywords: *Khorezm, Khiva, Ichan Qala, tourism resources, foreign tourists, tourism exports, "Arda Khiva", international market, competitiveness.*

Kirish. So‘nggi yillarda turizm O‘zbekiston iqtisodiyotining tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylandi. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatga 2025-yilda 11,7 million nafar xorijiy turist tashrif buyurgan; 2023-yilda bu ko‘rsatkich 6,7 million, 2022-yilda esa 5,2 million nafarni tashkil etgan edi. Bunday sur’atda o‘sish mintaqalar o‘rtasida turistik mahsulot va xizmatlar bo‘yicha raqobatni kuchaytirmoqda hamda har bir hududdan o‘z o‘rnini aniq belgilashni talab qilmoqda.

Xorazm viloyati mamlakat turizm xaritasida alohida o‘rin tutadi. Viloyat markazlaridan biri bo‘lgan Xiva shahridagi Ichan qal’a 1990-yilda YUNESKO Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan O‘zbekistondagi birinchi obyekt hisoblanadi. Shu bilan birga, uzoq yillar davomida viloyat turizmi asosan Ichan qal’aga, ya’ni bir shaharning tarixiy yadrosiga tayanib kelgan. Bu esa sayyohlarning o‘rtacha 1–2 kun turishi, xizmatlar tarkibining tor bo‘lishi va mavsumiylikka bog‘liqlik kabi muammolarni keltirib chiqargan.

Tadqiqotning maqsadi — Xorazm viloyatining turizm resurslarini tasniflash, so‘nggi yillardagi o‘sish ko‘rsatkichlarini tahlil qilish va viloyatning xalqaro turizm bozoridagi o‘rnini baholashdan iborat. Maqolada viloyat hokimligi, Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz), Milliy statistika qo‘mitasi va ommaviy axborot vositalarida e’lon qilingan rasmiy ma’lumotlardan foydalanildi; qiyosiy, statistik va SWOT tahlil usullari qo‘llandi.

Viloyatning turizm resurslari va ularning tasnifi. Xorazm viloyati Amudaryoning quyi oqimida, Qizilqum va Qoraqum cho‘llari oralig‘ida joylashgan bo‘lib, qadimdan Buyuk Ipak yo‘lining shimoliy tarmog‘ida muhim savdo va madaniyat markazi bo‘lgan. Mintaqa Xorazmiylar davlati, Xorazmshohlar va Xiva xonligi davrlarining boy me’moriy hamda ma’naviy merosini saqlab qolgan. Turizm resurslarini shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin.

1-jadval

Xorazm viloyati turizm resurslarining tasnifi[1]

Resurs guruhi	Asosiy obyekt va yo‘nalishlar	Xalqaro jozibadorlik darajasi
Madaniy-tarixiy meros	Ichan qal’a (YUNESKO, 1990), Juma masjidi, Kalta Minor, Islom Xo‘ja minorasi, Tosh Hovli saroyi, Hazorasp qal’asi va shahri	Yuqori: global brend, “yopiq osmon ostidagi muzey-shahar” sifatida tanilgan
Ziyorat turizmi	Pahlavon Mahmud maqbarasi, Shayx Muxtor Vali, Voyangan bobo maqbarasi va boshqa qadamjolar (Shovot, Yangiariq tumanlarida yo‘nalishlar tashkil etilgan)	O‘rta: asosan Markaziy Osiyo va musulmon mamlakatlari bozori uchun istiqbolli
Nomoddiy madaniy meros	Xorazm lazgi raqsi (YUNESKO, 2019), xalq musiqasi, baxshichilik, an’anaviy bayramlar	O‘rta–yuqori: festival va tajriba turizmi uchun asos
Hunarmandchilik	Xiva gilami, ipak, yog‘och o‘ymakorligi, kulolchilik, pichoqchilik, telpak (papaxa) tikish	Yuqori: esdalik buyumlar va ustaxona (master-class) turizmi
Gastronomiya	Xorazm palovi, shivit oshi, tuxum barak, dimlama, Xorazm qovuni (“Qovun sayli” festivali)	O‘sib bormoqda: gastro-festivallar orqali targ‘ib qilinmoqda
Ekologik va sog‘lomlashtirish	Amudaryo bo‘yi, G‘ovuk ko‘li, Bog‘ot tumanidagi ekoturizm va sog‘lomlashtirish yo‘nalishi, Xiva tumanida baliqchilik-ekoturizm	Past–o‘rta: infratuzilma shakllanish bosqichida
Zamonaviy turistik majmualar	“Arda Xiva” turistik majmuasi, Hunarmandchilik markazi (“To‘rt shovvoz”), yoshlar turizmi obyektlari	O‘rta: oilaviy va mahalliy/mintaqaviy bozor uchun jozibador

[1] *viloyat hokimining 2025-yil yakunlari bo‘yicha hisoboti (gov.uz, 2026-yil 24-yanvar) va muallif tasnifi.*

Madaniy-tarixiy meros: (viloyat brendining asosi) Ichan qal'a Xorazm turizmining "yuzi" bo'lib qolmoqda. Qal'a hududida ellikdan ortiq tarixiy yodgorlik va yuzlab an'anaviy uylar saqlanib qolgan; ularning ko'pchiligi XVIII–XIX asrlarda Xiva xonligi davrida bunyod etilgan. Juma masjidining yog'och ustunlar o'rmoni, Kalta Minorning sirlangan koshinlari, Tosh Hovli saroyining ichki bezaklari xalqaro sayyohlar uchun eng ko'p tasvirga olinadigan obyektlardir. Shu bois Xiva xalqaro turoperatorlarning "Buyuk Ipak yo'li" dasturlarida Samarqand va Buxoro bilan birgalikda deyarli doimiy ravishda ko'rsatiladi.

Viloyat rahbariyati madaniy meros obyektlarini saqlashga e'tiborni kuchaytirmoqda: 2025-yilda sakkizta madaniy meros obyektida (jumladan, Shayx Muxtor Vali, Allaqulixon karvonsaroyi, Voyangan bobo maqbarasi, Juma masjidi, Deshan qal'a devori, Anushaxon hammomi) jami 16,3 mlrd so'mlik ta'mirlash-tiklash ishlari bajarildi, 2026-yilda esa shu maqsadga 37,5 mlrd so'm yo'naltirilishi rejalashtirilgan. Bu mablag'lar yodgorliklarning saqlanishini ta'minlash bilan birga, YUNESKO oldidagi majburiyatlar nuqtai nazaridan ham muhimdir.

Nomoddiy meros, hunarmandchilik va gastronomiya. Xorazm lazgi raqsi 2019-yilda YUNESKOning Nomoddiy madaniy meros reprezentativ ro'yxatiga kiritilgan. Hunarmandchilik esa nafaqat esdalik mahsulotlari manbai, balki "jonli madaniyat" sifatida sayyohlar uchun yaxlit tajriba yaratadi: kulolchilik, ipak to'qish, yog'och o'ymakorligi ustaxonalarida ishtirok etish xalqaro bozorda yuqori qiymatli xizmat hisoblanadi. 2022-yil 28-sentabrdagi hukumat qarori doirasida madaniy meros obyektlari hududida Xiva gilamlarini qo'lda to'qish bo'yicha ustaxonalar tashkil etish ham belgilangan.

Gastronomik turizmda "Qovun sayli" festivali yaqqol misol bo'ldi. Turizm qo'mitasi ma'lumotiga ko'ra, festival 2023-yilda 200 mingdan ortiq mahalliy va 15 mingga yaqin xorijiy mehmonni qamrab olgan; 2024-yilda 500 mingdan ziyod odam tashrif buyurgan; 2025-yilda esa festival davrida viloyatga kelgan mehmonlar soni 1 milliondan oshib, ularning 200 mingga yaqini xorijiy sayyohlar bo'lgan.

Yangi turistik mahsulotlar. So'nggi yillarda sayyohlar uchun 40 dan ortiq yangi turistik yo'nalish ishlab chiqildi. Ziyorat turizmi Shovot va Yangiariq tumanlarida, ekoturizm va sog'lomlashtirish Bog'ot tumanida, baliqchilik hamda ekoturizm Xiva tumanida, yoshlar turizmi esa Xiva shahrida yo'lga qo'yilib, turistik marshrutlarga kiritildi. Bu — "faqat Ichan qal'a" modelidan ko'p qatlamli mahsulotga o'tishning dastlabki bosqichidir.

Turizm infratuzilmasi va asosiy statistik ko'rsatkichlar. Viloyat hokimining 2025-yil yakunlari bo'yicha hisobotiga ko'ra, 2025-yilda turizm infratuzilmasini rivojlantirish doirasida 51 ta joylashtirish vositasi (20 ta mehmonxona, 26 ta oilaviy mehmon uyi va 5 ta xostel) hamda 27 ta turistik tashkilot

faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Natijada hozirgi kunda viloyatda faoliyat yuritayotgan joylashtirish vositalari soni 301 taga, turistik tashkilotlar soni 132 taga yetdi.

2-**jadval.**

Xorazm viloyatining turizm infratuzilmasi (2025-yil yakuni holatiga)[2]

Ko‘rsatkich	Qiymat	Izoh
Joylashtirish vositalari, jami	301 ta	2025-yilda +51 ta
Shu jumladan, 2025-yilda ochilgan mehmonxonalar	20 ta	—
2025-yilda ochilgan oilaviy mehmon uylari	26 ta	—
2025-yilda ochilgan xostellar	5 ta	—
Xonalar fondi	3 816 xona	—
O‘rinlar soni	8 381 o‘rin	o‘rtacha 2,2 o‘rin/xona*
Turistik tashkilotlar soni	132 ta	2025-yilda +27 ta
Madaniy meros obyektlarini tiklashga sarflangan mablag‘	16,3 mlrd so‘m	8 ta obyekt
2026-yilga rejalashtirilgan tiklash mablag‘lari	37,5 mlrd so‘m	2,3 baravar ko‘p*

Boshqa manbalarga ko‘ra, so‘nggi to‘qqiz yilda viloyatda 280 ta mehmonxona va mehmon uyi qurilgan, mehmonxona fondi to‘rt baravar kengaygan, 11 ta yangi turizm maskani ishga tushirilgan. Ko‘rsatilishicha, so‘nggi besh yilda xorijiy sayyohlar soni 10 barobar ko‘paygan. Turizm xizmatlari eksporti esa 2017-yildagi 7 million dollardan 2023-yilda 380 million dollargacha, ya’ni taxminan 54 baravar oshgan.

“Arda Xiva” turistik majmuasi. 2025-yilda Xivada G‘ovuk ko‘li atrofida 1,1 trln so‘m investitsiya hisobiga barpo etilgan “Arda Xiva” viloyatdagi eng yirik zamonaviy turistik loyihadir. Majmua 24,5 gektar maydonda 250 dan ortiq turizm obyektini birlashtiradi (3-jadval). U Ichan qal’aning tarixiy muhitiga zid kelmagan holda, sayyohning kechki va oilaviy vaqtini o‘tkazish imkoniyatlarini kengaytirishga, ya’ni qolish muddatini uzaytirishga xizmat qilishi kutilmoqda.

3-jadval.

“Arda Xiva” turistik majmuasining asosiy parametrlari[3]

Ko‘rsatkich	Qiymat
Investitsiya hajmi	1,1 trln so‘m
Maydoni	24,5 gektar

[2] *viloyat hokimining hisoboti (gov.uz, 24.01.2026). * — muallif hisob-kitobi.*
[3] *viloyat hokimining hisoboti (gov.uz, 24.01.2026).*

Ko‘rsatkich	Qiymat
Turizm obyektlari soni	250 dan ortiq
Mehmonxonalar	8 ta (1 016 o‘rinli)
Oilaviy mehmon uylari	12 ta (106 o‘rinli)
Akvapark va attraksionlar	2 000 kishilik
Amfiteatr	3 000 o‘rinli
Restoranlar / kino va konsert zallari	9 ta / 5 ta
Hunarmandlar uylari / sharq bozori	11 ta / 1 ta (200 rasta, 40 do‘kon)
Sohil bo‘yi sayr yo‘lagi	4 km

Majmuadagi mehmonxona va mehmon uylarining umumiy sig‘imi (1 122 o‘rin) viloyatning umumiy o‘rinlar fondining (8 381) taxminan 13 foizini tashkil etadi. Biroq “Arda Xiva” asosan oilaviy va ko‘ngilochar yo‘nalishga ega bo‘lgani uchun u an’anaviy madaniy turizmni almashtirmaydi, balki uni to‘ldiradi. Xalqaro bozorda esa majmuaning jozibadorligi uni tarixiy mahsulot bilan bog‘lovchi yagona marshrut va brend orqali ochiladi.

Turistlar oqimi dinamikasi. 2025-yilda Xorazm viloyatiga jami 12,4 million nafar turist tashrif buyurdi, shundan xorijiy sayyohlar soni 2 million nafarni tashkil qildi (4-jadval). Ushbu ko‘rsatkich O‘zbekistonning umumiy xorijiy turistlar oqimiga (11,7 million) nisbatan solishtirilganda, viloyat ulushi taxminan 17 foizga teng bo‘ladi. Aholisi mamlakat aholisining nisbatan kichik qismini tashkil etuvchi viloyat uchun bu yuqori ko‘rsatkichdir.

4-jadval.

Xorazm viloyatiga tashrif buyurgan turistlar (ayrim yillar bo‘yicha)[4]

Yil	Ko‘rsatkich	Qiymat va izoh
2017	Turizm xizmatlari eksporti	7 mln dollar
2022	Madaniy meros va namoyish obyektlariga kelgan xorijiy sayyohlar	137,5 ming nafar (mahalliy sayyohlar — 1,5 mln)
2023	Turizm xizmatlari eksporti	380 mln dollar
2023	“Qovun sayli” festivali ishtirokchilari	200 mingdan ortiq mahalliy, ~15 ming xorijiy
2024	“Qovun sayli” festivali ishtirokchilari	500 mingdan ortiq

[4] *gov.uz, gazeta.uz, zamin.uz, ilmiy nashrlar; * — muallif hisob-kitobi (2,0/12,4 va 2,0/11,7). Turli yillarda hisoblash metodikasi har xil bo‘lishi mumkin, shu sababli ko‘rsatkichlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri solishtirishda ehtiyot bo‘lish zarur.*

Yil	Ko‘rsatkich	Qiymat va izoh
2025	Viloyatga kelgan turistlar, jami	12,4 mln nafar (boshqa manbada o‘tgan yil uchun 12,5 mln)
2025	Shu jumladan, xorijiy sayyohlar	2 mln nafar
2025	Xorijiy sayyohlar ulushi viloyat oqimida	≈ 16%*
2025	Viloyatning O‘zbekiston xorijiy oqimidagi ulushi	≈ 17%*

Xalqaro bozordagi o‘rni va raqobat muhiti va O‘zbekiston turistik oqimining tarkibi. Viloyatning xalqaro bozordagi o‘rnini baholash uchun avvalo mamlakat miqyosidagi bozor tarkibini ko‘rib chiqish zarur. 2025-yilda O‘zbekistonga kelgan 11,7 million nafar turistning aksariyati qo‘shni davlatlar fuqarolari bo‘lgan: Qirg‘izistondan 3,3 million, Tojikiston va Qozog‘istondan jami 2,7 million, Rossiyadan 984,4 ming, Afg‘onistondan 476,7 ming nafar kelgan. Uzoq masofadagi bozorlardan Xitoy (278,9 ming), Turkiya (174,9 ming), Hindiston (80,8 ming) va Janubiy Koreya (46,3 ming) ajralib turadi. 2026-yilning yanvar–iyun oylarida mamlakatga 6,5 milliondan ortiq xorijiy fuqaro tashrif buyurgani, bu 2025-yilning mos davriga nisbatan 24,9 foiz yuqori ekani qayd etildi.

1-rasm.

2025-yilda O‘zbekistonga kelgan xorijiy turistlar: asosiy bozorlar (ming nafar)[5]



[5] *Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari (spot.uz, 19.01.2026). Tojikiston va Qozog‘iston ko‘rsatkichi manbada birgalikda berilgan.*

Bu tarkib shuni ko‘rsatadiki, mamlakat bo‘yicha oqimning asosiy hajmi qo‘shni mamlakatlarga to‘g‘ri keladi, qiymat jihatidan yuqori hisoblangan Yevropa, Sharqiy va Janubiy Osiyo bozorlarining ulushi esa hali nisbatan past. Xorazm uchun esa strategik vazifa — aynan shu uzoq masofadagi, kechalab qolish davomiyligi va o‘rtacha xarajati yuqori bo‘lgan segmentlarda mavqeni mustahkamlashdir. Viloyat nomidan ishtirok etilgan xalqaro ko‘rgazma va yarmarkalar bu yo‘nalishdagi qadamlardandir.

Targ‘ibot va bozorga chiqish faoliyati. 2025-yilda Xorazm viloyatining turizm, madaniyat va investitsiya salohiyati Ispaniya, Turkiya, Germaniya, Xitoy, Buyuk Britaniya, Fransiya, Yaponiya va Italiya kabi davlatlarda o‘tkazilgan xalqaro turizm yarmarkalarida namoyish etildi. Natijada 400 dan ortiq sayyohlik kompaniyasi bilan 700 ga yaqin kelishuvga erishilgan. Mazkur davlatlar tanlovi diqqatga sazovor: ularning ko‘pchiligi an’anaviy ravishda madaniy-tarixiy turizm bo‘yicha yetakchi chiquvchi bozorlar hisoblanadi.

2025-yil 15-maydagi Prezident farmoni mintaqaviy turistik “halqa”larni shakllantirishni ham nazarda tutadi; xususan, to‘rt hududni birlashtiruvchi turistik yo‘lakni tashkil etish topshirig‘i Qoraqalpog‘iston Respublikasi hamda Xorazm viloyati hokimligiga ham tegishli. Bu Xiva, Urganch va Qoraqalpog‘istonning qadimgi qal’alarini yagona mahsulotga birlashtirib, xalqaro operatorlarga uzoqroq muddatli dasturlar taklif etish imkonini beradi.

Qiyosiy ustunliklar va raqobatchilar. Mamlakat ichida Xorazmning asosiy raqobatchilari — Samarqand va Buxoro. Samarqand katta me’moriy ansambllari va yetarli aviaqatnovlar, Buxoro esa saqlanib qolgan tarixiy shahar muhiti bilan ajralib turadi. Xiva esa ixcham, piyoda yurish mumkin bo‘lgan va yaxlit saqlangan “qal’a-shahar” sifatida mutlaqo noyob taassurot beradi. Xalqaro miqyosda Xiva Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikadagi qadimiy qal’a-shaharlar (masalan, Marokashdagi Fes va Ayt-Benhaddu), shuningdek, Qozog‘iston va Turkmanistondagi Ipak yo‘li obyektlari bilan raqobatlashadi. Shuning uchun asosiy farqlovchi omil — mahsulotning haqiqiyligi, xavfsizlik va narx-sifat nisbati bo‘lib qolmoqda.

5-jadval.

Strategik yo‘nalishlar va kutilayotgan natijalar[6]

Yo‘nalish	Asosiy chora	Kutilayotgan natija
Qolish muddatini uzaytirish	Xiva–Hazorasp–Xonqa–Bog‘ot marshrutlarida 3–5 kunlik paketlar; kechki dasturlar (“Arda Xiva”, lazgi shoulari)	O‘rtacha qolish 1–2 kundan 3 kungacha; tushum o‘sishi

[6] *muallif taklifi.*

Yo‘nalish	Asosiy chora	Kutilayotgan natija
Bozorlar diversifikatsiyasi	Yevropa, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy va Hindiston bo‘yicha alohida mahsulot va tilda kontent; turoperatorlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar	Yuqori xarajat qiluvchi segment ulushining oshishi
Yagona brend va raqamli targ‘ibot	Yagona vizual identitet, ko‘p tilli veb-sayt, onlayn bron va to‘lov tizimlari, influenser hamda video-marketing	Viloyat brendining xalqaro tanilishi
Xizmat sifati va kadrlar	Xorijiy tillarni biladigan gidlar, mehmon uylari standartlari, sertifikatlash	Mijoz qoniqishi va qayta tashrif
Tematik va festival turizmi	“Qovun sayli”ni xalqaro gastro-festivalga aylantirish, hunarmandchilik ustaxonalari, musiqa va raqs festivallari	Mavsumiylikni kamaytirish
Barqarorlik	Ekoturizm, suvni tejovchi xizmatlar, yodgorliklarning yuklamasini nazorat qilish (kunlik tashrif limitlari)	Merosning saqlanishi va YUNESKO talablariga muvofiqlik
Transport bog‘liqligi	Urganchga xalqaro aviareyslarni ko‘paytirish, tezyurar poyezd va yo‘llar sifatini oshirish	Qulay va qisqa yo‘l, bozorga kirish xarajatlarining kamayishi

Bundan tashqari, statistik ma’lumotlar yig‘ishning yagona metodikasini joriy etish tavsiya etiladi. Hozirgi kunda turli manbalarda viloyat bo‘yicha “turistlar soni”, “xorijiy sayyohlar” va “madaniy meros obyektlariga tashriflar” ko‘rsatkichlari turlicha hisoblanmoqda; bu esa bozor tahlilini va rejalashtirishni qiyinlashtiradi. Ayniqsa, kechalab qolgan va bir kunlik tashrif buyuruvchilar, chiquvchi mamlakatlar bo‘yicha taqsimot hamda o‘rtacha xarajat kabi ko‘rsatkichlarni muntazam e’lon qilish xalqaro hamkorlar bilan ishlashda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Xorazm viloyati O‘zbekiston turizm tizimida madaniy-tarixiy mahsulot bo‘yicha yetakchi hududlardan biri bo‘lib, YUNESKO brendi, yaxlit saqlangan Ichan qal’a, boy hunarmandchilik, nomoddiy meros va gastronomiya an’analariga tayanadi. 2025-yilda viloyatga 12,4 million turist, shu jumladan 2 million xorijiy sayyoh tashrif buyurgan; joylashtirish vositalari soni 301 taga, o‘rinlar soni 8 381 taga yetgan; turizm xizmatlari eksporti 2017–2023-yillarda 7 million dollardan 380 million dollargacha o‘sgan.

Shu bilan birga, viloyat turizmining xalqaro bozordagi o‘rni hali o‘z salohiyatiga to‘liq mos emas: sayyohlarning qolish muddati qisqa, mahsulot geografik jihatdan Xiva shahrida to‘plangan, uzoq masofadagi yuqori daromadli bozorlarning ulushi nisbatan past, brend va raqamli targ‘ibot tizimli emas. “Arda Xiva” kabi zamonaviy majmualar, yangi ekologik va ziyorat yo‘nalishlari, yo‘l-

transport infratuzilmasiga qaratilgan yirik investitsiyalar bu to‘siqlarni bartaraf etish uchun asos yaratmoqda. Taklif etilgan yo‘nalishlar izchil amalga oshirilsa, Xorazm “bir kunlik tarixiy ekskursiya” makonidan ko‘p kunlik, ko‘p qatlamli va xalqaro miqyosda raqobatbardosh turistik mintaqaga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xorazm viloyati hokimi J. Raximov. 2025-yilda amalga oshirilgan ishlar va 2026-yilga mo‘ljallangan vazifalar yuzasidan hisobot. – 24.01.2026. – https://gov.uz/oz/xorazm.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. 2022–2026-yillarda Xorazm viloyatining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi qaror. – 546-son, 28.09.2022. – https://lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2025–2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko‘paytirish bo‘yicha farmon. – PF-87-son, 15.05.2025. – https://lex.uz.

4. Spot.uz. 11,7 mln: O‘zbekistonga 2025-yili eng ko‘p turist qaysi davlatlardan keldi? – 19.01.2026 (Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari).

5. Sputnik O‘zbekiston. Olti oyda O‘zbekistonga 6,5 milliondan ortiq sayyoh keldi. – 14.07.2026 (Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari).

6. Gazeta.uz. Xivada o‘tgan an’anaviy “Qovun sayli” festivali — fotoreportaj. – 12.08.2025.

7. Zamin.uz. Xorazm turizmi yangi darajaga ko‘tarilmoqda: “Arda Xiva” zamonaviy majmuasi ochildi.

8. Yuz.uz. Xivada yangi xalqaro turistik shaharcha barpo etiladi. – 2026.

9. Gazeta.uz. Xorazmni zamonaviy qiyofaga keltirish, yo‘l va suv infratuzilmasini yaxshilashga 1 mlrd 600 mln dollar ajratiladi. – 04.03.2026.

10. Bog‘ot tumani: etnografiyasi, etnik qiyofasi va turistik salohiyati tahlillari // Journal of Education, Learning and Social Innovation. – 2025. – Vol. 3, No. 3.

11. UNESCO World Heritage Centre. Itchan Kala. – 1990; UNESCO. Intangible Cultural Heritage Lists: Khorazm dance Lazgi. – 2019.

TURIZM SOHASIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI

Azizova Sug'diyona Baxtiyor qizi
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
ORCID: 0009-0004-6622-5752
sugdiyonabaxtiyarovna23@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada turizm sohasida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning zamonaviy tendensiyalari, ularning turistik xizmatlar sifati va tarmoq samaradorligiga ta'siri hamda O'zbekiston sharoitida qo'llash istiqbollari tahlil qilinadi. Tadqiqotda sun'iy intellektning shaxsiylashtirilgan tavsiyalar, suhbatlashuvchi yordamchilar, narx va talabni prognoz qilish, smart destinatsiyalar hamda xizmat robotlari kabi asosiy yo'nalishlari tizimlashtirilgan. 2025-yilda O'zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy turistlar oqimi va uning davlatlar kesimidagi tarkibi tahlil qilinib, ko'p tilli raqamli xizmatlarga ehtiyoj asoslangan. Shuningdek, ma'lumotlar maxfiyligi, algoritmik xatolar, kadrlar tayyorlash va raqamli infratuzilma bilan bog'liq cheklovlar aniqlangan. Natijada yagona turizm ma'lumotlari platformasini yaratish, ko'p tilli sun'iy intellekt asosidagi virtual gidlarni joriy etish, talabni bashoratlash tizimlarini rivojlantirish va kadrlar salohiyatini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar. *sun'iy intellekt, turizm, aqlli turizm, generativ sun'iy intellekt, chatbot, shaxsiylashtirish, bashoratli tahlil, raqamli transformatsiya, virtual gid, O'zbekiston.*

Аннотация. *В статье анализируются современные тенденции использования технологий искусственного интеллекта в сфере туризма, их влияние на качество туристических услуг и эффективность отрасли, а также перспективы применения в условиях Узбекистана. Систематизированы основные направления применения искусственного интеллекта: персонализированные рекомендации, диалоговые ассистенты, прогнозирование цен и спроса, умные дестинации и сервисные роботы. Проанализированы поток иностранных туристов в Узбекистан в 2025 году и его структура по странам, на основании чего обоснована потребность в многоязычных цифровых сервисах. Выявлены ограничения, связанные с конфиденциальностью данных, алгоритмическими ошибками, подготовкой кадров и цифровой инфраструктурой. В результате предложены меры по*

созданию единой платформы туристических данных, внедрению многоязычных виртуальных гидов на основе искусственного интеллекта, развитию систем прогнозирования спроса и повышению кадрового потенциала.

Ключевые слова. *искусственный интеллект, туризм, умный туризм, генеративный искусственный интеллект, чат-бот, персонализация, прогнозная аналитика, цифровая трансформация, виртуальный гид, Узбекистан.*

Annotation. *This article examines current trends in the use of artificial intelligence technologies in tourism, their impact on service quality and industry efficiency, and the prospects for their application in Uzbekistan. The main areas of AI use are systematized: personalized recommendations, conversational assistants, price and demand forecasting, smart destinations and service robots. The inflow of foreign tourists to Uzbekistan in 2025 and its composition by country are analyzed, which substantiates the need for multilingual digital services. The study also identifies constraints related to data privacy, algorithmic errors, workforce training and digital infrastructure. As a result, proposals are made to create a unified tourism data platform, introduce multilingual AI-based virtual guides, develop demand forecasting systems and strengthen human resource capacity.*

Key words. *artificial intelligence, tourism, smart tourism, generative AI, chatbot, personalization, predictive analytics, digital transformation, virtual guide, Uzbekistan.*

Kirish.

Turizm dunyo iqtisodiyotining eng dinamik tarmoqlaridan biri bo‘lib, uning rivojlanishi tobora ko‘proq raqamli texnologiyalarga, ayniqsa sun’iy intellekt (SI)ga bog‘liq bo‘lib bormoqda. Sayohatni rejalashtirish, bron qilish, mashrutlarni yo‘naltirish, mehmonxonada xizmat ko‘rsatish va sayohatdan keyingi fikr-mulohazalarni tahlil qilishgacha bo‘lgan butun turistik jarayon ma’lumotlarga boy, algoritmlar yordamida boshqariladigan jarayonga aylanmoqda.

Xalqaro tadqiqotlarga ko‘ra, turizmda sun’iy intellekt bozori jadal o‘sib bormoqda. “Grand View Research” hisob-kitoblariga muvofiq, uning global hajmi 2024-yilda 3 373,0 mln AQSH dollarini tashkil etgan va 2025-2030-yillarda yiliga o‘rtacha 26,7 foiz o‘sishi kutilmoqda.[7] O‘zbekiston uchun mazkur mavzu alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. 2025-yilda mamlakatga turistik maqsadda 11,7 mln xorijiy fuqaro tashrif buyurgan bo‘lib, bu 2024-yilga nisbatan 3,7 mln kishiga yoki

[7] Grand View Research. AI in Tourism Market Size, Share & Trends Analysis Report, 2025-2030. 2025. https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/artificial-intelligence-ai-tourism-market-report

46,8 foizga ko‘pdir.[8] Turistlar oqimining bunday tez o‘sishi xizmat ko‘rsatish tizimidan yuqori tezlik, ko‘p tillilik va shaxsiylashtirishni talab qiladi.

Shu bilan birga, 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qaror bilan 2030-yilgacha sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasi tasdiqlanib, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida SIni joriy etish uchun institutsional asos yaratildi unga ko‘ra, 2030-yilgacha SI asosidagi dasturiy mahsulot va xizmatlar hajmini 1,5 mlrd AQSH dollariga yetkazish belgilangan.[9] Shunga qaramay, turizm tarmog‘ida SIdan foydalanishning aniq yo‘nalishlari, ularning samaradorligi va cheklovlari yetarlicha tizimlashtirilmagan. Mazkur tadqiqotning maqsadi turizmda sun’iy intellekt qo‘llanishining zamonaviy tendensiyalarini aniqlash va O‘zbekiston sharoitida ulardan foydalanish istiqbollarini asoslashdan iborat.

Asosiy qism.

Turizmda sun’iy intellekt tushunchasi ko‘pincha «aqlli turizm» konsepsiyasi doirasida ko‘rib chiqiladi. Gretzel va hammualliflarning fikricha, aqlli turizm jismoniy infratuzilma, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa manbalardan olingan ma’lumotlarni ilg‘or texnologiyalar yordamida to‘plab, ularni turistik tajriba va biznes qiymatiga aylantiradi hamda samaradorlik va barqarorlikni oshirishga xizmat qiladi.[10] Buhalis va Amaranggana esa smart destinatsiyalarning asosiy qiymatini xizmatlarni har bir turistning ehtiyojiga moslashtirish, ya’ni shaxsiylashtirish imkoniyatida ko‘radi.[11] Amaliyotda bu maqsadlarga mashinaviy o‘qitish, tabiiy tilni qayta ishlash, kompyuterli ko‘rish, generativ modellar va robototexnika kabi texnologiyalar orqali erishiladi. Ularning turizmdagi asosiy qo‘llanish yo‘nalishlarini quyidagi 1-jadvalda ko‘rish mumkin.

1-jadval

Turizmda sun’iy intellektning asosiy qo‘llanish yo‘nalishlari[12]

№	Yo‘nalish	Asosiy texnologiyalar	Amaliy qo‘llanilishi
1	Shaxsiylashtirilgan tavsiyalar	Tavsiya tizimlari, generativ modellar	Turistning qiziqishiga mos marshrut, joylashtirish va tadbirlarni taklif etish
2	Mijozlarga xizmat ko‘rsatish	Chatbotlar, ovozli yordamchilar, mashina tarjimasi	Ko‘p tilli muloqot, bron qilish va savollarga sutka davomida javob berish

[8] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari. https://stat.uz/oz/19-news/committee-news/66311-11-7-million-tourists-

[9] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qarori. https://lex.uz/uz/docs/-7158604

[10] Gretzel, U., Sigala, M., Xiang, Z., Koo, C. Smart tourism: foundations and developments. Electronic Markets, 2015, 25(3), 179–188.

[11] Buhalis, D., Amaranggana, A. Smart tourism destinations enhancing tourism experience through personalisation of services. In: Information and Communication Technologies in Tourism 2015. Springer, 2015, pp. 377–389.

[12] Gretzel, U., Sigala, M., Xiang, Z., Koo, C. Smart tourism: foundations and developments. Electronic Markets, 2015, 25(3), 179-188. Tussyadiah, I. A review of research into automation in tourism. Annals of Tourism Research, 2020, 81, 102883. Manbaalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

№	Yo‘nalish	Asosiy texnologiyalar	Amaliy qo‘llanilishi
3	Narx va talabni prognoz qilish	Mashinaviy o‘qitish, bashoratli tahlil	Dinamik narxlash, bandlik va mavsumiy talabni oldindan baholash
4	Smart destinatsiyalar	IoT, katta ma’lumotlar, GIS	Turistlar oqimini kuzatish, gavjumlikni boshqarish
5	Xavfsizlik va identifikatsiya	Kompyuterli ko‘rish, biometrik identifikator	Kontaktsiz ro‘yxatdan o‘tish, xavfsizlik nazorati
6	Xizmat robotlari	Robototexnika, jarayonlarni avtomatlashtirish	Mehmonxona va aeroportlarda yordam, yetkazib berish xizmatlari

Jadvaldan ko‘rinadiki, sun’iy intellekt turistik xizmat zanjirining deyarli barcha bosqichlarini qamrab olmoqda. Eng keng tarqalgan yo‘nalishlardan biri generativ modellar asosidagi sayohat maslahatchilari va suhbatlashuvchi yordamchilar bo‘lib, ular turistga so‘rovni tabiiy tilda berish va qisqa vaqt ichida tayyor marshrut olish imkonini beradi. “KBV Research” baholariga ko‘ra, turizmda sun’iy intellekt bozori 2032-yilga kelib 20,70 mlrd AQSH dollariga yetishi mumkin.[13] Tussyadiah turizmda avtomatlashtirish bo‘yicha tadqiqotlarni sharhlab, bunday texnologiyalarning samaradorlik bilan bir qatorda ijtimoiy va axloqiy oqibatlarini ham o‘rganish zarurligini ta’kidlaydi.[14]

O‘zbekiston misolida sun’iy intellektga bo‘lgan ehtiyojni turistlar oqimining tarkibi ham ko‘rsatadi. 2025-yilda mamlakatga kelgan 11,7 mln turistning eng katta qismi qo‘shni davlatlar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Qirg‘iziston - 3,3 mln, Tojikiston va Qozog‘iston - har biri 2,7 mln kishi (1-rasm). Mazkur uch davlatning ulushi jami oqimning taxminan 74 foizini tashkil etadi. Rossiya, Afg‘oniston, Xitoy, Turkiya kabi bozorlar esa turli til va madaniy ehtiyojlarga ega auditoriyani shakllantiradi.

[13] KBV Research. Global AI in Tourism Market Size, Share & Trends Analysis Report, 2025-2032. 2025. https://www.researchandmarkets.com/reports/6077399/ai-in-tourism-market-size-share-and-trends

[14] Tussyadiah, I. A review of research into automation in tourism. Annals of Tourism Research, 2020, 81, 102883. https://doi.org/10.1016/j.annals.2020.102883



1-rasm. 2025-yilda O‘zbekistonga kelgan xorijiy turistlarning davlatlar bo‘yicha tarkibi (ming kishi)[15]

Bunday tarkib turistlarga o‘zbek, rus, ingliz, xitoy va qo‘shni davlatlar tillarida bir xil sifatli axborot va xizmat taqdim etish zaruratini yuzaga keltiradi. Ko‘p tilli chatbotlar, mashina tarjimasi va ovozli yordamchilar bu borada eng tez va arzon yechimlardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, 2025-yil yanvar-noyabr oylarida turizm xizmatlari eksporti 4,4 mlrd AQSH dollariga yetib, 44 foizga oshgani, turistik kompaniya va agentliklar soni esa 4 348 taga yetgani tarmoqda raqobat kuchayayotganini ko‘rsatadi.[16]

Tahlil natijalariga ko‘ra, turizmda sun’iy intellektdan foydalanishning zamonaviy tendensiyalarini quyidagicha tizimlashtirish mumkin:

- Generativ sun’iy intellekt va suhbatlashuvchi yordamchilar. Katta til modellari asosidagi virtual maslahatchilar turistga sayohatni rejalashtirishdan yo‘lda yo‘naltirishgacha bo‘lgan bosqichlarda yordam beradi, murakkab so‘rovlarga tabiiy tilda javob qaytaradi va tavsif, sharh, reklama matni kabi kontentni avtomatik yaratadi.

- Giperpersonalizatsiya. Foydalanuvchining avvalgi tanlovlari, joylashuvi va qiziqishlari asosida har bir turist uchun alohida taklif shakllantiriladi; bu universal turistik paketlardan individual tajribaga o‘tishni anglatadi.

- Bashoratli tahlil va operatsion boshqaruv. Talab, narx, bandlik va turistlar oqimini oldindan baholash xodimlar, transport va joylashtirish quvvatlarini samarali taqsimlash hamda mavsumiylik ta’sirini kamaytirishga xizmat qiladi.

- Aqlli destinatsiyalar va kontaktsiz xizmatlar. IoT qurilmalari, kompyuterli

[15] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.
[16] Dunyo axborot agentligi. 2025-yil yanvar-noyabr oylarida O‘zbekistonga kelgan xorijiy tashrifchilar to‘g‘risida ma’lumot, 2025-yil 7-dekabr. https://dunyo.info/en/turizm/uzbekistan-za-yanvar-noyabr-2025-goda-privlyok-107-inostrannyh-milliona

ko‘rish va biometrik identifikatsiya ro‘yxatdan o‘tish, chiptalash va xavfsizlik nazoratini tezlashtiradi, madaniy meros obyektlarida turistlar oqimini real vaqtda boshqarish imkonini beradi.

- Robotlashtirish va xizmatlarni avtomatlashtirish. Mehmonxonalar, aeroportlar va muzeylarda xizmat robotlari hamda avtomatlashtirilgan kiosklar takrorlanuvchi vazifalarni bajarib, xodimlarga murakkabroq mijoz muloqotiga e’tibor qaratish imkonini beradi.

Biroq sun’iy intellektni joriy etish bir qator xavf va cheklovlar bilan bog‘liq. Shaxsiylashtirish katta hajmdagi shaxsiy ma’lumotlarni yig‘ishni talab qiladi, bu esa ma’lumotlar maxfiyligi va xavfsizligi masalasini dolzarb qiladi. Generativ modellar ba’zan noto‘g‘ri yoki mavjud bo‘lmagan ma’lumot berishi mumkin, bu turist uchun noto‘g‘ri marshrut yoki yolg‘on tavsiyaga olib keladi. SI yechimlarini joriy etish yuqori dastlabki xarajatlarni talab qiladi. Malakali kadrlar va zamonaviy raqamli infratuzilma yetishmasligi tarmoqda keng ko‘lamli joriy etishga to‘sqinlik qiladi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, O‘zbekiston turizm sohasida sun’iy intellektdan foydalanishning quyidagi ustuvor yo‘nalishlarini taklif etish mumkin:

- Yagona turizm ma’lumotlari platformasini yaratish. Turistlar oqimi, joylashtirish vositalari, transport va turistik obyektlar bo‘yicha ma’lumotlarni yagona standartda to‘plash SI modellarini o‘qitish va prognozli tahlil uchun asos bo‘ladi.

- Ko‘p tilli virtual gid va chatbotlarni joriy etish. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi mashhur yo‘nalishlar hamda hududiy turistik markazlar uchun o‘zbek, rus, ingliz, xitoy va qo‘shni davlatlar tillarida ishlaydigan raqamli yordamchilarni rivojlantirish zarur.

- Talabni prognozlash tizimlarini rivojlantirish. Turistlar oqimini oldindan baholash narx siyosati, transport va joylashtirish quvvatlarini rejalashtirish hamda oqimni kam o‘zlashtirilgan hududlarga yo‘naltirish imkonini beradi.

- Kadrlar salohiyatini oshirish. Turizm menejerlari, gidlar va mehmonxona xodimlarining raqamli va sun’iy intellekt savodxonligini oshirishga qaratilgan o‘quv dasturlarini yo‘lga qo‘yish lozim.

- Axloqiy va huquqiy me’yorlarni shakllantirish. Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, algoritmlar shaffofligi va SI taqdim etgan axborot uchun javobgarlik tartibini belgilash turistlar ishonchini ta’minlaydi.

- Davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish. IT-parklar, startaplar va turistik kompaniyalar hamkorligida mahalliy SI yechimlarini ishlab chiqish xarajatlarni kamaytiradi va mahalliy bozor ehtiyojlariga moslashuvni ta’minlaydi.

Xulosa.

O‘tkazilgan tahlil sun’iy intellekt turizm sohasida muhim raqobat omiliga

aylanayotganini ko‘rsatdi. Uning asosiy qo‘llanish yo‘nalishlari - shaxsiylashtirilgan tavsiyalar, suhbatlashuvchi yordamchilar, narx va talabni prognozlash, smart destinatsiyalar hamda xizmat robotlari - turistik xizmat zanjirining deyarli barcha bosqichlarini qamrab olib, xizmat sifati va operatsion samaradorlikni oshirmoqda.

O‘zbekiston uchun sun’iy intellektga bo‘lgan ehtiyoj 2025-yilda 11,7 mln kishiga yetgan xorijiy turistlar oqimi, uning ko‘p tilli va ko‘p madaniyatli tarkibi hamda PQ-358-son qaror bilan belgilangan davlat siyosati bilan asoslanadi. Shu bilan birga, ma’lumotlar maxfiyligi, algoritmik xatolar, yuqori xarajatlar, kadrlar va infratuzilma bilan bog‘liq cheklovlarni e’tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi.

Shu sababli yagona turizm ma’lumotlari platformasini yaratish, ko‘p tilli virtual gidlarni joriy etish, talabni bashoratlash tizimlarini rivojlantirish, kadrlar tayyorlash, axloqiy-huquqiy me’yorlarni shakllantirish va davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish turizmda sun’iy intellektdan samarali foydalanishning asosiy shartlari hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishlarning amalga oshirilishi O‘zbekistonning turistik raqobatbardoshligini oshirish, xizmatlar eksportini kengaytirish va turizmning iqtisodiyotdagi o‘rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qarori. Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. https://lex.uz/uz/docs/-7158604

2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. 2025-yilda turistik maqsadda tashrif buyurgan xorijiy fuqarolar. https://stat.uz/oz/19-news/committee-news/66311-11-7-million-tourists-

3. Dunyo axborot agentligi. Uzbekistan Welcomes 10.7 Million Foreign Visitors Between January and November 2025. – 2025. – https://dunyo.info/en/turizm/uzbekistan-za-yanvar-noyabr-2025-goda-privlyok-107-inostrannyh-milliona.

4. Grand View Research. AI in Tourism Market Size, Share & Trends Analysis Report, 2025–2030. – 2025. – https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/artificial-intelligence-ai-tourism-market-report.

5. KBV Research. Global AI in Tourism Market Size, Share & Trends Analysis Report, 2025–2032. – 2025. – https://www.researchandmarkets.com/reports/6077399/ai-in-tourism-market-size-share-and-trends.

6. Gretzel U., Sigala M., Xiang Z., Koo C. Smart tourism: foundations and developments // Electronic Markets. – 2015. – Vol. 25, No. 3. – P. 179–188.

7. Buhalis D., Amaranggana A. Smart tourism destinations enhancing tourism experience through personalisation of services // Information and Communication Technologies in Tourism 2015. – Springer, 2015. – P. 377–389.

8. Tussyadiah I. A review of research into automation in tourism: Launching the Annals of Tourism Research // Annals of Tourism Research. – 2020. – Vol. 81. – Art. 102883. – https://doi.org/10.1016/j.annals.2020.102883

CREDIT POLICY IN COMMERCIAL BANKS AND FACTORS OF ITS FORMATION

Berkinov Odilbek Alisher o‘g‘li
Tashkent State University of Economics
odikberkinov92@gmail.com

Annotatsiya. *Tezisda tijorat banklarida kredit siyosatining iqtisodiy mohiyati, uning asosiy elementlari hamda shakllanishiga ta’sir etuvchi tashqi va ichki omillar yoritilgan. Kredit siyosatining kredit riski, kredit portfeli sifati, kapital yetarliligi va likvidlik bilan bog‘liqligi tahlil qilinib, O‘zbekiston tijorat banklarida kredit boshqaruvini takomillashtirish bo‘yicha takliflar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *kredit siyosati, tijorat banki, kredit riski, kredit portfeli, kapital yetarliligi, likvidlik, pul-kredit siyosati.*

Аннотация. *В тезисах рассматриваются экономическая сущность кредитной политики коммерческих банков, ее основные элементы, а также внешние и внутренние факторы формирования. Анализируется связь кредитной политики с кредитным риском, качеством кредитного портфеля, достаточностью капитала и ликвидностью, формулируются предложения по совершенствованию кредитного управления в банках Узбекистана.*

Ключевые слова: *кредитная политика, коммерческий банк, кредитный риск, кредитный портфель, достаточность капитала, ликвидность, денежно-кредитная политика.*

Abstract. *The thesis examines the economic essence of credit policy in commercial banks, its key elements, and the external and internal factors shaping it. The relationship between credit policy, credit risk, loan-portfolio quality, capital adequacy and liquidity is considered, and proposals for improving credit management in Uzbekistan's commercial banks are presented.*

Keywords: *credit policy, commercial bank, credit risk, loan portfolio, capital adequacy, liquidity, monetary policy.*

Introduction

Credit policy is one of the key components of a commercial bank's overall strategy. It defines the bank's approach to lending, including the volume and structure of the loan portfolio, lending conditions, target borrower groups, collateral requirements, pricing principles and procedures for monitoring credit quality. A

well-designed credit policy enables a bank to balance profitability with prudent risk management and supports the stability of its lending activity [1; 4; 5].

The relevance of the issue is especially high in the context of Uzbekistan's developing banking sector. The expansion of lending, stronger competition between banks and the growing importance of risk-based management require credit decisions to be based not only on the volume of loans issued, but also on portfolio quality, borrower solvency, capital adequacy and liquidity.

The Essence of Credit Policy

Credit policy may be defined as a system of strategic directions, principles and procedures regulating a commercial bank's lending activities. It establishes the framework within which lending decisions are made and determines acceptable levels of credit risk. Its main objectives are to ensure efficient allocation of financial resources, maintain the quality of the loan portfolio, minimize losses from borrower default and comply with regulatory requirements.

The core elements of credit policy include borrower selection criteria, assessment of repayment capacity, loan pricing, collateral requirements, exposure limits, approval procedures, post-disbursement monitoring and problem-loan management. The effectiveness of these elements depends on their consistency with the bank's resource base, risk appetite, capital position and overall business strategy.

Factors Shaping Credit Policy

The factors influencing credit policy can be divided into external and internal groups. External factors include macroeconomic conditions, GDP growth, inflation, monetary-policy decisions, the regulatory framework, competition in the banking market and the financial condition of households and enterprises. These factors influence credit demand, the cost of resources and the probability of borrower default [2; 4].

Internal factors include the bank's funding structure, capital adequacy, liquidity position, quality of the existing loan portfolio, share of non-performing loans, competence of credit officers, effectiveness of internal controls and the bank's risk appetite. A bank with stronger capital and liquidity has greater capacity to expand lending, whereas deterioration in portfolio quality requires stricter underwriting and monitoring.

Credit Policy in the Context of Uzbekistan

Commercial banks in Uzbekistan operate in an environment where the quality of assets, capital adequacy, liquidity and risk management are becoming increasingly important. The growth of lending should therefore be accompanied by a corresponding improvement in borrower assessment, diversification of the loan portfolio and monitoring of credit risk. The Central Bank's reporting and supervisory

framework also emphasizes the importance of financial stability and prudent banking practices [3].

For Uzbek commercial banks, credit policy should take into account sectoral differences in borrower cash flows, collateral structures and sensitivity to economic conditions. The use of credit scoring, financial analysis and early-warning indicators can improve the quality and speed of lending decisions, while portfolio limits can reduce excessive concentration in individual sectors or borrower groups.

Stages of Credit Policy Formation and Monitoring

The formation of credit policy is a sequential process. It begins with an assessment of the bank's strategic objectives, resource base, capital position, liquidity and current loan-portfolio quality. Management then analyzes the external environment, including inflation, interest rates, economic growth, regulatory requirements and competitive conditions. On this basis, the bank determines priority borrower groups and sectors, establishes portfolio and concentration limits, defines collateral requirements and sets pricing principles consistent with its risk appetite and financial capacity. These strategic parameters are then translated into practical procedures for borrower screening, financial analysis, credit scoring, approval, documentation and disbursement.

Monitoring is a continuous component of credit policy. Banks should compare actual portfolio indicators with approved limits and regularly review overdue loans, restructuring cases, sectoral concentration and changes in borrowers' financial condition. Early-warning indicators can help identify deterioration before a loan becomes non-performing. When portfolio quality weakens or macroeconomic conditions change significantly, lending standards, limits, pricing or collateral requirements should be revised. Thus, credit policy should function as a flexible management mechanism that is periodically updated rather than as a static internal document.

Practical Recommendations

To improve the effectiveness of credit policy, commercial banks should link lending targets with capital, liquidity and risk-appetite indicators; regularly assess sectoral and borrower concentration; strengthen post-disbursement monitoring; and apply differentiated lending conditions depending on the borrower's risk profile. Credit pricing should reflect the cost of funding and the level of credit risk.

In addition, the gradual introduction of digital scoring and analytical tools can improve the objectivity of borrower assessment and portfolio monitoring. At the same time, automated decisions should be supported by reliable data and professional review. Periodic revision of credit policy is necessary to reflect changes

in the macroeconomic environment, regulatory requirements and the bank's financial condition.

Conclusion

An effective credit policy is an important condition for the financial stability and competitiveness of a commercial bank. It should ensure a balance between profitability and credit risk, while taking into account both external economic conditions and the bank's internal capabilities. For commercial banks in Uzbekistan, further improvement of credit-policy frameworks, borrower assessment, portfolio diversification and digital risk-analysis tools can contribute to sustainable lending growth and better asset quality.

References

1. Lavrushin, O.I. Banking: Textbook. — Moscow: KNORUS, 2016. — 800 p.

2. Seitkali, N.Zh. Credit policy of a commercial bank and factors of its formation // Finance and Credit. — 2018. — No. 4. — pp. 22–30.

3. Central Bank of Uzbekistan. Annual Report 2023. — Tashkent, 2024. — Available at: www.cbu.uz.

4. Mishkin, F.S. The Economics of Money, Banking and Financial Markets. — 12th ed. — Pearson Education, 2019. — 752 p.

5. Rose, P.S., Hudgins, S.C. Bank Management and Financial Services. — 9th ed. — McGraw-Hill Education, 2013. — 688 p.

HUDUDIY IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLINI OSHIRISH YO‘LLARI

Ergashev Xusniddin Chori o‘g‘li
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada hududiy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o‘rni, iqtisodiy samaradorlikni oshirishning asosiy yo‘nalishlari hamda hududlarning mavjud iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish masalalari tahlil qilinadi. Kichik biznes subyektlarining yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish, raqobat muhitini shakllantirish, mahalliy resurslardan foydalanish va hududiy iqtisodiy faollikni kuchaytirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda moliyaviy resurslardan foydalanish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash, mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish va tadbirkorlik infratuzilmasini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *hududiy iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, tadbirkorlik faoliyati, iqtisodiy samaradorlik, bandlik, investitsiya, innovatsiya, raqamli iqtisodiyot.*

Аннотация. *В статье анализируется роль малого бизнеса и частного предпринимательства в обеспечении устойчивого развития региональной экономики, а также рассматриваются основные направления повышения эффективности предпринимательской деятельности. Особое внимание уделяется созданию новых рабочих мест, увеличению доходов населения, развитию конкурентной среды, эффективному использованию местных ресурсов и усилению экономической активности регионов. Разработаны научно-практические предложения по совершенствованию финансовой поддержки, цифровизации, внедрению инноваций, развитию местного производства и предпринимательской инфраструктуры.*

Ключевые слова: *региональная экономика, устойчивое развитие, малый бизнес, частное предпринимательство, экономическая эффективность, занятость, инвестиции, инновации, цифровая экономика.*

Abstract. *The article examines the role of small business and private entrepreneurship in ensuring sustainable regional economic development. It analyzes the main factors influencing entrepreneurial efficiency, including*

employment creation, income growth, competitiveness, investment activity, innovation, digitalization and effective utilization of local resources. The paper also develops practical recommendations aimed at improving the entrepreneurial environment, expanding financial opportunities, strengthening local production and increasing the contribution of small businesses to regional economic development.

Keywords: *regional economy, sustainable development, small business, private entrepreneurship, economic efficiency, employment, investment, innovation, digital economy, regional development.*

Kirish

Bugungi kunda hududlarning iqtisodiy barqarorligini ta’minlash, mavjud tabiiy, mehnat va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish hamda aholi farovonligini oshirish davlat iqtisodiy siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari alohida iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Chunki kichik biznes yuqori darajadagi moslashuvchanligi, bozor talablariga tez javob berishi, nisbatan kam kapital talab qilishi va yangi ish o‘rinlarini yaratish imkoniyati bilan hududiy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Hududiy iqtisodiyotning rivojlanish darajasi ko‘p jihatdan tadbirkorlik subyektlarining faolligi bilan belgilanadi. Ayniqsa, iqtisodiy imkoniyatlari nisbatan cheklangan hududlarda kichik biznesni rivojlantirish mahalliy iqtisodiy faollikni oshirish, aholi bandligini ta’minlash va hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishning muhim vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida ham kichik biznesning ulushi yuqori bo‘lib qolmoqda. Milliy statistika ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil yakunlari bo‘yicha kichik biznes subyektlarining YaIMdagi ulushi 52,2 foizni tashkil etgan. Shu davrda kichik biznes subyektlari tomonidan 383,9 trln so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan va ularning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 34,9 foizga yetgan. Qurilish ishlarida esa kichik biznesning ulushi 73,6 foizni tashkil qilgan.

Mazkur ko‘rsatkichlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning milliy iqtisodiyot bilan bir qatorda hududiy rivojlanish jarayonidagi strategik ahamiyatini ham ko‘rsatadi.

Tadqiqotda hududiy iqtisodiyot va tadbirkorlik faoliyatining o‘zaro bog‘liqligini aniqlash maqsadida tizimli, qiyosiy, statistik va iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi. Kichik biznesning hududiy iqtisodiyotdagi o‘rni rasmiy statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilindi. Shuningdek, tadbirkorlik samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy omillari tizimli yondashuv asosida o‘rganildi.

Kichik biznesning hududiy iqtisodiyotdagi asosiy vazifalaridan biri mahalliy iqtisodiy resurslarni ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilishdan iborat. Har bir hudud o‘zining tabiiy, mehnat, geografik va infratuzilmaviy xususiyatlariga ega. Shu sababli hududiy tadbirkorlik siyosati barcha hududlar uchun yagona model asosida emas, balki mahalliy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Masalan, qishloq xo‘jaligi salohiyati yuqori bo‘lgan hududlarda agroklasterlar, qayta ishlash korxonalari, logistika va saqlash xizmatlarini rivojlantirish kichik biznes uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Turizm salohiyati mavjud hududlarda esa mehmonxona, umumiy ovqatlanish, hunarmandchilik, transport va xizmat ko‘rsatish sohalaridagi tadbirkorlikni kengaytirish mumkin.

Sanoat salohiyati yuqori hududlarda kichik ishlab chiqarish korxonalarini yirik korxonalar bilan kooperatsiya asosida rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bunday hamkorlik mahalliylashtirish darajasini oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish va yangi mahsulotlarni bozorga chiqarish imkoniyatlarini kengaytiradi.

2025-yilda O‘zbekistonda 82 386 ta yangi kichik korxona va mikrofirma tashkil etilgani hududlarda tadbirkorlik faolligining yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Kichik biznes faoliyatining samaradorligi faqat korxonalar sonining ko‘payishi bilan emas, balki ularning ishlab chiqarish unumdorligi, rentabelligi, innovatsion salohiyati va bozor raqobatbardoshligi bilan ham belgilanadi.

Birinchi navbatda, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Tadbirkorlik subyektlarining rivojlanishida kredit, investitsiya va aylanma mablag‘lar muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar uchun moliyalashtirish mexanizmlarining soddaligi va qulayligi ularning faoliyatini barqarorlashtirishga xizmat qiladi.

Ikkinchi yo‘nalish — raqamlashtirish. Elektron tijorat, raqamli to‘lov tizimlari, onlayn marketing, elektron hisob-kitob va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlaridan foydalanish kichik biznes subyektlarining xarajatlarini kamaytirish va bozor qamrovini kengaytirish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar ayniqsa geografik jihatdan chekka hududlarda faoliyat yurituvchi tadbirkorlarning yangi bozorlar bilan integratsiyalashuviga xizmat qiladi.

Uchinchi yo‘nalish — innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish. Zamonaviy iqtisodiyotda faqat mavjud mahsulotlarni ishlab chiqarish emas, balki yangi mahsulot va xizmatlarni yaratish, ishlab chiqarish texnologiyalarini modernizatsiya qilish va yangi biznes modellarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

To‘rtinchi yo‘nalish — mahalliy ishlab chiqarish va kooperatsiyani kengaytirish. Hududdagi kichik korxonalarni yirik ishlab chiqarish subyektlari bilan

bog‘lash orqali mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash, qo‘shilgan qiymat zanjirini shakllantirish va import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish mumkin.

Beshinchi yo‘nalish — tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirish. Biznes inkubatorlari, konsalting markazlari, logistika markazlari, sanoat zonalari, texnoparklar va xizmat ko‘rsatish markazlarining faoliyatini takomillashtirish tadbirkorlarning bozorga kirish xarajatlarini kamaytiradi.

Rasmiy statistik ma’lumotlar kichik biznesning hududlar iqtisodiyotidagi ulushi bir xil emasligini ko‘rsatadi. 2025-yil yakunlariga ko‘ra, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi Andijon viloyatida 70,1 foiz, Namangan viloyatida 73,6 foiz, Surxondaryo viloyatida 76,4 foiz, Farg‘ona viloyatida 73,0 foizni tashkil etgan. Shu bilan birga, Navoiy viloyatida mazkur ko‘rsatkich 21,1 foizni tashkil qilgan.

Bu tafovut hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvi, yirik korxonalar ulushi, ishlab chiqarish tarkibi va mavjud resurslardan foydalanish xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shuning uchun kichik biznesni rivojlantirish siyosatida hududlarning iqtisodiy tuzilmasini hisobga olish muhimdir.

2025-yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning aholi daromadlaridagi hissasi ham sezilarli bo‘lib, mamlakat bo‘yicha aholining jami daromadlarida kichik biznesdan olinadigan daromadlarning ulushi 58,0 foizni tashkil etgan.

Mazkur ko‘rsatkich kichik biznesning nafaqat ishlab chiqarish va xizmatlar sohasidagi, balki aholining iqtisodiy farovonligini ta’minlashdagi ahamiyatini ham ifodalaydi.

Hududiy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish nuqtayi nazaridan kichik biznes samaradorligini oshirish uchun quyidagi yo‘nalishlarni taklif etish mumkin:

Hududiy tadbirkorlik salohiyatini diagnostika qilish. Har bir hududning resurs, mehnat, ishlab chiqarish va bozor imkoniyatlari asosida istiqbolli tadbirkorlik yo‘nalishlarini aniqlash.

Mahalliy ishlab chiqarish zanjirlarini shakllantirish. Kichik biznes subyektlarini yirik korxonalar, fermer xo‘jaliklari va xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar bilan kooperatsiya qilish.

Raqamli tadbirkorlikni rivojlantirish. Elektron savdo, raqamli marketing, onlayn xizmatlar va zamonaviy boshqaruv texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish.

Tadbirkorlarning bilim va kompetensiyalarini oshirish. Biznes-rejalashtirish, moliyaviy boshqaruv, marketing, eksport, elektron tijorat va innovatsion boshqaruv bo‘yicha amaliy o‘quv dasturlarini kengaytirish.

Eksport salohiyatini kuchaytirish. Mahalliy kichik korxonalarni xalqaro bozor talablariga moslashtirish, mahsulot sifati va qadoqlash standartlarini takomillashtirish.

Ayollar va yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash. Hududlarda yangi biznes loyihalarini shakllantirish uchun ta’lim, konsultatsiya, moliyaviy va infratuzilmaviy imkoniyatlarni kengaytirish.

Innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish. Ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash va oliy ta’lim muassasalari bilan biznes hamkorligini kuchaytirish.

Xulosa

Hududiy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik muhim iqtisodiy omil hisoblanadi. Uning asosiy afzalligi hududiy resurslarni iqtisodiy jarayonga tezkor jalb qilish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholining daromadlarini oshirish va mahalliy bozorni tovar hamda xizmatlar bilan ta’minlash imkoniyatining yuqoriligidir.

Tahlillar kichik biznesning O‘zbekiston iqtisodiyotidagi salmog‘i sezilarli ekanligini ko‘rsatmoqda. 2025-yil yakunida uning YaIMdagi ulushi 52,2 foizni tashkil etgani mazkur sektorning iqtisodiy rivojlanishdagi muhim o‘rnini tasdiqlaydi.

Kelgusida hududiy tadbirkorlikni rivojlantirishda faqat tadbirkorlik subyektlari sonini ko‘paytirish emas, balki ularning iqtisodiy samaradorligi, innovatsion faolligi, raqamli imkoniyatlari, eksport salohiyati va qo‘shilgan qiymat yaratish darajasini oshirish ustuvor vazifa bo‘lishi lozim.

Shu nuqtayi nazardan, hududiy rivojlanish siyosatini kichik biznesning mahalliy resurslar, ishlab chiqarish kooperatsiyasi, raqamli texnologiyalar va innovatsion faoliyat bilan uzviy bog‘lash hududlar iqtisodiy barqarorligini ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati bo‘yicha rasmiy statistik ma’lumotlar.
2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Key indicators of small business entities in the Republic of Uzbekistan. – 2026.
3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Share of small business and private entrepreneurship in GDP. – SIAT statistik ma’lumotlar bazasi.
4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Share of income from small businesses in total income of the population. – SIAT statistik ma’lumotlar bazasi.

5. Schumpeter J.A. The Theory of Economic Development. – Cambridge: Harvard University Press.
6. Drucker P.F. Innovation and Entrepreneurship. – New York: Harper & Row.
7. OECD. SME and Entrepreneurship Policy. – Paris: OECD Publishing.
8. World Bank. Small and Medium Enterprises Finance: Improving Access to Finance for Growth and Development.

YASHIL INVESTITSIYALARNING TARMOQ-FUNKTSIONAL GURUHLANISHI: BARQARORLIK CHEKLOVLARIGA ASOSLANGAN YONDASHUV

Jo‘rayeva Malika Zulfiqor qizi
O‘zbekiston Milliy Universiteti
mjurayeva00@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada yashil investitsiyalarni joylashgan tarmog'i bo'yicha emas, balki tarmoq barqarorligini cheklovchi asosiy omilga ta'siri bo'yicha guruhlash taklif etilgan. Tarmoqlarning (elektr energetikasi, qayta ishlash sanoati, qishloq xo'jaligi, suv xo'jaligi, chiqindilarni boshqarish, transport, qurilish va kommunal xo'jalik) barqarorlik bilan bog‘liq muammosi, investitsiyaning transformatsion funktsiyasi, natijaviy mezon va tarmoqlararo samaralar quyidagi maqolada aniqlangan. 2010–2025-yillardagi rasmiy statistika ma‘lumotlari yashil investitsiyalarni kapital hajmi bo'yicha reytinglashni ilmiy jihatdan cheklanganligini ko'rsatadi. Tadqiqot yashil investitsiyalar uchun yagona universal mezon mavjud emasligini va samaradorlikni tarmoqning resurs-texnologik xususiyatiga mos ko'rsatkichlar bilan baholash zarurligini asoslaydi.*

Kalit so'zlar: *yashil investitsiyalar, tarmoq-funktsional guruhlash, barqarorlik cheklovi, natijaviy mezon, tarmoqlararo samara, yashil taksonomiya, MRV.*

Аннотация. *В статье предлагается группировать «зеленые» инвестиции не по сектору, в котором они расположены, а по их влиянию на основной фактор, ограничивающий устойчивость сектора. В статье ниже определены проблема устойчивости секторов (электроэнергетика, перерабатывающая промышленность, сельское хозяйство, водохозяйство, управление отходами, транспорт, строительство и коммунальные услуги), функция трансформации инвестиций, вытекающие из этого критерии и межсекторальные эффекты. Официальные статистические данные за 2010–2025 годы показывают, что ранжирование «зеленых» инвестиций по объему капитала научно ограничено. Исследование обосновывает отсутствие единого универсального критерия для «зеленых» инвестиций и необходимость оценки эффективности с помощью показателей, соответствующих ресурсно-технологическим характеристикам сектора.*

Ключевые слова: *зелёные инвестиции, отраслево-функциональная группировка, ограничение устойчивости, результативный критерий, межотраслевой эффект, зелёная таксономия, MRV.*

Abstract. *The article proposes grouping green investments not by sector, but based on their impact on the key factor limiting a sector's sustainability. It identifies the sustainability-related challenges facing various sectors (electric power, manufacturing, agriculture, water management, waste management, transport, construction, and utilities), as well as the transformative function of investment, outcome criteria, and inter-sectoral effects. Official statistical data from 2010–2025 demonstrate the scientific limitations of ranking green investments solely by capital volume. The study substantiates the absence of a single universal criterion for green investments and argues for the necessity of evaluating effectiveness using indicators tailored to the specific resource and technological characteristics of each sector.*

Keywords: *green investment, sector-functional grouping, sustainability constraint, result criterion, cross-sector effect, green taxonomy, MRV.*

KIRISH

Yashil investitsiyalarning barqaror rivojlanishga ta'sirini baholashda asosiy savol kapital qo'yilmalar miqdori emas, balki investitsiya resurslari iqtisodiy tizimda qanday tarkibiy, texnologik, resurs va ekologik o'zgarishlar yarata olishidir. Shu ma‘noda yashil investitsiyalash iqtisodiyotga qo‘shimcha kapital kiritish shaklidan kengroq bo‘lib, mavjud ishlab chiqarish omillarini past resurs sig‘imi, past uglerodli texnologiyalar va ekologik mas‘uliyatli takror ishlab chiqarish tamoyillari asosida qayta kombinatsiyalash mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi [1].

Joriy yondashuvlarning cheklovi shundaki, yashil investitsiyalar ko'pincha ular joylashgan tarmoq yoki umumiy hajmi bo'yicha tasniflanadi. Bunday tasnif «investitsiya ko'payishi — barqarorlik ortishi» ko'rinishidagi to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikni nazarda tutadi, vaholanki investitsiyaning barqarorlik samarasi uning resurs unumdorligi, energiya intensivligi, uglerod sig'imi, suv samaradorligi va chiqindilarni qayta aylanmaga kiritish darajasiga ta'siri orqali aniqlanishi lozim. Tadqiqotning maqsadi yashil investitsiyalarni tarmoq barqarorligini cheklovchi omil bo'yicha guruhlash va har bir tarmoq uchun natijaviy mezonni asoslashdan iborat.

ASOSIY QISM

Tadqiqotda yashil investitsiyalarning tarmoq xususiyatlari quyidagi kontseptual zanjir orqali ifodalandi: yashil investitsiya resurslari → tarmoqda texnologik modernizatsiya → resurs sig'imining pasayishi → ekologik tashqi ta'sirlarning qisqarishi → iqtisodiy-ekologik samaradorlikning oshishi → tarmoq va hudud barqarorligining kuchayishi. Bu zanjirda investitsiyaning yakuniy maqsadi kapital hajmini kengaytirish emas, balki tarmoqning ma'lum iqtisodiy natijani kamroq resurs va ekologik xarajat bilan yaratish qobiliyatini kuchaytirishdir; shu

jihat yashil investitsiyalashni an'anaviy investitsiya mexanizmidan farqlaydi. Yetti tarmoq bo'yicha guruhlash natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Barqarorlik kontseptsiyasi doirasida yashil investitsiyalarning tarmoq-funktsional guruhlanishi

№	Tarmoq	Asosiy barqarorlik muammosi	Yashil investitsiyaning transformatsion funktsiyasi	Natijaviy mezon	Tarmoqlararo samara
1	Elektr energetikasi	Yuqori uglerod va energiya intensivligi	Dekarbonizatsiya va energiya tizimini texnologik yangilash	1 kVt·soatga to'g'ri keluvchi emissiya va tarmoq yo'qotishlarining pasayishi	Sanoat, transport va xizmatlar uglerod sig'imini kamaytirish
2	Qayta ishlash sanoati	Resurs va material sig'imining yuqoriligi	Toza va resurs tejovchi ishlab chiqarishni joriy etish	Qo'shilgan qiymat birligiga energiya, suv va material sarfining kamayishi	Milliy ishlab chiqarishning yashil raqobatbardoshligi
3	Qishloq xo'jaligi	Suv tanqisligi, yer degradatsiyasi, iqlim xatarlari	Iqlimga mos va resurs tejamkor agrotexnologiyalar	Mahsulot birligiga suv sarfi va yer resurslari samaradorligi	Oziq-ovqat, suv va ekologik xavfsizlik
4	Suv xo'jaligi	Yuqori suv yo'qotishlari va infratuzilmaviy eskirish	Suv tejamkor infratuzilmaga o'tish	Yetkazib berilgan suv birligiga yo'qotishlar	Aholi, sanoat va agrar tarmoqning resurs barqarorligi
5	Chiqindilarni boshqarish	Birlamchi resurslar iste'moli va poligon yuklamasi	Tsirkulyar resurs aylanmasini shakllantirish	Qayta ishlangan va qayta foydalanilgan chiqindilar ulushi	Ikkilamchi resurslar bozorining shakllanishi
6	Transport	Uglevodorod yoqilg'isiga yuqori bog'liqlik	Past uglerodli mobillikni rivojlantirish	Yo'lovchi/tonna-kmga energiya va emissiya sarfi	Shahar va hududiy ekologik sifat

№	Tarmoq	Asosiy barqarorlik muammosi	Yashil investitsiyaning transformatsion funktsiyasi	Natijaviy mezon	Tarmoqlararo samara
7	Qurilish va kommunal xo'jalik	Binolarning energiya va suv sig'imi	Yashil qurilish standartlari va resurs samaradorligi	1 m² maydonga energiya va suv sarfi	Shahar infratuzilmasining uzoq muddatli barqarorligi

Manba: [1; 4; 5; 6] manbalar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Guruhlashning ilmiy ahamiyati yashil investitsiyalar joylashgan tarmoq bo'yicha emas, balki tarmoq barqarorligini cheklovchi asosiy omilga ta'sir yo'nalishi bo'yicha farqlanganligida namoyon bo'ladi. Energetikada asosiy cheklov uglerod intensivligi va tarmoq yo'qotishlari, qishloq xo'jaligida suv resurslarining cheklanganligi, sanoatda material-energiya sig'imi, kommunal sohada esa infratuzilmaviy yo'qotishlar hisoblanadi. Demak, yashil investitsiyalarning yagona universal mezoni mavjud emas: samaradorlikni tarmoqning resurs-texnologik tabiatiga mos ko'rsatkichlar bilan baholash talab etiladi. Shu bilan birga, ushbu natijaviy mezonlar xalqaro standartlar — issiqxona gazlari bo'yicha ISO 14064-1 [4] va energiya menejmenti bo'yicha ISO 50001 [5] — asosida tasdiqlanadigan o'lchovlarga tayanishi mumkin.

Rasmiy statistika bu yondashuvning zarurligini tasdiqlaydi. 2010–2025-yillarda asosiy kapitalga investitsiyalar qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 30,9 marta, qayta ishlash sanoatida 68,8 marta, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalash sohasida 87,4 marta, suv ta'minoti, kanalizatsiya va chiqindilar bilan ishlash faoliyatida esa 119,6 marta o'sgan [2]. Bu ko'rsatkichlar joriy narxlarda keltirilgani sababli ularni real investitsion samara yoki «yashillik darajasi» sifatida talqin qilish noto'g'ri. Ammo ular ikki qutbli tarmoq tuzilmasi shakllanayotganini ko'rsatadi: investitsiya hajmi yuqori bo'lgan qayta ishlash sanoati va energetika hamda mutlaq miqdori kichik, biroq ekologik tashqi samarasi yuqori bo'lgan suv va chiqindilar sohalari. Shu sababli investitsiyalarni faqat mutlaq kapital hajmi bo'yicha reytinglash ilmiy jihatdan cheklangan, ularni «kapital kontsentratsiyasi» emas, «barqarorlikka chegaraviy hissa» tamoyili asosida taqqoslash maqsadga muvofiq.

Tarmoq-funktsional guruhlash tarmoqlararo komplementarlikni ham ko'rsatadi. Sanoat korxonalarini elektrlashtirish bo'yicha investitsiyalar energetikada past uglerodli generatsiya kengaymasa, kutilgan dekarbonizatsiyani to'liq bermaydi; suv tejovchi agrotexnologiyalar samarasi magistral va hududiy suv infratuzilmasida yuqori yo'qotishlar saqlansa, cheklanadi; chiqindilarni qayta ishlash quvvatlari esa ikkilamchi xomashyodan foydalanuvchi sanoat klasterlari shakllanmasdan yetarli qaytim bermaydi. Bu yashil investitsiya portfelini shakllantirishda faqat xususiy

moliyaviy qaytim emas, balki tarmoqlararo ijobiy tashqi samaralarning diskontlangan qiymati ham hisobga olinishi kerakligini bildiradi.

Yana bir muammo yashil kapitalni ortiqcha baholash xavfidir. Tarmoqqa yo'naltirilgan investitsiyaning barchasi yashil emas: energetikadagi investitsiyaning barchasi qayta tiklanuvchi energiya yoki energiya samaradorligiga yo'naltirilgan deb bo'lmaydi. Shu sababli tarmoq investitsiyalarini «yashil transformatsiya salohiyatiga ega investitsion baza» sifatida qabul qilish va keyingi bosqichda ekologik mezonlar bo'yicha filtrlash — tarmoq skrining, taksonomik filtr, natijaviy verifikatsiya va barqarorlik bahosi — ilmiy asoslangan yondashuvdir [3; 6].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, yashil investitsiyalarning tarmoq xususiyatlarini kapitalning tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi emas, balki turli iqtisodiy faoliyatlarda resurs-texnologik cheklovlarni yumshatish qobiliyati sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq. Bunda energetika — dekarbonizatsiya yadrosi, sanoat — resurs-texnologik transformatsiya makoni, qishloq xo'jaligi — tabiiy kapitalni saqlash tizimi, suv xo'jaligi — resurs rezilientligi infratuzilmasi, chiqindilar sohasi — tsirkulyar iqtisodiyot mexanizmi, transport esa past uglerodli hududiy mobillik platformasi sifatida namoyon bo'ladi. O'tkazilgan tadqiqot asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1) yashil investitsiyalarni baholashda tarmoqqa mos natijaviy mezonlar (1-jadval) tizimini, ya'ni energetikada emissiya va yo'qotishlar, qishloq xo'jaligida suv sarfi, suv xo'jaligida yo'qotishlar, chiqindilarda qayta ishlash ulushi kabi ko'rsatkichlarni joriy etish;

2) tarmoq statistikasida yashil investitsiyalarni ajratib ko'rsatish uchun yagona milliy taksonomiya va MRV tizimini ishlab chiqish;

3) yashil investitsiya dasturlarini tarmoqlararo komplementarlikni hisobga olgan holda, ya'ni bir tarmoq investitsiyasi boshqa tarmoq natijasiga bog'liqligini inobatga olib, birgalikda rejalashtirish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

[1] Jo'rayeva M.Z. Yashil investitsiyalash orqali hududiy sanoatni barqaror rivojlantirish kontseptsiyasini takomillashtirish yo'nalishlari: PhD dissertatsiyasi (08.00.12). — Toshkent: O'zMU, 2026. — 2.2-§.

[2] O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Asosiy kapitalga investitsiyalar bo'yicha rasmiy ma'lumotlar. URL: https://stat.uz/uz/

[3] Sustainable Finance Taxonomies. United Nations Environment Programme Finance Initiative (UNEP FI). URL: https://www.unepfi.org/policy-and-regulation/sustainable-finance-taxonomies/

[4] ISO 14064-1:2018. Greenhouse gases — Part 1: Specification with guidance at the organization level for quantification and reporting of greenhouse gas emissions and removals. — Geneva: ISO, 2018.

[5] ISO 50001. Energy management systems. — Geneva: International Organization for Standardization (ISO).

[6] Roadmap for Sustainable Investment Policy Reforms in Uzbekistan. — Paris: OECD Publishing, 2025. — 381 p.

INCOME INEQUALITY AND SOCIAL STABILITY

Juramirzayev Tolibjon Xoliqjon o‘g‘li
Tashkent state university of economics
jta030407@gmail.com

Abstract. *This paper looks at how income inequality is related with social stability, and what this relationship mean for economic security of a country. It goes through the main ways how economists are measuring inequality, most important is the Gini coefficient, and also explains what economic security covers as a concept. Based on the works of Kuznets, Stiglitz, and Wilkinson and Pickett, the paper argue that some level of inequality is normal part of market economy, but when it become too high, it starts to erode trust to institutions, raise social tension and put country's economic security under the risk. Real statistics from World Bank and from Uzbekistan's statistics agency are used to check does the theory match with reality. The paper end with few practical suggestion, mainly about taxation, social protection and education, for keeping the inequality in manageable range.*

Key words: *income inequality, social stability, economic security, Gini coefficient, income distribution, social protection, unequal development.*

INTRODUCTION

Why this topic is important. Income inequality is one of the problem that keep coming up in economic discussions nowadays. In market economy it is normal that some people earn more than others, but what is happening in many countries right now go beyond this — the gap between top and bottom keeps widening, and it is not just about fairness anymore. It start affecting how stable the economy of a country actually is. When people feel like the system is not working for them, the trust to institutions drops, and this has effect for everything from tax collection to investment.

What this work is trying to do is to examine how income inequality and social stability are connected, and then to understand what this connection mean for economic security specifically. To reach this, it was needed: to clarify what inequality and economic security actually means as concepts; to go through how inequality is being measured; to look what effects inequality tends to produce in society; and to think what can be realistically done about it.

The object of this research is the situation of income distribution and social stability in different countries; the subject is socio-economic relationships that are formed under the condition of unequal income. For the methods, statistical and comparative analysis was used, together with a systematic approach for connecting the theory back with real data.

MAIN PART

Income inequality, in simple words, is just uneven spread of income across the population. The tool which economists use most often to measure it is Gini coefficient, it runs from 0 to 1 — 0 means everyone earn exactly same, 1 means one person have all the income and everybody else have nothing. In practice, most of the countries falls somewhere between 0.3 and 0.5. There is other measures too, like decile ratio, which is comparison of how much the richest and poorest tenth of population earns, but Gini coefficient still remain the most standard one.

Economic security is little bit harder to define. Broadly, it refer to a state where economy of a country is protected from internal and external threats, and can continue developing in stable way. It is usually divided into few parts — financial stability, production capacity, and social security being main ones. The social security part is the one which connects most directly with inequality: it is about people's standard of living, employment, and how much protected they are feeling. The more unequal things become, the weaker this feeling of protection gets, and it affects back on the whole economy.

Not every economist agree how dangerous inequality really is. Simon Kuznets argued that inequality naturally rise in early stage of a country's development and then fall again once economy becomes more mature — known as Kuznets curve. Joseph Stiglitz takes almost opposite position: he claims too much inequality actually slows the growth down, because it suppress the demand and block poorer children from getting good education. Richard Wilkinson and Kate Pickett looked on this problem from different angle — their research found that more unequal societies tend to have higher crime rate and worse social indicators in general. Taking all this together, it seems that inequality by itself is not necessarily a problem, but there is a point after which it becomes one.

Looking on actual countries makes this easier to understand. Sweden and Denmark taxes their citizens quite heavily, but big part of this money comes back in form of free education, healthcare and social support, and this is what keeps their inequality levels comparably low. Several countries in Latin America and some parts of Africa are on opposite side, with much higher Gini numbers, and they also tend to experience more social unrest. This depends, in large part, on how much a government is willing to redistribute the income.

As for how inequality affect the stability, there is few mechanisms worth to mention. People compares their situation with others, and when this comparison feels unfair, resentment is building up. Children from poorer families also tends to have less access to good schools and healthcare, and this locks the disadvantage across generations instead of letting it disappear. When inequality is visible and stays for long time, trust to government usually suffers, which makes tax collection harder and public administration less effective. Put all this together, we gets slower growth, more careful investors, and a country which is less economically secure.

What seems to be working, based on how other countries dealt with this problem, comes down to few policies that overlaps each other. A tax system where people who earns more actually pays higher share is helping. So does social assistance that is targeted specifically on low-income households. Education also matters — it is the main channel through which people can improve their situation over the time. And it help to direct investment toward less developed parts of the country, instead of letting all the growth concentrate only in capital or few big cities.

INDEPENDENT ANALYSIS (based on statistical data)

To check does any of this holds true, real numbers were taken mainly from World Bank and from Uzbekistan's State Statistics Committee (stat.uz).

Country	Gini coefficient	Survey year
Slovakia	23.8	2023
Sweden	29.3	2023
Uzbekistan	27.9	2025
Kazakhstan	29.2	2021
Brazil	50.3	2024
South Africa	54.1	2022

Table 1. Latest available World Bank data for each country (as of 2025)

Uzbekistan's number (27.9) is sitting in almost same range like Sweden (29.3) and Kazakhstan (29.2), which can be connected with the social support programs that government has been running since many years. Brazil and South Africa is coming almost double that level, and both of this countries are places where social unrest and crime rates is also noticeably higher — which match with what Wilkinson and Pickett was arguing in their book. So at least in this small sample, the pattern from literature seems to be holding true.

Year	2010	2015	2018	2020	2022	2025
Gini	0.295	0.274	0.262	0.276	0.283	0.279

Table 2. Gini coefficient dynamics in Uzbekistan, 2010–2025 (source: stat.uz)

From 2010 until 2018 the coefficient is dropping quite steady, from 0.295 down to 0.262, which mean inequality was actually shrinking during this period. But after 2018, when reforms was started picking up pace, it begin climbing again, reaching to 0.283 by 2022. This can be connected with a World Bank report finding: between 2022 and 2023, income for poorest 10% of Uzbekistan's population grew only about 6%, while richest 10% was seeing growth of more than 30%. So growth is happening, but it is not landing even — which is more or less same pattern that Kuznets was describe in its early stage. During roughly same window, poverty dropped from 36% in 2015 to 17% in 2022, so peoples are better off in absolute terms even if the gap between them widened a little. This suggest that growth alone will not fix the inequality, and that is argument for having a deliberate social policy alongside of it.

CONCLUSION

Income inequality is not inherently a bad thing, and trying to eliminate it completely is not realistic for a market economy. But the evidence here — both from literature and from the statistics — suggest that there is a threshold after which it stop being a neutral feature of economy and start actively undermining the stability. Trust declines, social tension is rising, and country's economic security ends up more weaker because of it. Uzbekistan's own recent trend is a good example for this: inequality moved slightly upward after 2018 even while poverty was falling, which shows this two things does not automatically move together. Based on everything that was covered above, three areas deserves most attention for the future: making the tax system genuinely progressive, strengthening social protection in a way which is actually targeted to the people who needs it, and continuing to widen the access for education, since this is the mechanism through which people can escape from the lower end of income distribution.

REFERENCES

1. Stiglitz J. The Price of Inequality. — W.W. Norton & Company, 2012.

2. Wilkinson R., Pickett K. The Spirit Level. — Bloomsbury Press, 2009.

3. Kuznets S. Economic Growth and Income Inequality // American Economic Review, 1955.

4. Piketty T. Capital in the Twenty-First Century. — Harvard University Press, 2014.

5. World Bank Open Data — https://data.worldbank.org

6. State Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan, Gini coefficient database — https://siat.stat.uz

IQTISODIYOT, MENEJMENT VA TURIZMNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Marupboyeva Dilnoza
O‘zbekistonlik Milliy universiteti
dilnozamarufboyeva@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur tezisda zamonaviy iqtisodiyot sharoitida menejment va turizm sohalarining o‘zaro bog‘liqligi hamda ularning mamlakat iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyati tadqiq etilgan. Globallashuv, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, iste’molchilar ehtiyojlarining o‘zgarishi va xalqaro raqobatning kuchayishi turizm sohasini samarali boshqarishning yangi yondashuvlarini shakllantirishni talab etmoqda. Tadqiqotda turizmni rivojlantirishda zamonaviy menejment tamoyillaridan foydalanish, xizmatlar sifatini oshirish, raqamlashtirish, marketing strategiyalarini takomillashtirish hamda inson kapitalidan samarali foydalanish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, turizmning yangi ish o‘rinlari yaratish, hududiy iqtisodiy faollikni oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va mahalliy daromadlarni ko‘paytirishdagi roli yoritilgan. Tadqiqot natijalari turizm korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish va sohani barqaror rivojlantirish uchun zamonaviy menejment vositalaridan samarali foydalanish zarurligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *iqtisodiyot, menejment, turizm, turistik xizmatlar, raqamli texnologiyalar, marketing, boshqaruv, raqobatbardoshlik, inson kapitali, barqaror rivojlanish.*

Аннотация. *В тезисе исследуется взаимосвязь экономики, менеджмента и туризма, а также их значение в современном экономическом развитии. Глобализация, стремительное развитие цифровых технологий, изменение потребительских предпочтений и усиление международной конкуренции требуют внедрения новых подходов к управлению туристической отраслью. В работе анализируются вопросы применения современных принципов менеджмента в сфере туризма, повышения качества услуг, цифровизации, совершенствования маркетинговых стратегий и эффективного использования человеческого капитала. Особое внимание уделяется роли туризма в создании новых рабочих мест, повышении экономической активности регионов, развитии предпринимательства и увеличении доходов местного населения. Результаты исследования показывают необходимость эффективного использования современных*

инструментов менеджмента для повышения конкурентоспособности туристических предприятий и обеспечения устойчивого развития отрасли.

Ключевые слова: *экономика, менеджмент, туризм, туристические услуги, цифровые технологии, маркетинг, управление, конкурентоспособность, человеческий капитал, устойчивое развитие.*

Abstract. *This thesis examines the interrelationship between economics, management, and tourism and their importance for modern economic development. Globalization, rapid digital transformation, changing consumer preferences, and increasing international competition require new approaches to tourism management. The study analyzes the application of modern management principles in tourism, improvement of service quality, digitalization, development of marketing strategies, and effective utilization of human capital. Particular attention is paid to the role of tourism in creating new jobs, increasing regional economic activity, developing entrepreneurship, and generating local income. The results demonstrate the importance of effectively applying modern management tools to improve the competitiveness of tourism enterprises and ensure sustainable development of the tourism sector.*

Keywords: *economics, management, tourism, tourism services, digital technologies, marketing, management, competitiveness, human capital, sustainable development.*

Kirish

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida xizmatlar sektori, xususan, turizm sohasi muhim iqtisodiy yo‘nalishlardan biriga aylanib bormoqda. Turizm nafaqat mamlakatga xorijiy valyuta tushumlarini oshirish, balki yangi ish o‘rinlari yaratish, tadbirkorlikni rivojlantirish, hududlarning iqtisodiy faolligini kuchaytirish va milliy madaniyatni xalqaro miqyosda targ‘ib qilish imkonini beradi.

Turizm sohasining rivojlanishi bevosita iqtisodiy boshqaruv va menejment samaradorligiga bog‘liq. Turistik korxonalar faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish, xizmatlar sifatini nazorat qilish, mijozlar ehtiyojini o‘rganish, marketing strategiyalarini ishlab chiqish va xodimlarni samarali boshqarish korxonaning bozordagi raqobatbardoshligini belgilaydi.

Hozirgi davrda turizm sohasiga raqamli texnologiyalarning kirib kelishi boshqaruv jarayonlarini tubdan o‘zgartirmoqda. Onlayn bronlashtirish tizimlari, elektron to‘lovlar, raqamli marketing, ijtimoiy tarmoqlar va sun’iy intellekt asosidagi xizmatlar turistlar bilan ishlashning yangi imkoniyatlarini yaratmoqda.

O‘zbekiston uchun ham turizm iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni rivojlantirish va xizmatlar sektorining ulushini oshirishda muhim yo‘nalishlardan

biridir. Mamlakatning tarixiy-madaniy merosi, tabiiy resurslari, gastronomik imkoniyatlari va turli turizm yo‘nalishlari xalqaro sayyohlar uchun jozibadorlikni oshirish imkonini beradi.

Shu sababli iqtisodiyot, menejment va turizm o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tadqiq etish, sohani samarali boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish va zamonaviy boshqaruv vositalaridan foydalanish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Tadqiqot materiali va metodlari

Tadqiqotning asosiy maqsadi iqtisodiyot va menejmentning turizm sohasini rivojlantirishdagi rolini aniqlash hamda turistik korxonalar samaradorligini oshirishning zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, iqtisodiy tahlil, kuzatish, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Shuningdek, turizm sohasining iqtisodiy samaradorligi, xizmatlar sifati, boshqaruv jarayonlari va raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari o‘rganildi.

Tadqiqot obyekti sifatida turizm sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy-boshqaruv faoliyati olindi. Tadqiqot predmeti esa turizm sohasini boshqarish, turistik xizmatlar samaradorligini oshirish va raqobatbardoshligini ta’minlash bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlardan iborat.

Turizm sohasining samaradorligini baholashda turistlar soni, turistik xizmatlardan tushadigan daromad, xizmatlar sifati, mijozlar qoniqishi, bandlik darajasi, investitsiyalar hajmi va korxonalarning rentabelligi kabi ko‘rsatkichlardan foydalanish mumkin.

Menejment samaradorligini aniqlashda esa boshqaruv qarorlarining tezkorligi, xodimlar mehnat unumdorligi, mijozlar bilan munosabatlar sifati, marketing samaradorligi va raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi muhim ko‘rsatkichlar sifatida qaraladi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari iqtisodiyot, menejment va turizm o‘rtasida kuchli o‘zaro bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Turizm sohasining rivojlanishi iqtisodiy faollikni oshiradi, iqtisodiy muhitning barqarorligi esa turizmga investitsiyalar kiritish va yangi turistik loyihalarni amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Raqamlashtirish turizm menejmentining eng muhim zamonaviy yo‘nalishlaridan biridir. Bugungi turist sayohatni rejalashtirishdan tortib, mehmonxona tanlash, chipta xarid qilish va xizmatlar uchun to‘lovni amalga oshirishgacha bo‘lgan jarayonlarning katta qismini internet orqali bajarishi mumkin. Shu sababli turistik korxonalar raqamli platformalar va onlayn marketingdan samarali foydalanishi zarur.

Ijtimoiy tarmoqlar ham turistik mahsulotlarni targ‘ib qilishda katta imkoniyat yaratadi. Turistik obyektlarning fotosuratlari, videolari, mijozlar sharhlari va blogerlar orqali beriladigan tavsiyalar potentsial turistlarning qarorlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Bundan tashqari, turizmda sun’iy intellekt, ma’lumotlarni tahlil qilish va avtomatlashtirilgan mijozlarga xizmat ko‘rsatish tizimlaridan foydalanish xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish imkonini beradi. Bunday texnologiyalar turistlarning xohish-istaklarini tahlil qilish, individual takliflar yaratish va korxona resurslaridan samarali foydalanishga yordam beradi.

Muhokama

Turizm sohasining jadal rivojlanishi bilan bir qatorda, bir qator muammolar ham mavjud. Ulardan biri turistik xizmatlar sifatining barcha hududlarda bir xil darajada emasligidir. Turizmning raqobatbardoshligini oshirish uchun mehmonxona, transport, ovqatlanish va ko‘ngilochar xizmatlar sifatini yaxshilash talab etiladi.

Yana bir muhim masala malakali kadrlar bilan bog‘liq. Turizm xodimlari nafaqat kasbiy bilimga, balki xorijiy tillarni bilish, kommunikativ qobiliyat, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish va mijozlar bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

Marketing strategiyalarining yetarlicha rivojlanmaganligi ham turistik korxonalar uchun muammo bo‘lishi mumkin. Zamonaviy turizm bozorida faqat an’anaviy reklama usullaridan foydalanish yetarli emas. Raqamli marketing, ijtimoiy tarmoqlar, qidiruv tizimlari va individual mijozlar bilan ishlash texnologiyalaridan foydalanish zarur.

Turizmni boshqarishda barqaror rivojlanish tamoyillariga ham alohida e’tibor qaratish lozim. Tabiiy va tarixiy-madaniy obyektlardan haddan tashqari foydalanish ekologik muammolarga olib kelishi mumkin. Shu sababli iqtisodiy manfaatlar bilan ekologik va ijtimoiy manfaatlar o‘rtasida muvozanatni ta’minlash muhimdir.

O‘zbekiston sharoitida turizmni rivojlantirishda hududlarning ixtisoslashuviga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq. Tarixiy shaharlar madaniy turizm, tog‘li hududlar ekoturizm va ekstremal turizm, qishloq joylari esa agroturizm va etnoturizm uchun katta imkoniyatlarga ega.

Turistik hududlarda davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish ham muhim natijalar berishi mumkin. Davlat infratuzilmani yaxshilash va qulay huquqiy sharoit yaratish orqali xususiy sektorning investitsion faolligini rag‘batlantirishi mumkin.

Xulosa

Turizmning rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining o‘sishiga, yangi ish o‘rinlari yaratilishiga, hududlarning iqtisodiy faolligini oshirishga va tadbirkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Turizm sohasining raqobatbardoshligini oshirish uchun zamonaviy menejment tamoyillarini keng joriy etish, xizmatlar sifatini yaxshilash, raqamli texnologiyalardan foydalanish va malakali kadrlar tayyorlash zarur.

Ushbu sohani samarali rivojlantirish uchun iqtisodiy imkoniyatlar, zamonaviy menejment yondashuvlari va innovatsion turizm xizmatlarini yagona tizim sifatida rivojlantirish lozim. Ayniqsa, raqamlashtirish, inson kapitalini rivojlantirish va hududlarning turistik salohiyatidan oqilona foydalanish kelgusida turizm sohasining raqobatbardoshligini oshirishning muhim omillari bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Turizm sohasini rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar.
2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Turizm va xizmatlar sohasi bo‘yicha statistik ma’lumotlar.
3. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi. Turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha tahliliy materiallar.
4. World Tourism Organization (UN Tourism). Tourism and sustainable development bo‘yicha hisobotlar.
5. World Bank. *World Development Indicators*.
6. Kotler P., Bowen J., Makens J. *Marketing for Hospitality and Tourism*. Pearson.
7. Robbins S. P., Coulter M. *Management*. Pearson.
8. Drucker P. F. *Management: Tasks, Responsibilities, Practices*. Harper & Row.
9. Porter M. E. *Competitive Advantage*. Free Press.
10. Cooper C. *Essentials of Tourism*. Pearson.

OPEN BANKING UNDER UZBEKISTAN'S FINTECH STRATEGY 2026-2030: A FIVE-STAGE FRAMEWORK FOR SECURE API DATA EXCHANGE

Mengniyozov Anvar
Termez State University
ORCID: 0009-0003-5137-5398
mengniyozov77@gmail.com

Abstract. *The Central Bank of Uzbekistan approved its National FinTech Strategy for 2026-2030 in September 2026 and scheduled the roll-out of open banking and open application programming interfaces (APIs) for 2028-2029. This paper asks what institutional design such a roll-out needs in a market where digital channels have already outpaced regulation. Using Central Bank statistics for 2020-2025, correlation analysis and log-log regression, the study finds that a 1% increase in remote banking users is associated with a 1.06% rise in household deposits (R^2 = 0.984) and a 0.24% improvement in the banking-sector Z-score (R^2 = 0.919), with no significant link to return on assets or equity. Individuals held 81.2 million remote banking accounts in 2025, about 2.1 per resident, so customer data are spread across several banks. A five-stage framework for API data exchange is proposed and aligned with the Strategy's roadmap.*

Keywords: *open banking, open API, FinTech strategy, remote banking, consent management, Uzbekistan.*

On 24 September 2026 the Central Bank of the Republic of Uzbekistan (CBU) published the National Strategy for the Development of Financial Technologies for 2026-2030, whose stated vision is to make the country "the Fintech Gateway of Central Asia" (CBU, 2026a). The Strategy groups its measures into six thrusts. Open banking and open APIs belong to the fifth thrust, "Tech-forward Finance", together with digital identity infrastructure and payment modernisation, and the roadmap places their roll-out in the 2028-2029 "Scale" phase. Ten months earlier, item 5(a) of Presidential Resolution PP-359 of 27 November 2025 had endorsed the CBU proposal to introduce by 1 September 2026 an open banking system that ensures secure and standardised data exchange between banks, payment organisations and fintech market participants (President of the Republic of Uzbekistan, 2025).

Read together, the two documents describe a path in two steps, in which a legal and technical base comes first and market-wide adoption follows. Neither text,

however, sets out the operating rulebook. It remains open who defines the API standard, how a customer gives and withdraws consent, and who compensates the customer when shared data are misused. These questions decide whether open banking widens competition or simply adds a new channel for fraud, and they have to be answered before 2028 rather than during the roll-out.

This paper draws on the author's doctoral research on the digital transformation of bank service delivery in Uzbekistan. It brings two contributions. The first is empirical evidence on how the spread of remote banking has related to the deposit base, stability and profitability of banks in 2020-2025. The second is a staged framework for API-based data exchange that can be placed directly onto the Strategy's timeline.

Open banking is usually understood as a regime in which banks, on the customer's explicit consent, give licensed third-party providers (TPPs) access to account data and payment functions through standardised APIs (BCBS, 2019). Two reference models have shaped practice. The European Union made such access mandatory through the second Payment Services Directive (European Parliament and Council, 2015), whereas in the United States data sharing developed mostly through bilateral market agreements. The United Kingdom chose an intermediate route, in which the Competition and Markets Authority obliged the largest banks to implement one common technical standard (CMA, 2017).

Evidence on the effects of these regimes is not one-sided. Babina et al. (2025) document that open banking policies are followed by more fintech entry and venture capital investment. He, Huang and Zhou (2023) show, on the other hand, that a regime which over-empowers fintech lenders with data can soften competition and leave all borrowers worse off, partly because the decision to share data itself signals credit quality. Zachariadis and Ozcan (2017) argue that the value of open APIs is created by the governance of the platform around them rather than by the technology itself, and Thakor (2020), reviewing the wider fintech literature, treats the question of whether fintech complements or displaces banks as still unresolved. For an emerging market with a small number of dominant banks this shifts attention from the question of whether to open up to the question of how the opening is designed.

Uchinchi yo‘nalish — **diversifikatsiyani bir ko‘rsatkichga bog‘lamaslik**. HHI bilan birga yangi xizmat mahsuloti ulushi, asosiy uchta tashqi bozor ulushi, eksport qiluvchi firmalarning ikki yil ketma-ket bozorda qolish darajasi va mahsulot birligiga daromad kuzatilsa, hajm bilan barqarorlik farqlanadi. Yetakchi toifalarni sun’iy ravishda kichraytirish maqsad emas; boshqa toifalarning raqobatbardosh o‘sishini yaratish va mavjud katta toifalar ichidagi bozor xavfini taqsimlash maqsadga muvofiq. Ushbu indikatorlar uchun zarur mikroma’lumot yig‘ilmaguncha belgilangan sonli nishonlar empirik asoslangan natija sifatida ko‘rsatilmaydi.

Tahlilning chegaralari to‘rtta. Birinchisi, joriy dollardagi eksport qiymatiga narx, kurs va hisob metodikasidagi o‘zgarishlar ta’sir qilishi mumkin. Ikkinchisi, xizmatlar savdosining rasmiy tasnifi tarmoq ichidagi farqlarni yopadi; ayniqsa “boshqa xizmatlar” geterogendir. Uchinchisi, bir necha yillik vaqt qatori tashqi zarbalar yoki institutsional choralar ta’sirini ajratish uchun yetarli emas. To‘rtinchisi, 2026-yil avgustigacha bo‘lgan jamlanma qator keyingi yangilanishlarga ochiq. Keyingi ilmiy ishda eksportchi firma darajasidagi panel,

hamkor mamlakat va yetkazish usuli kesimlari yordamida bozor diversifikatsiyasi hamda unumdorlik o‘rtasidagi bog‘lanish tekshirilishi mumkin.

Xulosa

2022–2025-yillarda O‘zbekiston xizmatlar eksporti 4 456,7 mln dollardan 10 197,0 mln dollarga ko‘paydi. Mutlaq o‘sishning yarmidan ko‘prog‘i safarlar hissasiga to‘g‘ri keldi; transport va telekommunikatsiya, kompyuter hamda axborot xizmatlari ham sezilarli hissa qo‘shdi. 2025-yilda safarlar va transportning birgalikdagi 80,6 foizlik ulushi eksport tarkibi ikki yirik yo‘nalishga yuqori darajada tayanganini ko‘rsatadi. HHI 2022-yildagi 0,382 dan 2025-yildagi 0,351 gacha pasaygan bo‘lsa-da, uning yillar oralig‘idagi harakati bir maromda bo‘lmagan.

2026-yil yanvar–avgustida eksport o‘tgan yilning teng davriga nisbatan 33,8 foiz ko‘p bo‘ldi. Bu qisman davr to‘liq yil o‘rnini bosmaydi; kelajakdagi yil yakuni oldindan hisoblanmagan. Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti nuqtayi nazaridan ustuvor vazifa yalpi valyuta tushumini sanoq sifatida oshirish bilan cheklanmay, turizm, transport va AKT xizmatlarida sifat, yangi manzil bozorlar, takroriy eksport bitimlari va mahalliy qo‘shilgan qiymatni birga kuzatishdir. Maqolaning taklifi shu indikatorlarni rasmiy xizmat toifalari bilan bog‘lagan monitoring tizimini ishlab chiqishdan iborat; uning iqtisodiy samarasini keyingi mikroma’lumotli tadqiqot tekshirishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Xizmatlar eksporti (xizmatlar turi bo‘yicha, yillik) : 1.08.02.0013-kodli statistik qator [Elektron resurs] // SIAT. – Yangilangan: 15.07.2026. – URL: https://siat.stat.uz/data/1501/.

2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Xizmatlar eksporti (xizmatlar turi bo‘yicha, oylik) : 1.08.02.0026-kodli statistik qator [Elektron resurs] // SIAT. – Yangilangan: 26.09.2026. – URL: https://siat.stat.uz/data/1496/.

3. World Trade Organization. Trade in Services for Development initiative [Elektron resurs]. – Geneva : WTO. – URL: https://www.wto.org/english/tratop_e/ts4d_e/ts4d_origin_e.htm.

4. United Nations; Eurostat; International Monetary Fund [et al.]. Manual on Statistics of International Trade in Services 2010. – New York : United Nations, 2012. – URL: https://unstats.un.org/unsd/publication/seriesm/seriesm_86rev1e.pdf.

5. Goswami A. G., Mattoo A., Sáez S. (eds.). Exporting Services: A Developing Country Perspective. – Washington, DC : World Bank, 2012. – URL: https://openknowledge.worldbank.org/server/api/core/bitstreams/6ec39b03-f7bf-5f80-b5f1-e643a52878c0/content.

6. World Trade Organization. World Trade Report 2019: The Future of Services Trade. – Geneva : WTO, 2019. – URL: https://www.wto.org/english/res_e/booksp_e/00_wtr19_e.pdf.

7. Were M., Odongo M. Competitiveness and diversification of services exports in sub-Saharan Africa // The World Economy. – 2023. – Vol. 46, no. 2. – P. 363–381. – DOI: 10.1111/twec.13367.

8. Gnangnon S. K. Effects of Intellectual Property Rights Protection on Services Export Diversification in Developing Countries // KDI Journal of Economic Policy. – 2024. – Vol. 46, no. 1. – P. 53–89. – DOI: 10.23895/kdijep.2024.46.1.53.

9. UN Trade and Development. The Least Developed Countries Report 2025: Are Services the New Path to Structural Transformation? – Geneva : UNCTAD, 2025. – UNCTAD/LDC/2025. – URL: https://unctad.org/system/files/official-document/ldc2025_en.pdf.

10. UN Trade and Development. Global Trade Update (September 2026): Services are Reshaping Global Trade, but Least Developed Countries Lag in Digital Exports [Elektron resurs]. – Geneva : UNCTAD, 2026. – UNCTAD/DITC/INF/2026/8. – URL: https://unctad.org/publication/global-trade-update-september-2026-services-are-reshaping-global-trade.

9. EDUCATION, PEDAGOGY, PSYCHOLOGY AND PHILOLOGY

TA'LIM JARAYONIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH VA ULARNI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR BILAN INTEGRATSIYALASH

Adilova Dildora Isroilovna
Xalq deputatlari Oqdaryo tuman Kengashi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanishni takomillashtirish masalalari, shuningdek ularni an'anaviy va innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish yo'llari ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda raqamli ta'lim muhitining didaktik imkoniyatlari, elektron ta'lim resurslari, masofaviy va aralash (blended) ta'lim modellari, sun'iy intellekt asosidagi vositalar hamda interaktiv metodlar tahlil qilinib, ularning talabalar bilim sifatiga ta'siri asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *axborot texnologiyalari, pedagogik texnologiya, oliy ta'lim, raqamli ta'lim muhiti, aralash ta'lim, interaktiv metodlar, masofaviy ta'lim, sun'iy intellekt.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования использования современных информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в организации учебного процесса в высших учебных заведениях, а также пути их гармонизации с традиционными и инновационными педагогическими технологиями. В исследовании анализируются дидактические возможности цифровой образовательной среды, электронные образовательные ресурсы, модели дистанционного и смешанного (blended) обучения, инструменты на основе искусственного интеллекта и интерактивные методы, обосновывается их влияние на качество знаний студентов.*

Ключевые слова: *информационные технологии, педагогические технологии, высшее образование, цифровая образовательная среда, смешанное обучение, интерактивные методы, дистанционное обучение, искусственный интеллект.*

Abstract. *This article examines the enhancement of the use of modern information and communication technologies (ICT) in organizing the educational process in higher education institutions, as well as ways to harmonize them with traditional and innovative pedagogical technologies. The study analyzes the didactic*

possibilities of the digital educational environment, electronic educational resources, distance and blended learning models, artificial intelligence-based tools, and interactive methods, substantiating their impact on the quality of students' knowledge.

Keywords: *information technologies, pedagogical technologies, higher education, digital educational environment, blended learning, interactive methods, distance learning, artificial intelligence.*

So‘nggi o‘n yil ichida O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimi keskin kengaydi: Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, oliy ta’lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalarning umumiy soni so‘nggi 10 yilda 5,4 barobarga, shu jumladan kunduzgi ta’lim shaklidagi talabalar soni 2,7 barobarga oshgan, oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining umumiy soni esa 3,2 barobarga ortgan. Talabalar sonining bunday tezkor o‘sishi sharoitida ta’lim sifatini saqlab qolish va individuallashtirish faqat AKT va pedagogik texnologiyalarning uyg‘unlashuvi orqali mumkin bo‘ladi.

Axborot texnologiyalarini pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish muammosi dolzarb bo‘lib, chunki texnika vositalarining o‘zi ta’lim sifatini avtomatik tarzda oshirmaydi — ular faqat to‘g‘ri metodik yondashuv bilan qo‘llanilgandagina samara beradi. Shu sababli ushbu tadqiqotning maqsadi — oliy ta’lim dars jarayonida AKTdan foydalanishning didaktik asoslarini ishlab chiqish va ularni amaliy tavsiyalar shaklida taqdim etishdir.

Tadqiqotning asosiy maqsadi — oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini axborot texnologiyalari va pedagogik texnologiyalar integratsiyasi asosida takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

1. AKT va pedagogik texnologiyalarning nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish;
2. Zamonaviy raqamli ta’lim vositalarining didaktik imkoniyatlarini aniqlash;
3. Aralash ta’lim (blended learning) modelini oliy ta’lim amaliyotiga tatbiq etish yo‘llarini ko‘rsatish;
4. AKT asosidagi interaktiv metodlarning talabalar bilim sifatiga ta’sirini asoslash;
5. Ushbu sohadagi muammolar va yechim yo‘llari bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Bugungi kunda oliy ta’lim jarayonida elektron ta’lim boshqaruv tizimlari (LMS) — Moodle, Google Classroom kabi platformalar orqali o‘quv materiallarini tarqatish, uy vazifalarini qabul qilish va baholash tizimi, amaliy va laboratoriya

mashg‘ulotlarida real jarayonlarni modellashtirish uchun multimedia va vizualizatsiya vositalari — taqdimotlar, video-darslar, infografikalar, virtual laboratoriyalar, interaktiv doskalar va simulyatorlar qo‘llashimiz, moslashuvchan (adaptive) test tizimlari, chat-botlar, matn va nutqni tahlil qiluvchi dasturlar uchun sun’iy intellekt asosidagi vositalar va Masofaviy ta’lim platformalari – video-konferensiya tizimlari orqali sinxron va asinxron ta’lim tashkil etish yuqoridagi AKT vositalari faol qo‘llanilmoqda.

Bu vositalarning har biri ma’lum didaktik vazifani bajaradi, biroq ularning samaradorligi faqat pedagogik jarayon bilan uzviy bog‘liqlikda namoyon bo‘ladi. AKTni samarali qo‘llash uchun ularni quyidagi pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiqdir.

a) Muammoli ta’lim texnologiyasi bilan integratsiya. Talabalarga real hayotiy vaziyatlar asosidagi muammoli topshiriqlar elektron platformalar orqali taqdim etiladi, ular guruhlarda onlayn hamkorlikda yechim izlaydilar.

b) Loyihaviy ta’lim texnologiyasi bilan integratsiya. Raqamli vositalar (Google Docs, Trello, Miro kabi hamkorlik platformalari) yordamida talabalar guruh loyihalarini birgalikda ishlab chiqadilar, bu ularda jamoaviy ishlash va raqamli savodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

c) Aralash ta’lim (blended learning) modeli. An’anaviy auditoriya darslari elektron kurslar bilan uyg‘unlashtiriladi: nazariy materialni talaba mustaqil ravishda platformada o‘zlashtiradi ("flipped classroom" — teskari sinf modeli), auditoriya vaqti esa amaliy mashqlar, muhokamalar va muammoli topshiriqlarni yechishga bag‘ishlanadi.

d) Gamifikatsiya (o‘yinlashtirish) elementlari. Ball to‘plash tizimlari, reyting jadvallari va yutuq nishonlari orqali talabalarning o‘quv motivatsiyasini oshirish.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, oliy ta’lim dars jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish — bu shunchaki texnik vositalarni ko‘paytirish emas, balki ularni ilmiy asoslangan pedagogik texnologiyalar bilan tizimli uyg‘unlashtirish jarayonidir. Faqat shu tarzda AKT o‘quv jarayonining sifat va samaradorligini real ma’noda oshiruvchi vosita bo‘la oladi. So‘nggi statistik ma’lumotlar ko‘rsatishicha, oliy ta’lim tizimidagi talabalar sonining tez o‘sishi (so‘nggi 10 yilda 5,4 barobar) ushbu integratsiyani yanada dolzarb qiladi. Kelgusida bu yo‘nalishdagi tadqiqotlarni sun’iy intellekt asosidagi individuallashtirilgan ta’lim tizimlarini chuqurroq o‘rganish, shuningdek ushbu maqolada taklif etilgan so‘rovnoma asosida empirik natijalarni to‘plash tomon davom ettirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O‘zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi Farmoni.
2. Mishra P., Koehler M. J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge // Teachers College Record.
3. Bonk C. J., Graham C. R. The Handbook of Blended Learning: Global Perspectives, Local Designs.
4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Oliy ta’lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalar va bitiruvchilar statistikasi, 2025-yil ma’lumotlari (stat.uz).
5. Xayrullayeva N.K. Ta’limda axborot texnologiyalari va uning hozirgi kundagi dolzarbligi // "Sharq tillari va madaniyati" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari, 2025.
6. Maxmudov A.Sh. Raqamli texnologiyalar yordamida ta’lim tizimini monitoring qilish // Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy nashri.
7. Hakimov M.A. O‘zbekiston oliy ta’limi tizimida zamonaviy mobil texnologiyalarning qo‘llanilishi // Namangan davlat universiteti ilmiy jurnali, 2024.
8. "Ta’lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalari resurslaridan foydalanish istiqbollari" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2023.

XORIJIY IJTIMOIY-EMOTSIONAL TA'LIM DASTURLARI TAJRIBASIDAN BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Aminova Nasiba Davlatboy qizi
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
0009-0009-2324-1652
aminovanasiba396@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada xorijiy ijtimoiy-emotsional ta'lim dasturlari (RULER, PATHS, MindUP, CARE) usul va vositalari qiyosiy tahlil qilingan hamda ulardan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida emotsional intellektni rivojlantirishda foydalanish imkoniyatlari aniqlangan. Dasturlar kimga mo'ljallangani, mazmuni, yetakchi vositasi, o'qituvchining roli va tadqiqotlarda qayd etilgan natijasi bo'yicha solishtirildi. Bo'lajak o'qituvchini tayyorlashga ko'chirish mumkin bo'lgan beshta element ajratildi: ishni o'qituvchining o'zidan boshlash, his-tuyg'uni nomlashni o'rgatish, "meta-moment" usuli, boshqalar nuqtai nazarini tushunish mashqlari va dasturni mavjud o'quv faniga qo'shish.*

Kalit so'zlar: *emotsional intellekt, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi, ijtimoiy-emotsional ta'lim, RULER, PATHS, MindUP, CARE, xorijiy tajriba.*

Аннотация. *В статье проведён сравнительный анализ методов и средств зарубежных программ социально-эмоционального обучения (RULER, PATHS, MindUP, CARE) и определены возможности их использования в развитии эмоционального интеллекта будущих учителей начальных классов. Программы сопоставлены по адресату, содержанию, ведущему средству, роли учителя и результатам, зафиксированным в исследованиях. Выделены пять элементов, переносимых в подготовку будущего учителя: начало работы с самого учителя, обучение называнию эмоций, приём «мета-момент», упражнения на понимание точки зрения других и включение программы в существующую учебную дисциплину.*

Ключевые слова: *эмоциональный интеллект, будущий учитель начальных классов, социально-эмоциональное обучение, RULER, PATHS, MindUP, CARE, зарубежный опыт.*

Abstract. *The article presents a comparative analysis of the methods and tools of foreign social and emotional learning programmes (RULER, PATHS, MindUP, CARE) and identifies opportunities for using them to develop emotional intelligence*

in pre-service primary school teachers. The programmes were compared by target group, content, leading tool, teacher role and results reported in research. Five elements transferable to teacher preparation were identified: starting with the teacher, teaching the naming of emotions, the Meta-Moment technique, perspective-taking exercises, and embedding the programme in an existing course.

Keywords: *emotional intelligence, pre-service primary school teacher, social and emotional learning, RULER, PATHS, MindUP, CARE, foreign experience.*

Kirish

Ijtimoiy-emotsional ta’lim dasturlari so‘nggi o‘n yilliklarda ko‘plab mamlakatlar maktablarida keng qo‘llanmoqda. J.Darlak va hamkasblari 270 mingdan ortiq o‘quvchini qamragan 213 ta maktab dasturini meta-tahlil qilib, ularda ishtirok etgan bolalarning ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalari, xulq-atvori va o‘zlashtirishi nazorat guruhlariga nisbatan yaxshilanganini aniqlagan. Tadqiqotchilar bunday dasturlarni maktab o‘qituvchilarining o‘zi muvaffaqiyatli olib borganini ham qayd etgan [1]. Bu natija o‘qituvchining tayyorgarligi dastur samarasining muhim sharti ekanini ko‘rsatadi.

O‘qituvchining o‘z emotsional sifatlari ham sinfdagi ijtimoiy-emotsional muhitga ta’sir qiladi. P.Jennings va M.Grinberg “prosotsial sinf” modelida o‘qituvchining hissiy tayyorgarligini sinfdagi iliq munosabat, intizom va bunday ta’limning muvaffaqiyati uchun asos deb hisoblagan [2]. Biroq xorijiy dasturlarning aksariyati maktab o‘quvchisiga yoki ishlayotgan o‘qituvchiga mo‘ljallangan. Bo‘lajak o‘qituvchilarga qaratilgan dasturlar bo‘yicha G.Monroy Korrea va A.Mansanal Martines 2019–2024-yillarda chop etilgan sakkizta empirik tadqiqotni tahlil qilgan [3].

Xorijiy dasturlar tajribasi o‘rganilgan bo‘lsa-da, ulardagi qaysi usul va vositalarni bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini tayyorlash jarayoniga ko‘chirish mumkinligi masalasi yanada takomillashtirishni taqozo qiladi. Maqolaning maqsadi xorijiy ijtimoiy-emotsional ta’lim dasturlarining usul va vositalarini tahlil qilish hamda ulardan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida emotsional intellektni rivojlantirishda foydalanish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

Metodlar

Tadqiqotda qiyosiy-pedagogik tahlil, umumlashtirish va pedagogik modellashtirish usullari qo‘llandi. Tahlil uchun to‘rtta dastur tanlandi: RULER, PATHS, MindUP va CARE. Tanlovda ikki mezon hisobga olindi. Birinchi mezon dastur samarasining nazorat guruhli tadqiqotda tekshirilganligi edi. Ikkinchi mezon

dasturning boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yoki boshlang‘ich maktab o‘qituvchilari bilan bog‘liqligi bo‘ldi.

Har bir dastur besh jihat bo‘yicha tahlil qilindi: kimga mo‘ljallangani, asosiy mazmuni, yetakchi usul yoki vositasi, o‘qituvchining roli va tadqiqotda qayd etilgan natijasi. So‘ngra har bir dasturdan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini tayyorlashga ko‘chirish mumkin bo‘lgan elementlar ajratildi. Ajratilgan elementlar biz taklif etgan modelning mashg‘ulotlari bilan solishtirildi. Tahlil dasturlar haqida chop etilgan ilmiy maqolalar va ishlab chiquvchilar kitobiga tayandi.

Natijalar

Ko‘rib chiqilgan dasturlarning ishtirokchisi ham, yetakchi vositasi ham turlicha. Ularning asosiy jihatlari 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval

Tahlil qilingan xorijiy dasturlarning asosiy jihatlari

Dastur	Kimga mo‘ljallangan	Yetakchi vosita	Tadqiqotda qayd etilgan natija
RULER	O‘qituvchi, o‘quvchi, maktab jamoasi	Besh ko‘nikma, “meta-moment” usuli, fanga qo‘shilgan darslar	Sinfdagi munosabatlar iliqroq baholangan (62 maktab)
PATHS	Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi	His-tuyg‘uni nomlashni o‘rgatuvchi darslar	His-tuyg‘u haqidagi so‘z boyligi va tushuncha kengaygan (286 o‘quvchi)
MindUP	4–5-sinf o‘quvchisi	Ongli e’tibor va g‘amxo‘rlik mashqlari	Hamdardlik, boshqalarni tushunish, o‘zini boshqarish yaxshilangan (99 o‘quvchi)
CARE	Ishlayotgan o‘qituvchi	30 soatlik mashg‘ulot va maslahat	His-tuyg‘ularni boshqarish yaxshilangan, zo‘riqish kamaygan (224 o‘qituvchi)

RULER dasturini M.Brekett va uning hamkasblari yaratgan. Uning nomi besh ko‘nikmani anglatadi: his-tuyg‘uni tanish, uning sababi va oqibatini tushunish, uni aniq nomlash, vaziyatga mos ifodalash va boshqarish [4]. S.Rivers va hamkasblari dasturni 62 ta maktabning 5–6-sinflarida ona tili darslariga qo‘shib sinovdan o‘tkazgan. Dastur joriy etilgan sinflarda iliqlik va yaqinlik yuqoriroq qayd etilgan, o‘qituvchilar bolalarning qiziqishiga ko‘proq tayangan [5]. Dasturning o‘ziga xos jihati shundaki, tayyorgarlik o‘quvchidan emas, o‘qituvchidan boshlanadi. Uning vositalaridan biri bo‘lgan “meta-moment” usulida o‘qituvchi hissiy o‘zgarishni sezgach to‘xtaydi, nafas oladi va o‘ylangan javob yo‘lini tanlaydi [4].

PATHS dasturi boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalarga mo‘ljallangan. M.Grinberg va hamkasblari 30 ta sinfdagi 286 nafar ikkinchi va uchinchi sinf o‘quvchisi ishtirokida dasturni tekshirgan. O‘qituvchilar o‘quv yilining katta

qismida dars o‘tgan va natijada bolalarning his-tuyg‘ular haqida gapirishdagi so‘z boyligi hamda bu tushunchalarni anglashi yaxshilangan [6]. Dasturning asosiy g‘oyasi his-tuyg‘uni so‘z bilan ifodalashni maxsus o‘rgatishdir. Nomlangan holatni tushunish va boshqarish nomlanmagan holatga qaraganda osonroq kechadi.

MindUP dasturi ongli e’tibor va boshqalarga g‘amxo‘rlik qilish mashqlariga asoslangan. K.Shonert-Rayxl va hamkasblari 4–5-sinflarning 99 nafar o‘quvchisi ishtirokidagi tajribada dastur bolalarning o‘zini nazorat qilishini, hamdardligini, boshqalar nuqtai nazarini tushunishini va his-tuyg‘ularini boshqarishini yaxshilaganini qayd etgan. Sinfdoshlari ham ularni ko‘proq yordamga tayyor deb baholagan [7]. Dasturning muhim jihati qisqa va muntazam mashqlardir, ular kundalik dars tartibiga oson qo‘shiladi.

CARE dasturi ishlayotgan o‘qituvchilarga mo‘ljallangan. P.Jennings va hamkasblari tadqiqotida 224 nafar boshlang‘ich maktab o‘qituvchisi qatnashgan. Dastur o‘qituvchilarning o‘z his-tuyg‘ularini boshqara olishini kuchaytirgan, ularning zo‘riqishini pasaytirgan va darslardagi hissiy qo‘llab-quvvatlashni yaxshilagan [8]. CARE dasturi o‘qituvchining o‘z hissiy holati sinfdagi muhitga ta’sir qilishini amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

Tahlil natijasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini tayyorlashga ko‘chirish mumkin bo‘lgan beshta element ajratildi. Birinchisi ishni o‘qituvchining o‘zidan boshlash g‘oyasi bo‘lib, u RULER va CARE dasturlariga xosdir. Ikkinchisi PATHS dasturidagi his-tuyg‘uni nomlashni maxsus o‘rgatishdir, u modelning birinchi mashg‘ulotida talabaning o‘z holatini bir necha so‘z bilan ifodalashida qo‘llanadi. Uchinchisi RULER dasturining “meta-moment” usuli bo‘lib, modelning to‘rtinchi mashg‘ulotida o‘zlashtiriladi. To‘rtinchisi MindUP dasturidagi boshqalar nuqtai nazarini tushunish mashqlaridir, ular pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish tartibiga kiritilgan. Beshinchisi esa RULER tajribasidagi dasturni mavjud fanga qo‘shish g‘oyasidir. Shunga ko‘ra modeldagi mashg‘ulotlar “Pedagogik mahorat” fani doirasida tashkil etilgan.

Muhokama

Ajratilgan elementlar J.Darlak va hamkasblarining xulosasi bilan uyg‘un keladi. Ularning meta-tahlilida dastur natijasiga tavsiya etilgan to‘rtta amaliyotdan foydalanish va dasturni amalga oshirishdagi muammolar ta’sir qilgani ko‘rsatilgan [1]. Demak, dasturning usullarini ko‘chirishning o‘zi yetarli emas, ularni qo‘llash sharoiti ham puxta tashkil etilishi kerak. Bo‘lajak o‘qituvchi uchun bu sharoit uning maktab amaliyoti bilan bevosita bog‘liq. Talaba mashg‘ulotda o‘rgangan usulini haftalik amaliyotda sinab ko‘rgandagina u ko‘nikmaga aylanishi mumkin.

Dasturlarni ko‘chirishda ularning qaysi ishtirokchiga mo‘ljallanganini ham hisobga olish lozim. PATHS va MindUP bolalarga, CARE va RULERning

o‘qituvchiga oid qismi esa ish tajribasiga ega o‘qituvchilarga qaratilgan. Bo‘lajak o‘qituvchi ham o‘quvchi, ham o‘qituvchi o‘rnida turadi. U mashg‘ulotda o‘zi o‘rganadi va amaliyotda bolalar bilan ishlaydi. Shu sababli modelda bolalarga mo‘ljallangan usullar talabaning o‘zida sinab ko‘riladi, so‘ngra sinfdagi qo‘llanishi tahlil qilinadi. Bo‘lajak o‘qituvchilar uchun tuzilgan dasturlar sharhida ham amaliy tajriba va uni tahlil qilishga asoslangan usullar yetakchi o‘rinda turgani ta’kidlangan [3].

Tadqiqotning cheklovlari ham mavjud. Tahlil to‘rtta dastur bilan cheklangan va ular asosan Shimoliy Amerika maktablarida sinovdan o‘tgan. Ularning milliy ta’lim muhitida qanday ishlashi alohida o‘rganishni talab qiladi. Tahlil dasturlar haqidagi chop etilgan maqolalarga tayangan, dastur materiallarining to‘liq matni esa ko‘rib chiqilmagan. Ko‘chirilgan elementlar bo‘lajak o‘qituvchiga qanchalik foyda berishini tajriba-sinov ishi ko‘rsatadi.

Xulosa

Tahlil qilingan to‘rt xorijiy dastur ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni maxsus mashg‘ulotlar orqali rivojlantirish mumkinligini ko‘rsatadi. Biroq ular maktab o‘quvchisi yoki ishlayotgan o‘qituvchiga mo‘ljallangan, shuning uchun bo‘lajak o‘qituvchini tayyorlashga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirilmaydi. Dasturlardan beshta element ajratildi: ishni o‘qituvchining o‘zidan boshlash, his-tuyg‘uni nomlashni o‘rgatish, “meta-moment” usuli, boshqalar nuqtai nazarini tushunish mashqlari va dasturni mavjud fanga qo‘shish.

Mazkur elementlar biz taklif etgan modelning mashg‘ulotlarida o‘z aksini topgan. Ularning bo‘lajak o‘qituvchilar uchun samarasi va milliy ta’lim muhitiga mosligi tajriba-sinov ishida aniqlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Durlak J.A., Weissberg R.P., Dymnicki A.B., Taylor R.D., Schellinger K.B. The impact of enhancing students’ social and emotional learning: A meta-analysis of school-based universal interventions // Child Development. – 2011. – Vol. 82, № 1. – P. 405–432. – https://doi.org/10.1111/j.1467-8624.2010.01564.x

2. Jennings P.A., Greenberg M.T. The prosocial classroom: Teacher social and emotional competence in relation to student and classroom outcomes // Review of Educational Research. – 2009. – Vol. 79, № 1. – P. 491–525. – https://doi.org/10.3102/0034654308325693

3. Monroy Correa G.M., Manzanal Martínez A.I. Intervention programmes on socio-emotional competencies in pre-service teachers: A systematic review // Education Sciences. – 2025. – Vol. 15, № 12. – Article 1588. – https://doi.org/10.3390/educsci15121588

4. Brackett M. Permission to feel: Unlocking the power of emotions to help our kids, ourselves, and our society thrive. – New York: Celadon Books, 2019.

5. Rivers S.E., Brackett M.A., Reyes M.R., Elbertson N.A., Salovey P. Improving the social and emotional climate of classrooms: a clustered randomized controlled trial testing the RULER Approach // Prevention Science. – 2013. – Vol. 14, № 1. – P. 77–87. – https://doi.org/10.1007/s11121-012-0305-2

6. Greenberg M.T., Kusche C.A., Cook E.T., Quamma J.P. Promoting emotional competence in school-aged children: The effects of the PATHS curriculum // Development and Psychopathology. – 1995. – Vol. 7, № 1. – P. 117–136. – https://doi.org/10.1017/S0954579400006374

7. Schonert-Reichl K.A., Oberle E., Lawlor M.S., Abbott D., Thomson K., Oberlander T.F., Diamond A. Enhancing cognitive and social-emotional development through a simple-to-administer mindfulness-based school program for elementary school children: A randomized controlled trial // Developmental Psychology. – 2015. – Vol. 51, № 1. – P. 52–66. – https://doi.org/10.1037/a0038454

8. Jennings P.A., Brown J.L., Frank J.L., Doyle S., Oh Y., Davis R., Rasheed D., DeWeese A., DeMauro A.A., Cham H., Greenberg M.T. Impacts of the CARE for Teachers program on teachers' social and emotional competence and classroom interactions // Journal of Educational Psychology. – 2017. – Vol. 109, № 7. – P. 1010–1028. – https://doi.org/10.1037/edu0000187

P. FREIRENING TANQIDIY PEDAGOGIKA KONSEPSIYASI VA UNING INGLIZ TILI TA'LIMIDAGI METODIK IMKONIYATLARI

Aripova Iroda Ikrom qizi
Mustaqil tadqiqotchi, Termiz, O'zbekiston

Annotatsiya. *Mazkur maqolada braziliyalik pedagog va faylasuf Paulo Reglus Neves Freirening tanqidiy pedagogika konsepsiyasi hamda uning ingliz tili ta'limidagi metodik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Freirening ta'limni shaxsning tanqidiy ongini shakllantirish, dialogik hamkorlikni ta'minlash va mavjud voqelikni anglash hamda unga faol munosabat bildirish vositasi sifatida talqin etishi zamonaviy chet tili ta'limi uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Tadqiqotda "banking education", "problem-posing education", "dialogue", "critical consciousness" va "praxis" kabi asosiy tushunchalarning mazmuni ochib berilib, ularning ingliz tili darslarida kommunikativ, kognitiv va refleksiv faoliyatni tashkil etishdagi imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, ingliz tili ta'limida muammoli vaziyatlar, dialogik munozaralar, tanqidiy o'qish, argumentatsiya, refleksiv yozuv va ijtimoiy mazmundagi kommunikativ topshiriqlardan foydalanishning metodik imkoniyatlari asoslanadi. Maqolada Freire konsepsiyasining zamonaviy ingliz tili ta'limidagi ahamiyati o'quvchi va o'qituvchini bilimning tayyor shaklini uzatuvchi va qabul qiluvchi subyektlar sifatida emas, balki o'zaro hamkorlikda bilim hosil qiluvchi pedagogik jarayon ishtirokchilari sifatida ko'rish bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalari Freire tanqidiy pedagogikasi ingliz tili ta'limida tanqidiy fikrlash, kommunikativ kompetensiya, mustaqil fikrlash va refleksiv faoliyatni rivojlantirish uchun metodologik asos bo'la olishini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *Paulo Freire, tanqidiy pedagogika, ingliz tili ta'limi, dialogik ta'lim, muammoli ta'lim, tanqidiy fikrlash, tanqidiy ong, kommunikativ kompetensiya, refleksiya, praxis.*

Abstract. *This article examines the critical pedagogy of Paulo Reglus Neves Freire and its methodological potential for English language education. Freire's understanding of education as a process of developing critical consciousness, establishing dialogue, and enabling learners to understand and actively respond to their social reality provides an important methodological foundation for contemporary language education. The study analyzes the central concepts of Freirean pedagogy, including "banking education," "problem-posing education,"*

"dialogue," "critical consciousness," and "praxis," and explores their implications for English language teaching. Particular attention is given to problem-based communication, dialogic interaction, critical reading, argumentation, reflective writing, and socially meaningful communicative tasks. The article argues that Freirean pedagogy can contribute to the development of learners' critical thinking, communicative competence, learner autonomy, and reflective abilities. The methodological significance of Freire's approach lies in redefining the roles of teachers and learners: rather than functioning exclusively as transmitters and recipients of predetermined knowledge, they participate in a dialogic process of constructing and interpreting knowledge. The findings suggest that critical pedagogy can provide a productive methodological framework for integrating language development with critical, reflective, and socially contextualized learning.

Keywords: *Paulo Freire, critical pedagogy, English language education, dialogic education, problem-posing education, critical thinking, critical consciousness, communicative competence, reflection, praxis.*

KIRISH

XXI asrda ingliz tilini o‘qitish jarayonining mazmuni faqat grammatik qoidalar, leksik birliklar va kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish bilan chegaralanmay, ta’lim oluvchilarning mustaqil, tanqidiy va refleksiv fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishni ham nazarda tutmoqda. Globallashuv, raqamli axborot makonining kengayishi va ingliz tilining xalqaro muloqot vositasiga aylanishi natijasida ingliz tili darslarida o‘quvchini tayyor bilimni qabul qiluvchi subyekt sifatida emas, balki axborotni tahlil qiluvchi, baholovchi, savol qo‘yuvchi va mustaqil xulosa chiqaruvchi faol subyekt sifatida shakllantirish zarurati kuchaymoqda.

Mazkur jarayonda braziliyalik pedagog va faylasuf Paulo Reglus Neves Freire (1921–1997) tomonidan ishlab chiqilgan tanqidiy pedagogika konsepsiyasi alohida metodologik ahamiyat kasb etadi. Freire ta’limni oddiy bilim uzatish jarayoni sifatida emas, balki shaxsning o‘zini, atrof-muhitini va ijtimoiy voqelikni anglashiga xizmat qiluvchi dialogik jarayon sifatida talqin qiladi. Uning eng mashhur asari — Pedagogy of the Oppressed — an’anaviy “banking” ta’lim modelini tanqid qilib, uning o‘rniga muammoli va dialogik ta’lim konsepsiyasini ilgari suradi.

Zamonaviy Critical Language Pedagogy Freire g‘oyalarini til ta’limiga tatbiq etuvchi yo‘nalish sifatida shakllangan bo‘lib, ingliz tilini o‘qitishda til, shaxs, ijtimoiy tajriba, muloqot, identitet va tanqidiy fikrlash o‘rtasidagi munosabatlarga e’tibor qaratadi.

Shu nuqtayi nazardan, Freirening tanqidiy pedagogika konsepsiyasini ingliz tili ta'limining zamonaviy metodikasi bilan uyg'unlashtirish bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash, o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish hamda ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish uchun muhim ilmiy-amaliy imkoniyatlarni yaratadi.

Paulo Freirening pedagogik qarashlari XX asrning ikkinchi yarmida ta'limning insonparvarlik, dialogiklik va ijtimoiy mas'uliyatga asoslangan modelini shakllantirishga katta ta'sir ko'rsatgan. Freire ta'lim jarayonini insonning mavjud voqelikni anglash, uni tahlil qilish va zarur hollarda o'zgartirishga qaratilgan faoliyati sifatida ko'radi.

Freire pedagogikasining asosiy kategoriyalaridan biri "banking education" — "bank modeli asosidagi ta'lim" tushunchasidir. Bunday modelda o'qituvchi tayyor bilimning asosiy manbai, o'quvchi esa mazkur bilimni qabul qiluvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Freire bunday yondashuvda o'quvchining mustaqil fikrlashi, savol berishi va mavjud bilimga tanqidiy munosabat bildirish imkoniyatlari cheklanishini ta'kidlaydi.

Bunga muqobil ravishda Freire "problem-posing education", ya'ni muammoli vaziyatni ilgari surishga asoslangan ta'lim modelini taklif qiladi. Mazkur modelda o'qituvchi tayyor javoblarni berishdan ko'ra, o'quvchilarni savol qo'yish, muammoni tahlil qilish, turli nuqtayi nazarlarni solishtirish va xulosa chiqarishga yo'naltiradi.

Freire konsepsiyasida ta'limning yana bir asosiy komponenti dialog hisoblanadi. Dialog oddiy savol-javob yoki muloqot emas, balki o'qituvchi va ta'lim oluvchining o'zaro fikr almashuvi orqali bilimni birgalikda shakllantirish jarayonidir. Dialogik pedagogika bo'yicha tadqiqotlarda ham o'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqot tanqidiy ongni rivojlantirishning muhim vositasi sifatida ko'rsatiladi.

Freire pedagogikasining muhim kategoriyalaridan yana biri critical consciousness — tanqidiy ongdir. Tanqidiy ong shaxsning mavjud voqelikni shunchaki qabul qilmasdan, uning sabablarini, oqibatlarini va ichki munosabatlarini tahlil qilish qobiliyatini anglatadi.

Bu jarayon praxis tushunchasi bilan yakunlanadi. Praxis — nazariy mushohada va amaliy faoliyatning o'zaro birligi bo'lib, Freire pedagogikasida bilimning amaliy harakat bilan bog'liqligini ifodalaydi.

Critical Language Pedagogy Freire pedagogikasining til ta'limiga tatbiq etilgan shakllaridan biri sifatida qaraladi. Mazkur yondashuv tilni faqat kommunikativ vosita sifatida emas, balki shaxsning tajribasi, ijtimoiy munosabatlari va dunyoni anglash jarayoni bilan bog'liq hodisa sifatida ko'rib chiqadi.

Freirean yondashuv asosida tashkil etilgan ingliz tili darsida o‘qituvchi asosiy bilim manbai emas, balki dialogni tashkil etuvchi va o‘quvchining mustaqil fikrlashini rag‘batlantiruvchi pedagogik hamkor sifatida namoyon bo‘ladi.

Masalan, o‘qituvchi:

Is social media making our communication better or worse?

degan savolni beradi.

O‘quvchi tayyor javobni yodlab bermaydi. U:

- o‘z tajribasini ifodalaydi;
- dalillar keltiradi;
- boshqa o‘quvchining fikrini tinglaydi;
- qarama-qarshi fikrni tahlil qiladi;
- o‘z nuqtayi nazarini qayta ko‘rib chiqadi.

Bu jarayonda bir vaqtning o‘zida speaking, listening, vocabulary, argumentation va critical thinking ko‘nikmalari rivojlanadi.

Freirening tanqidiy pedagogikasi ayniqsa bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida muhim ahamiyatga ega.

Bo‘lajak o‘qituvchi faqat ingliz tilini yaxshi biluvchi mutaxassis bo‘lib qolmasdan, o‘quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantira oladigan pedagog sifatida shakllanishi lozim.

Buning uchun teacher education jarayonida quyidagi kompetensiyalarni rivojlantirish maqsadga muvofiq:

Kompetensiya	Mazmuni
Kognitiv	Muammoni tahlil qilish
Kommunikativ	Fikrni ingliz tilida asoslash
Refleksiv	O‘z faoliyatini baholash
Metakognitiv	O‘z fikrlash jarayonini anglash
Argumentativ	Dalil va qarshi dalillarni tahlil qilish
Ijtimoiy	Hamkorlik va dialog
Pedagogik	Tanqidiy topshiriqlar yaratish

Shunday qilib, Freire pedagogikasini bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayoniga tatbiq etish nafaqat ularning shaxsiy tanqidiy fikrlashini, balki kelajakdagi professional metodik faoliyatini ham takomillashtirish imkonini beradi.

2026-yildagi zamonaviy tadqiqotlarda ham Critical Pedagogy tamoyillari EFL o‘qituvchilarining amaliy faoliyatida o‘quvchi avtonomligi, real hayot muammolari,

tanqidiy fikrlash, kommunikatsiya, hamkorlik va refleksiv munozaralar bilan bog‘lanayotgani ko‘rsatilgan.

XULOSA

Paulo Freirening tanqidiy pedagogika konsepsiyasi zamonaviy ingliz tili ta’limini takomillashtirish uchun muhim nazariy va metodik imkoniyatlarga ega. Uning “banking education” modeliga qarshi ilgari surgan muammoli, dialogik va refleksiv ta’lim konsepsiyasi o‘quvchini tayyor bilimni qabul qiluvchi subyekt emas, balki bilimni anglash, tahlil qilish va qayta qurishda faol ishtirok etuvchi shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Freire pedagogikasining dialog, problem-posing education, critical consciousness va praxis kabi kategoriyalari ingliz tili ta’limida kommunikativ faoliyatni tanqidiy fikrlash bilan integratsiya qilish uchun metodologik asos bo‘la oladi. Xususan, muammoli vaziyatlar, tanqidiy o‘qish, dialogik munozaralar, argumentativ topshiriqlar, refleksiv yozuv va loyiha faoliyatidan foydalanish orqali ingliz tili o‘rganuvchilarining til kompetensiyasi bilan bir qatorda kognitiv va refleksiv kompetensiyalarini ham rivojlantirish mumkin.

Freirean yondashuvning muhim jihati shundaki, ingliz tili darsi faqat “til haqida bilim berish” jarayoni emas, balki til orqali fikrlash, muloqot qilish, savol berish, dalillash, muqobil nuqtayi nazarni anglash va mustaqil xulosa chiqarish jarayoniga aylanadi. Critical Language Pedagogy bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar ham Freire g‘oyalarining til ta’limida ijtimoiy adolat, o‘quvchi agentligi, dialog va tanqidiy savodxonlik bilan bog‘liq metodik imkoniyatlarini ta’kidlamoqda.

Shu bois P. Freirening tanqidiy pedagogika konsepsiyasini ingliz tili ta’limiga tatbiq etish, ayniqsa, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish uchun istiqbolli metodik yo‘nalish sifatida baholanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Freire P. Pedagogy of the Oppressed. — New York: Herder and Herder, 1970.

2. Freire P. Education for Critical Consciousness. — New York: Seabury Press, 1973.

3. Freire P. The Politics of Education: Culture, Power, and Liberation. — South Hadley, MA: Bergin & Garvey, 1985.

4. Cogo A., Crookes G. V., Siqueira S. Critical Language Pedagogy. — Cambridge: Cambridge University Press, 2026.

5. Siqueira S. Critical Pedagogy and Language Education: Hearing the Voices of Brazilian Teachers of English // Education Sciences. — 2021. — Vol. 11, № 5. — Article 235. — DOI: 10.3390/educsci11050235.

6. Stevens D. Paulo Freire and the Pedagogical Traditions of the Subject English // English in Education. — 2012. — Vol. 46, № 2. — P. 121–134. — DOI: 10.1111/j.1754-8845.2012.01122.x.

YOSHLARNING IJTIMOIY MOSLASHUVIDA IJTIMOIY PEDAGOGNING O‘RNI

Asadova Malika Ulug‘bek qizi
malikaortykbayeva@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu tezisda yoshlarning jamiyatga moslashuvi jarayonida ijtimoiy pedagogning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Yoshlarning yangi ijtimoiy muhitga kirishishi, tengdoshlari va atrofdagilar bilan munosabat o‘rnatishi hamda turli hayotiy vaziyatlarga moslashishida ijtimoiy-pedagogik yordamning ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, yoshlar bilan individual va guruhiy ishlash, ularni qo‘llab-quvvatlash hamda ijtimoiy faolligini oshirishda ijtimoiy pedagogning asosiy vazifalariga e’tibor qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *yoshlar, ijtimoiy moslashuv, ijtimoiylashuv, pedagogik yordam, muhit.*

Аннотация: *В тезисе рассматривается роль социального педагога в процессе социальной адаптации молодежи. Раскрывается значение социально-педагогической поддержки в адаптации молодых людей к новой социальной среде, установлении взаимоотношений со сверстниками и окружающими, а также в преодолении различных жизненных трудностей. Особое внимание уделяется индивидуальной и групповой работе с молодежью, ее поддержке и повышению социальной активности.*

Ключевые слова: *молодежь, социальная адаптация, социализация, педагогическая поддержка, среда.*

Abstract: *This thesis examines the role of a social pedagogue in the social adaptation of young people. It highlights the importance of social and pedagogical support in helping young people adapt to a new social environment, establish relationships with peers and others, and cope with various life situations. Particular attention is paid to individual and group work with young people, providing support and encouraging their social activity.*

Keywords: *youth, social adaptation, socialization, pedagogical support, youth work, environment.*

Kirish

Ijtimoiy moslashuv shaxsning jamiyatdagi mavjud munosabatlar, xulq-atvor me’yorlari va ijtimoiy talablarga moslashishi bilan bog‘liq murakkab jarayondir. Inson hayotining turli bosqichlarida yangi muhit, yangi jamoa, ta’lim yoki mehnat

sharoiti bilan to‘qnash keladi. Ayniqsa, yoshlar davrida ijtimoiy muhitning o‘zgarishi, tengdoshlar bilan munosabatlar, ta’lim va kasbiy faoliyatga moslashish hamda mustaqil hayotga tayyorgarlik kabi jarayonlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy pedagogika shaxsning jamiyat bilan munosabati, ijtimoiy muhitga moslashuvi va turli ijtimoiy sharoitlarda rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganadi. Shu jihatdan ijtimoiy pedagogning faoliyati faqat ta’lim-tarbiya jarayoni bilan cheklanmaydi. U yoshlarning ijtimoiy muammolarini aniqlash, ularning sabablarini o‘rganish, zarur yordamni tashkil etish va yoshning ijtimoiy muhit bilan munosabatlarini yaxshilashga ko‘maklashadi.

Yoshlarning ijtimoiy moslashuviga oila, ta’lim muassasasi, mahalla, tengdoshlar guruhi, yoshlar tashkilotlari va boshqa ijtimoiy institutlar ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu subyektlarning hamkorligi yoshning jamiyatdagi o‘rnini anglashiga, o‘z imkoniyatlarini namoyon etishiga va ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etishiga yordam beradi. Shu sababli yoshlar bilan ishlashda ijtimoiy pedagogning muvofiqlashtiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi faoliyati alohida ahamiyatga ega.

Asosiy qism

Yoshlarning ijtimoiy moslashuvi bir xil kechadigan jarayon emas. Har bir yoshning oilaviy sharoiti, ta’lim darajasi, individual xususiyatlari, tengdoshlari bilan munosabati va mavjud ijtimoiy muhiti moslashuv jarayoniga turlicha ta’sir qiladi. Ayrim yoshlar yangi jamoaga tez kirishib ketsa, boshqalarida muloqot qilish, o‘z fikrini ifodalash, jamoada o‘z o‘rnini topish yoki yangi talablarni qabul qilish bilan bog‘liq qiyinchiliklar kuzatilishi mumkin.

Bunday vaziyatlarda ijtimoiy pedagogning birinchi vazifalaridan biri mavjud muammoni aniqlash va uning sabablarini o‘rganishdir. Buning uchun individual suhbat, kuzatish, intervyu, diagnostik o‘rganish va sotsiometrik tahlil kabi metodlardan foydalanish mumkin. Olingan ma’lumotlar asosida yoshning ehtiyojlari va imkoniyatlari aniqlanib, unga mos ijtimoiy-pedagogik yordam shakli belgilanadi.

Ijtimoiy pedagog yoshlar bilan individual va guruhiy shaklda ishlashi mumkin. Individual yondashuv yoshning shaxsiy muammolarini chuqurroq o‘rganish, unga zarur tavsiyalar berish va qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. Guruhiy faoliyat esa muloqot, hamkorlik, o‘zaro yordam, tashabbuskorlik va mas’uliyat kabi ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Treninglar, rolli mashg‘ulotlar, jamoaviy loyihalar va ijtimoiy tadbirlar ushbu jarayonda samarali vosita bo‘lishi mumkin.

Yoshlarning ijtimoiy moslashuvida oila va ta’lim muassasasi bilan hamkorlik ham muhimdir. Agar yoshda jamoaga moslashish, muloqot yoki xulq-atvor bilan

bog‘liq qiyinchiliklar kuzatilsa, ijtimoiy pedagog ota-ona, pedagoglar va zarur hollarda psixolog hamda boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda ishlashi maqsadga muvofiq. Bunday hamkorlik muammoni faqat bir tomonlama emas, balki yoshning ijtimoiy muhitini hisobga olgan holda hal qilish imkonini beradi.

Ijtimoiy pedagogning faoliyati yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish bilan ham bog‘liq. Yoshlarni ijtimoiy loyihalar, jamoaviy tadbirlar, ko‘ngillilik faoliyati va turli tashabbuslarga jalb etish orqali ularda mas’uliyat, tashabbuskorlik, hamkorlik va fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish mumkin. Bunda yoshga faqat tayyor yordam berish emas, balki uning muammoni mustaqil hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga e’tibor qaratish muhim.

Bugungi sharoitda yoshlarning ijtimoiy moslashuvi raqamli muhit bilan ham chambarchas bog‘liq. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalar yoshlarning muloqoti va axborot olishida katta o‘rin egallaydi. Shu sababli ijtimoiy pedagog yoshlarni axborotni tanqidiy baholash, internetdan xavfsiz foydalanish, virtual muloqot madaniyatiga rioya qilish va raqamli muhitdagi xatarlarni anglashga yo‘naltirishi mumkin. Raqamli vositalardan to‘g‘ri foydalanish ijtimoiy-pedagogik aloqa va maslahat berish imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

Yoshlarning ijtimoiy moslashuvida insonparvarlik, tenglik, bag‘rikenglik, hamkorlik va individual yondashuv tamoyillariga amal qilish muhim. Har bir yoshning imkoniyati va ehtiyoji turlicha bo‘lgani sababli ijtimoiy pedagog muammoni umumiy qolip asosida emas, balki aniq vaziyatdan kelib chiqib baholashi lozim. Bunday yondashuv yoshning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash, ijtimoiy munosabatlarini yaxshilash va jamiyat hayotida faolroq ishtirok etishiga yordam beradi.

Tahlil natijasida yoshlarning ijtimoiy moslashuvida ijtimoiy pedagogning faoliyatini quyidagi asosiy yo‘nalishlarda ko‘rish mumkin: ijtimoiy muammolarni aniqlash va baholash; individual va guruhiy pedagogik yordam ko‘rsatish; oila va ta’lim muassasasi bilan hamkorlik qilish; yoshlarni ijtimoiy faoliyatga jalb etish; zarur hollarda boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikni tashkil etish; yoshlarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish va mustaqil qaror qabul qilishiga ko‘maklashish.

Xulosa

Yoshlarning ijtimoiy moslashuvi ularning shaxs sifatida rivojlanishi va jamiyat hayotida faol ishtirok etishida muhim o‘rin tutadi. Ushbu jarayonning samarali kechishi yoshning individual xususiyatlari bilan bir qatorda uning oilasi, ta’lim muhiti, tengdoshlari va boshqa ijtimoiy omillar bilan bog‘liq.

O‘rganish va tahlil qilish asosida ijtimoiy pedagog yoshlarning ijtimoiy moslashuvida muhim qo‘llab-quvvatlovchi va muvofiqlashtiruvchi subyekt sifatida

namoyon bo‘lishi aniqlandi. Uning faoliyati muammoni aniqlash, yoshning ehtiyojlarini o‘rganish, individual yoki guruhiy yordam ko‘rsatish, oila va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlik qilish hamda yoshlarni ijtimoiy faoliyatga jalb etishni qamrab oladi.

Shu bois yoshlar bilan ishlashda ijtimoiy-pedagogik xizmatlarning amaliy yo‘nalishini kuchaytirish, individual yondashuvdan foydalanish, oila va ta’lim muassasasi o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash hamda zamonaviy raqamli vositalardan oqilona foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv yoshlarning ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslashishiga, o‘z imkoniyatlarini namoyon etishiga va jamiyat hayotidagi faol ishtirokini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. – 2016 yil 14 sentyabr, O‘RQ-406-son.
2. O‘rinboyev S.S. Zamonaviy sharoitda yoshlar tarbiyasining ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar xalqaro jurnali. – 2023.
3. Schneider J. Social Pedagogy and Youth Work in Europe. – Bristol: Policy Press, 2020.
4. Axmedov A.A. Ijtimoiy pedagogika: maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. – Buxoro: “Kamolot” nashriyoti, 2023.
5. Quchqorova N.M., Raximova F.R., Ismoilova R.O., Yuldasheva G., Saparbayevna. Bolalarning ijtimoiy moslashuvi. – Toshkent, 2024.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI KASBIY TAYYORLASHDA METAKOGNITIV STRATEGIYALARNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Aslonova Nargiza Mustafoevna
Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya. *Mazkur tezisda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda metakognitiv strategiyalarning pedagogik va psixologik xususiyatlari nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Bo‘lajak o‘qituvchining o‘z bilish faoliyatini boshqarishi hamda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘rganish jarayonini qo‘llab-quvvatlashi o‘zaro bog‘liq kasbiy vazifalar sifatida talqin etiladi.*

Kalit so‘zlar: *kasbiy tayyorgarlik, metakognitsiya, metakognitiv strategiya, o‘zini o‘zi boshqarib o‘rganish, pedagogik refleksiya, kognitiv monitoring, o‘zini o‘zi baholash, pedagogik qaror.*

Аннотация. *В тезисе теоретически анализируются педагогические и психологические особенности метакогнитивных стратегий в подготовке будущих учителей начальных классов к профессиональной деятельности. Управление будущим учителем собственной познавательной деятельностью и поддержка процесса учения младших школьников рассматриваются как взаимосвязанные профессиональные задачи.*

Ключевые слова: *профессиональная подготовка, метакогниция, метакогнитивная стратегия, саморегулируемое учение, педагогическая рефлексия, когнитивный мониторинг, самооценка, педагогическое решение.*

Abstract. *This paper presents a theoretical analysis of the pedagogical and psychological characteristics of metacognitive strategies in preparing prospective primary school teachers for professional practice. Prospective teachers’ regulation of their own cognitive activity and their support for primary school pupils’ learning are conceptualized as interrelated professional responsibilities.*

Keywords: *professional preparation, metacognition, metacognitive strategy, self-regulated learning, pedagogical reflection, cognitive monitoring, self-assessment, pedagogical decision-making.*

Boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirish bo‘lajak o‘qituvchilarning nazariy va metodik bilimlari bilan bir qatorda, o‘z fikrlash jarayonini anglash hamda kasbiy faoliyatini rejalashtirish, kuzatish va baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishni talab

qiladi. O‘qituvchi o‘quvchilarning o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklarini aniqlash, ularga mos topshiriqlarni tanlash va ta’lim usullarini takomillashtirishda o‘z qarorlarining asoslanganligini tekshirishi zarur. Shu jihatdan metakognitiv strategiyalarni o‘rganish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil va refleksiv kasbiy faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish uchun dolzarbdir. Xalqaro tajribada metakognitiv strategiyalarni o‘rgatishga alohida e’tibor qaratiladi. Jumladan, Angliya Ta’lim departamentining faoliyatini boshlayotgan o‘qituvchilar uchun ishlab chiqilgan metodik resurslarida Education Endowment Foundation (EEF) tavsiyalariga tayangan holda, o‘rganishni rejalashtirish, kuzatish va baholashga yo‘naltirilgan savollardan foydalanish tavsiya etiladi. O‘qituvchining topshiriqni bajarish davomida strategiya tanlash sabablarini, uning samaradorligini tekshirish usullarini va uni o‘zgartirish shartlarini izohlashi o‘quvchilarga fikrlashni boshqarish namunasini ko‘rsatadi [1].

O‘zbekistonda mazkur masala pedagogik ta’lim sifatini oshirish, nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash hamda mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ta’lim siyosati bilan bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son qarorida pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarida mustaqil ta’lim olish, tizimli tahlil qilish va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiruvchi metodikalarni joriy etish belgilangan. Qarorning amaldagi tahririda kunduzgi ta’lim shaklidagi 3–4-bosqich talabalarining mashg‘ulotlarini “4+2” tartibida - to‘rt kun oliy ta’lim muassasasida, ikki kun maktabgacha yoki umumiy o‘rta ta’lim muassasasida amaliyot o‘tash orqali tashkil etish nazarda tutilgan [2]. Ushbu tartib metakognitiv strategiyalarni pedagogik amaliyotga tatbiq etish, kasbiy qarorlarni kuzatish va tahlil qilish uchun tashkiliy imkoniyat yaratadi.

Metakognitsiyaning nazariy asoslari J. H. Flavell tadqiqotlarida insonning o‘z bilish jarayonlari haqidagi bilimi va ularni kuzatishi orqali izohlanadi. Olim shaxs, topshiriq va strategiyaga oid metakognitiv bilimlarning bilish faoliyatini boshqarishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi [3]. Pedagogik tayyorgarlikda bu yondashuv talabaning o‘z bilim imkoniyatlari va chegaralarini, kasbiy vazifaning murakkabligini hamda tanlangan usulning maqsadga muvofiqligini anglashini nazarda tutadi. Metakognitiv strategiyalarni o‘quv yoki kasbiy vazifani bajarishda fikrlashni rejalashtirish, kuzatish, baholash va zarur hollarda tuzatishga qaratilgan ongli harakatlar sifatida talqin qilish mumkin. Masalan, dars uchun topshiriq tanlash metodik harakat bo‘lsa, uning tanlanish sababini, qaysi o‘quv qiyinchiligini bartaraf etishini va samaradorligini tekshirish mezonlarini asoslash metakognitiv boshqaruvni ifodalaydi. G. Schraw va R. S. Dennison metakognitiv anglanganlik tarkibida bilish haqidagi bilim va bilishni boshqarishni farqlaydilar [4]. Bu esa

talabaning strategiyani bilishi bilan uni pedagogik vaziyatda qo‘llay olishini birgalikda baholash zarurligini ko‘rsatadi.

E. M. Rasulovning pedagogik oliy ta’lim talabalarining kognitiv va metakognitiv faoliyatini rivojlantirishga bag‘ishlangan dissertatsiya tadqiqotida rejalashtirish, monitoring, baholash va refleksiyani o‘quv faoliyatiga integratsiyalashga e’tibor qaratilgan. Muallif metakognitiv komponentlarni kognitiv jarayonlar bilan uyg‘unlashtirish hamda topshiriqlarga o‘zini o‘zi nazorat qilish va baholash shakllarini kiritishni asoslaydi [6]. Ushbu yondashuv bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik bilimlardan foydalanish jarayonini ongli boshqarishi uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

A. E. Fominning dissertatsiyasida o‘quv topshiriqlarini yechish jarayonidagi metakognitiv monitoringning psixologik mexanizmlari va uni rivojlantirish shartlari o‘rganilgan. Tadqiqotda shaxsning o‘z bilimiga ishonchi, bajarilgan topshiriq natijasini baholashi va ushbu bahoning aniqligi o‘rtasidagi munosabat tahlil qilinadi. O‘z bilimiga oid mulohazalarni asoslash va uning yetarliligini savol ostiga qo‘yish monitoringni rivojlantirish shartlari sifatida ko‘rib chiqiladi [7]. Mazkur qarashlar bo‘lajak o‘qituvchining o‘z qaroriga ishonchini kuzatilgan natijalar va dalillar bilan qiyoslash zaruratini asoslaydi.

Metakognitiv strategiyalarning psixologik xususiyatlari o‘z bilish imkoniyatlarini anglash, fikrlash jarayonini kuzatish va qarorlarni qayta ko‘rib chiqishga tayyorlikda namoyon bo‘ladi. Talaba puxta bilimga asoslangan xulosa bilan taxminni farqlashi, yetishmayotgan ma’lumotni aniqlashi va muqobil izohlarni tekshirishi lozim. Masalan, o‘quvchining noto‘g‘ri javobini e’tiborsizlik bilan izohlashdan oldin, savolning tushunarliligi, avvalgi bilimlarning yetarliligi va topshiriq murakkabligini tahlil qilish pedagogik vaziyatni bir tomonlama baholashning oldini olishga yordam beradi. Metakognitiv boshqaruv motivatsiya va hissiy holat bilan ham bog‘liq. B. J. Zimmerman o‘zini o‘zi boshqarib o‘rganishni maqsad qo‘yish, faoliyatni boshqarish va natijalarni refleksiv baholash jarayonlari orqali tushuntiradi [5]. Shu sababli pedagogik tayyorgarlikda xatolarni muhokama qilish va dalillarga asoslangan qayta aloqa muhiti muhimdir. Muvaffaqiyatsiz mikrodarsni tahlil qilishda talabani rejalashtirish, strategiya tanlash va faoliyatni tashkil etishdagi o‘zgartirilishi mumkin bo‘lgan omillarni aniqlashga yo‘naltirish maqsadga muvofiq.

Metakognitiv strategiyalarning pedagogik xususiyatlari ularni namoyish etish, kasbiy topshiriqlarga singdirish va mustaqil qo‘llashga bosqichma-bosqich o‘rgatishda ifodalanadi. Oliy ta’lim o‘qituvchisi pedagogik vaziyatni tahlil qilishda muammoni aniqlash, dalillarni tanlash, muqobil usullarni qiyoslash va qarorni tekshirish jarayonini ovoz chiqarib izohlaydi. Talaba dastlab yo‘naltiruvchi savollar

yordamida, keyinchalik mustaqil ravishda shu harakatlarni bajaradi. Strategiyalarni dars loyihalash, o‘quvchilar xatolarini tahlil qilish va baholash mezonlarini ishlab chiqish kabi kasbiy vazifalar orqali o‘zlashtirish ularning amaliy ahamiyatini oshiradi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining metakognitiv tayyorgarligi ikki yo‘nalishni qamrab oladi: o‘z o‘rganishi va kasbiy qarorlarini boshqarish hamda o‘quvchilarga fikrlash jarayonini kuzatishni o‘rgatish. Ikkinchi yo‘nalishda bolalarning yosh xususiyatlariga mos sodda savollar, ko‘rgazmali tayanchlar va qisqa o‘zini tekshirish topshiriqlaridan foydalanish mumkin. “Javobingni qanday tekshirding?” va “Qaysi qadamda qiynalding?” kabi savollar o‘quvchining yechim jarayonini anglashiga xizmat qiladi.

Metakognitiv strategiyalarni amaliy tayyorgarlikka kiritish uchun rejalashtirish - monitoring - baholash - tuzatish ketma-ketligi taklif etiladi. Rejalashtirishda talaba maqsad, kutilayotgan qiyinchiliklar va baholash mezonlarini belgilaydi; monitoringda o‘quvchilarning javoblari orqali tanlangan usulning samaradorligini kuzatadi; baholashda natijani maqsad bilan qiyoslaydi; tuzatishda keyingi mashg‘ulot uchun o‘zgarishlarni asoslaydi. Masalan, mikrodarsda o‘quvchilar matnning asosiy g‘oyasini aniqlashda qiynalsa, talaba topshiriq sharti, matn murakkabligi va savollar ketma-ketligini tahlil qiladi. Shundan so‘ng tayanch so‘zlarni ajratish yoki fikrlash jarayonini namuna orqali ko‘rsatish usulini tanlab, uning samaradorligini o‘quvchilarning keyingi javoblari bilan tekshiradi. Refleksiv kundalikda kuzatilgan dalil, qabul qilingan qaror va rejalashtirilgan o‘zgarish qayd etiladi. Metakognitiv tayyorgarlikni baholashda o‘zini o‘zi baholash natijalarini mikrodars kuzatuvi, dars ishlanmasi va pedagogik vaziyatlar tahlili bilan qiyoslash maqsadga muvofiq. Asosiy mezonlar sifatida maqsadni asoslash, qiyinchilikni aniqlash, strategiya tanlovini izohlash, natijani dalillar bilan baholash va yangi ma’lumot asosida qarorni o‘zgartirish taklif etiladi.

Shunday qilib, metakognitiv strategiyalar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining metodik bilimlarini ongli kasbiy harakatga aylantirishga xizmat qiladi. Metakognitiv tayyorgarlikni strategiyalar haqidagi bilim, ularni amaliy vaziyatda qo‘llash va natijani dalillar asosida tekshirish birligi sifatida talqin qilish mumkin. Ushbu strategiyalarni metodika fanlari, mikrodarslar va pedagogik amaliyotga izchil kiritish tavsiya etiladi. Taklif etilgan yondashuvning samaradorligi alohida tajriba-sinov tadqiqotida tekshirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Department for Education. Theory: How can you use assessment and feedback to greatest effect? // Support for early career teachers. - Elektron resurs. - (murojaat sanasi: 06.10.2026).

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. 2022-yil 21-iyun, PQ-289-son. - Amaldagi tahrir. - https://lex.uz/uz/acts/-6079561 (murojaat sanasi: 06.10.2026).

3. Flavell J. H. Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive-developmental inquiry // American Psychologist. - 1979. - Vol. 34, № 10. - P. 906–911. - DOI: 10.1037/0003-066X.34.10.906.

4. Schraw G., Dennison R. S. Assessing metacognitive awareness // Contemporary Educational Psychology. - 1994. - Vol. 19, № 4. - P. 460–475. - DOI: 10.1006/ceps.1994.1033.

5. Zimmerman B. J. Becoming a self-regulated learner: An overview // Theory Into Practice. - 2002. - Vol. 41, № 2. - P. 64–70. - DOI: 10.1207/s15430421tip4102_2.

6. Rasulov E. M. Pedagogik oliy ta’lim talabalari kognitiv va metakognitiv faoliyatini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari (Pedagogika nazariyasi va tarixi fani misolida): pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Qo‘qon, 2026..

7. Фомин А. Е. Метакогнитивный мониторинг решения учебных задач: психологические механизмы и условия развития в образовательном процессе: диссертация на соискание ученой степени доктора психологических наук: 19.00.07. - Москва, 2020. - 434 с. -

O‘QUVCHILARNING O‘QUV MATERIALINI O‘ZLASHTIRISHIDAGI QIYINCHILIKLARNI BARTARAF ETISHDA VITAGEN TA’LIM TEXNOLOGIYASINING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Ataxanova Fotima Akmalovna
Namangan davlat pedagogika instituti
ataxanovaaa1226@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o‘quvchilarning o‘quv materialini o‘zlashtirish jarayonida uchraydigan qiyinchiliklarni bartaraf etishda vitagen ta’lim texnologiyasidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Vitagen ta’lim o‘quvchining hayotiy tajribasi, shaxsiy kuzatuvlari, hissiy xotirasi va mavjud bilimlarini yangi o‘quv materiali bilan bog‘lashga asoslanadi. Maqolada A.S. Belkin, N.O. Verbickaya, D.I. Ruzieva, N.R. Rustamova, D. Davletnazarova va boshqa tadqiqotchilarning vitagen ta’limga oid qarashlari tahlil qilinadi. Shuningdek, O‘zbekistonda vitagen ta’lim texnologiyasini o‘quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish, o‘quv vaziyatlarini modellashtirish hamda ta’lim mazmunini hayotiy tajriba bilan bog‘lashda qo‘llashga qaratilgan tadqiqotlar yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *vitagen ta’lim, vitagen tajriba, hayotiy tajriba, o‘quv materiali, o‘zlashtirish, o‘quv qiyinchiliklari, pedagogik texnologiya, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, o‘quv vaziyati, refleksiya, mustaqil fikrlash.*

Abstract: *This article analyzes the pedagogical possibilities of using vitagenic education technology to overcome difficulties encountered by students in the process of mastering educational material. Vitagenic education is based on connecting students’ life experience, personal observations, emotional memory, and existing knowledge with new educational material. The article analyzes the views of A.S. Belkin, N.O. Verbickaya, D.I. Ruzieva, N.R. Rustamova, D. Davletnazarova, and other researchers on vitagenic education. It also reviews studies conducted in Uzbekistan aimed at applying vitagenic education technology to the development of students’ competencies, modeling educational situations, and connecting educational content with life experience.*

Keywords: *vitagenic education, vitagenic experience, life experience, educational material, mastery, learning difficulties, pedagogical technology, learner-centered education, educational situation, reflection, independent thinking.*

Аннотация: *В данной статье анализируются педагогические возможности использования технологии витагенного обучения для преодоления трудностей, возникающих у учащихся в процессе усвоения учебного материала. Витагенное обучение основывается на установлении связи жизненного опыта учащегося, его личных наблюдений, эмоциональной памяти и имеющихся знаний с новым учебным материалом. В статье анализируются взгляды А.С. Белкина, Н.О. Вербицкой, Д.И. Рузиевой, Н.Р. Рустамовой, Д. Давлетназаровой и других исследователей на витагенное обучение. Также рассматриваются исследования, проводимые в Узбекистане и направленные на применение технологии витагенного обучения для развития компетенций учащихся, моделирования учебных ситуаций и установления связи содержания образования с жизненным опытом.*

Ключевые слова: *витагенное обучение, витагенный опыт, жизненный опыт, учебный материал, усвоение, учебные трудности, педагогическая технология, личностно-ориентированное обучение, учебная ситуация, рефлексия, самостоятельное мышление.*

Kirish

Bugungi ta’lim jarayonida o‘quvchiga katta hajmdagi axborotni yetkazishning o‘zi yetarli emas. Ta’lim oluvchining o‘rganilayotgan bilimni tushunishi, uni avvalgi bilim va hayotiy tajribasi bilan bog‘lashi hamda real vaziyatlarda qo‘llay olishi muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Shu sababli zamonaviy ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatga asoslangan va o‘quvchining individual tajribasini hisobga oladigan texnologiyalarga ehtiyoj ortib bormoqda. O‘quvchilarning o‘quv materialini o‘zlashtirishida mavzuni tushunmaslik, yangi ma’lumotni mavjud bilimlar bilan bog‘lay olmaslik, nazariy bilimni amaliy vaziyatda qo‘llashdagi qiyinchiliklar hamda o‘quv jarayonidagi passivlik kabi holatlar kuzatilishi mumkin. Bunday vaziyatda o‘quvchining mavjud hayotiy tajribasidan foydalanish o‘quv materialini unga tushunarli va shaxsiy ahamiyatga ega shaklga keltirish imkonini beradi. Vitagen ta’lim konsepsiyasining asosiy mohiyati ham shundan iboratki, ta’lim jarayonida shaxsning hayot davomida to‘plagan tajribasi ta’limiy resurs sifatida qaraladi. A.S. Belkin va N.O. Verbickaya vitagen ta’limni pedagogik bilimlar tizimida shaxsning hayotiy tajribasiga tayanuvchi yondashuv sifatida izohlaydilar.[1] O‘zbekistonda ham vitagen ta’limning pedagogik imkoniyatlari bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Tadqiqotlarda o‘quvchilarning individual ehtiyojlari, real hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish va o‘z tajribasi asosida fikr bildirish imkoniyatlariga alohida e’tibor qaratilgan. Shu jihatdan, o‘quvchilarning o‘quv materialini o‘zlashtirishidagi qiyinchiliklarni bartaraf etishda vitagen ta’lim

texnologiyasining imkoniyatlarini o‘rganish bugungi pedagogik jarayon uchun dolzarb masalalardan biridir.

Asosiy qism

“Vitagen” tushunchasi insonning hayotiyligi, uning hayotiy tajribasini shakllantirishi, yangilashi va rivojlantirishi bilan bog‘liq.[1] A.S. Belkin hamda N.O. Verbickaya konsepsiyasida vitagen ta’lim shaxsning hayotiy (vitagen) tajribasi va intellektual-psixologik salohiyatini ta’limiy maqsadlarda aktuallashtirishga asoslangan ta’lim sifatida talqin qilinadi.[1] Bunda o‘quvchining hayot davomida orttirgan, shaxsiy ahamiyatga ega bo‘lgan tajribasi ta’lim jarayonining muhim manbalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, mualliflar “hayot tajribasi” (опыт жизни) va “hayotiy tajriba” (жизненный опыт) tushunchalarini farqlaydilar: birinchisi shaxsning hayotning muayyan jihatlari haqidagi xabardorligini anglatsa, ikkinchisi shaxs tomonidan bevosita boshdan kechirilgan, uning xotirasida saqlangan va tegishli vaziyatlarda amaliy jihatdan aktuallashtirilishi mumkin bo‘lgan tajribani anglatadi.[2] Demak, vitagen ta’limning mohiyati faqat mavjud tajribani ta’limga kiritishdan iborat emas, balki uni o‘quv jarayonida faollashtirish, qayta anglash va yangi, konstruktiv faoliyat shakllarini yaratishdan iborat. Vitagen yondashuvda o‘quvchi tayyor bilimni shunchaki qabul qiluvchi emas, balki o‘z tajribasi orqali yangi bilimni anglaydigan faol subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda o‘qituvchi o‘quvchining mavjud tajribasini aniqlaydi, uni yangi mavzu bilan bog‘laydi va o‘quvchini o‘z tajribasini qayta tahlil qilishga yo‘naltiradi. Bu vitagen ta’limni o‘quv materialini o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklarni kamaytiruvchi yondashuv sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi. O‘quvchi yangi mavzuni o‘zining avvalgi tajribasi bilan bog‘lay olganida, o‘rganilayotgan material unga abstrakt va begona axborot sifatida emas, balki ma’lum darajada tanish bo‘lgan hayotiy mazmun sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbekistondagi tadqiqotlarda vitagen ta’lim turli ta’limiy maqsadlar bilan bog‘lab o‘rganilmoqda. D. Davletnazarova vitagen ta’lim asosida talabalarning axborot-analitik kompetensiyalarini rivojlantirish masalasini tadqiq etgan. Muallif vitagen ta’limning o‘quv jarayonida axborot-analitik kompetensiyalarni shakllantirishdagi o‘rni va ahamiyatini o‘rganib, interaktiv yondashuvlar va ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish zarurligini ko‘rsatadi.[3] N.R. Rustamovaning tadqiqotlari vitagen ta’limni ta’lim jarayonida qo‘llashning turli jihatlarini qamrab oladi. Jumladan, muallif vitagen axborotdan foydalanish, vitagen o‘quv vaziyatlari asosida talabalarning kognitiv jarayonlarini rivojlantirish hamda media resurslar asosida vitagen tajribadan foydalanish masalalarini o‘rgangan.[6] I.A. Samatovaning tadqiqoti esa vitagen ta’limni bevosita o‘smir yoshdagi o‘quvchilar bilan bog‘laydi. Tadqiqotda o‘quvchining real hayotida uchragan ijtimoiy vaziyatlarni tahlil qilishi, o‘z

hayotidagi voqeani muayyan nuqtai nazardan izohlashi, ma'lumotlarni tekshirishi va mustaqil xulosa chiqarishi kabi faoliyatlar vitagen texnologiya bilan bog'langan.[5] Bu tadqiqotlar vitagen ta'limning imkoniyatlari faqat bilim berish bilan cheklanmasligini ko'rsatadi. Undan kompetensiyalarni rivojlantirish, mustaqil fikrlashni shakllantirish, o'quv vaziyatlarini modellashtirish va ta'lim mazmunini real hayot bilan bog'lash vositasi sifatida foydalanish mumkin. Raqamli axborot oqimi keskin ortib borayotgan sharoitda o'quvchining katta hajmdagi ma'lumotni yodlab olishi emas, balki uni tushunishi, tahlil qilishi va hayotiy vaziyatlarda qo'llashi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biroq vitagen texnologiyani qo'llash o'qituvchidan puxta metodik tayyorgarlikni talab qiladi. O'quvchining har qanday tajribasi avtomatik ravishda ta'limiy tajribaga aylanmaydi. Uni o'quv maqsadi bilan bog'lash, tahlil qilish va ilmiy bilim bilan boyitish zarur.

Xulosa va tavsiyalar

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, vitagen ta'lim texnologiyasi o'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirishidagi ayrim qiyinchiliklarni bartaraf etishda istiqbolli pedagogik imkoniyatlarga ega. Uning asosiy afzalligi o'quv materialini o'quvchining mavjud hayotiy tajribasi bilan bog'lash orqali bilimni shaxsiy mazmun bilan boyitishdan iborat. O'zbekistonlik tadqiqotchilarning ishlari ham vitagen ta'limning kompetensiyalarni rivojlantirish, o'quv vaziyatlarini modellashtirish, axborot-analitik faoliyatni kuchaytirish va o'smirlarning ijtimoiy-siyosiy kompetensiyasini shakllantirishdagi imkoniyatlarini ko'rsatmoqda.

Shu asosda quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

1. O'qituvchilar yangi mavzuni boshlashdan oldin o'quvchilarning shu mavzu bilan bog'liq hayotiy tajribasini aniqlashi lozim.
2. Dars jarayonida real hayotiy vaziyatlar, muammoli savollar va shaxsiy tajribaga asoslangan topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq.
3. O'quvchilarning shaxsiy tajribasi ilmiy bilim bilan bog'lanishi va pedagog tomonidan to'g'ri metodik yo'naltirilishi kerak.
4. Vitagen topshiriqlardan faqat ijtimoiy fanlarda emas, balki ona tili, tarix, biologiya, geografiya, boshlang'ich ta'lim va boshqa fanlarda ham foydalanish mumkin.

Umuman olganda, vitagen ta'lim texnologiyasi o'quvchini tayyor axborotni qabul qiluvchi subyektdan o'z tajribasi asosida bilimni anglaydigan va uni yangi vaziyatlarda qo'llay oladigan faol ta'lim subyektiga aylantirish imkonini beradi. Shu sababli mazkur texnologiyani o'quv materialini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarni kamaytirishga yo'naltirilgan zamonaviy pedagogik yondashuvlardan biri sifatida o'rganish ilmiy va amaliy jihatdan ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Белкин А.С., Вербицкая Н.О. «Витагенное» образование как научно-педагогическая категория. Образование и наука. – 2001. – № 3 (9). – С. 18–28.

2. Белкин А.С. “Теория и практика витагенного обучения. Голографический подход” Образование и наука. – 1999. – № 2 (2). – С. 34–44.

3. Davletnazarova D. “Vitagen ta’lim asosida talabalarning axborot-analitik kompetensiyalarini rivojlantirish” ResearchBib Journal. – 2025. – Vol. 2, № 3. – B. 866–870.

4. Ruzieva D.I., Rustamova N.R. “Vitagen hamda vitagen ta’lim tushunchasiga oid nazariy tadqiqotlar tahlili” Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. – 2021. – № 4. – B. 442–446.

5. Samatova I.A. “Vitagen ta’lim texnologiyasi vositasida o‘smir yoshdagi o‘quvchilarning ijtimoiy-siyosiy kompetensiyasini shakllantirish”: 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi ixtisosligi bo‘yicha PhD dissertatsiyasi. – Toshkent, 2026. – O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi ma’lumotlari.

6. Rustamova N.R. “Applying Vitagenic Information in Education” Academic Research in Educational Sciences. – 2021. – Vol. 2, CSPI Conference 3. – B. 438–440.

7. Rustamova N.R. “Training of students of cognitive processes based on vitagen educational situations” International Journal of Advanced Science and Technology. – 2020. – Vol. 29, № 8. – P. 869–872.

HARBIY AVIATSIYA MUTAXASSISLARINI TAYYORLASH UCHUN HARBIY KADRLARNI O‘QITUVCHI SIFATIDA QAYTA TAYYORLASHNING DOLZARBLIGI

Bahramov Umarali Xusanovich
O‘zbekiston Respublikasi harbiy xavfsizlik va mudofaa Universiteti Harbiy aviatsiya Instituti

Annotatsiya. *Maqolada harbiy aviatsiyada xizmat qilish bo‘yicha amaliy tajribaga ega bo‘lgan harbiy xizmatchilarni oliy harbiy aviatsiya ta’lim muassasalarida keyinchalik pedagogik faoliyat olib borish uchun kasbiy qayta tayyorlashning dolzarbligi ko‘rib chiqiladi. Uchuvchi-ofitserlar, shturmanlar, muhandislik-aviatsiya xizmati mutaxassislari hamda boshqa aviatsiya mutaxassislarida harbiy-kasbiy bilim va tajriba bilan bir qatorda maxsus psixologik-pedagogik, metodik, raqamli va tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish zaruriyati asoslab beriladi.*

Mazkur muammoning dolzarbligi aviatsiya texnikasi, boshqaruv tizimlari, navigatsiya va aloqa vositalari, uchuvchisiz aviatsiya majmualari, axborot texnologiyalarining doimiy rivojlanishi hamda harbiy aviatsiya kadrlari kasbiy tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablarning o‘zgarib borishi bilan belgilanadi. Harbiy xizmatchining amaliy tajribasi bo‘lajak aviatsiya mutaxassislarini tayyorlashda muhim resurs hisoblanishi, biroq ushbu tajribani kursantlarga samarali yetkazish maxsus pedagogik tayyorgarlikni talab qilishi ko‘rsatib beriladi.

Harbiy xizmatchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash uchun kasbiy qayta tayyorlash modeli taklif etilib, unda harbiy-kasbiy, psixologik-pedagogik, metodik, raqamli va amaliy komponentlar o‘zaro uyg‘unlashtirilgan. Aviatsiya trenajyorlaridan foydalanish, parvoz va shtatdan tashqari vaziyatlarni modellashtirish, keys-texnologiyalar hamda raqamli ta’lim vositalarini qo‘llashga alohida e’tibor qaratiladi.

Tajribali harbiy xizmatchilarni o‘qituvchi sifatida maqsadli qayta tayyorlash tizimini yaratish aviatsiya kadrlarini tayyorlash sifatini oshirish va harbiy aviatsiyada kasbiy tajriba uzviyligini ta’minlashning muhim shartlaridan biri ekanligi haqida xulosa qilinadi.

Kalit so‘zlar: *Harbiy aviatsiya, harbiy aviatsiya ta’limi, aviatsiya kadrlari, uchuvchilar tarkibi, ofitserlar, harbiy oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchisi, kasbiy qayta tayyorlash, pedagogik kompetentlik, harbiy-kasbiy tayyorgarlik, parvoz*

tayyorgarligi, aviatsiya trenajyori, raqamli texnologiyalar, uchuvchisiz aviatsiya majmualari, kasbiy kompetentlik.

KIRISH

Harbiy aviatsiya harbiy faoliyatning eng murakkab texnologik sohalaridan biridir. Uning samarali faoliyat yuritishi nafaqat havo kemalari va aviatsiya majmualarining texnik xususiyatlariga, balki shaxsiy tarkibning kasbiy tayyorgarlik darajasiga ham bog‘liq.

Zamonaviy harbiy aviatsiya mutaxassisi aviatsiya texnikasidan foydalanish, parvoz vazifalarini bajarish, navigatsiya, boshqaruv, aloqa vositalaridan foydalanish, havo vaziyatini tahlil qilish, avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish hamda vaqt tanqisligi sharoitida qarorlar qabul qilish bilan bog‘liq bo‘lgan kompetensiyalar majmuiga ega bo‘lishi kerak.

Aviatsiya texnikasi va avtomatlashtirish vositalarining rivojlanishi uchuvchilar hamda muhandislik-texnik tarkibning kasbiy faoliyatini doimiy ravishda murakkablashtirib bormoqda. Shu bilan birga, uchuvchisiz aviatsiya tizimlari, raqamli boshqaruv vositalari, avtomatlashtirilgan majmualar va zamonaviy trenajyor texnologiyalaridan foydalanish ko‘lami kengaymoqda.

Bunday sharoitda oliy harbiy aviatsiya ta’lim muassasalari o‘qituvchilariga qo‘yiladigan talablar ham ortib bormoqda.

Aviatsiya yo‘nalishidagi o‘qituvchi nafaqat o‘qitilayotgan fan mazmunini chuqur bilishi, balki yetarli amaliy tajribaga ega bo‘lishi, real kasbiy vaziyatlarni tahlil qila olishi, aviatsiya mutaxassisining harakatlarini modellashtirishi va kursantlarda murakkab hamda nostandart sharoitlarda qaror qabul qilishga tayyorgarlikni shakllantira olishi kerak.

Shu sababli tajribali harbiy xizmatchilarni oliy harbiy aviatsiya ta’lim muassasalarida o‘qituvchi sifatida faoliyat yuritish uchun kasbiy qayta tayyorlash masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda.

HARBIY AVIATSIYA TA’LIMI TIZIMIDA O‘QITUVCHILIK FAOLIYATINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Harbiy aviatsiya ta’limi oliy kasbiy ta’limning boshqa ko‘plab yo‘nalishlaridan yuqori darajadagi amaliy yo‘naltirilganligi bilan farq qiladi.

Aviatsiya mutaxassisini tayyorlash nazariy ta’lim, amaliy mashg‘ulotlar, trenajyor tayyorgarligi, kasbiy vaziyatlarni modellashtirish va mutaxassislikka qarab bevosita parvoz tayyorgarligini o‘z ichiga oladi.

Shu sababli harbiy aviatsiya oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchisi bir vaqtning o‘zida bir nechta kasbiy funksiyalarni bajaradi:

- ta’lim berish;

- tarbiyaviy;
- metodik;
- amaliyotga yo‘naltirilgan;
- ilmiy-tadqiqot;
- tashkiliy;
- maslahat berish.

O‘qituvchining nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lay olish qobiliyati alohida ahamiyat kasb etadi.

Masalan, aerodinamika, havo navigatsiyasi, aviatsiyadan foydalanish taktikasi, aviatsiya texnikasidan foydalanish, aviatsiya xavfsizligi yoki alohida holatlarda harakat qilishni o‘rganish nafaqat nazariy materialni yodlashga, balki uni keyingi kasbiy faoliyatda qo‘llashga yo‘naltirilishi lozim.

Demak, o‘qituvchi kasbiy tajribani o‘quv topshiriqlari tizimiga aylantira olishi kerak.

HARBIY XIZMATCHINING AMALIY TAJRIBASI AVIATSIYA KADRLARINI TAYYORLASH RESURSI SIFATIDA

Tajribali ofitserlarni o‘qituvchilik faoliyatiga jalb etishning muhim afzalliklaridan biri ularning amaliy tajribaga ega ekanligidir.

Ofitser-uchuvchi, shturman, muhandislik-aviatsiya xizmati mutaxassisi yoki aviatsiya bo‘linmasi komandiri faqat o‘quv adabiyotlarini o‘rganish orqali to‘liq shakllantirib bo‘lmaydigan bilimlarga ega.

Amaliy tajriba o‘qituvchiga quyidagilarni amalga oshirish imkonini beradi:

- real kasbiy misollar keltirish;
- xatolarning yuzaga kelish sabablarini tahlil qilish;
- qaror qabul qilish xususiyatlarini namoyish etish;
- inson omilining ahamiyatini ochib berish;
- nostandart vaziyatlarni modellashtirish;
- murakkab vaziyatlarda harakat qilish tartibini tushuntirish;
- kursantlarda kasbiy tafakkurni shakllantirish.

Cheklangan vaqt va to‘liq bo‘lmagan axborot sharoitida harakat qilish tajribasi alohida qiymatga ega.

Bo‘lajak aviatsiya mutaxassisi nafaqat harakatlar algoritmini bilishi, balki muayyan vaziyatda nima uchun aynan shu qaror maqbul ekanligini ham tushunishi kerak.

Shu sababli tajribali harbiy xizmatchi samarali o‘qituvchiga aylanishi mumkin.

Biroq muhim bir qarama-qarshilik mavjud: aviatsiya faoliyatini professional darajada bajarish qobiliyati avtomatik ravishda boshqalarga ushbu faoliyatni o‘rgatish qobiliyatini anglatmaydi.

Ofitser yuqori darajadagi parvoz yoki muhandislik malakasiga ega bo‘lishi mumkin, biroq pedagogik tayyorgarlik bo‘lmasa, quyidagi jarayonlarda qiyinchiliklarga duch kelishi ehtimoli mavjud:

- o‘quv materialini tizimlashtirish;
- mashg‘ulot maqsadlarini shakllantirish;
- o‘qitish usullarini tanlash;
- murakkab jarayonlarni tushuntirish;
- kursantlarning bilimlarini baholash;
- teskari aloqani tashkil etish;
- zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish.

Aynan ushbu qarama-qarshilik maqsadli kasbiy qayta tayyorlash zaruratini belgilaydi.

AVIATSIYA KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH DOLZARBLIGINING ASOSIY OMILLARI

1. Aviatsiya texnikasining murakkablashuvi

Zamonaviy havo kemalari murakkab axborot-texnik tizimlardan iborat.

Ularning tarkibida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, zamonaviy navigatsiya majmualari, aloqa vositalari, bort axborot tizimlari va boshqa yuqori texnologik komponentlardan foydalaniladi.

Texnikaning o‘zgarishi o‘qituvchilar tayyorgarligi mazmunini muntazam yangilab borishni talab qiladi.

O‘qituvchi nafaqat mavjud tizimlarni bilishi, balki yangi texnologiyalarni mustaqil ravishda o‘zlashtirish va tegishli bilimlarni ta’lim oluvchilarga yetkazish qobiliyatiga ham ega bo‘lishi kerak.

2. Uchuvchisiz aviatsiya tizimlarining rivojlanishi

Alohida omil sifatida uchuvchisiz aviatsiya tizimlarining jadal rivojlanishini ko‘rsatish mumkin.

Uchuvchisiz majmualar harbiy mutaxassislarni tayyorlashning mustaqil yo‘nalishiga aylanib, ayni paytda taktika, boshqaruvni tashkil etish va harbiy xizmatchilarning kasbiy kompetensiyalarining o‘zgarishiga ham ta’sir ko‘rsatmoqda.

Bu esa an’anaviy harbiy aviatsiya bilimlarini uchuvchisiz aviatsiya tizimlari mutaxassislarini tayyorlashning yangi yo‘nalishlari bilan uyg‘unlashtira oladigan o‘qituvchilar tarkibini shakllantirish zaruratini yuzaga keltiradi.

3. Trenajyor tayyorgarligining roli ortishi

Aviatsiya faoliyati yuqori darajadagi mas’uliyat va potensial xavflar bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli trenajyor tayyorgarligi alohida ahamiyatga ega.

Zamonaviy trenajyorlar quyidagilarni modellashtirish imkonini beradi:

- turli meteorologik sharoitlar;
- aviatsiya jihozlarining ishdan chiqishi;
- shtatdan tashqari vaziyatlar;
- havo vaziyatining o‘zgarishi;
- qaror qabul qilish uchun vaqtning cheklanganligi;
- ekipajning o‘zaro hamkorligi;
- turli xizmatlarning harakatlari.

Biroq trenajyorning samaradorligi nafaqat uning texnik imkoniyatlariga, balki o‘qituvchi yoki instruktorning kompetentligiga ham bog‘liq.

Mutaxassis ssenariyni to‘g‘ri shakllantira olishi, o‘quv vazifasini belgilashi, ta’lim oluvchining harakatlarini kuzatishni tashkil etishi va keyingi tahlilni o‘tkaza olishi kerak.

Shunday qilib, raqamli va trenajyor tayyorgarligi bo‘lajak harbiy aviatsiya o‘qituvchilarini qayta tayyorlashning majburiy komponentlaridan biri bo‘lishi lozim.

HARBIY AVIATSIYA O‘QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENSIYALARI

Harbiy aviatsiya oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini o‘zaro bog‘liq komponentlar majmui sifatida ifodalash mumkin:

PKpr = VK + LK + PPK + MK + RK + IK + NIK,

bu yerda:

VK — harbiy-kasbiy kompetensiyalar;

LK — parvoz-aviatsiya yoki muhandislik-aviatsiya kompetensiyalari;

PPK — psixologik-pedagogik kompetensiyalar;

MK — metodik kompetensiyalar;

RK — raqamli kompetensiyalar;

IK — axborot-kommunikativ kompetensiyalar;

NIK — ilmiy-tadqiqot kompetensiyalari.

Harbiy aviatsiya o‘qituvchisining o‘ziga xos xususiyati ushbu komponentlarni integratsiya qilish zaruratidan iborat.

Faqat yuqori darajadagi harbiy-kasbiy kompetentlikning o‘zi yetarli emas.

Masalan, tajribali uchuvchi parvoz vazifalarini mukammal bajara olishi mumkin, biroq o‘qituvchilik faoliyati uchun unga qo‘shimcha ravishda quyidagi ko‘nikmalar zarur:

- mashg‘ulotning ta’limiy maqsadini aniqlash;
- kursantlarning boshlang‘ich bilim darajasini aniqlash;
- maqbul o‘qitish usulini tanlash;
- murakkab materialni tushuntirish;

- amaliy topshiriqni shakllantirish;
- nazoratni tashkil etish;
- xatolarni tahlil qilish;
- teskari aloqani shakllantirish;
- kompetensiyaning shakllanganlik darajasini baholash.

Demak, pedagogik qayta tayyorlash kasbiy tajribani pedagogik kompetentlikka aylantirishni ta’minlashi lozim.

KASBIY QAYTA TAYYORLASH DASTURINING MAZMUNI

Harbiy aviatsiya o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda dasturni modulli tamoyil asosida tashkil etish maqsadga muvofiq.

1-modul. Oliy harbiy maktab pedagogikasi

Oliy ta’lim pedagogikasi asoslari, kursantlarni o‘qitish va tarbiyalash qonuniyatlari, ta’lim jarayonini tashkil etish.

2-modul. Harbiy psixologiya va kasbiy faoliyat psixologiyasi

Harbiy xizmatchilarni tayyorlashning psixologik xususiyatlari, stressli vaziyatlarga barqarorlikni shakllantirish, qaror qabul qilish xususiyatlari va kasbiy motivatsiya.

3-modul. Aviatsiya fanlarini o‘qitish metodikasi

Quyidagi fanlarni o‘qitish xususiyatlari:

- aerodinamika;
- aviatsiya texnikasi;
- navigatsiya;
- taktika;
- aviatsiya majmualaridan foydalanish;
- aviatsiya xavfsizligi;
- muhandislik-aviatsiya tayyorgarligi;
- boshqa aviatsiya fanlari.

4-modul. Trenajyor texnologiyalari

Aviatsiya trenajyorlarida mashg‘ulotlarni loyihalashtirish va o‘tkazish, ssenariylarni ishlab chiqish, ta’lim oluvchilarning harakatlarini tahlil qilish va mashg‘ulot yakunlarini muhokama qilish.

5-modul. Raqamli texnologiyalar

Elektron ta’lim resurslari, raqamli modellar, multimedia vositalari, ta’limni boshqarish tizimlari va boshqa raqamli vositalardan foydalanish.

6-modul. Aviatsiya hodisalari va xatolarni tahlil qilish metodikasi

Xatolarni pedagogik jihatdan tahlil qilishga alohida e’tibor qaratish zarur.

Ta’lim oluvchining xatosi faqat bilim yoki ko‘nikmalarning yetishmasligi sifatida emas, balki qiyinchilik sabablarini aniqlash va ta’lim jarayonini tuzatish imkonini beruvchi diagnostik material sifatida ham ko‘rib chiqilishi kerak.

7-modul. Ilmiy-tadqiqot faoliyati

Pedagogik va harbiy-kasbiy tadqiqotlarni olib borish asoslari, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, ilmiy maqola va ma’ruzalar tayyorlash.

8-modul. Pedagogik amaliyot

Keyinchalik ekspert tahlili o‘tkazilgan holda o‘quv mashg‘ulotlarini mustaqil ravishda olib borish.

AVIATSIYA YO‘NALISHIDAGI BO‘LAJAK O‘QITUVCHINI TAYYORLASH METODIKASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Amaliy ta’lim usullariga alohida e’tibor qaratish zarur.

Eng samarali usullardan biri kasbiy vaziyatlarni modellashtirish usulidir.

Masalan, kursantga tashqi sharoitlarning o‘zgarishi yoki qandaydir nosozlik yuzaga kelgan vaziyatda qaror qabul qilishni talab etadigan shartli vaziyat beriladi.

O‘qituvchining vazifasi to‘g‘ri algoritmni darhol aytib berish emas, balki vaziyatni mustaqil tahlil qilish jarayonini tashkil etishdan iborat.

Bunda quyidagilar baholanadi:

- tahlil qilish tezligi;
- vaziyatni baholashning to‘liqligi;
- harakatlarning izchilligi;
- qabul qilingan qarorning asoslanganligi;
- oqibatlarni oldindan prognoz qilish qobiliyati;
- boshqa mutaxassislar bilan hamkorlik.

Bunday metodika nafaqat bilimlarni, balki kasbiy tafakkurni ham shakllantirish imkonini beradi.

Mashg‘ulot yoki o‘quv vaziyatini tahlil qilish ham muhim vosita hisoblanadi.

Topshiriq bajarilgandan so‘ng o‘qituvchi ta’lim oluvchi bilan birgalikda quyidagilarni tahlil qiladi:

- dastlabki vaziyat;
- qabul qilingan qaror;
- harakatlar ketma-ketligi;
- yo‘l qo‘yilgan xatolar;
- muqobil variantlar;
- qabul qilingan qarorning oqibatlari;
- shunga o‘xshash xatolarning oldini olish usullari.

Bo‘lajak o‘qituvchi uchun bunday faoliyat pedagogik tayyorgarlikning majburiy elementi bo‘lishi lozim.

USTOZ-SHOGIRDLIK BO‘LAJAK O‘QITUVCHINING KASBIY SHAKLLANISH MEXANIZMI SIFATIDA

Qayta tayyorlashni tugatgandan so‘ng yosh o‘qituvchi barcha vazifalar majmuini mustaqil ravishda hal qilishga har doim ham tayyor bo‘lavermaydi.

Shuning uchun ustoz-shogirdlik tizimi muhim element hisoblanadi.

Yangi tayinlangan o‘qituvchiga tajribali harbiy aviatsiya oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchisini ustoz sifatida biriktirish maqsadga muvofiq.

Ustoz quyidagi yo‘nalishlarda yordam ko‘rsatishi mumkin:

- metodik maslahat berish;
- mashg‘ulotlarda ishtirok etish;
- o‘tkazilgan mashg‘ulotlarni tahlil qilish;
- o‘quv materiallarini ishlab chiqishda yordam berish;
- kursantlarni baholash masalalari bo‘yicha maslahat berish;
- ilmiy nashrlarni tayyorlashga ko‘maklashish;
- trenajyorlar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- kasbiy tajriba almashinuvini tashkil etish.

Bunda ustoz-shogirdlikni nazorat vositasi sifatida emas, balki kasbiy rivojlanish mexanizmi sifatida ko‘rib chiqish lozim.

TAKLIF ETILAYOTGAN KASBIY QAYTA TAYYORLASH MODELI

Qayta tayyorlash tizimi beshta ketma-ket bosqichni o‘z ichiga olishi mumkin.

I bosqich — kasbiy diagnostika

Quyidagilar aniqlanadi:

- harbiy-kasbiy tayyorgarlik darajasi;
- amaliy aviatsiya tajribasi;
- pedagogik bilimlar;
- raqamli kompetentlik;
- kommunikativ ko‘nikmalar;
- tadqiqotchilik salohiyati.

II bosqich — pedagogik-nazariy tayyorgarlik

Pedagogika, psixologiya, metodika va ta’lim nazariyasi sohasida bazaviy bilimlar shakllantiriladi.

III bosqich — aviatsiyaviy-metodik tayyorgarlik

Pedagogik bilimlar muayyan aviatsiya mutaxassisligi bilan integratsiya qilinadi.

IV bosqich — pedagogik amaliyot

Tinglovchi mustaqil ravishda mashg‘ulotlar, trenajyor mashqlari va amaliy topshiriqlarni ishlab chiqadi hamda o‘tkazadi.

V bosqich — yakuniy attestatsiya

Mutaxassisning o‘qituvchi funksiyalarini mustaqil ravishda bajarish qobiliyati baholanadi.

Yakuniy attestatsiya quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin:

- ochiq mashg‘ulot;
- trenajyor mashg‘ulotini o‘tkazish;
- o‘quv-uslubiy majmua ishlab chiqish;
- pedagogik vaziyatni hal qilish;
- metodik ishlanmani himoya qilish;
- ilmiy-tadqiqot ishini bajarish.

HARBIY XIZMATCHINING O‘QITUVCHILIK FAOLIYATIGA TAYYORLIGI MEZONLARI

Ofitserning o‘qituvchi sifatida ishlashga tayyorligini obyektiv baholash uchun mezonlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Motivatsion mezon

Harbiy xizmatchining pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish istagining anglanganlik darajasi va kasbiy rivojlanishga tayyorligini belgilaydi.

Kognitiv mezon

Pedagogik, psixologik va metodik bilimlar darajasini tavsiflaydi.

Faoliyat mezoni

Mashg‘ulotlarni mustaqil ravishda loyihalashtirish va o‘tkazish qobiliyatini aks ettiradi.

Kommunikativ mezon

Kursantlar va hamkasblar bilan samarali hamkorlik qilish qobiliyatini belgilaydi.

Raqamli mezon

Zamonaviy axborot va trenajyor texnologiyalaridan foydalanish qobiliyatini tavsiflaydi.

Refleksiv mezon

O‘z pedagogik faoliyatini tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va ta’lim usullarini takomillashtirish qobiliyatini aks ettiradi.

MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

Harbiy aviatsiya kadrlarini qayta tayyorlashni tashkil etishdagi asosiy muammolar quyidagilar bo‘lishi mumkin:

pedagogik tayyorgarlik davomiyligining yetarli emasligi;

nazariy materialning amaliyotdan ustunligi;

individual ta’lim trayektoriyalarining mavjud emasligi;

pedagogikaning aviatsiya mutaxassisligi bilan yetarli darajada integratsiya qilinmaganligi;

zamonaviy trenajyor texnologiyalaridan yetarli darajada foydalanilmasligi;

samarali ustoz-shogirdlik tizimining mavjud emasligi;

o‘qituvchining tayyorgarligini baholashga formal yondashuv.

Mazkur muammolarni hal etish uchun:

birinchidan, qayta tayyorlash dasturlarini muayyan aviatsiya mutaxassisliklarini hisobga olgan holda bevosita ishlab chiqish;

ikkinchidan, pedagogik amaliyot hajmini oshirish;

uchinchidan, trenajyor tayyorgarligini kasbiy qayta tayyorlash dasturiga kiritish;

to‘rtinchidan, ustoz-shogirdlik tizimini joriy etish;

beshinchidan, individual ta’lim trayektoriyalaridan foydalanish;

oltinchidan, harbiy aviatsiya o‘qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlanishi tizimini shakllantirish maqsadga muvofiq.

XULOSA

Harbiy xizmatchilarni oliy harbiy aviatsiya ta’lim muassasalarida keyinchalik pedagogik faoliyat olib borish uchun kasbiy qayta tayyorlash aviatsiya kadrlarini tayyorlash tizimini takomillashtirishning muhim shartlaridan biridir.

Mazkur muammoning alohida ahamiyati aviatsiya faoliyatining yuqori texnologik xususiyati va mas’uliyat darajasi bilan belgilanadi. Zamonaviy aviatsiya mutaxassisi doimiy ravishda takomillashib borayotgan aviatsiya texnikasi, avtomatlashtirilgan tizimlar, raqamli texnologiyalar, trenajyor majmualari va uchuvchisiz aviatsiya tizimlari bilan ishlashga tayyor bo‘lishi kerak.

Bunday sharoitda harbiy aviatsiya oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchisi nafaqat chuqur harbiy-kasbiy bilim va amaliy tajribaga, balki rivojlangan pedagogik, metodik, psixologik, raqamli va tadqiqotchilik kompetentligiga ham ega bo‘lishi lozim.

Tajribali ofitser kasbiy bilim va amaliy tajribaning muhim tashuvchisi hisoblanadi. Biroq uning kasbiy tajribasi pedagogik resursga aylantirilishi kerak. Buning uchun maqsadli kasbiy qayta tayyorlash zarur.

Eng samarali model sifatida harbiy-kasbiy tayyorgarlik, oliy maktab pedagogikasi, psixologiya, aviatsiya fanlarini o‘qitish metodikasi, trenajyor tayyorgarligi, raqamli texnologiyalar, pedagogik amaliyot va ustoz-shogirdlikni birlashtiruvchi tizimni ko‘rsatish mumkin.

Tajribali ofitserlarning amaliy tajribasini aviatsiya mutaxassislarining yangi avlodiga yetkazish uchun shart-sharoitlar yaratish alohida ahamiyatga ega. Mazkur nuqtai nazardan, harbiy aviatsiya oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchisi nafaqat bilim manbai, balki bo‘lajak ofitserning kasbiy tafakkuri, xavfsizlik madaniyati,

mas’uliyati va kasbiy vazifalarni bajarishga tayyorgarligini shakllantirishning muhim subyekti hisoblanadi.

Shunday qilib, harbiy kadrlarni pedagogik faoliyat uchun tizimli ravishda kasbiy qayta tayyorlash harbiy aviatsiya ta’limini rivojlantirishning strategik resursi sifatida qaralishi lozim. Uni amalga oshirish kasbiy tajribaning uzviyligini ta’minlash, kursantlarni tayyorlashning amaliy yo‘naltirilganligini oshirish va harbiy aviatsiya mutaxassislarini tayyorlashning zamonaviy talablariga javob bera oladigan o‘qituvchilar tarkibini shakllantirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 1-fevraldagi O‘RQ-901-son «Pedagogning maqomi to‘g‘risida»gi Qonuni.
3. Федеральный закон от 29.12.2012 № 273-ФЗ «Об образовании в Российской Федерации».
4. Федеральный закон от 27.05.1998 № 76-ФЗ «О статусе военнослужащих».
5. Приказ Министра обороны Российской Федерации от 15.05.2021 № 270 «Об определении Порядка и условий реализации военнослужащими Вооруженных Сил Российской Федерации, проходящими военную службу по контракту, права на профессиональную переподготовку по одной из гражданских специальностей».
6. Приказ Министра обороны Российской Федерации от 30.05.2022 № 308 «Об организации образовательной деятельности в федеральных государственных организациях, осуществляющих образовательную деятельность и находящихся в ведении Министерства обороны Российской Федерации».
7. Приказ Министра обороны Российской Федерации от 15.09.2014 № 670 «О мерах по реализации отдельных положений статьи 81 Федерального закона от 29.12.2012 № 273-ФЗ “Об образовании в Российской Федерации”».
8. UNESCO. Strengthening Teacher Education in Uzbekistan: Linking Pre-Service and In-Service Training through Continuous Professional Development.
9. UNESCO. Adapting and Scaling Teacher Professional Development Approaches in Uzbekistan.
10. Зимняя И. А. Ключевые компетенции — новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. — 2003. — № 5. — С. 34–42.

11. Беспалько В. П. Слагаемые педагогической технологии. — М.: Педагогика, 1989.

12. Вербицкий А. А. Активное обучение в высшей школе: контекстный подход. — М.: Высшая школа, 1991.

13. Андреев В. И. Педагогика: учебный курс для творческого саморазвития. — Казань: Центр инновационных технологий, 2000.

14. Сериков В. В. Личностно ориентированное образование: поиск новой парадигмы. — Волгоград: Перемена, 1998.

15. Материалы международных и национальных исследований в области профессионального развития педагогических кадров и цифровизации высшего образования.

16. Нормативные и методические документы, регулирующие организацию летной, инженерно-авиационной, тренажерной и профессиональной подготовки военнослужащих.

17. Научные публикации по вопросам профессиональной подготовки летного состава, человеческого фактора, авиационной безопасности, тренажерной подготовки и педагогики высшей военной школы.

A COMPARATIVE ANALYSIS OF GENDER IN GERMAN AND RUSSIAN LANGUAGES

Berdibaeva Bakhitgul
Karakalpak State University

Abstract: *In this paper categories of gender in German and Russian languages are analyzed based on comparative-typological features. The aim of the paper is to identify similarities and differences in how gender functions in both languages. The findings show that while both languages employ a three-gender system, grammatical gender is determined syntactically in German, whereas it is determined morphologically in Russian.*

Keywords: *gender, masculine, feminine, neuter, comparative linguistics, grammatical category.*

The main function of modern comparative linguistics is to contrast languages belonging to different language families. Specifically, German is a member of Germanic branch whereas Russian belongs to the Slavic branch of the Indo-European family tree. Consequently the comparison of gender in these languages arouses people`s attention theoretically and practically. Students whose first language is Karakalpak, Uzbek or Kazakh can find the concept of grammatical gender challenging as their native languages lack grammatical gender. Because of this the students make more mistakes in this topic while learning these two languages. The importance of this thesis is that both languages have the same 3 genders: masculine, feminine and neuter, but their grammatical nature varies from each other fundamentally.

A comparative analysis demonstrates that grammatical genders function in a various way in German and Russian. In German language genders are mostly syntactic which means that nouns cannot indicate the gender in most cases, instead definite articles function as a primary source. For example: der- for masculine, die for feminine and das for neuter. In the words: der Löffel (the spoon), die Gabel (the fork) and das Messer (the knife) grammatical gender can not be revealed based on the noun endings. The definite articles give clues regarding gender. However, there are suffixes that guarantee gender.

The nouns that ends with -ung, -heit, -keit, -schaft, -tät, -ion are always feminine. Die Zeitung (the newspaper), die Freiheit (the freedom), die Möglichkeit

(the possiblity), die Freundschaft (the friendship), die Universität (the university), die Nation (the nation).

Tahlil natijasida jadid ma’rifatparvarlarining ta’limga oid qarashlari o‘z davrining ijtimoiy ehtiyojlariga javob bergan, ayni paytda zamonaviy pedagogik jarayon uchun ham muhim metodologik g‘oyalarni o‘zida mujassam etgani aniqlandi. Behbudiy ta’lim mazmuniga dunyoviy fan va zamonaviy bilimlarni kiritish, maktabni davr talabiga moslashtirish hamda jamiyatga zarur mutaxassislarni tayyorlash masalalariga urg‘u bergan. Avloniy esa ta’lim va tarbiyaning uzviyligi, ilm, fikr va axloqiy kamolot masalalarini markazga qo‘ygan.

Shu asosda quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin: birinchidan, jadidlarning pedagogik merosini ta’lim fanlari mazmunida faqat tarixiy ma’lumot sifatida emas, balki muammoli va tahliliy topshiriqlar manbasi sifatida qo‘llash; ikkinchidan, Behbudiy va Avloniy asarlaridan olingan fikrlar asosida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar tashkil etish; uchinchidan, jadidlarning ilm-ma’rifat haqidagi g‘oyalarini zamonaviy raqamli ta’lim, loyiha va tadqiqot metodlari bilan uyg‘unlashtirish; to‘rtinchidan, ta’lim va tarbiyaning birligini ta’minlashda Avloniy merosidan metodik manba sifatida foydalanish; beshinchidan, jadid pedagogik merosini o‘rganishga bag‘ishlangan amaliy seminar va ilmiy loyihalarni ko‘paytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avloniy A. “Turkiy guliston yoxud axloq”. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
2. Behbudiy M. “Ehtiyoji millat” . Samarqand gazetasi. – 1913. – 12 iyul.
3. Behbudiy M. “Muhtaram yoshlarg‘a murojaat”. Oyina jurnali. – 1914.
4. Qosimov B. “Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik”. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002.

Maqolalar:

5. Ashurova M. Abdulla Avloniy merosida axloqiy tarbiya konsepsiyasining pedagogik asoslari. Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar. – 2025. – Jild 4, №23. – B. 126–128. DOI: 10.5281/zenodo.17349540.
6. Abrorxonova K., Rajabova S. “Turkiy guliston yoxud axloq” asarining boshlang‘ich ta’limda og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirishdagi pedagogik-psixologik ahamiyati. Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya. – 2025. – Jild 4, №8. – B. 126–129.
7. Abdullayev R.A. Jadid ma’rifatparvari Abdulla Avloniy asarlarining ma’naviy-axloqiy tarbiyaviy ahamiyati. PEDAGOGS. – 2024. – Vol. 48, №2. – B. 185–189.
8. Qosimova G., Xoliyorova M. Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida ta’limiy axloqiy masalalar. Modern Education and Development. – 2025. – №26. – B. 262–266. DOI: 10.71337/inlibrary.uz.mead.117469.

TANQIDIY TINGLASH VA GAPIRISH MASHQLARI ORQALI O‘QUVCHILARNING TANQIDIY FIKRLASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Inomjonova Barnoxon Tel’manjon qizi
Qo‘qon Universiteti
barnoinomjonova3@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini tanqidiy tinglash va gapirish mashqlari orqali shakllantirish metodikasi taklif etiladi. Tadqiqot Paul va Elderning tanqidiy fikrlash modeli hamda dialogik o‘qitish bo‘yicha xorijiy va o‘zbek tadqiqotlarini qiyosiy tahlil qilishga tayanadi. Natijada tinglash va gapirishni fikrlash elementlari bilan bog‘lovchi to‘rt bosqichli model, mashqlar tizimi va kuzatuv ko‘rsatkichlari ishlab chiqildi, uni sinash dizayni asoslandi.*

Kalit so‘zlar: *tanqidiy fikrlash, tanqidiy tinglash, gapirish, dialogik o‘qitish, fikrlash elementlari, metodika.*

Аннотация. *В статье предлагается методика формирования навыков критического мышления у учащихся с помощью упражнений на критическое слушание и говорение. Исследование опирается на модель критического мышления Пола и Элдер, а также на сравнительный анализ зарубежных и узбекских работ по диалогическому обучению. В результате разработаны четырёхэтапная модель, связывающая слушание и говорение с элементами мышления, система упражнений и наблюдаемые показатели, обоснован дизайн апробации.*

Ключевые слова: *критическое мышление, критическое слушание, говорение, диалогическое обучение, элементы мышления, методика.*

Abstract. *The article proposes a methodology for developing students’ critical thinking skills through critical listening and speaking exercises. It draws on the Paul–Elder critical thinking model and a comparative analysis of international and Uzbek studies on dialogic teaching. A four-step model linking listening and speaking to the elements of thought, a system of exercises and observable indicators are developed, and a design for piloting the methodology is justified.*

Keywords: *critical thinking, critical listening, speaking, dialogic teaching, elements of thought, methodology.*

KIRISH

Zamonaviy ta’lim o‘quvchidan tayyor bilimni yodlashni emas, axborotni baholash, savol berish va o‘z fikrini asoslashni talab qilmoqda. Shu sababli tanqidiy fikrlash “4K” ko‘nikmalarining biri sifatida ta’lim siyosatida ustuvor yo‘nalish deb e’lon qilingan [1]. Paul va Elder tanqidiy fikrlashni fikrni yaxshilash maqsadida uni tahlil qilish va baholash san’ati deb ta’riflaydi va bu vositalarni o‘quvchi o‘z o‘qishi va hayotini boshqarishga qo‘llashini nazarda tutadi [2]. Bu g‘oya o‘quv jarayonida har kuni takrorlanadigan faoliyat, ya’ni tinglash va gapirish orqali ham amalga oshishi mumkin.

O‘zbek tilidagi tadqiqotlarda tanqidiy fikrlash asosan uni rivojlantirish shart-sharoitlari [3], ta’lim natijalariga ta’siri [4] hamda mustaqil fikrlash va ijodiy nutq o‘rtasidagi bog‘liqlik [5] nuqtai nazaridan o‘rganilgan. Xorijiy tadqiqotlarda bolalarning birgalikdagi suhbati fikrlash sifatini oshirishi ko‘rsatilgan [6; 7], meta-tahlil natijalariga ko‘ra esa o‘qituvchi savollari hamda sinf va kichik guruhdagi munozaralar tanqidiy fikrlashga ijobiy ta’sir qiladi [8].

Biroq amaliyotda tinglash va gapirish ko‘pincha fikrlashdan ajratilib, faqat javob berish vositasi sifatida qaraladi: o‘quvchi o‘rtog‘ining fikrini oxirigacha tinglamaydi, tushunmagan joyini so‘ramaydi va o‘z fikrini dalilsiz aytadi. Ko‘rib chiqilgan manbalarda tinglash va gapirish mashqlarini fikrlash elementlari bilan aniq bog‘laydigan metodik tizim yetarlicha ishlab chiqilmagani aniqlandi.

Maqsad: tanqidiy tinglash va gapirish mashqlari orqali o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasini asoslash. **Vazifalar:** (1) Paul–Elder modeli va dialogik o‘qitish bo‘yicha tadqiqotlarni qiyosiy tahlil qilish; (2) tinglash va gapirishni fikrlash elementlari bilan bog‘laydigan model ishlab chiqish; (3) mashqlar tizimi va kuzatuv ko‘rsatkichlarini aniqlash; (4) metodikani sinash dizaynini asoslash. **Tadqiqot savoli:** tinglash va gapirish mashqlarini fikrlash elementlari asosida tashkil etish an’anaviy savol-javob usulidan samaraliroq bo‘ladimi?

ASOSIY QISM

Adabiyotlar tahlili. Paul va Elder modelida har qanday fikr sakkiz element (maqsad, savol, ma’lumot, xulosa, tushunchalar, taxminlar, oqibatlar, nuqtai nazar) bo‘yicha tahlil qilinadi, uning sifati esa aniqlik, to‘g‘rilik, mantiqiylik kabi intellektual standartlar bilan o‘lchanadi [2]. Shu modelga tayanib, gapiruvchi o‘z maqsadi, dalillari va xulosasini ifodalaydi, tinglovchi esa ularni qayta tiklaydi va tekshiradi, deb talqin qilish mumkin. Mercer va Littleton bolalarning fikrlashini birgalikdagi suhbat jarayonida shakllanadigan faoliyat sifatida ko‘rib chiqadi [7]. Mercer va hammualliflari bolalarga muloqot qoidalari (fikrni asoslash, savol berish, boshqalar fikrini hisobga olish) o‘rgatilganda guruhdagi mulohaza sifati va

individual vazifalardagi natijalar yaxshilanganini qayd etgan [6]. Abrami va hammualliflarining meta-tahlilida o‘qituvchi savollari (g = 0,38), sinf munozarasi (g = 0,42) va kichik guruh munozarasi (g = 0,41) tanqidiy fikrlashga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan; dialog, amaliy vazifa va ustoz yordami birga qo‘llanganda esa ta’sir g = 0,57 ga yetgan [8]. O‘zbek tadqiqotlarida savol berish, dalilga tayanish, mantiqiy tahlil va ochiq fikrlilik tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari sifatida sanab o‘tilgan [1]. Pardaboyeva tanqidiy fikrlashni rivojlantirish shart-sharoitlari va diagnostik metodikalarni [3], Tajiboyeva izlanish va loyiha asosidagi o‘qitish yondashuvlarini [4], Xudoyberdiyeva esa mustaqil fikrlash va ijodiy nutqni shakllantirishning nazariy asoslari hamda baholash yondashuvlarini [5] yoritgan. Demak, xorijiy tadqiqotlar suhbat sifatini, o‘zbek tadqiqotlari esa ko‘nikmalar ro‘yxatini yoritgan, ammo ikkalasini bitta metodik modelda birlashtirish masalasi ochiq qoladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot nazariy-metodologik xarakterga ega bo‘lib, adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish, tushunchalarni tizimlashtirish va modellashtirish metodlariga tayandi. Nazariy asos sifatida Paul va Elder modeli [2] olindi, fikrlash elementlari tinglash va gapirish bosqichlariga moslab guruhlandi. Kuzatuv ko‘rsatkichlarini darajalarga ajratishda intellektual standartlarga asoslangan rubrika yondashuvidan [9] foydalanildi, chunki bunday rubrika o‘quvchiga kuchli va zaif tomonlari haqida muntazam ma’lumot beradi. Metodikani sinash uchun tajriba-sinov rejalashtirildi: bir o‘quv choragi davomida tajriba va nazorat guruhlari, ikki mustaqil kuzatuvchi, dastlabki va yakuniy kuzatuv, ota-onalar va maktab ma’muriyati roziligi. Maqolada empirik natijalar keltirilmaydi, samaradorlik haqida xulosa tajriba-sinovdan keyin chiqariladi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijasida tinglash va gapirishni fikrlash elementlari bilan bog‘lovchi to‘rt bosqichli model ishlab chiqildi (1-jadval).

1-jadval. Tanqidiy tinglash va gapirishning to‘rt bosqichli modeli

Bosqich	O‘quvchi faoliyati	Fikrlash elementi
1. Maqsadni aniqlash	Gapiruvchining maqsadi va asosiy xulosasini o‘z so‘zi bilan aytadi	Maqsad, xulosa
2. Aniqlashtiruvchi savol	Tushunmagan joyi, tushuncha yoki dalil haqida savol beradi	Savol, tushunchalar, taxminlar
3. Qayta bayon	Talqinini gapiruvchiga qayta aytib, to‘g‘riligini tekshiradi	Xulosa, nuqtai nazar
4. Asoslab gapirish	Fikrini maqsad, dalil, xulosa tartibida bayon etadi	Ma’lumot, xulosa, oqibatlar

Har bir bosqich aniq savol va kuzatiladigan natijaga ega: birinchi bosqichda o‘quvchi “Gapiruvchi nimani isbotlamoqchi?”, ikkinchisida “Buni nimaga tayanib aytyapsan?”, uchinchisida “Men shunday tushundim, to‘g‘rimi?” degan savollarga javob topadi, to‘rtinchisida esa o‘z fikrini asoslaydi.

Bosqichlar to‘rt turdagi mashq orqali amalga oshiriladi: (a) “Tinglovchi–gapiruvchi” juftligi: bir o‘quvchi 1–2 daqiqa fikrini bayon etadi, ikkinchisi to‘xtatmasdan tinglaydi, so‘ng rollar almashadi; (b) “Qayta aytib ber”: tinglovchi eshitganini o‘z so‘zlari bilan takrorlaydi, gapiruvchi uni tasdiqlaydi yoki tuzatadi; (c) “Savol kartochkalari”: aniqlik, dalil va oqibat haqidagi savollar yozilgan kartochkalar yordamida aniqlashtiruvchi savollar beriladi; (d) “Ikki nuqtai nazar”: o‘quvchi qarama-qarshi fikrni avval eng kuchli shaklda qayta aytadi, keyin o‘z fikrini bildiradi.

Mashqlar intellektual standartlar bilan ham bog‘lanadi: aniqlashtiruvchi savol aniqlikni, dalil so‘rash to‘g‘rilikni, qayta bayon va asoslab gapirish mantiqiylikni, “Ikki nuqtai nazar” mashqi esa adolatlilikni mashq qildiradi. Shu sababli o‘qituvchi bitta mashq orqali bir nechta standartni ketma-ket kuzatishi va keyingi darsda eng zaif standartga ustuvorlik berishi mumkin.

Mashqlar samarasi to‘rt ko‘rsatkich bo‘yicha uch darajada (1 – boshlang‘ich, 2 – rivojlanayotgan, 3 – yuqori) kuzatiladi (2-jadval). Shu orqali o‘qituvchi qaysi bosqich zaif ekanini ko‘radi va keyingi mashqni shunga mos tanlaydi.

2-jadval. Kuzatuv ko‘rsatkichlari va daraja tavsiflari

Ko‘rsatkich	1-daraja	2-daraja	3-daraja
Tinglash	Gapiruvchini to‘xtatadi	Ko‘pincha tinglaydi	To‘xtatmay oxirigacha tinglaydi
Savol berish	Savol bermaydi	Umumiy savol beradi	Aniq, mavzuga oid savol beradi
Qayta bayon	Mazmun buziladi	Qisman saqlanadi	To‘liq saqlanadi
Asoslash	Dalil keltirmaydi	Dalil keltiradi, xulosaga bog‘lamaydi	Dalilni xulosa bilan bog‘laydi

Masalan, “Maktab hovlisida chiqindini qanday kamaytirish mumkin?” mavzusidagi o‘n daqiqalik mashqda A o‘quvchi taklifini va bitta dalilini aytadi, B o‘quvchi to‘xtatmasdan tinglaydi, “Bu taklif qaysi muammoni hal qiladi?” deb so‘raydi va talqinini qayta aytadi; A tasdiqlagach, rollar almashadi. Yakunda o‘qituvchi faqat natijani emas, qaysi bosqich qiyin bo‘lganini ham muhokama qiladi.

Mashqdagi suhbat quyidagicha bo‘lishi mumkin. A: “Men chiqindini ajratib yig‘ishni taklif qilaman, chunki bu qayta ishlashni osonlashtiradi” (fikr va dalil). B: “Buni qayerdan bilasan?” (aniqlashtiruvchi savol, dalil so‘rash). A: “Maktab kutubxonasidagi kitobda o‘qiganman.” B: “Men shunday tushundim: ajratib yig‘ish qayta ishlashni osonlashtiradi, shuning uchun uni taklif qilasan, to‘g‘rimi?” (qayta bayon). Bu kichik suhbatda uchala bosqich kuzatiladi va o‘qituvchi qaysi biri kuchsiz ekanini darhol ko‘ra oladi.

Muhokama. Taklif etilgan model mavjud yondashuvlarni to‘ldiradi. O‘zbek tadqiqotlarida sanab o‘tilgan ko‘nikmalar [1] va nutq bilan fikrlash o‘rtasidagi

bog‘liqlik [5] modelda aniq bosqichlar va mashqlarga aylantirildi. Mercer va hammualliflari [6] ko‘rsatgan muloqot qoidalari g‘oyasi esa fikrlash elementlari bilan bog‘landi, bu o‘qituvchiga suhbat sifatini baholash uchun umumiy til beradi. Mercer va Littleton fikrlashni birgalikdagi faoliyat sifatida ko‘rib chiqishi [7] modelda tinglovchi roliga ham ta’sir qildi: u passiv qabul qiluvchi emas, gapiruvchining fikrini tekshiruvchi hamfikrlovchiga aylanadi. Abrami va hammualliflari [8] dialogning samarasi amaliy vazifa va ustoz yordami bilan birga qo‘llanganda eng yuqori bo‘lishini ko‘rsatgani uchun modelda o‘qituvchi qaytarma aloqasi va real muammoga asoslangan mavzular nazarda tutilgan. Ilmiy yangilik uch jihatda: tinglash va gapirish fikrlash elementlari bilan bog‘landi; mashqlar kuzatiladigan ko‘rsatkichlarga ajratildi; kuzatuv natijasi keyingi mashqni tanlash bilan bog‘landi. Cheklovlar: modelning samaradorligi empirik tasdiqlanmagan; Paul–Elder modeli [2] nutq mashqlari uchun maxsus ishlab chiqilmagan, shuning uchun moslashtirish ekspert baholashini talab qiladi; og‘zaki faoliyatni kuzatishda kuzatuvchilar kelishuvini oldindan tekshirish zarur.

Modelni joriy etishda uch shart muhim: o‘qituvchi bosqichlarni avval o‘zi namoyish qilishi; dastlabki darslarda bitta bosqichga e’tibor qaratishi; mashqlarni yangi mavzuni mustahkamlash bosqichiga kiritishi, shunda qo‘shimcha dars soati talab qilinmaydi. O‘quvchilar bosqichlarni o‘zlashtirgach, kuzatuv vazifasi o‘qituvchidan o‘quvchilarga o‘tadi: juftlikdagi o‘rtoq kuzatuv kartochkasini to‘ldiradi, bu o‘z-o‘zini va o‘zaro baholashga zamin yaratadi.

XULOSA

Tadqiqot quyidagi xulosalarga olib keldi:

1) tinglash va gapirish fikrlashdan ajratilgan nutq faoliyati sifatida emas, fikrlash elementlarini ifodalash va tekshirish jarayoni sifatida qaralganda tanqidiy fikrlashni shakllantirish vositasiga aylanadi;

2) to‘rt bosqichli model (maqsadni aniqlash, aniqlashtiruvchi savol, qayta bayon, asoslab gapirish) har bir bosqichni Paul–Elder elementlari bilan bog‘laydi;

3) to‘rt turdagi mashq va to‘rt kuzatuv ko‘rsatkichi o‘qituvchiga sinfda zaif bosqichni aniqlash imkonini beradi;

4) samaradorlikni tajriba va nazorat guruhlari, ikki kuzatuvchi hamda dastlabki va yakuniy kuzatuv orqali tekshirish zarur.

Takliflar. O‘qituvchilarga: mashqlarni bir vaqtda bitta bosqich bo‘yicha kiritish, natijani emas, fikrlash jarayonini muhokama qilish. Tadqiqotchilarga: modelni turli sinflarda sinash va kuzatuv ko‘rsatkichlarining ishonchliligini aniqlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Saburov D. B. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish // Ilim hám jámiyet. – 2025. – №4. – B. 44–45.

2. Paul R., Elder L. Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life. 3rd ed. – Boston: Pearson / Prentice Hall, 2012.

3. Pardaboyeva D. G‘. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish shart-sharoitlari. – Zenodo, 2024. – DOI: 10.5281/zenodo.11206614.

4. Tajiboyeva G. Role of critical thinking in primary education students in learning outcomes // Society and Innovations. – 2024. – Vol. 5, No. 6. – P. 431–438. – DOI: 10.47689/2181-1415-vol5-iss6-pp431-438.

5. Xudoyberdiyeva Ch. U. O‘quvchilarda mustaqil fikrlash va ijodiy nutqni shakllantirish metodikasi // Ilm fan xabarnomasi. – 2026. – Vol. 11, No. 2. – B. 1704–1707. – DOI: 10.5281/zenodo.18351898.

6. Mercer N., Wegerif R., Dawes L. Children’s talk and the development of reasoning in the classroom // British Educational Research Journal. – 1999. – Vol. 25, No. 1. – P. 95–111.

7. Mercer N., Littleton K. Dialogue and the Development of Children’s Thinking: A Sociocultural Approach. – London: Routledge, 2007.

8. Abrami P. C., Bernard R. M., Borokhovski E., Waddington D. I., Wade C. A., Persson T. Strategies for teaching students to think critically: A meta-analysis // Review of Educational Research. – 2015. – Vol. 85, No. 2. – P. 275–314. – DOI: 10.3102/0034654314551063.

9. Johnson D., Kakar R., Zahrndt R., Walton P. Student evaluation using an intellectual standards rubric for critical thinking // Pedagogy in Health Promotion. – 2023. – Vol. 9, No. 2. – P. 92–100. – DOI: 10.1177/23733799211070544.

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI TABIAT HODISASI ASOSIDA SHAKLLANGAN TOPISHMOQLARNING CHOG‘ISHTIRMA TADQIQI

Jabbarov Fakhriddin Alisherovich
Termiz Iqtisodiyot va Servis universiteti
0009-0000-2983-076X
faxriddin_jabbarov@tues.uz

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek va ingliz tillarida tabiat hodisalari asosida shakllangan topishmoqlarning lingvistik va lingvomadaniy xususiyatlari chog‘ishtirma aspektda tadqiq etiladi. Topishmoq xalq og‘zaki ijodining qadimiy va o‘ziga xos janrlaridan biri sifatida xalqning tabiat haqidagi tasavvurlari, dunyoqarashi, kuzatuvchanligi hamda obrazli tafakkurini aks ettiradi. Tadqiqotda yomg‘ir, qor, shamol, chaqmoq, momaqaldiroq, quyosh, oy, yulduz, bulut kabi tabiat hodisalari bilan bog‘liq topishmoqlarning semantik-struktur xususiyatlari tahlil qilinadi. O‘zbek va ingliz topishmoqlarida tabiat hodisalarining jonlantirish, metaforik ko‘chish, o‘xshatish, ramziylik va obrazlilik vositasida ifodalanishi aniqlanadi. Shuningdek, ikki tilda mazkur topishmoqlarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan milliy-madaniy omillar, tabiatni idrok etishdagi o‘xshash va farqli jihatlar yoritiladi. Tadqiqot natijalari o‘zbek va ingliz xalqlarining tabiat hodisalarini obrazli ifodalashida umuminsoniy tafakkur bilan bir qatorda milliy-madaniy xususiyatlar ham muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *tabiat hodisalari, topishmoq, xalq og‘zaki ijodi, chog‘ishtirma tadqiq, lingvomadaniy xususiyatlar, metafora, obrazlilik, ramziylik, o‘zbek tili, ingliz tili, milliy-madaniy xususiyatlar, paremiologiya.*

Аннотация. *В статье в сопоставительном аспекте исследуются лингвистические и лингвокультурные особенности загадок, сформированных на основе явлений природы, в узбекском и английском языках. Загадка как один из древнейших жанров устного народного творчества отражает представления народа о природе, его мировоззрение, наблюдательность и образное мышление. В исследовании анализируются семантико-структурные особенности загадок, связанных с такими явлениями природы, как дождь, снег, ветер, молния, гром, солнце, луна, звёзды и облака. Выявляются способы репрезентации природных явлений посредством олицетворения, метафорического переноса, сравнения, символики и образности. Особое внимание уделяется национально-культурным факторам, обусловившим*

формирование загадок в двух языках, а также сходствам и различиям в восприятии и образном представлении природных явлений. Результаты исследования показывают, что наряду с общечеловеческими особенностями мышления важную роль в формировании образной структуры загадок играют национально-культурные особенности узбекского и английского народов.

Ключевые слова: *явления природы, загадка, устное народное творчество, сопоставительное исследование, лингвокультурные особенности, метафора, образность, символика, узбекский язык, английский язык, национально-культурные особенности, паремиология.*

Abstract. *This article presents a contrastive study of the linguistic and linguocultural features of riddles based on natural phenomena in Uzbek and English. As one of the oldest genres of folklore, the riddle reflects people's perceptions of nature, worldview, observation, and figurative thinking. The study examines the semantic and structural characteristics of riddles associated with such natural phenomena as rain, snow, wind, lightning, thunder, the sun, the moon, stars, and clouds. Particular attention is paid to the representation of natural phenomena through personification, metaphorical transfer, comparison, symbolism, and imagery. The article also explores the national and cultural factors that have influenced the formation of riddles in the two languages and identifies similarities and differences in the perception and figurative representation of natural phenomena. The findings demonstrate that, alongside universal features of human cognition, national and cultural characteristics play a significant role in shaping the imagery and semantic structure of Uzbek and English riddles.*

Keywords: *natural phenomena, riddles, folklore, contrastive study, linguocultural features, metaphor, imagery, symbolism, Uzbek language, English language, national and cultural characteristics, paremiology.*

Kirish

Xalq og‘zaki ijodi millatning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi, turmush tarzi va ma’naviy qadriyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan muhim madaniy hodisalardan biridir. Unda xalqning borliqni idrok etishi, tabiat hodisalariga munosabati va kundalik hayotiy tajribasi turli janrlar orqali ifodalanadi. Ana shunday janrlardan biri topishmoq bo‘lib, u qisqa, obrazli va ko‘chma ma’noga asoslangan nutqiy birlik sifatida inson tafakkurining o‘ziga xos namunasini namoyon etadi.

Topishmoqlarda insonni o‘rab turgan olamdagi predmet va hodisalar yashirin, obrazli yoki ramziy tarzda tasvirlanadi. Ayniqsa, tabiat hodisalari asosida shakllangan topishmoqlar xalqning tabiatni kuzatishi, uning hodisalarini tasniflashi va ularga obrazli nom berishi bilan ajralib turadi. Yomg‘ir, qor, shamol, quyosh, oy,

yulduz, bulut, chaqmoq va momaqaldiroq kabi hodisalar turli xalqlar folklorida o‘ziga xos obrazlar vositasida ifodalangan.

O‘zbek va ingliz tillaridagi bunday topishmoqlarni chog‘ishtirib o‘rganish ikki xalqning tabiat hodisalarini qanday idrok etishi va til vositalari orqali qanday obrazlashtirishini aniqlash imkonini beradi. Shu jihatdan mazkur tadqiqot nafaqat folklorshunoslik, balki lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, frazeologiya va chog‘ishtirma tilshunoslik uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Topishmoqlarning lingvistik tabiati

Topishmoq o‘zining qisqa shakli, yashirin mazmuni va javobni topishga undovchi semantik tuzilishi bilan boshqa folklor janrlaridan farqlanadi. Uning asosiy kommunikativ vazifasi tinglovchini fikrlashga, tasvirlangan obyektning muhim belgilarini aniqlashga va yashirin javobni topishga yo‘naltirishdan iborat.

Topishmoqning mazmuniy qurilishida predmet yoki hodisaning bevosita nomi qo‘llanmaydi. Uning o‘rniga tashqi ko‘rinish, harakat, tovush, rang, vazifa, makondagi o‘rni yoki boshqa belgilar tasvirlanadi. Natijada tinglovchi mavjud belgilar asosida yashirilgan obyektni aniqlashi kerak bo‘ladi.

Tabiat hodisalariga oid topishmoqlarda ayniqsa personifikatsiya, metafora, o‘xshatish, epitet, ramziy ifoda kabi badiiy vositalar faol qo‘llanadi. Tabiat hodisasiga insoniy xususiyat berish orqali u go‘yo jonli mavjudot sifatida tasvirlanadi.

Masalan, o‘zbek folklorida yomg‘ir ko‘pincha osmondan tushuvchi yoki yerga hayot baxsh etuvchi hodisa sifatida obrazlashtiriladi. Ingliz topishmoqlarida esa rain, snow, wind, sun kabi birliklar insonning kundalik tajribasi bilan bog‘langan obrazlar orqali ifodalanadi.

O‘zbek tilidagi tabiat hodisalariga oid topishmoqlar

O‘zbek topishmoqlarida tabiat hodisalari xalqning kundalik turmushi, dehqonchilik madaniyati va tabiat bilan uzviy aloqasi asosida obrazlashtiriladi. Masalan, yomg‘ir hosildorlik va hayot manbai sifatida, quyosh yorug‘lik va issiqlik manbai sifatida, shamol esa harakat va ko‘rinmas kuch sifatida tasvirlanishi mumkin.

Quyidagi topishmoq bunga misol bo‘la oladi:

“O‘zi ko‘rinmas,

Shovqini eshitilar.”

Mazkur topishmoqda shamolning ko‘zga ko‘rinmasligi, biroq uning harakati natijasida tovush yuzaga kelishi asosiy belgi sifatida berilgan. Javobni aniqlashda insonning real hayotiy tajribasi va kuzatuvi muhim ahamiyat kasb etadi.

Yana bir tipik obraz sifatida bulutni keltirish mumkin. Bulutning shakli, osmondagi harakati va yomg‘ir bilan bog‘liqligi uning topishmoqlarda turli obrazlar

asosida ifodalanishiga sabab bo‘ladi. Quyosh esa ko‘pincha “oltin”, “nur sochuvchi”, “olovli” kabi belgilar orqali metaforik tarzda tasvirlanadi.

O‘zbek topishmoqlarida tabiat hodisalarining obrazlanishida milliy turmush tarzi bilan bog‘liq assotsiatsiyalar ham muhimdir. Xususan, suv, yomg‘ir, quyosh va shamolning dehqonchilik hamda chorvachilik hayotidagi o‘rni ularning folklordagi semantik mazmuniga ta’sir ko‘rsatadi.

Ingliz tilidagi tabiat hodisalariga oid topishmoqlar

Ingliz folklorida ham tabiat hodisalari topishmoqlarning muhim tematik qatlamini tashkil etadi. Ayniqsa, rain, snow, wind, sun, moon, stars, cloud, thunder va lightning kabi birliklar asosida shakllangan topishmoqlar keng uchraydi.

Masalan:

“I fall from the sky,

But I never get hurt.

I bring water to the earth.

What am I?”

Mazkur topishmoqda yomg‘irning asosiy belgisi — osmondan tushishi va yerga suv olib kelishi tasvirlangan. Bu yerda “fall” fe’li yomg‘irning harakatini inson harakatiga yaqinlashtiruvchi obrazli vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Qor haqidagi ingliz topishmoqlarida esa uning oq rangi, sovuqligi va osmondan tushishi asosiy semantik belgilar sifatida ajratiladi. Shamolga oid topishmoqlarda esa uning ko‘rinmasligi, ammo sezilishi va harakatga sabab bo‘lishi asosiy belgi sifatida namoyon bo‘ladi.

Ingliz topishmoqlarida tabiat hodisalarining insoniylashtirilishi ham faol kuzatiladi. Masalan, quyosh “kuladi”, shamol “gapiradi”, yomg‘ir “yig‘laydi” kabi obrazli tasvirlar orqali tabiat va inson o‘rtasidagi konseptual bog‘liqlik yaratiladi.

O‘zbek va ingliz topishmoqlarining chog‘ishtirma tahlili

O‘zbek va ingliz tillaridagi tabiat hodisalariga oid topishmoqlarni chog‘ishtirish natijasida ularning mazmuniy va badiiy qurilishida bir qator umumiy jihatlar mavjudligi aniqlanadi.

Birinchidan, har ikki tilda tabiat hodisalari bevosita nomlanmasdan, ularning muayyan belgilarini tasvirlash orqali ifodalanadi. Masalan, yomg‘irga oid topishmoqlarda osmondan tushish, suv berish, yerga ta’sir qilish kabi belgilar muhim o‘rin tutadi.

Ikkinchidan, ikki tilda ham personifikatsiya keng qo‘llanadi. Tabiat hodisalariga insoniy harakat va xususiyatlarning berilishi topishmoqning obrazliligini kuchaytiradi.

Uchinchidan, metafora va o‘xshatish ikki xalq topishmoqlarining asosiy poetik vositalaridan biridir. Tabiat hodisasi boshqa predmet yoki mavjudotga qiyoslanadi va shu asosda yashirin ma’no yuzaga keladi.

Shu bilan birga, milliy-madaniy farqlar ham mavjud. O‘zbek topishmoqlarida tabiat hodisalarining qishloq xo‘jaligi, suv, yer, chorvachilik va kundalik maishiy hayot bilan bog‘lanishi nisbatan kuchli namoyon bo‘ladi. Ingliz topishmoqlarida esa tabiat hodisalarining kundalik hayot, fasllar, ob-havo va vizual kuzatuvlar bilan bog‘liq obrazlari faol uchraydi.

Tabiat hodisasi	**O‘zbek topishmoqlarida**	**Ingliz topishmoqlarida**	**Umumiy belgi**
Yomg‘ir	Hayot, suv, hosildorlik bilan bog‘liq	Sky, water, falling kabi belgilar	Osmondan tushishi
Qor	Oqlik, sovuqlik, qish bilan bog‘liq	White, cold, winter obrazlari	Oq va sovuq bo‘lishi
Shamol	Ko‘rinmas kuch, harakat	Invisible, moving, blowing	Ko‘rinmasligi, sezilishi
Quyosh	Nur, issiqlik, hayot manbai	Light, heat, brightness	Yorug‘lik va issiqlik
Oy	Tun, yorug‘lik, osmon	Night, light, sky	Tunda ko‘rinishi
Yulduz	Osmon, tun, yorug‘ nuqta	Night sky, shining	Osmonda ko‘rinishi
Bulut	Yomg‘ir, osmon	Sky, rain, floating	Osmonda harakatlanishi
Chaqmoq	Yorqin nur, tezlik	Flash, light, suddenness	Juda tez paydo bo‘lishi

Jadvaldan ko‘rinadiki, ikki tilda ham tabiat hodisalarining obyektiv belgilari topishmoqning semantik asosini tashkil etadi. Biroq mazkur belgilarni obrazlashtirish usuli va ular bilan bog‘lanadigan assotsiatsiyalar milliy-madaniy tafovutlarni yuzaga chiqaradi.

Lingvomadaniy xususiyatlar

Tabiat hodisalari asosida shakllangan topishmoqlarni lingvomadaniy nuqtayi nazardan o‘rganish orqali xalqning tabiatga munosabati va uning madaniy tajribasi haqida muhim xulosalar chiqarish mumkin. Chunki til birliklarida faqat predmetning obyektiv xususiyatlari emas, balki unga nisbatan shakllangan subyektiv va kollektiv tasavvurlar ham aks etadi.

O‘zbek xalqining an’anaviy hayot tarzida tabiat hodisalari kundalik turmush va mehnat faoliyati bilan bevosita bog‘langan. Shu sababli yomg‘ir, quyosh, suv, shamol kabi hodisalar folklor birliklarida hayotiy zarurat, mehnat va hosildorlik tushunchalari bilan aloqador holda ifodalanadi.

Ingliz tilidagi topishmoqlarda esa tabiat hodisalarini kuzatish, ularning tashqi belgilarini ajratish va ular asosida mantiqiy xulosa chiqarishga yo‘naltirilgan tasvirlar ko‘proq uchraydi. Biroq bu holatni mutlaq farq sifatida emas, balki ikki xalq folklorida kuzatiladigan umumiy va o‘ziga xos tendensiyalarning nisbiy ifodasi sifatida baholash lozim.

Kognitiv jihatdan tahlil

Topishmoqning asosida insonning predmet va hodisalarni konseptuallashtirish jarayoni yotadi. Tabiat hodisasi bevosita nomlanmaydi; uning o‘rniga inson ongida ajratilgan konseptual belgilar verbal shaklda taqdim etiladi. Tinglovchi esa ushbu belgilarni umumlashtirib, tegishli konseptni aniqlaydi.

Masalan, “ko‘rinmaydi, lekin esadi” kabi belgilar “shamol” konsepti bilan bog‘lanadi. “Osmondan tushadi, yerga suv beradi” kabi belgilar esa “yomg‘ir” konseptini faollashtiradi.

Demak, topishmoqning tuzilishida obyekt → belgi → obraz → yashirin konsept → javob kabi kognitiv-semantik jarayon kuzatiladi.

O‘zbek va ingliz tillarida ushbu mexanizm umumiy bo‘lsa-da, obyektning qaysi belgisi tanlanishi va qaysi metaforik model orqali ifodalanishi milliy tajriba bilan belgilanadi.

Xulosa

O‘zbek va ingliz tillaridagi tabiat hodisalari asosida shakllangan topishmoqlarni chog‘ishtirma tahlil qilish quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

Tabiat hodisalari ikki xalq folklorida ham topishmoqlarning faol tematik qatlamlaridan birini tashkil etadi.

O‘zbek va ingliz topishmoqlarida tabiat hodisalarining tashqi belgisi, harakati, rangi, tovushi va inson hayotiga ta’siri asosiy tasviriy mezonlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Har ikki tilda metafora, o‘xshatish, personifikatsiya va ramzi y ifoda tabiat hodisalarini obrazlashtirishning muhim vositalari hisoblanadi.

Tabiat hodisalarining insonlashtirilishi ikki xalq topishmoqlarida ham keng uchraydi. Bu holat inson tafakkurining tabiatni tushunish va tasvirlashdagi umumiy kognitiv mexanizmlarini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, topishmoqlarning semantik va obrazli tuzilishida milliy-madaniy tafovutlar mavjud. O‘zbek topishmoqlarida tabiat hodisalarining an’anaviy turmush, mehnat, dehqonchilik va kundalik hayot bilan aloqasi yaqqol namoyon bo‘lsa, ingliz topishmoqlarida tabiatning kuzatiladigan vizual va fizik xususiyatlarini tasvirlashga asoslangan modellar faol uchraydi.

Tabiat hodisalari asosidagi topishmoqlarni chog‘ishtirma o‘rganish ikki xalqning olamni konseptuallashtirish xususiyatlarini aniqlash, milliy-madaniy birliklarning semantik tabiatini ochib berish va folklor matnlarining lingvokulturologik imkoniyatlarini belgilashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, o‘zbek va ingliz tillaridagi tabiat hodisalariga oid topishmoqlar shaklan va mazmunan turli xususiyatlarga ega bo‘lsa-da, ularning asosida tabiatni kuzatish, uning muhim belgilarini ajratish va obrazli tafakkur orqali ifodalashga asoslangan umumiy insoniy kognitiv mexanizm mavjud. Mazkur janrni chog‘ishtirma aspektda o‘rganish tillararo va madaniyatlararo munosabatlarni tadqiq etishning samarali vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Archer Taylor. English Riddles from Oral Tradition. Berkeley: University of California Press.
2. George Lakoff, Mark Johnson. Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press.
3. Alan Dundes. The Study of Folklore. Englewood Cliffs: Prentice-Hall.
4. V. V. Vinogradov. Izbrannye trudy. O yazyke khudozhestvennoy literatury. Moskva.
5. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. Jizzax.
6. Jo‘rayev M. O‘zbek folklori. Toshkent.
7. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. Toshkent.
8. The Oxford Dictionary of English Proverbs. Oxford University Press.
9. The Oxford Dictionary of English Folklore. Oxford University Press.
10. The Cambridge Dictionary of English Proverbs. Cambridge University Press.

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI GAZETA SARLAVHALARIDA GIPONIMIK IYERARXIYA: QIYOSIY-LINGVISTIK TAHLIL

Jumabayeva Nargiza Odilbekovna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
0009-0002-3243-6653
choqqam98@gamil.com

Annotatsiya. *Ushbu tezisda ingliz va o‘zbek tillaridagi gazeta sarlavhalarida giponimik iyerarxiya (leksik-semantik iyerarxiya)ning namoyon bo‘lish xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi — ikki tildagi ommaviy axborot vositalari matnlarida giponim-giperonim munosabatlarining qo‘llanilish tamoyillarini aniqlash va ularning lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berishdan iborat. Metodologiya sifatida komponent tahlil, qiyosiy-tipologik tahlil hamda kontent tahlil usullaridan foydalanildi; material sifatida so‘nggi yillarda inglizzabon (xususan, Euronews) va o‘zbek (Kun.uz, Daryo.uz) ommaviy axborot vositalarida e’lon qilingan sarlavhalardan tanlab olingan real namunalar tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, ikki tilda ham sarlavhalarda giperonimlar (masalan, “rahbar” — “leader”) axborotni siqib, qisqa va lo‘nda ifodalash uchun qo‘llaniladi, ular ko‘pincha matn ichida aniq nom yoxud lavozim (giponim) bilan izohlanadi. Farq shundaki, ingliz tilidagi sarlavhalarda giponimik zanjir asosan bir bosqichli bo‘lsa, o‘zbek tilida ko‘pincha ikki yoki undan ortiq bosqichli, tasviriy unsurlar bilan boyitilgan zanjirlar kuzatiladi, bu esa ikki tilning leksik-semantik kategoriyalashtirish tizimidagi farqlarni aks ettiradi.*

Kalit so‘zlar: *giponimiya, giperonim, leksik-semantik iyerarxiya, gazeta sarlavhasi, ommaviy axborot vositalari tili, qiyosiy tilshunoslik.*

Аннотация. *В настоящих тезисах представлен сопоставительный анализ особенностей проявления гипонимической иерархии (лексико-семантической иерархии) в газетных заголовках английского и узбекского языков. Цель работы — выявить принципы употребления гипоним-гиперонимических отношений в текстах СМИ на двух языках и раскрыть их лингвокультурную специфику. В качестве методов использованы компонентный анализ, сравнительно-типологический анализ и контент-анализ; материалом послужили реальные заголовки, отобранные из англоязычных (в частности, Euronews) и узбекоязычных (Kun.uz, Daryo.uz) СМИ последних лет. Результаты показали, что в заголовках обоих языков*

гиперонимы (например, «rahbar» — «leader») используются для компрессии информации и обычно конкретизируются (гипоним — точное имя или должность) в самом тексте. Различие состоит в том, что в английских заголовках гипонимическая цепь чаще всего одноступенчатая, тогда как в узбекском языке нередко встречаются двух- и более ступенчатые, стилистически насыщенные цепи, что отражает различия в категоризации лексико-семантических систем двух языков.

Ключевые слова: *гипонимия, гипероним, лексико-семантическая иерархия, газетный заголовок, язык СМИ, сопоставительное языкознание.*

Abstract. *This thesis presents a comparative analysis of how hyponymic hierarchy (lexico-semantic hierarchy) is manifested in English and Uzbek newspaper headlines. The aim of the study is to identify the principles governing the use of hyponym-hyperonym relations in media texts of the two languages and to reveal their linguo-cultural specificity. Componential analysis, comparative-typological analysis, and content analysis were used as methods; the material consisted of real headlines selected from English-language (notably Euronews) and Uzbek-language (Kun.uz, Daryo.uz) media of recent years. The results show that in both languages, hyperonyms (e.g., "rahbar" — "leader") are used to compress information and are usually specified (a hyponym — an exact name or position) within the text itself. The difference is that in English headlines the hyponymic chain is most often single-step, whereas Uzbek frequently exhibits two- or more-step, stylistically elaborated chains, reflecting differences in the categorization of the lexico-semantic systems of the two languages.*

Keywords: *hyponymy, hyperonym, lexico-semantic hierarchy, newspaper headline, media language, comparative linguistics.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda leksik-semantik munosabatlar, xususan giponimiya masalasi doimiy dolzarblik kasb etib kelmoqda, chunki u so‘z boyligining tizimli tashkil etilishini, uning kognitiv asoslarini hamda nutqiy faoliyatdagi amaliy qo‘llanilishini ochib beradi (Lyons, 1977; Cruse, 1986; Saeed, 2009). Ommaviy axborot vositalari tili, xususan gazeta sarlavhalari, leksik-semantik munosabatlarning eng yorqin namoyon bo‘lish maydonlaridan biri hisoblanadi: sarlavha muallifi cheklangan hajmda maksimal axborotni ifodalashga, shu bilan birga o‘quvchi e’tiborini jalb qilishga intiladi (Bell, 1991; Van Dijk, 1988). Bunday sharoitda giponim va giperonim so‘zlarning tanlanishi tasodifiy emas, balki muayyan kommunikativ-pragmatik maqsadlarga bo‘ysunadi.

Muammoning dolzarbligi shundaki, ingliz va o‘zbek tillari turli til oilalariga mansub bo‘lib, ularning leksik-semantik tizimlari va kategoriyalashtirish tamoyillari

sezilarli farqlanadi; o‘zbek tilshunosligida giponimiya hodisasi so‘nggi yillarda faollashgan bo‘lsa-da (Islomov & Iskandjanova, 2026), bu hodisaning aynan gazeta sarlavhalari materialida, ayniqsa ingliz tili bilan qiyosiy planda o‘rganilishi hali yetarlicha tadqiq etilmagan. Tadqiqotning maqsadi — ingliz va o‘zbek tilidagi gazeta sarlavhalarida giponim-giperonim munosabatlarining qo‘llanilish xususiyatlarini aniqlash va ularni qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: 1) ikki tildan real sarlavha namunalarini to‘plash; 2) ularda giponim-giperonim juftliklarini aniqlash; 3) ikki til materialini qiyoslab, umumiy va farqli xususiyatlarni belgilash; 4) aniqlangan farqlarning lingvomadaniy sabablarini izohlash.

Metodologiya. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: 1) kuzatuv va tanlab olish metodi — so‘nggi yillarda inglizzabon (xususan, Euronews materiallari) hamda o‘zbek (Kun.uz, Daryo.uz) ommaviy axborot vositalarida e’lon qilingan sarlavhalar orasidan giponim-giperonim munosabatiga ega real namunalar tanlab olindi; 2) komponent tahlil metodi — tanlangan sarlavhalardagi kalit so‘zlarning semik tarkibi aniqlanib, ularning giponim yoki giperonim maqomi belgilandi; 3) qiyosiy-tipologik tahlil — ikki tildagi natijalar taqqoslanib, umumiy va farqli xususiyatlar aniqlandi. Tadqiqot xarakteriga ko‘ra sifat (kvalitativ) tadqiqot bo‘lib, katta hajmli statistik korpusni emas, balki tipik hodisalarni aniq va real misollar asosida chuqur yoritishni maqsad qiladi — bu konferensiya tezisi formatiga mos yondashuv hisoblanadi; kengroq statistik umumlashtirish kelgusi tadqiqotning vazifasi sifatida belgilandi. Material tanlashda mezon sifatida sarlavhaning axborot xarakteriga ega ekanligi (siyosat, harbiy-diplomatik yoki ma’muriy sohalarga oid) va matnda kamida bitta gipo-giperonimik munosabatga ega leksik birlik mavjudligi olindi.

Natijalar va muhokama. To‘plangan namunalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, ikki tilda ham sarlavhalarda giperonimik so‘zlar axborotni siqib, qisqa shaklda ifodalash uchun faol qo‘llaniladi, biroq ularning giponimik aniqlashtirilish darajasi va bosqichlari soni turlicha namoyon bo'ladi (1-jadvalga qarang).

Til	Sarlavha namunasi (qisqartirilgan)	Giperonim	Giponimik aniqlashtirish	Soha
O‘zbek	“…Fors ko‘rfazi davlatlari rahbarlariga minnatdorchilik bildirdi” (Kun.uz)	rahbar	Sarlavhada berilmagan (lavozim/ism matnda)	Siyosat-diplomatiya

Til	Sarlavha namunasi (qisqartirilgan)	Giperonim	Giponimik aniqlashtirish	Soha
Ingliz	"…seeks arrest warrants for Israel and Hamas leaders" (Euronews)	leader(s)	Israel, Hamas (1-bosqich); aniq ism — matnda	Siyosat-huquq
O‘zbek	"AQSh… Eron kemasiga zarba berdi" (Kun.uz)	kema	Berilmagan (tur/nom ochiq qoldirilgan)	Harbiy-diplomatik
Ingliz	"Spain's Vox leader to head Patriots for Europe party" (Euronews)	leader	Vox (1-bosqich); shaxsiy ism — matnda	Siyosat
O‘zbek	"…rahbarlik qilib kelgan N. ishdan ketdi. Uning o‘rnini M. egalladi" (Kun.uz)	rahbarlik qilgan	Ism ketma-ket ikki marta (eski→yangi)	Ma'muriy

1-jadval. Ingliz va o‘zbek sarlavhalarida giperonim–giponim namunalari

Siyosiy-diplomatik sohaga oid sarlavhalarda "rahbar" (ingliz tilida — "leader") umumiy ma'noli giperonim sifatida keng qo‘llaniladi. Masalan, o‘zbek tilidagi bir sarlavhada Fors ko‘rfazi mamlakatlari yetakchilari umumlashtirib "davlatlar rahbarlari" giperonimi bilan atalgan; ular aniq ism yoki lavozim (amir, shayx, prezident) bilan sarlavha darajasida izohlanmagan. Xuddi shunga o‘xshash tendensiya ingliz tilidagi "…Israel and Hamas leaders" konstruksiyasida ham kuzatiladi: "leaders" giperonimi sarlavha ichidayoq "Israel" va "Hamas" so‘zlari bilan qisman aniqlashtirilgan, to‘liq giponimik ochilish (aniq shaxs ismlari) esa matnning davomida beriladi.

Harbiy-diplomatik mavzudagi sarlavhalarda esa teskari holat ham uchraydi: ba'zan giperonim hech qanday qo‘shimcha giponimik aniqlashtirishsiz qoladi. Masalan, kemaga qarshi harbiy harakat haqidagi o‘zbekcha sarlavhada "kema" so‘zi giperonim sifatida qo‘llanilgan, biroq uning turi yoki nomi (giponim) sarlavhada berilmagan — bu shuni ko‘rsatadiki, giponimik ochilish har doim ham majburiy emas: voqeaning "kim"ligidan ko‘ra "nima sodir bo‘lgani" muhimroq bo‘lgan hollarda giperonim mustaqil holda ham qo‘llanilaveradi.

Ingliz tilidagi partiya yetakchisi haqidagi sarlavhada ("Spain's Vox leader to head Patriots for Europe party") giponimik zanjir ancha ixcham: "leader" giperonimi

sarlavhaning o‘zidayoq partiya nomi (“Vox”) bilan bitta bosqichda aniqlashtiriladi, siyosatchining shaxsiy ismi esa matnning davomida keladi. O‘zbek tilidagi lavozim almashinuvi haqidagi xabarda esa giponimik zanjirning ko‘p bosqichliligi yanada yorqin namoyon bo‘ladi: “rahbarlik qilib kelgan…” giperonimik birikmasi darhol ism va lavozim bilan to‘ldirilib, keyingi jumlada yana yangi ism qo‘shiladi (eski rahbar → yangi rahbar). Bu ingliz tilidagi bir qatorli, ixcham sarlavha modelidan farqli, ko‘proq tasviriy-izohli uslubni ko‘rsatadi.

Shunday qilib, kuzatilgan namunalar ikki tilda ham giperonim orqali siqish strategiyasi mavjudligini, biroq bu strategiyaning amalga oshish bosqichlari soni va tezligi bo‘yicha farq borligini ko‘rsatadi: ingliz tilida ko‘pincha bitta qisqa bosqich (giperonim + bitta aniqlovchi) yetarli bo‘lsa, o‘zbek tilidagi matnlarda ikki yoki undan ortiq ketma-ket aniqlashtirish bosqichlari qo‘llaniladi. Bu farq, bizningcha, ingliz tilining analitik-ixcham sintaktik qurilishi bilan o‘zbek tilining tasviriy-agglyutinativ xususiyatlari o‘rtasidagi tipologik farqlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, biroq bu faraz kengroq korpus asosidagi kelgusi tadqiqotlarda statistik jihatdan tekshirilishi lozim.

Xulosa. O‘tkazilgan kuzatuv ingliz va o‘zbek gazeta sarlavhalarida giponimik iyerarxiyaning qo‘llanilishida ham umumiy, ham farqli jihatlar mavjudligini ko‘rsatdi: ikki tilda ham giperonimlar axborotni siqish vositasi sifatida faol ishlatiladi, biroq ularning giponimik ochilish tezligi va bosqichlari soni tipologik jihatdan farqlanadi. Ilmiy yangiligi shundaki, ushbu tezisda birinchi marta ingliz va o‘zbek sarlavhalari giponimik zanjir bosqichlari nuqtai nazaridan real misollar asosida solishtirilib, ularning lingvomadaniy sabablari yuzasidan dastlabki farazlar ilgari surildi. Amaliy ahamiyati — natijalardan jurnalistika ta’limida (sarlavha tuzish mahorati), tarjimashunoslikda (yangiliklarni ikki tomonlama tarjima qilishda giponimik moslikni saqlash) hamda ingliz va o‘zbek tillarini chet tili sifatida o‘qitishda foydalanish mumkinligidadir. Kelgusi tadqiqotlar uchun kengroq va statistik jihatdan asoslangan sarlavhalar korpusini yig‘ish, shuningdek boshqa medium (ijtimoiy tarmoq sarlavhalari, teleradio yangiliklari) materialida giponimik munosabatlarni o‘rganish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bell A. The language of news media. – Blackwell, 1991.

2. Cruse D. A. Lexical semantics. – Cambridge University Press, 1986.

3. Islomov I. X., Iskandjanova F. K. Leksemalarning semantik asosdagi ayrim munosabati xususida // Latin American Journal of Education. – 2026. – Vol. 6, No. 01. – P. 100–105. – https://doi.org/10.5281/zenodo.18189522.

4. Lyons J. Semantics. – Vol. 1. – Cambridge University Press, 1977.

5. Saeed J. I. Semantics. – 3rd ed. – Wiley-Blackwell, 2009.
6. Van Dijk T. A. News as discourse. – Lawrence Erlbaum Associates, 1988.

TALABALARNING ILMIY TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Mamadaliyeva Nargiza Ulug‘bekovna
Namangan davlat pedagogika instituti
nmamadaliyeva15@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik asoslari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 28.04.2025 yildagi PF-73-sonli Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2026-yil 10-apreldagi PF-58-son Farmonlari tahlil qilindi. Shuningdek, yevropa pedagog olimlarining qarashlari va osiyo pedagog olimlarining tadqiqot ishlari orqali ilmiy tadqiqotchilikni rivojlantirishning pedagogik asoslari yoritilib berildi.*

Kalit so‘zlar: *ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyasi, tadqiqot kompetensiyasi, oliy ta’lim, talaba, ilmiy faoliyat, tadqiqotga asoslangan ta’lim, ilmiy mentorlik, mustaqil fikrlash, refleksiya, tadqiqotchilik ko‘nikmalari.*

Abstract: *This article analyzes the pedagogical foundations of developing students’ research competence in higher education institutions from theoretical and practical perspectives. The Presidential Decree of the Republic of Uzbekistan “On Measures to Further Improve the System of Teacher Training” No. PF-73 dated April 28, 2025, and the Presidential Decree of the Republic of Uzbekistan “On Additional Measures to Improve the System of Higher Education, Science and Innovation” No. PF-58 dated April 10, 2026, were analyzed. In addition, the pedagogical foundations for developing research competence were highlighted through the views of European pedagogical scholars and the research works of Asian pedagogical scholars.*

Keywords: *research competence, research competency, higher education, student, scientific activity, research-based education, academic mentoring, independent thinking, reflection, research skills.*

Аннотация: *В данной статье теоретически и практически проанализированы педагогические основы развития научно-исследовательской компетентности студентов в высших образовательных*

учреждениях. Были проанализированы Указ Президента Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы подготовки педагогических кадров» № ПФ-73 от 28 апреля 2025 года и Указ Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по совершенствованию системы высшего образования, науки и инноваций» № ПФ-58 от 10 апреля 2026 года. Кроме того, педагогические основы развития научно-исследовательской деятельности были освещены посредством взглядов европейских ученых-педагогов и исследовательских работ азиатских ученых-педагогов.

Ключевые слова: *научно-исследовательская компетентность, исследовательская компетентность, высшее образование, студент, научная деятельность, обучение на основе исследования, научное наставничество, самостоятельное мышление, рефлексия, исследовательские навыки.*

Kirish

Xulosa qilib aytganda, ta’lim tizimidagi korrupsiya fanlararo muammo bo‘lib, uni samarali bartaraf etish uchun texnologik, huquqiy-iqtisodiy va axloqiy-ma’rifiy choralar bir vaqtda va o‘zaro muvofiqlashtirilgan holda amalga oshirilishi lozim. Taklif etilayotgan uch qatlamli model ta’lim muassasalarida antikorrupsion dasturlarni ishlab chiqish va ularning samaradorligini baholashda konseptual asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Kelgusi tadqiqotlar uchun uchta yo‘nalish dolzarb hisoblanadi: birinchidan, talabalar va pedagoglar o‘rtasida korrupsiyaga munosabat va axloqiy immunitet darajasini aniqlovchi empirik so‘rovnomalar o‘tkazish; ikkinchidan, raqamlashtirish choralarining korrupsiyaviy xavf-xatarlarga ta’sirini miqdoriy baholash; uchinchidan, ta’lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashning milliy ma’naviy qadriyatlar bilan uyg‘unligini ta’minlovchi konseptual asoslarni chuqurroq ishlab chiqish. Bu yo‘nalishlarni amalga oshirish ham, o‘z navbatida, turli fan vakillarining hamkorligini talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev, Sh. M. Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha mukammallikni taqdirlash marosimidagi nutq : 19.12.2023 [Elektron resurs] / Sh. M. Mirziyoyev. – URL: https://president.uz (murojaat sanasi: 04.10.2026).

2. O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida : O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni : 27.05.2019 yil, PF-5729-son [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz (murojaat sanasi: 04.10.2026).

3. Oliy ta’lim sohasidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni o‘rganish va tahlil qilish yuzasidan ma’lumotnoma / O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi. – Toshkent, 2023.

4. Reinikka, R. Fighting corruption to improve schooling: evidence from a newspaper campaign in Uganda / R. Reinikka, J. Svensson // Journal of the European Economic Association. – 2005. – Vol. 3, № 2–3. – P. 259–267.

5. Karimova, G. A. Ta’lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning ijtimoiy-falsafiy omillari : monografiya / G. A. Karimova. – Toshkent : Makon ziyo nuri, 2026. – 156 b.

6. Bandura, A. Moral disengagement in the perpetration of inhumanities / A. Bandura // Personality and Social Psychology Review. – 1999. – Vol. 3, № 3. – P. 193–209.

O‘ZBEKISTON MUSIQASHUNOSLIGIDA SIMFONIYA JANRINING TADQIQ ETILISH EVOLYUTSIYASI VA ILMIY YONDASHUVLAR

Omonjonova Odinaxon
Toshkent viloyati, Yuqori Chirchiq tumani 24-BMSM

Annotatsiya. *Mazkur tezisda O‘zbekiston musiqashunosligi va san’atshunosligida simfoniya janrining o‘rganilish jarayoni tarixiy va ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. O‘zbek simfonizmining shakllanishi bilan bir qatorda, uning tadqiqot obyekti sifatida qaror topishi, ilmiy yondashuvlarning rivojlanishi va zamonaviy bosqichdagi muammolari ko‘rib chiqiladi. T. S. Vyzgo, N. S. Yanov-Yanovskaya, N. A. Qodirova, T. Yu. Davydova, T. G‘ofurbekov, R. Yunusov, E. Mamajonova va boshqa tadqiqotchilarning ishlari asosida simfoniya janrining tarixiy, janriy, shakliy-dramaturgik, uslubiy, tematik hamda orkestrlashtirish jihatlarining o‘rganilish yo‘nalishlari aniqlanadi. Tadqiqot natijasida o‘zbek simfonizmini o‘rganish dastlab tarixiy-tavsifiy xarakterda boshlanganligi, keyinchalik maxsus nazariy va uslubiy tadqiqotlar darajasiga ko‘tarilgani hamda XXI asrda zamonaviy kompozitorlik tafakkuri, orkestrlashtirish va yangi kompozitsion vositalar bilan bog‘liq masalalar bilan boyib borayotgani asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston musiqashunosligi, san’atshunoslik, simfoniya, o‘zbek simfonizmi, milliy uslub, tematizm, shakl, dramaturgiya, orkestrlashtirish, kompozitorlik tafakkuri.*

Аннотация. *В тезисе рассматривается история и современное состояние изучения жанра симфонии в узбекском музыковедении и искусствоведении. Анализируются становление узбекского симфонизма как объекта научного исследования и развитие основных исследовательских подходов. На основе трудов Т. С. Вызго, Н. С. Янов-Яновской, Н. А. Кодировой, Т. Ю. Давыдовой, Т. Гафурбекова, Р. Юнусова, Э. Мамаджоновой и других исследователей выявляются основные направления изучения жанровых, формально-драматургических, стилевых, тематических и оркестровых особенностей симфонии. Отмечается переход от историко-описательного подхода к специальным теоретическим и стилевым исследованиям, а также расширение проблематики в XXI веке.*

Ключевые слова: *узбекское музыковедение, искусствоведение, симфония, узбекский симфонизм, национальный стиль, тематизм, форма, драматургия, оркестровка, композиторское мышление.*

Abstract. *This thesis examines the history and current state of research on the symphony genre in Uzbek musicology and art studies. It focuses on the formation of Uzbek symphonism as an object of scholarly research and the development of major research approaches. Based on the works of T. S. Vyzgo, N. S. Yanov-Yanovskaya, N. A. Qodirova, T. Yu. Davydova, T. G‘ofurbekov, R. Yunusov, E. Mamajonova, and other scholars, the main areas of research into the genre, formal-dramaturgical, stylistic, thematic, and orchestral features of the symphony are identified. The study highlights the transition from a historical-descriptive approach to specialized theoretical and stylistic research, as well as the expansion of research issues in the twenty-first century.*

Keywords: *Uzbek musicology, art studies, symphony, Uzbek symphonism, national style, thematicism, form, dramaturgy, orchestration, compositional thinking.*

Kirish

Simfoniya jahon musiqa madaniyatida shakl, dramaturgiya va orkestr tafakkurining murakkab uyg‘unligiga asoslangan yirik janrlardan biri hisoblanadi. O‘zbek musiqa madaniyatida mazkur janrning shakllanishi XX asrda professional kompozitorlik maktabining qaror topishi, Yevropa akademik musiqa an’analarining o‘zlashtirilishi va milliy musiqiy tafakkurning yangi janriy sharoitda namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq. Simfonik ijodning rivojlanishi esa, tabiiy ravishda, uning tarixiy va nazariy jihatdan o‘rganilishiga zamin yaratdi. O‘zbekiston musiqashunosligida simfoniya janrining tadqiq etilishi bir necha bosqichda shakllangan. Dastlab simfonik ijod mamlakat musiqa madaniyatining umumiy rivoji doirasida o‘rganilgan bo‘lsa, keyinchalik janrning shakliy, tematik, uslubiy va dramaturgik xususiyatlari maxsus tadqiqot obyektiga aylandi. Zamonaviy bosqichda esa milliy uslub, kompozitorlik tafakkuri, orkestrlashtirish va yangi kompozitsion vositalar masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Asosiy qism

O‘zbek simfonik musiqasini ilmiy o‘rganish XX asr o‘rtalarida shakllandi. T. S. Vizgoning “Симфоническая музыка” tadqiqoti O‘zbekiston sovet musiqa madaniyatida simfonik ijodning o‘rnini yorituvchi dastlabki ilmiy manbalardan biridir. Unda simfonik musiqaning shakllanishi, rivojlanish shart-sharoitlari va uning umumiy musiqa madaniyatidagi ahamiyati ko‘rib chiqilgan.

T. S. Vizgo, I. N. Kaerlova va F. M. Karomatov tomonidan yaratilgan “История узбекской советской музыки” asarida esa 1944–1967-yillardagi musiqiy jarayonlar tizimlashtirilib, kompozitorlik ijodining turli yo‘nalishlari qatorida simfonik musiqa rivojiga ham e’tibor qaratilgan. Ushbu davr tadqiqotlarini

simfoniyani asosan tarixiy-tavsifiy yondashuv asosida o‘rganish bosqichi sifatida baholash mumkin.

1970–1980-yillarda o‘zbek simfonizmini o‘rganish yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu jarayonda N. S. Yanov-Yanovskayaning “Узбекская симфоническая музыка” monografiyasi alohida ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqotda o‘zbek simfonik musiqasi yaxlit ilmiy obyekt sifatida qaralib, uning shakllanishi va rivojlanishi, milliy musiqiy tafakkur bilan simfonik janr o‘rtasidagi munosabat hamda kompozitorlarning janrni o‘zlashtirish jarayoni tahlil qilinadi.

Yanov-Yanovskayaning 1983-yilda nashr etilgan doktorlik dissertatsiyasi avtoreferatida esa Sharq monodik musiqa madaniyatining simfonik janrni o‘zlashtirish jarayoni alohida nazariy masala sifatida tadqiq etilgan. Bu yondashuv o‘zbek simfonizmini tarixiy hodisa sifatida tavsiflashdan tashqari, milliy va Yevropa musiqiy tafakkurining o‘zaro munosabatini ilmiy jihatdan anglash imkonini berdi.

Mazkur davrda N. A. Qodirovaning “Тематизм и форма в симфонической музыке Узбекистана” tadqiqoti ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etdi.[5] Unda simfonik asarning tematizmi va shakliy tuzilishi asosiy tadqiqot obyekti sifatida qaraladi. Natijada o‘zbek simfonizmini o‘rganishda janrning tashqi tarixiy xususiyatlari bilan bir qatorda uning ichki kompozitsion qonuniyatlarini aniqlashga e’tibor kuchaydi.

1990-yillardan boshlab o‘zbek musiqa madaniyati tarixini umumlashtiruvchi tadqiqotlar bilan bir qatorda, alohida kompozitorlar ijodini o‘rganishga qaratilgan ilmiy ishlar ham kengaydi. T. S. Vizgo, F. M. Karomatov va Ch. R. Nasirovaning “История узбекской советской музыки” asarining III jildi 1968–1984-yillardagi musiqiy jarayonlarni qamrab olib, o‘zbek simfonik ijodining tarixiy taraqqiyotini umumiy musiqa madaniyati bilan bog‘liq holda anglash imkonini beradi.

A. Jabborov, S. Begmatov va M. A’zamovaning “O‘zbek musiqa tarixi” asarida ham o‘zbek professional kompozitorlik maktabining shakllanishi va rivojlanishi yoritiladi. R. Yunusovning Mirsodiq Tojiyev ijodiga bag‘ishlangan monografiyasi esa individual kompozitorlik uslubi va simfonik tafakkur xususiyatlarini aniqlash uchun muhim manbalardan biridir. T. G‘ofurbekovning O‘zbekiston musiqa madaniyatiga oid tadqiqotlari esa milliy kompozitorlik maktabining estetik va ijodiy jarayonlarini anglashga xizmat qiladi.

XXI asr boshlarida simfoniya janrini tadqiq etishda milliy uslub va zamonaviylik masalalari yanada muhimlashdi. T. Yu. Davidovaning “История музыкальных стилей: национальный стиль в условиях современности на примере симфонии композиторов Узбекистана” tadqiqotida o‘zbek simfonizmi milliy uslub muammosi bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. Bu yondashuv milliylikning

zamonaviy kompozitorlik tafakkurida qanday namoyon bo‘lishini aniqlashga imkon beradi. E. Mamajonovaning “История узбекской музыки. Творчество композиторов Узбекистана” asari ham o‘zbek kompozitorlik ijodining tarixiy va ijodiy xususiyatlarini yorituvchi muhim manbalardan biridir.

So‘nggi yillarda simfonik ijodni o‘rganish kompozitorlik tafakkuri va orkestrlashtirish kabi torroq ilmiy yo‘nalishlar bilan boyimoqda. M. Abrorovaning 2025-yilgi doktorlik dissertatsiyasi avtoreferatida O‘zbekiston kompozitorlari ijodidagi tafakkur mohiyati, uning tarixiy va nazariy jihatlari tadqiq etilgan. Bu yo‘nalish simfoniyani nafaqat janr, balki kompozitorlik tafakkurining murakkab shakli sifatida o‘rganish imkonini beradi. N. I. Erkaevning O‘zbekiston kompozitorlarining simfonik asarlarida orkestrlashtirish masalalariga bag‘ishlangan 2024-yilgi tadqiqoti esa zamonaviy simfonik ijodning tembr, orkestr tili va faktura masalalarini o‘rganishga yo‘naltirilgan. V. Zakirovaning gibrid janrlar haqidagi tadqiqoti esa zamonaviy kompozitorlik ijodida janrlararo jarayonlarning kuchayib borayotganini ko‘rsatadi.

Xulosa

Mavjud tadqiqotlarni umumlashtirish asosida O‘zbekiston musiqashunosligida simfoniya janrini o‘rganishning uch asosiy bosqichini ajratish mumkin: birinchi bosqich — tarixiy-tavsifiy; ikkinchi bosqich — janriy, shakliy va nazariy; uchinchi bosqich — uslubiy, kompozitsion, orkestr va zamonaviy tafakkurga yo‘naltirilgan tadqiqotlar bosqichi.Shu bilan birga, XXI asrda yaratilgan simfonik asarlarning hali to‘liq tizimlashtirilmaganligi zamonaviy musiqashunoslik oldida yangi vazifalarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, yangi simfoniyalarning janriy va dramaturgik xususiyatlarini, zamonaviy orkestrlashtirish usullarini, tembr-faktura va sonoristik vositalarni hamda yangi ijrochilik texnikalarini kompleks o‘rganish dolzarbdir. Shuningdek, yangi yaratilayotgan asarlarning nota va audio materiallarini ilmiy muomalaga kiritish ham muhim vazifalardan biridir. O‘zbekiston musiqashunosligida simfoniya janrining tadqiq etilishi XX asr o‘rtalaridan boshlab izchil rivojlangan ilmiy jarayonni tashkil etadi. Dastlab simfonik musiqa umumiy tarixiy-madaniy jarayon doirasida o‘rganilgan bo‘lsa, keyinchalik N. S. Yanov-Yanovskaya va N. A. Qodirova tadqiqotlari orqali simfoniya janrining shakllanishi, milliy musiqiy tafakkur bilan munosabati, tematizm va shakliy xususiyatlari maxsus ilmiy tahlil qilindi.

Keyingi tadqiqotlarda milliy uslub, individual kompozitorlik tafakkuri va orkestrlashtirish masalalarining o‘rganilishi simfonik ijod haqidagi ilmiy qarashlarni yanada kengaytirdi. Bugungi kunda esa XXI asr o‘zbek simfonizmini zamonaviy kompozitsion texnikalar, tembr-faktura, sonoristika, orkestrlashtirish va individual dramaturgiya nuqtayi nazaridan kompleks tadqiq etish zarurati mavjud. O‘zbekiston

musiqashunosligida simfoniya janrini o‘rganish tarixiy-tavsifiy bosqichdan nazariy, uslubiy va kompozitsion tahlil bosqichiga qadar rivojlangan. Mazkur ilmiy tajribani tizimlashtirish va zamonaviy simfonik ijod bilan bog‘lash kelgusidagi tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Янов-Яновская Н. С. Узбекская симфоническая музыка**.** — Ташкент: Изд-во литературы и искусства им. Г. Гуляма, 1979. — 220 с.
2. Кадырова Н. А. Тематизм и форма в симфонической музыке Узбекистана. — Ташкент, 1989. — 144 с.
3. Гафурбеков Т. Б. Творческие ресурсы национальной монодии и их преломление в узбекской советской музыке. — Ташкент, 1987. — 110 с.
4. Давыдова Т. Ю. Современное состояние симфонического творчества (на примере жанра симфонии) // Узбекская музыка на стыке столетий (XX–XXI вв.): тенденции, проблемы. — Ташкент, 2008. — С. 4–8.
5. Янов-Яновская Н. С. Симфоническая музыка // История узбекской советской музыки. Т. 3. — Ташкент, 1991. — С. 142–180. researchgate.net

JADID ABDULHAMID CHO‘LPON OBRAZI MURAKKAB MUSIQIY-SAHNAVIY ASARDA: (MUHAMMADJON OTAJONOVNING “KUNDUZSIZ KECHALAR” OPERASI MISOLIDA)

Raximboyeva Go‘zal
Respublika musiqa va san’at oliy maktabi

Annotatsiya. *Maqolada XX asr jadidchilik harakatida o‘z o‘rni va hissasini qo‘shgan ma’rifatparvar, shoir Abdulhamid Cho‘lponning shaxsi va yirik musiqiy-sahnaviy asardagi obrazi yoritilgan. Kompozitor Muhammadjon Otajonov “Kunduzsiz kechalar” operasida shoirning obraz talqini va xalq sozlari ijrosida davr milliy ruhini tinglovchiga yetkazib beradi. Kompozitorning ijodiy izlanishlari natijasida opera janriga kiritlgan yangiliklar va ma’rifatparvar shoir shaxsiga bo‘lgan ehtirom so‘z etiladi.*

Kalit so‘zlar: *Jadid, Abdulhamid Cho‘lpon, kompozitor, Muhammadjon Otajonov, “Kunduzsiz kechalar” operasi, milliy sozlar, tarixiy xotira, milliy ohang.*

Abstract. *The article explores the personality of Abdulhamid Cholpon, an enlightener and poet who made a significant contribution to the Jadid movement of the 20th century, as well as his portrayal in a major musical and stage work. In the opera “Kunduzsiz kechalar” by composer Muhammadjon Otajonov, the interpretation of the poet’s image and the use of traditional Uzbek musical instruments convey the national spirit of the historical period to the audience. The article also discusses the innovations introduced into the opera genre as a result of the composer’s creative explorations and his tribute to the personality of the enlightened poet.*

Keywords: *Jadid, Abdulhamid Cholpon, composer, Mukhammadjon Otajonov, Kunduzsiz kechalar, traditional musical instruments, historical memory, national melody.*

XX asr boshlaridagi milliy uyg‘onish va ma’rifatparvarlik harakati o‘zbek madaniyati tarixida chuqur iz qoldirgan. Ushbu ijtimoiy-siyosiy va madaniy oqimning yana bir yorqin siymosi, yetakchi namoyandalaridan biri — buyuk shoir va mutafakkir Abdulhamid Cho‘lpondir. Uning fojiali, ayni paytda sermazmun hayot va ijod yo‘li butun o‘zbek xalqiga yaxshi ma’lum. Ijodkorning teran falsafiy va milliy ruhdagi she’riyati og‘izdan og‘izga o‘tib, o‘zbek adabiyotining bebaho merosiga aylangan.

Shoirning ijodi bilan bir qatorda uning murakkab qismatini o‘rganish ham xalqimizning unga bo‘lgan yuksak ehtiromidir. Adabiyotshunoslikda shoir hayoti va u yashagan davrdagi og‘ir siyosiy qatag‘onlar fojiasi yetarlicha yoritilgan bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda shoir obrazining musiqa san’atida, xususan, opera janrida gavdalantirilishi milliy san’atimizdagi muhim voqelik bo‘ldi. Bu, o‘z navbatida, bugungi kunda jadid namoyandalari xotirasiga qaratilayotgan yuksak e’tiborning amaliy ifodasidir.

Xususan, kompozitor Muhammadjon Otajonovning milliy ruhdagi yangi “Kunduzsiz kechalar” nomli operasining premyerasi 2024-yil 26-iyun kuni O‘zbekiston davlat konservatoriyasining katta zalida bo‘lib o‘tdi. Abdulhamid Cho‘lponning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan mazkur asar musiqiy jamoatchilik va tomoshabinlar tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi. Operada XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy muhitning xalq cholg‘ulari orkestri jo‘rligida gavdalantirilishi milliy musiqali sahnaviy asarlarimiz rivojida muhim burilish yasadi.

Asar muallifi — taniqli kompozitor, mohir fortepiano ijrochisi va “Sodiq xizmatlari uchun” medali sohibi Muhammadjon Otajonovdir.

Ma’lumki, simfonik orkestr va akademik vokal ijrochiligi sharoitida o‘zbek milliy nola va qochirimlarini tabiiy ravishda singdirish murakkab texnik vazifa hisoblanadi. Muhammadjon Otajonov ushbu asarda milliy cholg‘ularning tembral imkoniyatlaridan unumli foydalanish orqali an’anaviy maqom va xalq kuylarini opera polifoniyasiga organik tarzda birlashtirib omuhtaligini yarata oldi. Natijada, asar o‘zbek operalarining rivojlanish jarayonida “milliy uslubning aniq shakllangan namunasi” sifatida e’tirof etilishiga ham loyiq.

“Kunduzsiz kechalar” operasining eng muhim yangilik jihati — uning to‘lig‘icha o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri jo‘rligida ijro etilishidadir. Ilgari respublikamizda akademik sahnaviy janr bo‘lmish opera to‘liq milliy cholg‘ular orkestri ijrosida yangramagan edi. Asar muvaffaqiyati aynan milliy cholg‘ularimiz tabiatiga xos nolalarning opera dramaturgiyasi orqali tomoshabinga ta’sirchan tarzda yetkazib berilganida ko‘rinadi.

Asar O‘zbekiston xalq shoiri Usmon Azim qalamiga mansub syujet asosida yaratilgan bo‘lib, libretto mualliflari A. Karabayev, Z. Qayumova va D. Shirinovalardir. Operani sahnalashtirishda dirijyor Z. Qayumova, rejissyorlar U. Haydarov va J. Karimov hamda O‘zbekiston davlat konservatoriyasi musiqali teatr-studiyasining milliy cholg‘ular orkestri va yosh talabalar jamoasi katta mehnat qildilar.

Opera 5 ta ko‘rinishdan iborat bo‘lib asar tahlili asosida quyidagi xulosalarni berish mumkin:

- Mazkur opera o‘zbek musiqasida tarixiy-biografik janrning yangi qirralarini ochib berdi. U jadidlar siymosini shunchaki tarixiy personaj sifatida emas, balki zamonaviy tinglovchi bilan muloqotga kirisha oladigan, uning ma’naviy olamiga ta’sir etuvchi tirik obraz darajasiga ko‘tardi.

- Muallifning milliy sozlar va simfonik orkestr o‘rtasidagi dialogi, an’anaviy ashula yo‘llari va opera ariyalarining o‘zaro mutanosibligi o‘zbek kompozitorlik maktabi uchun muhim uslubiy yutuqdir. Bu kelgusi avlod ijodkorlar uchun milliy opera yaratishda muhim metodologik qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi.

- “Kunduzsiz kechalar” asari yosh avlodning tarixiy xotirasini shakllantirishda estetik quroldir. XX asr ma’rifatparvarlarining jasorati musiqa tili orqali targ‘ib qilinishi, yoshlarda milliy istiqlol g‘oyalariga sadoqat va ajdodlar merosiga nisbatan ehtirom tuyg‘ularini mustahkamlaydi.

- Kompozitorning ushbu asari o‘sha davr zulmati va bugungi kun nurli hayoti o‘rtasidagi bog‘lovchi halqa bo‘lib, milliy san’atimiz xazinasidan munosib o‘rin egallaydi.

Ushbu opera o‘zining strukturaviy yaxlitligi va milliy intonatsion asosining barqarorligi bilan ajralib turadi. U zamonaviy o‘zbek opera san’atida milliy ohang tizimi va G‘arb simfonik tafakkurining o‘zaro sintezi masalasini yangi bosqichga olib chiqdi.

Xulosa qilib aytganda “Kunduzsiz kechalar” operasida milliy cholg‘ular ijrosi, akademik vokal yo‘nalishining an’anaviy xonandalik bilan sintezi va milliy kuylarimizning ohangi (intonatsiya) asar mazmuniga xos tarzda singdirilganligi operaning milliy ruhini ko‘rsatib bergan. Sahnaviy asarda tarixiy siymo obrazini yaratish syujet va davr muhitini ko‘rsatib berishni talab etadi. Kompozitorning ijodiy izlanishlari va yutuqlari aynan XX asr ijtimoiy muammolarini va davr kuylarini sahnaviy asarda yoritib berishi, ma’rifatparvarlik g‘oyalarining yosh avlodga musiqiy mazmun bilan yetkazishida bo‘ldi. Musiqa san’atining murakkab janrlari qatoridan o‘rin egallagan opera asarida jadidchilik g‘oyalarining yoritilishi hozirgi kundagi islohotlarning va ma’rifatparvar allomalar xotirasini abadiylashtirishga qaratilgan say-harakatlarning natijasini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lyubimceva V. Muhammad Atadjanov. No‘kis: “Bilim” 2024.
2. Raximboyeva G. Kompozitor Muhammadjon Otajonovning “Kunduzsiz kechalar” operasining premyerasi yoshlar talqinida // “Zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirish va unga qaratilgan kreativ g‘oyalar, takliflar va yechimlar” mavzusidagi 76-sonli Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi maqolalar to‘plami. – Toshkent, 2025. – B 133-140.

3. Джурабекова С. Мухаммад Отажонов. Ташкент, 2021.

4. Касымходжаева Саида Ботировна. Опера и современность на примере композиторского творчества Узбекистана // Проблемы современной науки и образования. – 2020. – № 3 (148). – С. 94–97.

MARKAZIY OSIYODA TRANSCHEGARAVIY SUV RESURSLARINI BOSHQARISHNING XALQARO-HUQUQIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Shodiyeva Dilnoza Shoim qizi
"TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti
dilnozashodiyeva4@gmail.com

Abstract. *This abstract analyzes the current status and effectiveness of institutional and international legal mechanisms governing the management of transboundary water resources in the Central Asian region. The study examines the legal foundations of the Interstate Commission for Water Coordination (ICWC) and the International Fund for Saving the Aral Sea (IFAS), alongside issues of securing water-energy consensus, joint monitoring, and peaceful dispute settlement. Academic and practical proposals regarding structural institutional reform under climate change conditions, optimizing the legal and organizational status of IFAS, and introducing a digital information exchange mechanism are rigorously substantiated.*

Keywords: *Transboundary water resources management, institutional mechanisms, ICWC, IFAS, water diplomacy, water-energy nexus, joint monitoring, dispute resolution, climate change.*

Аннотация. *В данной тезисной работе проанализированы текущее состояние и эффективность институциональных и международно-правовых механизмов, регулирующих управление трансграничными водными ресурсами в регионе Центральной Азии. В исследовании изучены правовые основы деятельности Межгосударственной координационной водохозяйственной комиссии (МКВК) и Международного фонда спасения Арала (МФСА), вопросы обеспечения водно-энергетического консенсуса, совместного мониторинга и мирного разрешения споров. Научно обоснованы научно-практические предложения по реформированию институциональной структуры в условиях изменения климата, оптимизации правового и организационного статуса МФСА, а также внедрению механизма цифрового обмена информацией.*

Ключевые слова: *Управление трансграничными водными ресурсами, институциональные механизмы, МКВК, МФСА, водная дипломатия, водно-энергетическая взаимосвязь, совместный мониторинг, разрешение споров, изменение климата.*

Annotatsiya. *Ushbu tezisda Markaziy Osiyo mintaqasida transchegaraviy suv resurslarini boshqaruvchi institutsional va xalqaro-huquqiy mexanizmlarning amaldagi holati hamda samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqotda Suv xo'jaligini muvofiqlashtiruvchi davlatlararo komissiya (ICWC/SIVK) va Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi (IFAS/OQXJ) faoliyatining huquqiy asoslari, suv-energetika konsensusini ta'minlash, qo'shma monitoring hamda nizolarni tinch yo'l bilan hal etish masalalari tadqiq etilgan. Iqlim o'zgarishi sharoitida institutsional tuzilmani isloh qilish, OQXJning huquqiy va tashkiliy maqomini optimallashtirish hamda raqamli axborot almashinuvi mexanizmini joriy etish bo'yicha ilmiy va amaliy takliflar ilmiy jihatdan asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *Transchegaraviy suv resurslarini boshqarish, institutsional mexanizmlar, ICWC, IFAS (OQXJ), suv diplomatiyasi, suv-energetika aloqadorligi, qo'shma monitoring, nizolarni hal etish, iqlim o'zgarishi*

KIRISH

Transchegaraviy suv resurslarini barqaror va adolatli taqsimlash va muhofaza qilish xalqaro suv huquqi tamoyillarini e'lon qilish bilangina cheklanmaydi; buning uchun doimiy ishlovchi, samarali institutsional va huquqiy boshqaruv mexanizmlari zarur. Markaziy Osiyoda iqlim o'zgarishi oqibatida suv resurslarining mavsumiy tebranishi va taqchilligi ortib borayotgan hozirgi bosqichda mavjud boshqaruv mexanizmlari hamda institutsional tuzilmalarni zamonaviy xalqaro-huquqiy standartlarga mos ravishda transformatsiya qilish va takomillashtirish talab etiladi.

ASOSIY ILMIY TAHLIL

Markaziy Osiyoda transchegaraviy suv resurslarini boshqarishning xalqaro-huquqiy va institutsional tizimi 1990-yillarning boshlarida shakllangan bo'lib, uning asosiylari quyidagilardir:

1.**Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi (IFAS/OQXJ):** Mintaqaviy darajadagi oliy siyosiy-institutsional platforma.

2.**Suv xo'jaligini muvofiqlashtiruvchi davlatlararo komissiya (ICWC/SIVK):** Suv resurslarini operativ taqsimlash va limitsiyalash bilan shug'ullanuvchi organ.

3.**"Amudaryo" va "Sirdaryo" havza suv xo'jaligi birlashmalari (BWO/HSXB):** ICWC ijrochi organlari sifatida daryo havzalarida taqsimotni amalda amalga oshiruvchi texnik tuzilmalar.

Ushbu institutsional mexanizmlar 1992-yilgi Olmaota Bitimi va 1999-yilgi Ashxobod Deklaratsiyasi kabi normativ-huquqiy hujjatlarga asoslanadi. Suv va energetika resurslaridan foydalanishda quyi oqim davlatlarining irrigatsiya ehtiyojlari hamda yuqori oqim davlatlarining gidroenergetika manfaatlari (Water-

Energy Nexus) o‘rtasidagi muvozanatni saqlash ushbu institutlar faoliyatining o‘zagini tashkil etadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘tkazilgan xalqaro-huquqiy va institutsional tahlillar amaldagi mexanizmlarda bir qator muammolar va bo‘shliqlarni aniqladi:

1. **Institutsional vakolatlarning tarqoqligi va zaifligi:** ICWC va BWO tuzilmalarining qarorlari majburiylik darajasiga va to‘liq ijro mexanizmiga ega emas. BWO xodimlarining diplomatik maqomi va daryo havzalarida to‘liq monitoring o‘tkazish huquqlari xalqaro-huquqiy jihatdan yetarlicha kafolatlanmagan.
2. **Nizolarni va kelishmovchiliklarni hal etishning aniq huquqiy tartibi yo‘qligi:** Amaldagi mintaqaviy bitimlarda suv taqsimoti bo‘yicha nizolar yuzaga kelganda ularni hal etuvchi majburiy yurisdiktsiyaga ega vositachilik yoki arbitraj tartiblari nazarda tutilmagan.
3. **Iqlim o‘zgarishi omilining shartnomalarda aks etmagani:** Amaldagi bitimlar va suv limitlari sobiq ittifoq davridagi doimiy gidrologik ko‘rsatkichlarga asoslangan bo‘lib, ular iqlim o‘zgarishi va suv kutilmagan darajada kamayishi sharoitidagi moslashuvchan (adaptive governance) huquqiy mexanizmlarni o‘zida aks ettirmaydi.

Markaziy Osiyoda suv resurslarini boshqarish mexanizmini takomillashtirish mavjud institutlarni tarqatib yuborish emas, balki **OQXJ (IFAS) va ICWC (SIVK)ning huquqiy-tashkiliy tuzilmasini modernizatsiya qilish (Reforming/Institutional Restructuring)** orqali amalga oshirilishi kerak. Institutsional mexanizm faqatgina "suvni taqsimlash" funksiyasidan "suv va energetika resurslarini hamkorlikda kompleks boshqarish hamda ekologik moslashuv" funksiyasiga o‘tishi shart. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. **OQXJ (IFAS) tashkiliy tuzilmasini va Huquqiy bazasini takomillashtirish:** OQXJ Ijroiya Qo‘mitasi va ICWC Bosh Kotibiyatini birlashtirish orqali yagona **"Markaziy Osiyo Suv va Energetika Kengashi"** xalqaro institutsional organini tashkil etish va uning qarorlarining davlatlar uchun majburiylik va ijro etilish darajasini mustahkamlovchi mintaqaviy Shartnoma qabul qilish.
2. **Yagona Raqamli Gidrologik Axborot va Monitoring Markazini yaratish:** Mintaqa davlatlari o‘rtasida **"Transchegaraviy suv resurslari bo‘yicha raqamli ma’lumot va axborot almashinuvi to‘g‘risida"gi Mintaqaviy Kelishuv**ni imzolash hamda BWO bazasida sun’iy yo‘ldosh va avtomatlashtirilgan stansiyalar orqali ochiq axborot bazasini huquqiy jihatdan mustahkamlash.

XULOSA

Markaziy Osiyoda transchegaraviy suv resurslarini boshqarishning xalqaro-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish mintaqaviy barqarorlik va suv diplomatiyasining samaradorligini oshirishning yagona yo‘lidir. Institutsional tuzilmalarni transformatsiya qilish, raqamli axborot almashinuvini huquqiy jihatdan mustahkamlash hamda nizolarni tinch hal etish tartibini joriy etish orqali suv-energetika balansiga erishish hamda iqlim o‘zgarishi xatarlarini kamaytirish imkoni yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Agreement between the Republic of Kazakhstan, the Republic of Kyrgyzstan, the Republic of Tajikistan, Turkmenistan and the Republic of Uzbekistan on Cooperation in the Field of Joint Management of the Use and Protection of Water Resources of Interstate Sources (Signed in Almaty, 18 February 1992).
2. Dushanbe Declaration of the Heads of the IFAS Founder States. Dushanbe, September 15, 2023.
3. UN Watercourses Convention, UNECE Water Convention. Official Texts and Implementation Guidelines. – 1997; 1992.
4. Wouters P., Ziganshina D. Tackling the Central Asian Water-Energy Nexus: The Role of International Water Law and Regional Institutions // Water International. – 2018. – Vol. 43, No. 7. – P. 935–951.
5. Janusz-Pawletta B. The Legal Framework for Managing Transboundary Water Resources in Central Asia: Status and Prospects // Journal of Water Law. – 2015. – Vol. 24, No. 5. – P. 210–218.
6. Gafurov A., Nosirov U. Markaziy Osiyoda suv resurslarini boshqarishda institutsional mexanizmlarning o‘rni va ularni isloh qilish yo‘nalishlari // Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik jarayoni. – 2021. – № 3. – B. 112–119.

INTERNET FIRIBGARLIGI JINOYATLARINI TERGOV QILISHDA JABRLANUVCHINI SO‘ROQ QILISHNING KRIMINALISTIK JIHATLARI

Xabibiddinov Nodirjon Mo‘sinjon o‘g‘li
Toshkent davlat yuridik universiteti
0009-0009-5402-2364
n.xabibiddinov@tsul.uz

Annotatsiya. *Tezisda internet firibgarligiga oid jinoyat ishlarini tergov qilishda jabrlanuvchini so‘roq qilishning kriminalistik xususiyatlari tahlil qilingan. Jabrlanuvchi ko‘pincha jinoyatchi bilan bevosita muloqotda bo‘lgan yagona shaxs ekani, uning ko‘rsatuvlari esa raqamli izlarni aniqlash va mablag‘larni tezkor to‘xtatib qolish uchun boshlang‘ich axborot manbai bo‘lishi asoslab berilgan. Ijtimoiy muhandislik ta’siridagi xotira xususiyatlari, uyalish hissi va vaqt omili so‘roq natijadorligiga ta’sir etuvchi asosiy omillar sifatida ko‘rsatilgan. So‘roqqa tayyorgarlik, uning predmeti, erkin hikoya va kognitiv intervyu usullari, so‘roqni elektron ma’lumotlar bilan ishlash bilan uyg‘unlashtirish masalalari ko‘rib chiqilib, tergov amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *internet firibgarligi, jabrlanuvchi, so‘roq taktikasi, ijtimoiy muhandislik, kognitiv intervyu, raqamli izlar, elektron ma’lumotlar, kriminalistika.*

Аннотация. *В тезисе рассматриваются криминалистические аспекты допроса потерпевшего при расследовании интернет-мошенничества. Обосновывается, что потерпевший нередко является единственным лицом, непосредственно взаимодействовавшим с преступником, а его показания служат исходным источником сведений для обнаружения цифровых следов и оперативной блокировки похищенных средств. В качестве ключевых факторов, влияющих на результативность допроса, выделены особенности памяти под воздействием социальной инженерии, чувство стыда и фактор времени. Рассмотрены подготовка к допросу, его предмет, приёмы свободного рассказа и когнитивного интервью, сочетание допроса с работой с электронной информацией; сформулированы предложения по совершенствованию следственной практики.*

Ключевые слова: *интернет-мошенничество, потерпевший, тактика допроса, социальная инженерия, когнитивное интервью, цифровые следы, электронная информация, криминалистика.*

Abstract. *The thesis examines the forensic aspects of interviewing the victim in internet fraud investigations. It argues that the victim is often the only person who has interacted directly with the offender, and that the victim's testimony is the initial source of information for locating digital traces and promptly freezing stolen funds. Memory distortions caused by social engineering, feelings of shame, and the time factor are identified as the main factors affecting the outcome of the interview. The paper considers preparation for the interview, its subject matter, free narrative and cognitive interview techniques, and the combination of the interview with work on electronic data, and formulates proposals for improving investigative practice.*

Keywords: *internet fraud, victim, interview tactics, social engineering, cognitive interview, digital traces, electronic data, criminalistics.*

Internet firibgarligini tergov qilish haqida so‘z borganda, e’tibor ko‘pincha texnik masalalarga – IP-manzillarni aniqlash, bank tranzaksiyalarini kuzatish, kompyuter-texnik ekspertizasiga qaratiladi. Holbuki bu zanjirning birinchi halqasi deyarli har doim jabrlanuvchidir. Aynan u firibgar bilan yozishgan, uning ovozini eshitgan, qaysi havolani ochgani, qaysi kodni aytgani va pulni qaysi kartaga o‘tkazganini biladi. Shu ma’noda jabrlanuvchining birinchi so‘rog‘i raqamli izlarni qidirishning “yo‘l xaritasi” vazifasini bajaradi. Undan olingan har bir aniq ma’lumot keyingi tergov harakati yoki so‘rovga aylanadi.

Jabrlanuvchining protsessual maqomi va huquqlari O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 54 va 55-moddalarida, uni so‘roq qilish tartibi esa 10-bobdagi so‘roq qilishning umumiy qoidalari hamda 12-bobda (114–121-moddalar) belgilangan [1]. Biroq qonun so‘roqning umumiy tartibini belgilaydi, internet firibgarligi esa shu tartib doirasida alohida taktik yondashuvni talab qiladi. Buning sababi jabrlanuvchining bunday ishlardagi o‘ziga xos holati bilan bog‘liq.

Birinchidan, internet firibgarligida jabrlanuvchi jinoyatchini ko‘pincha umuman ko‘rmaydi. An’anaviy firibgarlikda jabrlanuvchidan shaxsning tashqi qiyofasi, kiyimi, yurish-turishi so‘ralsa, bu yerda “jinoyatchi qiyofasi” telefon raqami, akkaunt nomi va avatari, yozishma uslubi, yuborilgan havola, karta yoki kriptohamyon raqami, ovoz va nutq xususiyatlaridan iborat bo‘ladi. Demak, so‘roqning bosh vazifasi aynan shu identifikatorlarni to‘liq va aniq qayd etishdan iborat. Bayonnomaga “noma’lum shaxs telefon orqali aldab, pulni o‘tkazib oldi” kabi umumiy jumla yozilsa, bu ma’lumotlarni keyinchalik tiklash ancha qiyinlashadi.

Ikkinchidan, jabrlanuvchi jinoyat sodir etilayotgan paytda ijtimoiy muhandislik ta’sirida bo‘lgan. Firibgar shoshiltirish, qo‘rqitish (“kartangiz bloklanmoqda”,

“yaqiningiz muammoga uchradi”) yoki, aksincha, katta foyda va’da qilish orqali uning tanqidiy fikrlashini susaytiradi. Stress holatida idrok etilgan voqealar xotirada parcha-parcha saqlanadi, shu sababli jabrlanuvchi voqealar ketma-ketligini adashtirishi, suhbat mazmunini qisqartirib yoki, aksincha, keyinroq eshitgan gaplar bilan to‘ldirib aytib berishi mumkin. Bu esa uning ishora qiluvchi savollarga nisbatan ta’sirchanligini oshiradi.

Uchinchidan, jabrlanuvchilarning katta qismi kodni o‘z qo‘li bilan yuborgani, “investitsiya”ga o‘zi pul kiritgani yoki ijtimoiy tarmoqdagi tanishiga ishongani uchun o‘zini aybdor his qiladi. K.Kross tadqiqotida onlayn firibgarlik qurbonlari jamiyatda “ochko‘z va laqma” sifatida tasvirlanishi, bunday munosabat esa ularni boshidan kechirganlarini oshkor qilishdan tiyib turishi ko‘rsatilgan [2]. Avstraliya kriminologiya institutining tadqiqotida esa jabrlanuvchilar murojaat qilganda duch kelgan befarq yoki ayblovchi munosabat ularning ahvolini yanada og‘irlashtirgani, ular, eng avvalo, hurmat bilan tinglanishni kutgani qayd etilgan [3]. Uyalish hissi tufayli jabrlanuvchi so‘roqda SMS-kodni aytganini yoki masofaviy boshqaruv ilovasini o‘rnatganini yashirishi mumkin, holbuki aynan shu ma’lumot jinoyat mexanizmini aniqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

To‘rtinchidan, vaqt omili. Firibgarga yozishmalarni “ikki tomondan” o‘chirish, akkauntni yo‘q qilish, mablag‘ni bir necha karta yoki kriptohamyon orqali o‘tkazib yuborish uchun odatda bir necha soat yetarli. Jabrlanuvchi esa huquqni muhofaza qiluvchi organga ko‘pincha kech murojaat qiladi. U avval bankka, keyin tanishlariga uchraydi, ba’zan esa masalani “o‘zi hal qilishga” urinadi. Shu bois birinchi so‘roqni kechiktirmaslik va uni raqamli ma’lumotlarni qayd etish bilan bir vaqtda o‘tkazish zarur.

So‘roqqa tayyorgarlik tergovchidan firibgarlikning tipik sxemalarini bilishni talab qiladi. “Bank xavfsizlik xizmati” nomidan qilingan qo‘ng‘iroq, onlayn savdo platformasida “xaridor” yuborgan soxta to‘lov havolasi, soxta birja yoki treyding platformasi, ijtimoiy tarmoqdagi tanishuv orqali sodir etiladigan firibgarlik – har birining o‘z mexanizmi va, demak, o‘z savollar majmui bor. Tayyorgarlik bosqichida jabrlanuvchidan telefoni yoki boshqa qurilmasi, bank ko‘chirmasi, cheklar va ekran yozuvlarini olib kelish so‘ralishi, zarurat bo‘lsa, JPKning 69-moddasiga muvofiq mutaxassisni jalb etish masalasi hal qilinishi lozim.

So‘roqning boshlang‘ich bosqichida psixologik aloqa o‘rnatish alohida ahamiyatga ega. So‘roq taktikasiga oid an’anaviy ishlarda ta’kidlanganidek, so‘roq qilinuvchining ishonchini qozonmay turib, undan to‘liq va xolis ko‘rsatuv olish qiyin [4]. Jabrlanuvchiga javobgarlik firibgarning zimmasida ekanini, bunday usullar bilan ko‘plab odamlar, jumladan, tajribali mutaxassislar ham aldanayotganini tushuntirish uning ochiqroq gapirishiga yordam beradi. Shundan

so‘ng JPKning 101-moddasiga muvofiq jabrlanuvchiga ishning holatlari to‘g‘risida erkin so‘zlab berish imkoniyati beriladi. Bu bosqichda uning so‘zini bo‘lmaslik muhim, aniqlashtiruvchi savollar esa erkin hikoyadan keyin beriladi. JPKning 102-moddasida mustahkamlangan ishora qiluvchi savollar berishga yo‘l qo‘yilmasligi qoidasi bu toifadagi ishlarda ayniqsa dolzarb. “U sizga bank xodimi deb tanishtirdimi?” degan savol stress holatidagi jabrlanuvchiga tayyor javobni taklif qiladi, “U o‘zini kim deb tanishtirdi?” degan savol esa uning o‘z xotirasiga tayanishini ta’minlaydi.

Xotirani faollashtirishda kognitiv intervyu usullari samarali vosita bo‘lishi mumkin. R.Fisher va E.Gayzelman tomonidan ishlab chiqilgan bu metodika voqea sodir bo‘lgan muhitni xayolan tiklash, hamma narsani, hatto ahamiyatsiz tuyulgan tafsilotlarni ham aytib berish, voqeani turli tartibda va turli nuqtayi nazardan eslashga asoslanadi [5]. Masalan, jabrlanuvchidan qo‘ng‘iroq kelgan paytda qayerda bo‘lgani, qaysi qurilmadan foydalangani, ekranda nimani ko‘rgani, orqa fonda qanday tovushlar eshitilganini eslashni so‘rash ko‘pincha yangi ma’lumotlarni yuzaga chiqaradi. Bu usulga oid yigirma besh yillik tadqiqotlarning meta-tahlili kognitiv intervyu to‘g‘ri tafsilotlar hajmini sezilarli oshirishini, xatolar soni esa nisbatan kam ortishini ko‘rsatgan [6].

So‘roq predmeti internet firibgarligining kriminalistik tavsifidan kelib chiqadi. Jabrlanuvchidan, avvalo, firibgar bilan birinchi aloqa qachon, qaysi kanal orqali (qo‘ng‘iroq, SMS, messenjer, ijtimoiy tarmoq, e’lonlar sayti) va qaysi identifikator orqali o‘rnatilgani aniqlanadi. So‘ngra firibgar qanday “afsona”dan foydalangani, o‘zini kim deb tanishtirgani, muloqot qancha davom etgani, jabrlanuvchi aynan qanday harakatlarni bajargani – qaysi havolani ochgani, qanday ilova o‘rnatgani (ayniqsa, masofaviy boshqaruv ilovalari), qaysi kod yoki parolni bergani so‘raladi. Moliyaviy qismda mablag‘ qaysi karta yoki hisobvaraqdan, qaysi bank yoki to‘lov ilovasi orqali, qaysi rekvizitlarga, qachon va qancha miqdorda o‘tkazilgani bayonnomada ayniqsa batafsil qayd etilishi kerak, chunki aynan shu ma’lumotlar mablag‘larni to‘xtatib turish uchun bankka yuboriladigan so‘rovning asosini tashkil etadi. Agar muloqot ovozli bo‘lgan bo‘lsa, firibgarning ovozi, talaffuzi, shevasi, nutq sur’ati, takrorlagan iboralari va orqa fondagi shovqinlar ham so‘raladi. JPKning 126-moddasiga ko‘ra, tanib olish uchun ko‘rsatishdan oldin tanib oluvchi so‘roq qilinadi, shu sababli bu belgilarning birinchi so‘roqdayoq batafsil qayd etilishi keyinchalik tanib olish uchun ko‘rsatish yoki fonoskopik ekspertiza o‘tkazish imkoniyatini saqlab qoladi.

Internet firibgarligi bo‘yicha so‘roqning muhim xususiyati – uni elektron ma’lumotlar bilan ishlash bilan uyg‘unlashtirish zarurati. JPKning 105-moddasi so‘roq qilinuvchiga narsalar va hujjatlar bilan bir qatorda elektron ma’lumotlarni

koʻrsatish imkoniyatini nazarda tutadi. Bu jabrlanuvchiga yozishmalar, qoʻngʻiroqlar roʻyxati, bank ilovasidagi operatsiyalarni koʻrsatib, ularning har biriga izoh berishini soʻrash, qaysi xabar firibgardan kelganini, qaysi operatsiyani oʻzi, qaysi birini esa firibgar bajarganini aniqlashtirish imkonini beradi. Amalda eng maqbul yoʻl jabrlanuvchining roziligi bilan uning qurilmasini mutaxassis ishtirokida koʻzdan kechirish va soʻroqni shu harakat bilan uygʻun holda olib borishdir. Bunda yozishmalar, qoʻngʻiroqlar jurnali, oʻrnatilgan ilovalar va bank bildirishnomalari qayd etiladi. Soʻroq jarayonini audio- va videoyozuv vositasida qayd etish (JPKning 91 va 106-moddalari) jabrlanuvchining soʻzlarini aynan saqlab qolish, uning holatini aks ettirish va takroriy soʻroqlarga ehtiyojni kamaytirish uchun foydalidir.

Internet firibgarligining hududlararo va transchegaraviy tabiati tufayli jabrlanuvchi koʻpincha boshqa viloyatda yoki xorijda boʻladi. Bunday hollarda JPKning 91^1–91^4-moddalarida nazarda tutilgan videokonferensaloqa rejimida soʻroq qilish vaqtni tejaydi va jabrlanuvchini ortiqcha safardan xalos qiladi. Keksa, kasal yoki uzoq muddatga xorijga ketayotgan jabrlanuvchilarga nisbatan JPKning 12^1-bobida nazarda tutilgan koʻrsatuvlarni oldindan mustahkamlab qoʻyish institutidan foydalanish maqsadga muvofiq. Voyaga yetmagan jabrlanuvchilar esa JPKning 121-moddasida belgilangan qoʻshimcha kafolatlarga rioya qilingan holda soʻroq qilinadi. Bunday yondashuv Yevropa Ittifoqining 2012/29/EU-son Direktivasi 20-moddasidagi jabrlanuvchini asossiz kechiktirmasdan soʻroq qilish va soʻroqlar sonini zarur minimumga keltirish talabi bilan ham hamohangdir [7]. Shu bilan birga, bank, aloqa operatori yoki platformadan javob olingach, odatda JPKning 108-moddasi asosida qoʻshimcha soʻroq oʻtkaziladi. Unda jabrlanuvchiga aniqlangan raqamlar, akkauntlar yoki ovoz yozuvlari koʻrsatilib, ularning firibgar bilan bogʻliqligi aniqlashtiriladi.

Tergov amaliyotida jabrlanuvchini soʻroq qilish bilan bogʻliq bir qator tipik kamchiliklarga duch kelish mumkin. Ayrim hollarda bayonnoma identifikatorlar va toʻlov rekvizitlarisiz, umumiy shaklda rasmiylashtiriladi, jabrlanuvchining qurilmasi esa koʻzdan kechirilmay, yozishmalar faqat uning ogʻzaki bayoni asosida qayd etiladi. Birinchi soʻroqning kechikishi, bank bilan aloqaning sust oʻrnatilishi va jabrlanuvchiga nisbatan ayblovchi ohang ham uchrab turadi. Bu kamchiliklar dalillar bazasini zaiflashtiribgina qolmay, mablagʻlarni qaytarish imkoniyatini ham yoʻqqa chiqaradi. Shularni inobatga olib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin.

Birinchidan, internet firibgarligining tipik sxemalari (soxta havola, “bank xodimi” nomidan qoʻngʻiroq, onlayn savdo, soxta investitsiya, tanishuv orqali firibgarlik) boʻyicha jabrlanuvchini soʻroq qilishning namunaviy savollar roʻyxatini ishlab chiqish va uni tergovchilar uchun uslubiy tavsiya sifatida joriy etish lozim.

Bunday savolnoma identifikatorlar, to‘lov rekvizitlari va vaqt ko‘rsatkichlarining tushib qolmasligini kafolatlaydi.

Ikkinchidan, jabrlanuvchini birinchi marta so‘roq qilishni uning qurilmasini mutaxassis ishtirokida ko‘zdan kechirish hamda bankka mablag‘larni to‘xtatib turish to‘g‘risida so‘rov yuborish bilan bir vaqtda o‘tkazishni ushbu toifadagi ishlar bo‘yicha namunaviy tartib sifatida belgilash, birinchi so‘roqni audio- va videoyozuv vositasida qayd etish amaliyotini kengaytirish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, uzoqda yashovchi jabrlanuvchilarni so‘roq qilishda videokonferensaloqadan, keksa va xorijga ketayotgan shaxslarga nisbatan esa ko‘rsatuvlarni oldindan mustahkamlab qo‘yish institutidan faolroq foydalanish zarur.

To‘rtinchidan, tergovchilarning malakasini oshirish dasturlariga ijtimoiy muhandislik psixologiyasi, kognitiv intervyu va jabrlanuvchiga yo‘naltirilgan so‘roq usullari bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni kiritish lozim.

Xulosa qilib aytganda, internet firibgarligi bo‘yicha jabrlanuvchini so‘roq qilish oddiy protsessual rasmiyatchilik emas, balki tergovning yo‘nalishini belgilab beruvchi hal qiluvchi harakatdir. Undan olingan aniq identifikatorlar, to‘lov rekvizitlari va vaqt ko‘rsatkichlari raqamli izlarni topish va mablag‘larni qaytarishning eng qisqa yo‘lini ochadi. So‘roqni tezkor, psixologik jihatdan to‘g‘ri va elektron ma’lumotlar bilan uyg‘un holda tashkil etish esa ushbu toifadagi jinoyatlarning fosh etilish darajasini oshirishga, fuqarolarning buzilgan huquqlarini tiklashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN MANBALAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi (03/26/1151/0589-son; 23.06.2026-y., 03/26/1155/0616-son; 27.07.2026-y., 03/26/1161/0787-son; 14.08.2026-y., 03/26/1165/0841-son; 12.09.2026-y., 03/26/1174/0920-son) 22.09.1994). Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/-111460

2. Cross C. No laughing matter: Blaming the victim of online fraud. International Review of Victimology. – 2015. – Vol. 21, № 2. – P. 187–204. – DOI: 10.1177/0269758015571471

3. Cross C., Richards K., Smith R.G. The reporting experiences and support needs of victims of online fraud. Trends & Issues in Crime and Criminal Justice. – Canberra: Australian Institute of Criminology, 2016. – № 518. – URL: https://www.aic.gov.au/publications/tandi/tandi518

4. Порубов Н.И. Тактика допроса на предварительном следствии: учебное пособие. – М.: БЕК, 1998. – 208 с.

5. Fisher R.P., Geiselman R.E. Memory-enhancing techniques for investigative interviewing: The cognitive interview. – Springfield, IL: Charles C. Thomas, 1992.

6. Memon A., Meissner C.A., Fraser J. The Cognitive Interview: A meta-analytic review and study space analysis of the past 25 years. Psychology, Public Policy, and Law. – 2010. – Vol. 16, № 4. – P. 340–372. – DOI: 10.1037/a0020518.

7. Directive 2012/29/EU of the European Parliament and of the Council of 25 October 2012 establishing minimum standards on the rights, support and protection of victims of crime, and replacing Council Framework Decision 2001/220/JHA. Official Journal of the European Union. – 2012. – L 315. – P. 57–73.

BALANCING TRADE RESTRICTIONS AND HUMAN RIGHTS PROTECTION UNDER WTO LAW: A COMPARATIVE LEGAL ANALYSIS OF THE EXPERIENCE OF DEVELOPING COUNTRIES

Ziyodov Mehroj Murodillo o‘g‘li
University of World Economy and Diplomacy
mziyodov@uwed.uz

Abstract. *This article examines how the law of the World Trade Organization accommodates trade restrictive measures adopted in the name of human rights, and how developing countries have experienced this accommodation both as defendants and as targets of such measures. Drawing on doctrinal writings, the jurisprudence of the WTO Appellate Body and national constitutional provisions, the author argues that the general exceptions of Article XX of the GATT 1994 have gradually become a workable channel for human rights considerations, yet their application remains asymmetrical. The article concludes that a more balanced interpretation, grounded in good faith and proportionality, would serve both trade stability and the protection of human dignity.*

Keywords: *WTO law, human rights, trade restrictions, public morals exception, Article XX GATT, developing countries, proportionality, Uzbekistan.*

Аннотация. *В статье рассматривается, каким образом право Всемирной торговой организации допускает торгово-ограничительные меры, принимаемые во имя защиты прав человека, и как развивающиеся страны воспринимают такой подход, выступая как в роли ответчиков, так и в роли адресатов подобных мер. Опираясь на доктринальные труды, практику Апелляционного органа ВТО и национальные конституционные положения, автор приходит к выводу, что общие исключения статьи XX ГАТТ 1994 постепенно превратились в действенный механизм учета соображений прав человека, однако их применение по-прежнему носит асимметричный характер. В заключение статьи обосновывается, что более сбалансированное толкование, основанное на принципах добросовестности и соразмерности, служило бы как стабильности торговли, так и защите человеческого достоинства.*

Ключевые слова: *право ВТО, права человека, торговые ограничения, исключение по соображениям общественной морали, статья XX ГАТТ, развивающиеся страны, соразмерность, Узбекистан.*

Annotatsiya. *Maqolada Jahon savdo tashkiloti huquqi inson huquqlarini himoya qilish maqsadida qabul qilinadigan savdo cheklovchi choralarga qanday yo'l qo'yishi hamda rivojlanayotgan davlatlar bunday yondashuvni ham javobgar tomon, ham mazkur choralar qaratilgan tomon sifatida qanday boshdan kechirgani tahlil qilinadi. Doktrinal asarlar, JST Apellyatsiya organining amaliyoti va milliy konstitutsiyaviy qoidalarga tayangan holda muallif 1994-yilgi GATTning XX moddasida nazarda tutilgan umumiy istisnolar asta-sekin inson huquqlari bilan bog'liq mulohazalarni hisobga olishning amaliy vositasiga aylanganini, biroq ularning qo'llanilishi hamon nosimmetrik xususiyatga ega ekanini asoslaydi. Maqolada vijdonlilik va mutanosiblik tamoyillariga asoslangan muvozanatliroq talqin savdo barqarorligiga ham, inson qadr-qimmatini himoya qilishga ham xizmat qilishi haqida xulosa chiqariladi.*

Kalit so'zlar: *JST huquqi, inson huquqlari, savdo cheklovlari, jamoat axloqi istisnosi, GATT XX moddasi, rivojlanayotgan davlatlar, mutanosiblik, O'zbekiston.*

Introduction

The relationship between international trade law and human rights has long been described as uneasy. For several decades the multilateral trading system developed on the assumption that economic liberalisation would, by itself, raise living standards and therefore indirectly improve the enjoyment of rights. This assumption has been increasingly questioned. States now restrict imports of goods produced with forced labour, ban products associated with cruelty or environmental harm, and attach social conditions to market access. Each of these measures may pursue a legitimate aim, but each also places a burden on exporters, very often exporters from developing economies. Ernst-Ulrich Petersmann suggested that the trading system should be reconstructed around the idea of human rights as constitutional guarantees for individuals [1], while Robert Howse warned that such an approach could privilege market freedoms over social rights and reflect a narrow vision of humanity [2]. This debate is not purely academic. For a country such as Uzbekistan, which is moving through the final stages of WTO accession and has adopted a new Constitution placing the human being, his rights and freedoms at the centre of state policy [3], the question of how trade obligations interact with human rights commitments has direct practical significance. The purpose of this article is to analyse how WTO law balances these two sets of values and to compare the positions that developing countries have taken in this area.

Methodology and Literature Review

The study relies exclusively on doctrinal and comparative legal methods. No empirical surveys, interviews or field observations were used. The author analysed

the text of the GATT 1994 and selected reports of the WTO Appellate Body, academic literature and then compared the arguments raised by developing countries in disputes where human rights or closely related public values were at stake. The formal legal method was used to interpret treaty provisions, the comparative method to contrast the positions of different states, and the systemic method to place WTO rules within general international law. Steve Charnovitz was among the first to demonstrate that the public morals exception in Article XX(a) had a historical foundation in the trade treaties of the early twentieth century and could legitimately cover moral concerns about conditions abroad [4].

Gabrielle Marceau later provided a detailed account of how WTO adjudicators could take human rights norms into consideration through the rules of treaty interpretation without exceeding their jurisdiction [5]. Russian scholarship tends to approach the issue from the perspective of state sovereignty and the stability of economic relations. V.M. Shumilov emphasises that international economic law is built on the balance of interests of states and that unilateral measures risk undermining this balance [6]. A.Kh. Saidov, whose work on comparative law has been influential in both Uzbek and Russian legal education, reminds us that legal transplants and international standards must be adapted to the legal culture of the receiving state [7]. Read together, these sources show a clear division between authors who see human rights as a ground for expanding regulatory space and those who stress the danger of disguised protectionism.

Results and Discussion

The analysis shows that WTO jurisprudence has moved, slowly but noticeably, toward recognising non-economic values. In the shrimp dispute brought by India, Malaysia, Pakistan and Thailand, the Appellate Body accepted that a measure aimed at protecting a resource located outside the territory of the regulating state could fall within Article XX, but it found that the United States had applied the measure in a manner amounting to arbitrary and unjustifiable discrimination, mainly because it had not negotiated seriously with the affected countries [8]. This result is instructive. The complainants did not obtain a ruling that such measures were impermissible in principle, yet they secured an important procedural guarantee: a state imposing a restriction must take into account the conditions prevailing in exporting countries. In the dispute concerning retreaded tyres, Brazil, itself a developing country, successfully argued that its import ban was necessary to protect human health, and the Appellate Body confirmed that a measure contributing materially to a vital objective could be justified even where its trade effects were significant [9].

The seal products case went further and accepted that animal welfare, as an expression of public morality, could justify a ban, while again criticising the

discriminatory design of the exceptions available to particular communities [10]. In the author's view, these decisions reveal two distinct patterns. When a developing country acts as the regulating state, as Brazil did, the flexible reading of Article XX works in its favour and protects its policy space. When developing countries act as exporters, they meet the same flexibility as a source of uncertainty, because the content of public morals is defined by the importing state. The asymmetry is therefore not built into the text of the GATT but arises from differences in market power. A large importing market can attach conditions that a smaller exporting economy has little choice but to accept.

It must also be acknowledged that the Appellate Body has not openly applied international human rights treaties as such. It has used the language of necessity, good faith and non-discrimination rather than the language of rights. This caution can be defended on jurisdictional grounds, as Marceau suggests [5], but it leaves exporting states without a clear standard by which to measure the legitimacy of restrictions directed at them. For Uzbekistan, the lesson is twofold. Its domestic reforms in areas such as labour rights strengthen its position against possible restrictions, and its future negotiating strategy should insist on cooperation and transparency, the very elements the Appellate Body has treated as decisive.

Conclusion

The study confirms that WTO law does not oppose the protection of human rights, but it accommodates such protection indirectly, through the general exceptions and through the requirement that measures be applied without arbitrary discrimination. This framework has allowed developing countries to defend legitimate health and social policies, yet it has also exposed them to unilateral standards formulated elsewhere. A balanced approach would combine respect for the regulatory autonomy of every member with a clear obligation of prior consultation and an honest assessment of the capacity of exporting states to comply. Such an interpretation would make the trading system more legitimate in the eyes of developing countries, including Uzbekistan, which is preparing to become a full participant in that system.

References

1. Petersmann E.-U. Human Rights and International Economic Law in the 21st Century: The Need to Clarify Their Interrelationships // Journal of International Economic Law. 2001. Vol. 4, No. 1. P. 3-39.

2. Howse R. Human Rights in the WTO: Whose Rights, What Humanity? Comment on Petersmann // European Journal of International Law. 2002. Vol. 13, No. 3. P. 651-659.

3. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 2023-yil 30-aprel // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/6445145

4. Charnovitz S. The Moral Exception in Trade Policy // Virginia Journal of International Law. 1998. Vol. 38, No. 4. P. 689-745.

5. Marceau G. WTO Dispute Settlement and Human Rights // European Journal of International Law. 2002. Vol. 13, No. 4. P. 753-814.

6. Шумилов В.М. Международное экономическое право: учебник. М.: Юрайт, 2014. 527 с.

7. Саидов А.Х. Сравнительное правоведение (основные правовые системы современности): учебник. М.: Юристъ, 2006. 446 с.

8. WTO. United States: Import Prohibition of Certain Shrimp and Shrimp Products. Report of the Appellate Body. WT/DS58/AB/R. 12 October 1998.

9. WTO. Brazil: Measures Affecting Imports of Retreaded Tyres. Report of the Appellate Body. WT/DS332/AB/R. 3 December 2007.

10. WTO. European Communities: Measures Prohibiting the Importation and Marketing of Seal Products. Reports of the Appellate Body. WT/DS400/AB/R, WT/DS401/AB/R. 22 May 2014.

“ТИНИҚ ОНГ ВА ХУШЁРЛИК СТРАТЕГИЯСИ”: НАРКОТИКЛАРГА ҚАРШИ КУРАШИШДА ВЕНГРИЯ МОДЕЛИ

Кутбитдинов Ғиёсиддин Хуснидинович
Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Наркотиклар ва ўқотар қуролларни назорат қилиш агентлиги
giyosiddinqutbiddinov1990@gmail.com

Аннотация: *Мазкур илмий тезисда Европа Иттифоқи маконида ўзининг муросасизлиги ва ўзига хос ҳуқуқий ёндашуви билан ажралиб турувчи Венгрия давлатининг антинаркотик сиёсати таҳлил қилинади. Тадқиқотда мамлакатнинг “Тиниқ онг ва хушёрлик стратегияси” концептуал асослари, Венгрия Жиноят кодексининг қатъий нормалари (хусусан, каннабис культивациясига оид суд амалиёти), янги психоактив моддаларни (NPS) тезкор чеклаш тизими ва полициявий профилактика модели институционал жиҳатдан ёритилган.*

Калит сўзлар: *Венгрия, Тиниқ онг ва хушёрлик стратегияси, тотал ноль чидамлилик (zero-tolerance), Жиноят кодекси, каннабис, янги психоактив моддалар, полициявий профилактика, наркотиклар, синтетик наркотиклар, назорат остидаги моддалар, наркосиёсат.*

Аннотация. *В данном научном тезисе анализируется антинаркотическая политика Венгрии — государства, отличающегося своей бескомпромиссной позицией и уникальным правовым подходом в пространстве Европейского союза. В исследовании институционально освещаются концептуальные основы национальной стратегии «Чистое сознание и трезвость», строгие нормы Уголовного кодекса Венгрии (в частности, судебная практика в отношении культивирования каннабиса), система оперативного ограничения новых психоактивных веществ (NPS) и модель полицейской профилактики.*

Ключевые слова: *Венгрия, стратегия «Чистое сознание и трезвость», тотальная нулевая толерантность (zero-tolerance), Уголовный кодекс, каннабис, новые психоактивные вещества, полицейская профилактика, наркотики, синтетические наркотики, контролируемые вещества, наркополитика.*

Abstract. *This scientific thesis analyzes the anti-drug policy of Hungary, a country distinguished within the European Union for its uncompromising stance and unique legal approach. The study institutionally highlights the conceptual foundations of the national strategy "Clear Consciousness and Sobriety," the strict norms of the Hungarian Criminal Code (specifically emphasizing judicial practice regarding cannabis cultivation), the expedited regulatory mechanism for restricting New Psychoactive Substances (NPS), and the framework of the police-led prevention model.*

Keywords: *Hungary, Clear Consciousness and Sobriety Strategy, total zero-tolerance, Criminal Code, cannabis, New Psychoactive Substances, police-led prevention, drugs, synthetic drugs, controlled substances, drug policy.*

КИРИШ

Глобаллашув ва рақамлашув шароитида трансмиллий наркотрафик ҳамда синтетик моддалар контрабандасига қарши курашиш ҳар бир суверен давлатдан миллий хавфсизликни таъминлашнинг самарали стратегиясини ишлаб чиқилишини тақозо этмоқда. Бугунги кунда Европа Иттифоқи (ЕИ) доирасида наркосиёсат соҳасида иккита мутлақо қарама-қарши йўналиш шаклланди. Биринчиси, Ғарбий Европанинг қатор давлатлари (Португалия, Швейцария ва Германия) томонидан илгари сурилаётган “либераллаштириш, декриминализация ва зарарни камайтириш” модели бўлса, иккинчиси – Марказий Европа ҳудудида шаклланган “тотал ноль чидамлилик” (zero-tolerance) моделидир.

АСОСИЙ ҚИСМ

Ушбу муросасиз ва жазоловчи ёндашувнинг энг тизимли ва қатъий намунаси **Венгрия** ҳисобланади. Бугунги кунда Венгриянинг антинаркотик сиёсати сўнгги 25 йил ичида либерал ёндашувдан ўта қатъий “тотал ноль чидамлилик” моделига ўтди. 2000 – 2009 йилларда мамлакатда нисбатан прогрессив сиёсат юритилган бўлса, 2013 йилдан бошлаб репрессив чоралар устуворлик касб эта бошлади.

2013 йилда қабул қилинган “**Тиниқ онг, ҳушёрлик ва наркожиноятчиликка қарши кураш**” миллий стратегияси [1] бешта асосий қадриятга асосланган. Булар: инсон қадри ва саломатлиги, шахсий масъулият, жамоавий ҳаракат, ҳамкорлик ва илмий асосланган далиллар. Ушбу ҳужжат учта асосий йўналишни белгилаб берди:

1) соғлиқни сақлаш ва профилактика яъни, ёшлар ўртасида соғлом турмуш тарзини тарғиб қилиш;

2) даволаш ва реабилитация яъни, гиёҳвандликка чалинган шахсларга тиббий-ижтимоий ёрдам кўрсатиш;

3) таклифни камайтириш яъни, ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари томонидан наркотрафикни жиловлаш.

Шу билан бирга, Венгрия наркотик истеъмолини криминаллаштирган ҳолда, кичик миқдорлар учун даволанишни (diversion) жазодан озод қилиш шарти сифатида сақлаб қолган эди. Аммо 2025 йилга келиб, ушбу тизим ҳам кескин ўзгарди.

Венгрия Жиноят кодексининг (Act C of 2012) XVII боби гиёҳвандлик билан боғлиқ жиноятларни батафсил таснифлайди [2]. Унда нафақат сотиш, балки эгалик қилиш ва истеъмол қилиш учун ҳам қатъий жазолар белгиланган.

Хусусан, 176-моддага кўра, наркотик моддаларни таклиф қилиш, етказиб бериш ёки тарқатиш 2 йилдан 8 йилгача озодликдан маҳрум қилиш билан жазоланади. Қуйидаги ҳолатларда жазо 5 йилдан 10 йилгача кучаяди:

– жиноий уюшма таркибида содир этилганда;

– давлат хизматчиси томонидан ўз хизмат мавқеидан фойдаланган ҳолда содир этилса;

– Қуролли Кучлар ёки ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари объектларида содир этилганда.

Агар жиноят ўта катта миқдордаги моддалар билан боғлиқ бўлса, жазо муддати 5 йилдан 20 йилгача ёки умрбод озодликдан маҳрум қилишгача бориши мумкин.

Венгрия ЕИда наркотиклар истеъмолини алоҳида жиноят сифатида қайта жорий этган кам сонли давлатлардан биридир (истеъмол учун 2 йилгача қамоқ). Жиноят кодексининг 178-моддасида наркотик моддаларни ишлаб чиқариш, олиш, сақлаш, олиб кириш ва олиб чиқиш учун жавобгарлик белгиланган.

Жазо модданинг миқдорига (quantity thresholds) боғлиқ бўлиб, Венгрия жиноят қонунчилигида учта тоифа миқдорлар мавжуд:

1) кичик миқдор (minor quantity) яъни, шахсий истеъмол учун деб топилган чегара. Бунда жазо 2 йилгача бўлиб, кўпинча даволаниш билан алмаштирилади;

2) базавий миқдор яъни, 1 йилдан 5 йилгача озодликдан маҳрум қилиш;

3) кўпмиқдор (substantial quantity) яъни, кичик миқдордан 20 баравар кўп, жазо 5 йилдан 15 йилгача озодликдан маҳрум қилиш;

4) жуда кўп миқдор, яъни кичик миқдордан 200 баравар кўп. Жазо 5 йилдан 20 йилгача ёки умрбод озодликдан маҳрум қилиш.

Венгрия қонунчилиги бўйича, ҳатто каннабиснинг 6 тупини етиштириш ҳам сотувчи сифатида жазоланишга сабаб бўлиши мумкин. Чунки экспертиза хулосасига кўра, 6 туп ривожланган ўсимлик таркибидаги соф тетрагидроканнабинол миқдори қонундаги 6 граммлик чегарадан автоматик равишда ошиб кетади ва қилмиш оғир жиноят тоифасига ўтиб, 5 йилдан 15 йилгача ёки умрбод қамоқ жазосини назарда тутади.

Вояга етмаган шахсга наркотик бериш ёки уни наркотрафикка жалб қилиш 5 йилдан 10 йилгача қамоқ билан жазоланади. Агар бундай ҳаракатлар таълим ёки болалар муассасалари яқинида содир этилса, жазо чоралари янада оғирлашади (177 ва 179-моддалар).

Венгрия “дизайнерлик наркотиклари” деб аталадиган янги психоактив моддаларга (NPS) қарши курашда Европанинг энг илғор механизмларидан бирига эга. 2012 йилдаги 66/2012-сонли Ҳукумат қарори [3] билан янги моддаларни тезкорлик билан назоратга олиш тизими яратилган.

Янги модда аниқланганда, Миллий наркотик фокал нуқтаси (National Drug Focal Point) экспертлар гуруҳини йиғади. Агар модданинг хавфлилиги тасдиқланса, у “C-Schedule” (вақтинчалик рўйхат)га киритилади. Бу жараён бир неча ой эмас, балки бир неча ҳафта ичида амалга оширилади. Модда вақтинчалик рўйхатда бир йил туради (яна бир йилга узайтириш мумкин), шу вақт ичида унинг тиббий ва ижтимоий хавфи тўлиқ ўрганилади ва якуний “психотроп моддалар” рўйхатига киритилиши ҳақида қарор қабул қилинади.

2024 йил октябрда 78/2022-сонли Декретга [4] киритилган ўзгартиришлар билан 17 та янги модда (жумладан, metonitazepyne ва турли синтетик каннабиноидлар) зудлик билан тақиқланди. Бу моддалар ЕИнинг эрта огоҳлантириш тизими (EWS) орқали аниқланган бўлиб, уларнинг хавфи анъанавий наркотикларникидан кам эмаслиги қайд этилган.

Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, 2025 йилда Венгрия Ҳукумати наркосиёсатни янги босқичга олиб чиқди. Бош вазир Виктор Орбаннинг шахсий ташаббуси билан “Наркотикларга қарши уруш” эълон қилинди ва қонунчиликка радикал ўзгартиришлар киритилди [5].

2025 йил 15 апрелда Венгрия Конституциясига 15-ўзгартириш киритилди. Унга кўра, “Венгрияда гиёҳвандлик моддаларини ишлаб чиқариш, истеъмол қилиш, тарқатиш ва тарғиб қилиш тақиқланади” деган норма конституциявий даражада мустаҳкамланди [6]. Ушбу ўзгартиришнинг асосий мақсади – келажакда ҳар қандай либераллаштириш уринишларини (масалан, марихуанани қонунийлаштириш) конституциявий тўсиқ билан тўсишдир.

2025 йил 1 мартдан бошланган “**Дельта**” дастури [7] наркожиноятчиликка қарши курашда ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар учун “қудратли қурол” сифатида тақдим этилди. Дастурнинг асосий жиҳатлари қуйидагилар:

1) **объектларни ёпиш** яъни, полиция наркотик сотилган ёки истеъмол қилинган деб гумон қилинган ҳар қандай дўкон, ресторан ёки тунги клубни 3 ойгача суд қарорисиз ёпиш ҳуқуқига эга бўлди. Бир йил ичида такроран содир этилса, ёпилиш муддати бир йилгача узайтирилади;

2) **жамоат хавфсизлиги ҳибси** яъни, маст ҳолатда жамоат тартибини бузаётган шахслар 72 соатгача ҳибсда ушлаб турилади.

3) **активларни мусодара қилиш** яъни, наркосавдо билан боғлиқ ҳар қандай мулк (автомобиль, квартира ва бошқалар), ҳатто улар бошқа шахс номига расмийлаштирилган бўлса ҳам, мусодара қилинади;

4) **профилактик назорат** яъни, гумонланувчи шахслар полицияга доимий равишда ҳисобот бериб туриши ва ҳамкорлик қилиши мажбурий этиб белгиланди.

Дастур доирасида миллий полиция таркибида 150-210 кишидан иборат элита “Наркотикларга қарши кураш бошқармаси” ва махсус вазифаларни бажарувчи “Counter-Terrorism Police” бўлинмалари ташкил этилди.

2025 йил 15 июндан кучга кирган XIX-сонли қонунга кўра, кичик миқдор билан қўлга тушган шахс фақат бир шарт билан жазодан қутилиши мумкин. Яъни, у ўзига наркотик сотиб берган дилерни фош қилиши керак. Бундан ташқари, бундай имконият шахсга умри давомида фақат икки марта берилади; учинчи сафар у сўзсиз қамоқ жазосига тортилади [8].

Венгрия тажрибасида профилактика ишлари “**полициявий таълим**” моделига асосланган. Полиция ходимлари нафақат жиноятчиларни тутади, балки мактабларда мунтазам дарслар ўтади.

DADA дастури (чекиш, алкогол, наркотиклар ва ОИТС сўзларининг венгерча бош ҳарфларидан олинган) 14 ёшгача бўлган мактаб ўқувчилари учун мўлжалланган [9]. Бу дастур болаларда стрессни бошқариш, низоларни ҳал қилиш ва салбий тенгдошлар босимига қарши туриш кўникмаларини шакллантиради.

ELLEN-SZER (Антидот) дастури 9-10-синф ўқувчилари (15-18 ёш) учун мўлжалланган бўлиб, унда очиқ мунозаралар, ролли ўйинлар ва криминалистик мисоллар орқали наркотикнинг ҳуқуқий ва тиббий оқибатлари тушунтирилади [10]. Дастурнинг ўзига хос жиҳати шундаки, дарсларни фуқаролик кийимидаги масъул полиция зобитлари ўтади, бу эса ёшлар ва ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ўртасида ишонч пайдо қилишга ёрдам беради.

2025 йилги **REDP дастури** [11] доирасида мактабларга 2 200 нафар полиция ходими ва юзлаб хавфсизлик ходимлари бириктирилди. Улар “дилерлар мактабларга суқилиб кираётгани” ҳақидаги хавотирлар сабабли доимий навбатчилик қилади.

ХУЛОСА

Венгрия давлатининг наркотикларга қарши кураш тажрибаси таҳлили Янги Ўзбекистон учун бир қанча муҳим концептуал хулосаларни тақдим этади.

Биринчидан, NPS бўйича тезкор баҳолаш механизми. Венгриянинг 66/2012-сонли қарори каби, Ўзбекистонда ҳам янги пайдо бўлаётган синтетик моддаларни вақтинчалик (6-12 ой) тақиқлаш механизмини жорий этиш лозим. Бу ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларга қонунчиликдаги бўшлиқлардан фойдаланаётган “дизайнерлик наркотиклари”га қарши зудлик билан ҳаракат қилиш имконини беради.

Иккинчидан, профилактиканинг полициявий модели. DADA ва ELLEN-SZER дастурлари тажрибасидан келиб чиқиб, мактаб инспектор-психологлари фаолиятини фақат назорат билан эмас, балки тизимли ва интерактив таълим билан тўлдириш лозим. Бунда полиция ходими ёшлар учун қўрқув объекти эмас, балки маслаҳатчи ва ҳимоячи сифатида гавдаланиши керак.

Шу билан бирга, Венгриянинг қаттиқ жазо тизими билан бир қаторда, тиббий ва ижтимоий реабилитацияни ҳам эътибордан четда қолдирмаслик лозим. Зеро, жиноятчиликка қарши кураш фақат жазо билан эмас, балки аввало илм ва маърифат билан амалга оширилиши лозим. Венгрия тажрибаси шуни кўрсатадики, қатъийлик фақат кучли ижтимоий ҳимоя ва илмий асосланган профилактика билан биргаликда юқори натижа беради.

Фойдаланилган адабиётлар

1. European Crime Prevention Network (EUCPN). Hungary: Country report. – https://eucpn.org/sites/default/files/document/files/HU_1.pdf.

2. Government of Hungary. Criminal Code of Hungary. – https://thb.kormany.hu/download/a/46/11000/Btk_EN.pdf.

3. Government of Hungary. Government Decree No. 66/2012. – https://net.jogtar.hu/jogszabaly?docid=a1200066.kor.

4. Ministry of the Interior of Hungary. Decree No. 78/2022. – https://net.jogtar.hu/jogszabaly?docid=a2200078.bm.

5. International Drug Policy Consortium (IDPC). Orbán’s New War on Drugs. – 2025. – https://idpc.net/news/2025/03/orban-s-new-war-on-drugs.

6. Kureansiklopedi. Hungary's 15th Constitutional Amendment (2025). – https://kureansiklopedi.com/en/detay/hungarys-15th-constitutional-amendment-2025-01215.

7. Hungarian Conservative. Hungary Anti-Drug Task Force Success. – https://www.hungarianconservative.com/articles/current/hungary-anti-drug-task-force-success/.

8. Cannigma. Cannabis Laws in Hungary. – https://cannigma.com/regulation/cannabis-laws-in-hungary/.

9. Hungarian Police. 30 éves a DADA program [DADA dasturiga 30 yil]. – https://www.police.hu/hu/hirek-es-informaciok/bunmegelozes/aktualis/30-eves-a-dada-program.

10. European Commission. Youth Wiki: Hungary — Mechanisms of Early Detection and Signposting of Young People Facing Health Risks. – https://national-policies.eacea.ec.europa.eu/youthwiki/chapters/hungary/76-mechanisms-of-early-detection-and-signposting-of-young-people-facing-health-risks.

11. European Commission. Youth Wiki: Hungary — Mechanisms of Early Detection and Signposting of Young People Facing Health Risks. – https://national-policies.eacea.ec.europa.eu/youthwiki/chapters/hungary/76-mechanisms-of-early-detection-and-signposting-of-young-people-facing-health-risks.

DADAXO‘JA SOTTIXO‘JAYEV DOIRA IJROCHILIK MAKTABINING O‘ZBEK MUSIQA MADANIYATIGA TA’SIRI

G‘ulomov Nizomiddin Latifjon o‘g‘li,
Respublika musiqa va san’at texnikumi o‘qituvchisi.

Annotatsiya. *Maqolada Dadaxo‘ja Sottixo‘jayevning doira ijrochilik maktabi, uning o‘zbek musiqa madaniyati rivojiga qo‘shgan hissasi yoritiladi. San’atkorning maqom ijrochiligidagi o‘ziga xos uslubi, ansambl jo‘rnavozligidagi mahorati hamda ustoz-shogird an’analariga asoslangan pedagogik faoliyati ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *Dadaxo‘ja Sottixo‘jayev, doira ijrochiligi, maqom, ijrochilik maktabi, ansambl, ustoz-shogird an’anasi.*

Аннотация. *В статье рассматривается исполнительская школа игры на дойре Дадаходжи Соттиходжаева и её вклад в развитие узбекской музыкальной культуры. Освещаются особенности исполнительского стиля музыканта в искусстве макома, его мастерство ансамблевого аккомпанемента и педагогическая деятельность, основанная на традиции «устоз-шогирд» (учитель — ученик).*

Ключевые слова: *Дадаходжа Соттиходжаев, исполнительство на дойре, маком, исполнительская школа, ансамбль, традиция «учитель — ученик».*

Abstract. *The article examines the doira performance school of Dadakhoja Sottikhojayev and its contribution to the development of Uzbek musical culture. It discusses his distinctive performance style in maqom music, his mastery of ensemble accompaniment, and his pedagogical activities based on the master–apprentice tradition.*

Keywords: *Dadakhoja Sottikhojayev, doira performance, maqom, performance school, ensemble, master–apprentice tradition.*

Dadaxo‘ja Sottixo‘jayevning doira ijrochilik maktabi o‘zbek musiqa madaniyati taraqqiyotida alohida o‘rin tutadigan ijodiy va pedagogik maktablardan biri hisoblanadi. U yaratgan ijrochilik an’analari nafaqat doira san’atining rivojlanishiga, balki o‘zbek mumtoz va an’anaviy musiqa ijrochiligining takomillashuviga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. San’atkorning ko‘p yillik ijodiy faoliyati va ustozlik tajribasi natijasida shakllangan mazkur maktab bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Dadaxo‘ja Sottixo‘jayev o‘z davrining yetuk doira ustalaridan biri sifatida milliy ijrochilik san’atida o‘ziga xos uslub va metodikani shakllantirdi. U doira cholg‘usining texnik hamda badiiy imkoniyatlarini chuqur o‘rganib, maqom va an’anaviy musiqa namunalarini ijro etishda usullarning aniqligi, ritmik barqarorlik va badiiy ifodadorlikka alohida e’tibor qaratdi. Natijada uning ijrochilik uslubi doira san’atining professional darajada rivojlanishiga xizmat qilgan muhim omillardan biriga aylandi.

Ustoz san’atkorning pedagogik faoliyati ham alohida e’tiborga loyiqdir. U yosh ijrochilarni tarbiyalash jarayonida ustoz-shogird an’analariga tayangan holda, doira usullarini amaliy va nazariy jihatdan mukammal o‘rgatishga intildi. Dadaxo‘ja Sottixo‘jayev tomonidan shakllantirilgan ta’lim tamoyillari va ijrochilik mezonlari ko‘plab shogirdlar faoliyatida davom ettirilib, bugungi kunda ham doira ijrochiligi rivojiga xizmat qilmoqda.

Shu tariqa, Dadaxo‘ja Sottixo‘jayevning doira ijrochilik maktabi o‘zbek milliy musiqa san’atining muhim tarkibiy qismi sifatida e’tirof etilib, an’anaviy ijrochilik tajribalarini saqlash, rivojlantirish va kelajak avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Uning ijodiy va pedagogik merosi zamonaviy doira ijrochiligi taraqqiyotining mustahkam poydevorlaridan biri hisoblanadi.

D.Sottixo‘jayevning doira ijrochilik maktabi O‘zbekiston musiqa madaniyatiga turli yo‘llar bilan ta’sir ko‘rsatdi:

1. **An’anaviy musiqaning saqlanishi va rivojlanishi**: D.Sottixo‘jayev o‘z uslubi bilan an'anaviy o‘zbek musiqasining ko‘plab elementlarini yangicha tarzda namoyon etdi. Uning maktabi doirasida ijro etiladigan musiqalar an’anaviy o‘zbek maqomlari va ritmlari bilan uyg‘unlashgan, bu esa musiqaning madaniy merosini saqlashga yordam berdi.
2. **Doira ijrochiligini yangicha uslubda namoyon etish**: D.Sottixo‘jayev nafaqat doira ijrochiligini an’anaviy shaklda saqlab qolgan, balki uni zamonaviy ehtiyojlarga moslashtirishda ham muvaffaqiyat qozongan. Uning o‘rgatgan texnikalari va yondashuvlari doira ijrochiligiga yangi, yanada boy va dinamik ifoda shakllarini kiritdi.
3. **Pedagogik ta’sir**: Sottixo‘jayevning ijrochilik-pedagogik uslublari nafaqat unga o‘rgangan ijrochilarga balki kengroq darajada ham katta ta’sir ko‘rsatdi. Uning “Ustoz-shogird” maktabida doira cholg’usini o‘rgatishda muvaffaqiyatli bo‘lib, bu o‘zbek musiqa madaniyatining jahon miqyosida tanilishi uchun zamin yaratdi.
4. **Ijrochilarning texnik ustaligi**: D.Sottixo‘jayevning doira ijrochilik maktabi ijrochilarning texnik jihatdan yanada mukammal bo‘lishiga yordam berdi.

Dadaxo‘ja Sottixo‘jayevning doira ijrochilik maktabi o‘zbek milliy musiqa madaniyati taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shgan ijodiy maktablardan biri hisoblanadi. Ustoz san’atkorning yuksak ijrochilik mahorati va samarali pedagogik faoliyati natijasida doira cholg‘usining badiiy hamda texnik imkoniyatlari yanada kengaydi. Ayniqsa, maqom va an’anaviy musiqa namunalarini ijro etishda usullarning aniqligi, ritmik mukammallik va badiiy ifodadorlikka asoslangan ijrochilik tamoyillari shakllanib, keyingi avlod sozandalari uchun muhim tajriba maktabiga aylandi.

Dadaxo‘ja Sottixo‘jayev milliy ijrochilik an’analarini chuqur o‘zlashtirgan holda, ularni zamonaviy sahna talablari bilan uyg‘unlashtirishga muvaffaq bo‘ldi. Natijada doira ijrochiligi nafaqat jo‘rnavozlik san’ati, balki mustaqil badiiy ifoda vositasi sifatida ham rivojlandi. U yaratgan ijrochilik uslubi va ustoz-shogird an’analari asosida shakllangan maktab bugungi kunda ham o‘zbek musiqa san’atining rivojiga xizmat qilib kelmoqda.

Shuningdek, san’atkorning ijodiy merosi va pedagogik faoliyati milliy musiqa an’analarining saqlanishi, boyitilishi hamda yosh avlodga yetkazilishida muhim omil bo‘ldi. Uning izdoshlari tomonidan davom ettirilayotgan ijrochilik tamoyillari o‘zbek doira san’atining xalqaro miqyosda tanilishiga va milliy musiqa madaniyatining nufuzini yanada oshirishga munosib hissa qo‘shmoqda. Shu jihatdan Dadaxo‘ja Sottixo‘jayevning doira ijrochilik maktabi o‘zbek musiqiy merosining ajralmas qismi va uning taraqqiyotida muhim tarixiy bosqich sifatida baholanadi.

...Yana bir el nazariga tushgan, urush ko‘rgan san’atkor Dadaxo‘ja Sottixo‘jayev ham o‘sha og‘riqli, judolik zamonlarida frontga borib, oddiy askarlarni ruhini ko‘targan, qalbida ko‘z yoshlari ammo nigohida quvonch balqib, jon berib, jon olayotganlarning yuragida umid uchqunlarini paydo qilganlardan biri edi.

Urushda mardlik, jasorat ko‘rsatib jang qilayotgan partizan otryadi



boshliqlaridan biri “biz dushmanni qanday yo‘q qilishni bilamiz, o‘rganib ham

oldik. Bu ishni a'lo darajada amalga oshiramiz. Lekin xursandchilikni, kulguni unutib qo'ydik. Siz san'atkorlar ulug' ishni amalga oshirayapsizlar. Sizlar bizga umidni, quvonchni, kulgimizni qaytarib berdingizlar. Mayli biz bir, yarim soat xursand bo'laylik, ammo bu xursandchilikning kuchi bilan biz yuzlab, minglab dushmanni yo'q qila olamiz. Biz partizanlarga sizlarday samimiy, beg'ubor munosabatlar yetishmaydi", deya qalb so'zlarini san'atkorlarimiz bilan baham ko'rgan edi. Musiqa san'atimiz ulkan va juda ham an'analarga boyligi bilan millim g'ururimiz hisoblanadi. San'at — bu xalqimnzni ma'naviyat ko'zgusidir. San'atimizni qaysi bir sohasini olmaylik o'zini teranligi, jozibaliligi, sermazmunu sermahsulligi bilan o'zini namoyon etadi, qolaversa san'atimizning har bir sohasi, sodda qilib aytganda azaldan harakterli bo'lgan ikki yo'nalishda shakllanib rivojlangan. Ya'ni sodda yo'li — bu xalqona uslub bo'lsa, ikkinchisi har tomonlama ma'naviyatimiz ko'zgusi hisoblangan va insoniyatning kashfiyoti, ongining maxsuli bo'lgan murakkab yo'nalshidir. Inson tafakkuri mahsulotining bu yo'nalishi qanchalar puxtaligi uning yetti o'lchab bir kesilganligidadir. Musiqa san'atimizning gultoji bo'lgan maqomlar ham ana shunday an'anaviy mukammal asarlarning ummonidir. Azaldan bu ummon bilan ijodlarini bog'lagan namoyandalarning nomlari tarixga zarhal harflar bilan bitilgan, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Mulla To'ychi Hofiz Toshmuhamedov, Usta Olim Komilov, Yunus Rajabiy, To'xtasin Jalilov, Faxriddin Sodiqov kabi buyuk ustozlar shular jumlasidandir. Mumtoz musiqamizning sevib ardoqlanishi, uning avloddan - avlodga o'tishida ham bilimdon san'atkorlarning katta o'rni borligiga yana bir bor amin bo'lamiz. Mumtoz ijrochilik san'ati namoyandalarining betakror faoliyati milliy an'analarimizning jonli rivoji desak adashmagan bo'lamiz. Ana shunday jonli amaliyotniig zabardast doyrachi sozandalaridan, o'zbek musiqa san'ati rivojida munosib o'ringa ega bo'lgan G'ofir Azimov, To'ychi Inog'omov, G'ofir Inog'omov, G'ofir Solixov, Rahim Isaxo'jayev, Dadaxo'ja Sottixo'jayev, Akbar Yo'ldoshevlarni alohida tilga olish joizdir. Bular zamonamizning eng yetuk san'atkorlaridirlar. Doyraning dovrug'ini jaxonga taratgan ustozlardir.

Bundan tashqari ular o'zbek musiqasi rivojida eski avlodning oxirgi va yangi avlodning ilk namoyandalari sifatida juda qadrlidirlar. Ya'ni, doyrani «zili bom» sozida eski chalish uslubi va doyra pardasini yaxshigina qizdirib yangrok ovoz tarannumida ijro etish kabi zamonaviy uslublardir. Ularning orasida doyra ijrochiligining yakkanavozlik, ya'ni raqslarga jo'r bo'lish va yakka ijro etish uslubi bilan mumtoz musiqa maqom usulchilari kabi yo'nalishi mavjuddir. Biz ustozlarning orasida raqs usuli va yakkanavozlik ijrochiligida mohir bo'lgan ustoz doyrachilar orasida F.Azimov, T.Inog'omov, G'.Inog'omov, R.Isaxo'jayevlarnint

ijodlarini alohida qayd etishimiz lozim. Maqom ijrochiligida esa o‘ziga xoslikka erishgan san’atkor Dadaxo‘ja Sottixo‘jayevdir.

Dadaxo‘ja Sottixo‘jayev yoshligida yaxshi tarbiya olgan san’atkor. Lekin, uning ota-onasi qatag‘on yillarining qurboniga aylangan. Ota-onasidan erta ayrilgai yosh Dadaxo‘ja doyra ijroligi bilan ovunadi va shu yo‘lni tanlaydi. Sharoit taqozosi bilan u 30 - yillarda Andijon musiqali teatrida ishlay boshlaydi. Bu yerda u taniqli sozanda, surnaychi va qo‘shnaychi ustoz Ahmadjon Umurzoqovdan mumtoz musiqa sirlarini o‘zlashtirdi. Yusufjon Qiziq, Jo‘raxon Sultonov kabi zabardst san’atkorlar sabog‘idan bahramand bo‘ldi. Dadaxo‘ja akaning nihoyatda odamoxunligi, hozirjavobligi, zukkoligi va shinavandaligida ana shu ustozlarning ta’siri bo‘lsa ajab emas.

1939-yilda Dadaxo‘ja Sottixo‘jayev ko‘plab taniqli san’atkorlar qatori Yangiyo‘l musiqali drama teatriga faoliyat yuritish uchun taklif etiladi. Ushbu ijodiy maskan uning san’atkor sifatida shakllanishi va mahoratini yanada takomillashtirishida muhim bosqich bo‘ldi. Teatr jamoasida faoliyat olib borish jarayonida u o‘z davrining eng yetuk xonanda, sozanda va sahna ustalari bilan birgalikda ijod qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Dadaxo‘ja Sottixo‘jayev mazkur dargohda To‘xtasin Jalilov, Tamaraxonim, Kamtar Otaboyev, Lutfixonim Sarimsoqova, Ma’murjon Uzoqov va Saodat Qobulova kabi o‘zbek san’atining yorqin namoyandalari bilan hamkorlik qildi. Ushbu san’atkorlar bilan bir sahnada faoliyat olib bordi.

1957-yili o‘zbek davlat radiosi qoshida rashil etilgan ijodiy jamoasiga Yunus Rajabiy ishga taklif etadi va 1959 yili maqom ansamblini tashkil etganda Dadaxo‘ja aka ham doyrachi sozanda sifatida ishga olingan. Bu ansamblda qariyb chorak asr ishlab nafaqaga chiqqanlar. Maqom ansamblidagi faoliyati davrida Dadaxo‘ja aka eng mukammal doyrachi darajasida bo‘lgan. Shu yillar davomida “Shashmaqom” plastinkaga yozilgan. Ko‘pgina taniqli hofizlarni radioning oltin fondi uchun ashulalari cholg‘u ansambli yozuvlari amalga oshirilgan. Bu yozuvlarning barchasida Dadaxo‘ja Sottixo‘jayev doyrada jo‘r bo‘lgan. Ularni safdoshlaridan F. Sodiqov, S. Aminov, I. Katayev, **A.**Ubaydullayev, K. Ismoilova, B. Davidova, H. Yusupova kabi qator san’atkorlarning nomini mamnuniyat ila keltirish lozimdir.

Dadaxo‘ja Sottixo‘jayev o‘zbek doyra ijrochiligida yorqin uslubga ega bo‘lgan san’atkor. Ustoz Ahmadjon Umrzoqov bilan birgalikdagi faoliyatidan o‘zlashtirgan bu mumtoz usullar silsilasi biz uchun katta saboqdir. Ularning ijodida yakka va jo‘rnavozlik ijro o‘ziga xos namunasini topdi. Lekin, Dadaxo‘ja aka uchun maqom ijrochiligi eng muhim va asosiy yo‘nalish bo‘lgan.

Ustoz ansambl doyrachiligini hammasidan ustun qo‘yar edilar. Uning mushkilligini e’tirof etib — «doyrachilar ko‘p, ular orasida, ustalari ham mo‘l.

Lekin, ansamblga doyra chaladigan sozandalar juda kam. Bu ishni uddalay olish uchun ma’lum darajada bilim, saboqdan tashqari o‘zida ham qunt bo‘lishi kerak».

Doyrani shunchaki **quruq** chalish zavq bermasligi va yaxshi emasligini aytib doyrachini poyezdning paravoziga **o‘xshatar edilar.** Chunki, **musiqamizda usul** aniq **va ravon** ijro etilmas ekan, turli yo‘llarga yo‘rg‘alab ketish **hech gap emas….**

Dadaxo‘ja aka ish faoliyatlari davomida bir qator shogirdlarni tarbiyalaganlar. Ular namanganlik Tojiali Olimov, Sobir aka, Saidikrom akalardir. Ularning shogirdlari oz bo‘lsada maqom ijrochiligida yetakchidirlar.

Har bir musiqa cholg‘usining xalq orasida o‘rni bor. O‘zini jozibasi-yu zavqi bor. Doyra cholg‘usi o‘zbek xalqining milliy iftixori. Har qanday tebranmas,qalbning larzaga keltirishga qodir bo‘lgan sirli kuchi bor. Shu bois bo‘lsa kerak zabardast ustozlarimizning madaniyatimiz ravnaqidagi o‘rni behisobdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Исломов Д. Доира санъати дарғалари: монография. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2019.
2. Исломов Д. Мозийдан садо: монография. – Тошкент: Extremum Press, 2015.
3. Исломов Д. Махсус чолғу. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2016.
4. Исломов Д. Шарқ мусиқаси тарихидан: монография. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2017.
5. Исломов Д. Устозлардан доира сабоқлари. – Тошкент: Мусиқа, 2014.
6. Камолхўжаев О., Левиев А. Доира дарслиги. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985.

JOURNALS & BOOKS
ACADEMIC SCIENCE PUBLISHING

ARP
Academic research publisher

CONFERENCE PROCEEDINGS

October 9, 2026



Google Scholar | zenodo | OpenAIRE

academscience.com